

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

B.M.MAMATKULOV, X.E.RUSTAMOVA

**JAMOADA HAMSHIRALIK
ISHI**

Tibbiyot oliy o'quv yurtilarida taxsil olayotgan Oliy ma'lumotli hamshira fakulteti talabalari uchun darslik

TOSHKENT – 2016

UDK:
KBK

B.M.Mamatkulov., X.E.Rustamova. Jamoada hamshiralik ishi –T.: «Fan va texnologiya», 2016,228bet.

ISBN 978–9943–

Ushbu darslik Respublikamiz sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, aholi salomatligini yahshilash, aholi orasida kasalliklarni, o'limni kamaytirish, axolini sanitariya madaniyatini oshirish va aholi orasida sanitariya-statistik tadqiqot usullarini qo'llash orkali taxlil qilish va olingan natijalarni xayotga tadbiq etish xakida ma'lumotlar beradi. Shu o'rinda barcha belgilangan vazifalarni shifokorlar bilan birgalikda hamshiralalar ham bajarishini esdan chiqarmasligimiz lozim. Darslikni tayyorlashdan asosiy maksad bo'lg'usi hamshiralarga aholi salomatligini o'rganishda unga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi muxit, mexnat va turmush sharoitlari bilan bog'lagan xolda o'rgatishdir

Данный учебник освещает вопросы совершенствования системы здравоохранения в республике, улучшения здоровья населения, пути снижения заболеваний и смертности, повышения санитарной грамотности населения, применения санитарно-статистических методов для проведения социально-гигиенических исследований среди населения и их анализа. При этом мы должны помнить, что в выполнении поставленных перед здравоохранением задач наряду с врачами большой вклад вносят и медсестры. Основная цель данного учебника это научить будущих медсестер анализировать состояние здоровья населения с учетом условий жизни, труда и окружающей среды.

This manual provides information on the development of the health care system in our country, improving health, reducing disease and mortality among the population, and the application of its sanitary survey of statistical methods of research and improve health of the population and to demonstrate how the ethics of them in our lives. Also do not forget that doctors and nurses have to cope with the problems together. The main purpose of this manual to teach future nurses, research, health care, which struck him a direct or indirect impact on the environment, working and living conditions of the case.

Taqrizchilar:

Razikova I.S. – Toshkent tibbiyot akademiyasi, «Hamshiralik ishi» kafedrasи mudiri professor, t.f.d.

Muhamedxonova Sh.T. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani,t.f.n.

ISBN 978–9943–

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

So'z boshi

O'zbekistonda aholi salomatligini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. «Jamoada hamshiralik ishi» fani aholi salomatligini mustahkamlash, qariyalar salomatligini himoya qilish, atrof muhit omillarini inson salomatligiga ta'sirining muammolarini, bolalar va o'smirlar salomatligini, balog'atga etmagan qizlar va ayollar salomatligini muhofaza qilishni, katta yoshdagilar va qariyalar salomatligini himoya qilishni, jamoada aholining ruhiy holatlarini, favqulotda vaziyatlarni oldini olishni, yashash va ish joylarida inson salomatligini himoya qilishni hamda jamoadagi aholi o'rtasida tarqaladigan yuqumli va boshqa kasalliklarning oldini olishni o'rgatadi.

Respublikada xozirgi kunda sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari rivojlangan mamlakatlar darajasiga etkazish, tibbiy yordamni ommabop, sifatli va samaradorligini yanada yahshilash bo'yicha davr talablariga mos bo'lgan o'rta va oliv ma'lumotli hamshira mutaxasislarini tayyorlash va malakasini oshirish, ularni ish usullari va shakillarini takomillashtirishga katta etibor berilmokda. Aholi salomatligini muxofaza qilish va axoliga kursatilayotgan tibbiy xizmatlarni jahon andozalariga muvofiq tashkil etish sog'liqni saqlash tizimida faol ishlab kelayotgan oliv ma'lumotli hamshiralarning vazifalaridan biri xisoblanadi. Jamoada hamshiralik ishi fani ma'lum bir tarixiy davrlarni, uziga xos xususiyatlarni kamrab olgan xolda ijtimoiy shart-sharoit tashqi muxit omillarini inson salomatligiga ta'sirini o'rganish bilan birgalikda axolini salomatligini, uning turmush tarzini va shunga o'xshash ko'rsatkichlarini bir biri bilan bog'lab o'rganishda yordam beradi. Bu fan axolini salomatligi xolati, kasallanishi, insonlarning jismoniy rivojlanishi, demografik jarayonlar va ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni yoritib berish bilan birgalikda ilmiy asoslab beradi. «Jamoada hamshiralik ishi» fani hamshiralik ishiga oid barcha maxsus fanlar uchun umumlashtiruvchi fandir va u dasturi mazmunida boshqa maxsus fanlar bilan organik bog'liqlikdir. Mazkur fanda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar avval o'tilgan maxsus fanlarning tayanch bilimlariga asoslanadi. Shu jamoada hamshiralik ishini amalga oshirish va hamshiralik parvarishini to'liq anglab etishni kengaytirish va yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan muammoli masalalarni taxlil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Darslik oliv tibbiy muassasalarida taxesil olayotgan oliv ma'lumotli hamshira fakultet talabalari tomonidan davolash–profilaktik

muassasalarida bajariladigan vazifalari va faoliyatini o'rganish uchun asosiy adabiyotlar qatoriga kiradi.

Darslikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, davlat qonunlari, sogliqni saqlash soxasiga aloqador qarorlar va dasturlari, Sogliqni saqlash vazirligi buyruqlari va yoriqnomalari keng qullanilgan.

Qisqartirilgan so'zlar

AB – arterial bosim

BMT - Birlashgan Millatlar Tashkiloti

JSST - Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

FXDYo fuqorolar holatiga dalolatnoma yozish

DSENM davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markaziga

HKT Xalqaro kasalliklar tasnifi

VMEK Vrachlik mehnat ekspertizasi

QVP - qishloq vtachlik punkti

OP -oilaviy poliklinika

BTSYo - birlamchi tibbiy sanitariya yordami

UASh – umumiy amaliyat shifokori

FAP - feldsher-akusherlik punkti

VKK – vrachlik konsultativ komissiyasi

TTB - tuman tibbiyot birlashmasi

DPM – davolash profilaktik muassasasi

EKG - elektrokardiogramma

TMSH - tuman markaziy shifoxonasi

VKTTM - viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi

RIIATM - respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy - amaliy tibbiyot markazi

I bob: JAMOADA HAMSHIRALIK ISHI– FAN SIFATIDA O’QITILISH ASOSLARI

1.1. “Jamoada hamshiralik ishi” fanining qisqacha tarixi va uning rivojlanishi

Hamshiralik ishi degani bu — avvalom bor davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va geografik joylashuvi bilan bog'liq mavjud sog'liqni saqlash tizimi va uning rivojlanish darajasiga nisbatan funktsional majburiyatlari aniq belgilangan hamshiralarning, tibbiyot xodimlari va jamoaning hamshiralik ishiga munosabati va inson shaxsiy dunyoqarashining yig'indisidir. 1980- yillarda JSSTning ekspertlari «Hamshiralik ishi» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishgan: «Hamshiralik ishi — bu insonlar o'rtasidagi munosabatning amaliyotidir, tibbiy hamshira esa, har bir bemorni individual shaxs sifatida o'rganib, kasallik tufayli ularda yuzaga kelgan ehtiyojlarni aniqlay bilishi lozim».

1859- yilda ushbu yunalishning asoschisi Florens Naytingeyl o'zining mashhur «Bemorlar parvarishi to'g'risidagi yozuvlar» kitobida hamshiralalar ishiga quyidagicha ta'rif bergan: «Hamshiralik ishi — bemorni qurshab turgan muhitni, uning sog'ayishi yo'lida qollash uchun yo'naltirilgan harakatidir. Hamshiraning vazifasi bemorga shunday sharoit yaratib berishdan iboratki, bunda tabiat o'zining davolovchi qudratini namoyon qilsin».

Agar shifokor o'z amaliy faoliyatida, davolash ishi, barcha bilim va harakatlarini ma'lum bir bemorning aniq bir kasalligini davolashga qaratsa. Hamshiralarning etiborlari kasallikdan ko'ra ko'proq bemorga yoki odamlar guruhiga, jamoaga, oilaga qaratilgan bo'lib, aholi sog'lig'i bilan bogliq bo'lgan muammo va ehtiyojlarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi va shu bilan ularning faoliyati shifokorlar faoliyatidan ajralib turadi.

Jamoada hamshiralik ishi fanining rivojlanishiga Viktorian davridagi eng ma'lumotli va noyob shaxslardan biri, ko'zga ko'ringan ingliz hamshirasi F.Naytingeyl (1820-1910) katta hissa qo'shgan. Inson tabiat haqidagi o'zining chuqur va ko'p tomonlama bilimlarini u bemorlarni parvarishlash amaliyotlarida qo'llagan, uni hamshiralik ishiga aylantirgan hamda buni nazariy bilimlar va ilmiy prinsiplarga asoslangan kasb darajasigacha olib chiqa olgan.

Naytingeyl o'z g'oyalarini kasbiy tayyorgarlik va ilmiy uslublardan foydalanish, harbiy tibbiy shifoxonalarni tashkil qilish va tuzish sohalarida rivojlantirdi. Uning qarashlari va maslahatlari hamshiralarni kasbi haqidagi jamoatchilikning fikri va tasavvurini qat'iy o'zgartirgan holda, ko'p mamlakatlardagi tibbiyot hamshiralari orasida keng tarqalgan va tan olingan. O'z kuzatuvlarini Florens Naytingeyl 150 ta pamflest (broshura), 6 ta kitob va 13 mingdan ko'proq maktublarida yozib qoldirgan.

F.Naytingeylning asosiy merosi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan asari „Bemorlar parvarishi haqida qaydlar" kitobidir, u 1860-yilda nashr etilgan va shu vaqtgacha dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan.

Naytingeyl o'zining ushbu amaliy qo'llanmasida „Har bir ayol bolalar va kattalarni ularning sog'lik va bemorlik damlarida yanada yaxshiroq parvarish qilishni o'rganishi shart", deb yozadi. Naytingeyl ushbu asrni yozganda u o'quv quroli o'rmini egallashi to'grisida o'ylamagan, lekin shunga qaramasdan bu kitob asosida ko'plab yuqori malakali tibbiyot hamshiralari yetishib chiqdi va shakllandi.

„Qaydlar" kitobi butun Yevropa bo'ylab tezda tarqalib ketdi. Ushbu kitob chiqqan yilning o'zidayoq Italyancha tarjimasi bir vaqtning o'zida Turin, Milan va Florensiyada nashr qilingan.

Rus tiliga V.D.Volfson 1905-yilda ingliz tilidagi nashrdan tarjima qilgan va u „Bemorlarni qanday parvarish qilish kerak?" deb atalgan.

Bugungi kunda, zamonaviy ilm - fan nuqtayi nazaridan qaraganda F.Naytingeylning bundan qariyb bir yarim asr oldin yozilgan bu kitobi xuddi sodda asardek tuyuladi. Shunday bo'lsa-da uni o'qir ekansiz, muallifning iqtidori, kuzatuvchanligi, ziyrakligi va o'z ishiga fidoyiliginini ko'rib, hayratga tushasiz.

Xalqaro hamshiralarni kengashi tomonidan 1971-yildan boshlab, 12-may Florens Naytingeyl tugilgan kuni munosabati bilan uning xotirasi uchun „Hamshiralarni kuni" deb e'lon qilindi. Aynan Naytingeylning zamonida ham bir nechta pog'onani bosib o'tgan bu soha bugunga kelib ancha rivojlandi.

O'zbekistonlik xalqimiz, shu jumladan, „Qizil yarim oy" jamiyatining 17 mingta a'zosi urush yillari front orqasidagi yaradorlarga, 4 mingta hamshirasi va sandrujinachisi esa bevosita frontdagi jangchilarga yordam ko'rsatdilar. Ulardan ko'plari mardlik va qahramonliklari uchun orden hamda medallar bilan taqdirlandilar. O'zbek hamshiralari Rixsi Mo'minova, Salima Kubanova, Matluba Eshonxo'jayevalar Xalqaro „Qizil

Xoch"ning oliy mukofoti „Florens Naytingeyl" medaliga sazovor bo'lganliklari buning yaqqol dalilidir. Urushdan keyingi davrda ana shu mukofot mehr - shafqat hamshirasi, Samarqandlik Antonina Pixteyevaga ham berilgan edi.

Amerikalik hamshira, o'qituvchi va tadqiqotchi Virdjiniya Xenderson 1958 yilda Halqaro hamshiralari kengashi iltimosiga ko'ra "Bemorni parvarish qilish asoslari" to'grisida kitob yozgan. Ushbu kitob 25 tilga tarjima qilingan, unda muallif hamshiralik ishi tushunchasiga o'z ta'rifini berib o'tgan. Virdjiniya Xenderson hamshiraning asosiy vazifasi kasal yoki sog'lom shahsga o'z sog'ligini saqlab qolishga bor kuchini, bilimini va irodasini ishga solgan holda yordam berishdan iboratdir deb takidlagan. Ushbu hamshiralik ishi asoschilarini tomonidan hamsiralik ishiga bergen ta'rifi hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yoqotmagan.

Respublikamizning mustaqilligidan keyin Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ushbu sohaga katta e'tibor qaratilganligini tibbiyot oliygohlarida „Oliy ma'lumotli hamshira" fakulteti ochilishi misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad hamshiralik ishini yanada chuqurroq takomillashtirish va tibbiyot sohasida oliy darajadagi bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni yetkazib berishdan iboratdir.

2007-yil 19 sentabrdagi davlatimiz rahbarining „Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish vaunu rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'naliishlari to'g'risida"gi farmoni va sog'liqni saqlash tizimidagi barcha islohotlar tibbiyot sohasining yanada rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi, bu hamshiralari uchun katta imkoniyat demakdir.

Mustaqillikka erishgandan keyin respublikamizda tibbiyot sohasida hamshiralik ishiga e'tibor kuchaytirilib borilmoqda, ularning chet davlatlarda o'tkazilayotgan anjumanlarda ishtirok etishi va malakalarini oshirishi, tibbiyot institutlarida oliy ma'lumotli hamshiralik ishi bo'limlarining ochilishi, Respublikada O'rta tibbiyot va dorishunos xodimlar assotsiatsiyasining tashkil etilishi, tibbiyot amaliyotini keng ko'lama yo'lga qo'yilishi tibbiy ta'lim tizimini isloh qilishni taqozo etadi. Respublikada hamshiralik ishini rivojlantirish, O'rta tibbiyot xodimlarining nazariy va amaliy bilim, g'oyaviy va umum madaniy darajasini ko'tarishga ko'maklashish, ularning amaliy ishlarni tashkil etishining sifat darajasini oshirish maqsadida O'rta tibbiyot xodimlaridan iborat hamshiralari maslahat kengashi tuzilgan.

Muslaqil hamkorlik davlatlari hamshiralaringin „Sog’liqni saqlash tizimining islohoti, birinchi tibbiy sanitariya yordamini ko’rsatish va hamshiralik ishi” bo’yicha IV yig’ilishining O’zbekistonda o’tkazilishi, bu sohada erishilgan yutuqlardan biridir. Jahon sog’liqni saqlash tizimida Jamoada hamshiralik ishi alohida o’ringa ega.

1999-yil may oyida O’zbekiston O’rta tibbiyat va dorishunos xodimlari assotsiatsiyasiga 50 mingga yaqin O’rta tibbiyat xodimlari a’zo bo’lib, uyushma viloyatlarda o’zining bo’limlarini ochdi. U yil davomida 10 dan ziyod seminarlar o’tkazib, hisobot bulutenlari va amaliy qo’llanmalar joriy etdi. Qisqa vaqt ichida assotsiatsiya xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o’rnatib, xalqaro hamshiralalar kengashiga a’zo bo’ldi. 1999-yil Londonda o’tkazilgan xalqaro hamshiralalar kengashining 100 yilligiga bag’ishlangan seminar-kengashda O’zbekistondan ham vakillar ishtirok etdi.

Hamshiralik ishini jahon andozalari darajasiga ko’tarish maqsadida tezis dasturi orqali Isroi davlati hamshiralaringin ish tajribalari, o’quv jarayonlarini o’rganish uchun joriy yilning noyabr oyida Respublika kurslari tashkil etildi. Hamshiralik ishini sifat jihatidan yaxshilash, ko’p mutaxassislikka ega bo’lgan hamshiralalar safini kengaytirish maqsadida O’rta Osiyo davlatlarining muvofiqlashtiruvchi kengashi tuzildi. O’zbekistondan 7 nafar tajribali hamshira kengashga a’zo bo’lib kirdi. U 2001-yilda O’zbekistonda yig’ilib o’z ish faoliyatini respublikamizda davom ettirdi.

Jamoada hamshiralik ishi bo’yicha o’tkazilgan anjumanlarda hamshiralik assotsiatsiyasi a’zolari Amerika, Angliya va Yaponiya davlatlarida ishtirok etib, ularning ish faoliyati bilan tanishib qaytdilar. Va ortirb kelgan tajribalari, ko’rgan bilganlari bo’yicha viloyatlardagi bosh mutaxassislarni chaqirib bir necha marta o’quv seminarlari o’tkazdilar.

1999-yilning sentabr oyida Bishkekda bo’lib o’tdgan O’rta tibbiyat xodimlarining seminarida Qozog’iston, Tojikiston, Qirg’iziston va O’zbekistonning Jamoada hamshiralik ishi bo’yicha vakillari ishtirok etishdi. Ushbu anjumanning asosiy maqsadi hamshiralik ishidagi, birinchi tibbiy sanitariya yordamidagi islohotlar, oliy ma'lumotli hamshiralalar tayyorlash, hamshiralalar mavqeyini ko’tarish uchun hamshiralik ishlari bo’yicha muovinlik vazifalarini kiritish, O’rta tibbiy va dorishunos xodimlar assotsiatsiyasining faoliyatini kuchaytirish, malakali hamshiralalar tayyorlashga e’tiborni jalb qilish oilaviy hamshiralalar foliyatini yo’lga

qo'yishga qaratildi. Seminarda O'rta tibbiyot xodimlari faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha dekloratsiya qabul qilindi.

Olmata shahrida esa 2-4 fevral 2000-yilda Jamoada hamshiralik ishi bo'yicha O'rta Osiyo mamlakatlarini muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Ushbu kengashda O'rta Osiyo davlatlari hamshiralari O'rtasida o'zaro tajriba almashish, hamshiralik xizmatida tashkilotchilik ishlarini yo'lga qo'yish, fan yangiliklarini keng joriy qilish, Jamoada hamshiralik ishi bo'yicha muallimlar tayyorlash, hamshiralaming milliy jamoatchilik birlashmalari assotsiatsiyalari O'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish eng asosiy vazifa ekanligi alohida ukdirilib, shu vazifalar yuzasidan muhim qarorlar qabul qilindi.

2001-yil fevral oyida Toshkentda o'tkazilgan anjumanda „Oila hamshirasi"ni tayyorlash -masalasi ko'rildi. 2002-yil 23-26 aprel kunlari Olmata shahrida „O'rta Osiyo respublikalarida birlamchi tibbiy sanitariya yordami hamshirasi" mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda Jamoada hamshiralik ishi bo'yicha O'rta Osiyo mamlakatlarini muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari, xalqaro ekspertlar va Jamoada hamshiralik ishi bo'yicha amerikalik mutaxassislar, O'rta Osiyo tibbiyot kollejlari direktorlari, tibbiyot bilim yurti va sog'liqni saqlash xodimlari ishtirok etdilar. Bunda eng asosiy masala sifatida O'rta Osiyo respublikalarida oila hamshiralarini tayyorlash ishlari o'rganib chiqildi. Shu maqsadda, O'rta Osiyo Respublikalarida „Hamshiralik ishi" dasturi asosida „Oila hamshirasi" qo'llanmasini ishlab chiqish va oila hamshiralarini tayyorlovchi o'quv kurslarini tashkil qilish rejalashtirildi. Ushbu anjumanning asosiy vazifalari quyidagilar edi:

- O'rta Osiyoni oila hamshiralarini tayyorlovchi hududga aylantirish;
- mavjud masala yuzasidan tajriba almashish;
- mutaxassislar yordamida oila hamshirasini tayyorlash borasida zarur o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- oila hamshiralarini tayyorlash va hamshiralar malakasini oshirish uchun 10 oylik kurslarni tashkil qilish markazlarini ochish.

1.2. «Jamoada hamshiralik ishi» haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari

«Jamoada hamshiralik ishi» fani sog'liqni saqlash jarayonida hamshiralar o'rnini o'rganuvchi fandir. U asosan, aholi salomatligini mustahkamlash, qariyalar salomatligini himoya qilish, reproduktiv yoshdagi ayollar, bolalar va o'smirlar salomatligi, atrof muhitning

salomatlikka ta'siri, ish joyida insonlar salomatligini himoya qilish hamda aholi o'rtasida tarqalayotgan yuqumli va boshqa kasalliklarni bartaraf etish kabi quyidagi muammolarni o'rganadi.

1. Kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini ta'minlash.
2. Oilaviy poliklinikalar (OP), qishloq vtachlik punktlari (QVP) lar va boshqa muassasalarda ayollar, ayniqsa tug'ish qobiliyatiga ega bo'lgan ayollar, salomatligini muhofaza qilish, ayollarda uchraydigan ekstragenital kasalliklarning oldini olish.
3. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar sog'lig'ini himoya qilish va bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularda kasalliklarning oldini olish, profilaktik emlashlar, ular salomatligidagi muammolarda hamshiralik jarayonlari.
4. Kattalar va qariyalarning o'ziga xos ruhiy va jismoniy xususiyatlari, ular salomatligidagi muammolar va ularga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.
5. Ishlab chiqarish korxonalarida ishchilar uchun maxsus tibbiy xizmatni tashkillashtirish, kasbga aloqador kasalliklar va ularning oldini olish.
6. Aholining ruhiy salomatligini saqlash va himoya qilish.
7. Jamoada yuqumli kasalliklar klinikasi, tarqalish yo'llari va ularga qarshi kurashish chora - tadbirlarida hamshiraning vazifalari.
8. Favqulodda vaziyatlar kelib chiqishining omillari, manbalari, sabablari va ularda yordam ko'rsatish turlari, favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish.

II - bob. CHET DAVLATLARDA SOG‘LIQNI SAQLASH VA XALQARO XAMKORLIK ASOSLARI

2.1. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va strukturasi

JSST - bu yirik halqaro tibbiy tashkilot. Uning faoliyatining asosiy maqsadi - hamma xalqlar orasida yuqori darajadagi salomatlikka erishish. JSST ustavida birinchi marotaba halqaro darajada har bir insonning salomatlikka huquqi e’lon qilindi, xukumatning o‘z halqi salomatligiga javobgarlik prinsipi tasdiqlandi, hamda salomatlik halqaro havfsizlik, ilmni mustahkamlash salomatlik o’rtasidagi ajralmas bog‘liqlik borligi ta’kidlandi.

JSST ikkinchi jahon urushidan keyin, dunyo mamlakatlarining hayotida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berayotganda tashkil qilindi. Kuchlarning hammasi urushdan keyin buzilgan joylarni tiklash va halqni shoshilinch tibbiy yordam bilan taminlashga qaratilgan edi. Bu esa dunyoda yagona halqaro sog‘liqni saqlash markazini tashkil qilishni talab qildi. Shunga asosan 1946 yil Nyu-Yorkda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)da Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashlarning qarori bo‘yicha BMT qoshida halqaro sog‘liqni saqlash bo‘yicha konferensiyasi chaqirildi, unga 51 mamlakatdan vakillar, halqaro tashkilotlar vakillari, shu jumladan Jamoat gigienasi halqaro byurosi, Halqaro Qizil Xoch, Halqaro mehnat byurosi va boshqa delegatlar qatnashdi. Konferensiyada JSST ustavi ishlab chiqildi va u 1948 yil 7 aprelda kuchga kirdi. Bu kun har yili Halqaro salomatlik kuni sifatida nishonlandi.

JSST - bu BMTning o‘z tarkibi buyicha eng keng ixtisoslashgan muassasalaridan biri. JSST tasischi-mamlakatlar ichida, uning ustavini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan Sovet Ittifoqi edi, bu tashkilotga O‘zbekiston Respublikasi ham a’zo. Boshidan JSST haqiqatan ham butun dunyo tashkiloti kabi tashkil qilingan edi: u davlatlarning ijtimoiy rivojlanish darajasida ijtimoiy-siyosiy tuzilishidan qat’iy nazar, hamma davlat uning tarkibiga kirishi mumkin. JSST a’zolari bo‘lgan hamma davlatlar teng huquqga ega. Hozirgi kunda bu yirik va obro‘li halqaro tashkilotlardan biri, u dunyoning 200ga yaqin davlatlarini (191 to‘liq huquqli va 2ta assotsiatsiyalashgan a’zo) birlashtiradi. Tashkilot o‘zining rasmiy tili sifatida butun dunyoda keng taralgan olti tildan foydalanadi, shular ichida ingliz, fransuz, nemis, rus tillarida JSST

axborotnomalari, to‘plamlari chop etiladi va halqaro kengashlar shu tillarda o‘tkaziladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti vazifalari, Ustavga muvofiq, JSST Sog‘liqni Saqlash bo‘yicha halqaro faoliyatda boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida faoliyat olib boradi.

JSST halqaro standartlar, nomenklaturalar va kasalliklar klassifikatsiyasini ishlab chiqib, ularni tarqatadi.

Bundan tashqari, JSST tibbiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkillashtiradi, milliy sog‘liqni saqlashni mustahkamlashda xukumatlarga texnik yordam beradi. JSST sog‘liqni saqlashda halqaro konvensiya, bitimlar va qoidalarni qabul qilish va amalga oshirishda ko‘maklashadi.

JSST faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat;

- sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish;
- yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni oldini olish va ularga qarshi kurash;
- atrof – muhitni muhofazalash;
- ona va bola salomatligini muhofazalash;
- tibbiy kadrlarni tayyorlash;
- sanitari statistika;
- tibbiy – biologik tadqiqotlarni rivojlantirish.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti strukturasi. JSSTining yuqori organi bu halqaro Sog‘liqni Saqlash assambleyasi bo‘lib, JSSTga a’zo - mamlakatlar vakillaridan tashkil topgan. Har qaysi mamlakatdan 3tadan ko‘p bo‘lmagan vakillar tayinlangan, ularning bittasi delegatsiya boshlig‘i. Vakillar o‘z mamlakatining sog‘liqni saqlash idora xodimlari hisoblanadi. Ular sog‘liqni saqlash doirasida maxsus bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishlari kerak. Odatda vakillarni maslahatchilar, ekspertlar va texnik xodimlar kuzatib boradi.

Assambleya sessiyasi har yili bo‘ladi. Assambleyalar JSST faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi, ishlarning yillik va perspektiv rejalarini, byudjet, yangi a’zolarni qabul qilish va ovoz berish huquqidan maxrum qilish masalalarini qayta ko‘radi va tasdiqlaydi, JSST bosh direktorini tayinlaydi, boshqa tashkilotlar bilan xamkorlik masalalarini ko‘rib chiqadi, sanitari va karantin talablarni belgilab, zararsizlik, halqaro savdoga aloqador farmatsevtik va biologik mahsulotlar kuchi va tozaligi standartlar va qoidalarni ishlab chiqadi. Bundan tashqari JSST Assambleyasi sog‘liqni saqlash masalalari buyicha BMT havfsizlik

kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash va Bosh Assambleya tavsiyalarini ko‘rib chiqib, shu tavsiyalarni amalga oshirish maqsadida JSST qabul qilgan choralar haqida ularga dokladlar taqdim etiladi.

Assambleya sessiyasi oralig‘i JSST yuqori organi ijroiya qo‘mita hisoblanadi. Ijroiya qo‘mita 32 a’zo - davlatlar vakillaridan tashkil topgan, ular 3 yilda bir marotaba saylanadi. Har yili uning tarkibi 1\3 yangilanib turadi. Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Buyuk britaniya, Fransiya va Xitoy vakillari doimo qayta saylanadi, ammo 3 yilda 1 yillik tanafus bilan.

Ijroiya qo‘mita tashkilot byudjeti va dasturini, JSST faoliyati bilan bog‘liq ma’muriy va yuridik masalalarni ko‘rib chiqadi, qo‘mita, ekspertlar, tadqiqotchi guruh ma’ruzalari eshitiladi, Assambleya qarorlarini hayotga tadbiq etadi va uning uchun tavsiyalar tayyorlaydi. Ijroiya qo‘mita favqulotda holatlarda (epidemiya yuzaga kelganda, falokat yuz berganda va b.) keskin choralar qabul qilish huquqi berilgan.

JSST markaziy ma’muriy organi – bu Sekretariat, uni bosh direktor boshqaradi. Ijroiya qo‘mita taqdimoti buyicha, Assambleya tomonidan 5 yillik muddatga saylanadi. Sekretariat shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. Bosh direktor Assambleya va Ijroiya qo‘mita topshiriqlarini bajaradi, har yili Assambleyaga tashkilot ishlari haqida hisobotlar beradi, Sekretariyatdan tashkil topgan apparat faoliyatini boshqaradi, moliyaviy hisobot va byudjet smetalarini tayyorlaydi.

Bosh direktorning 6ta yordamchisi bor. JSSTning umumiyligi xodimlar soni 4 ming kishidan ortiq. JSSTning Sekretariat bo‘limlari 5ta guruhga birlashtirilgan: atrof muhit gigienasi bo‘limi va sanitar statistika bo‘limi, SS xizmatini mustahkamlash va oila salomatligini muhofazalash bo‘limi, SS kadrlar va dori vositalarini rivojlantirish, yuqumsiz kasalliklar bo‘limi, ma’muriy raxbarlik va xodimlar bo‘limi, byudjet va moliya bo‘limi. Mahalliy sharoitlarni yaxshiroq o‘rganish va har bir mamlakatning alohida shu mamlakat uchun SS masalalari buyicha ehtiyojlarini hisobga olib unga yordam berish uchun, JSSTda 6ta regional tashkilot tashkil qilindi. Har bir bunday tashkilot regional qumitaga ega, shu mamlakat geografik tumanga kiradigan JSSTga a’zo mamlakat vakillaridan tashkil topgan. Hozirgi vaqtida quyidagi regional tashkilotlar mavjud: Kopengagenda (Daniya) – evropa byurosi, Brazzavilada (Kongo) – afrika byurosi, Aleksandriyada (ARE) – Sharqiy – O’rtadengiz byurosi, Delida (Indiya) – Janubiy – Sharqiy Osiyo byurosi, Manilda (Filippin) – Tinch okeanning G‘arbiy qismi byurosi, Vashingtonda (AQSH) – Amerika byurosi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti byudjeti. JSSTning muntazam 520 mln.dollarga ega byudjeti, JSST a’zo – mamlakatlar vznoslaridan tashkil topgan. Oxirgi yillarda tashkilotning byudjetining yarmini Evropa regioniga a’zo – mamlakatlar vznoslari tashkil qilgan. AQSH esa byudjetga 15-17 % ulush qo‘sadi. Bu vznoslarning ko‘pchilik qismini rivojlanayotgan dunyoning asosini tashkil qiluvchi, regionlarga taqsimlanadi, faqat umumiy byudjetning taxminan 6%ini Evropa regional byurosiga, shu regionda chora – tadbirlar o‘tkazish uchun beriladi.

Bundan tashqari, JSST faoliyatini, 1960 yil tashkil qilingan, sog‘liqni mustahkamlash ixtiyoriy jamg‘armasi ham moliyalashtiradi. Bu jamg‘arma ixtiyoriy hayr - ehson va JSST a’zo – mamlakatlarning ixtiyoriy vznoslaridan yig‘iladi. Yildan yilga byudjetdan tashqari ajatiladigan pul mablag‘ oshib bormoqda va muntazam byudjet miqdoriga etmoqda.

Butun jaxon sogliqni saqlash tashkilotining boshqa halqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.

JSST quyidagi Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ga a’zo mamlakat muassasalari bilan hamkorlik qiladi:

- BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi, JSST bu kengash bilan doimo kerakli ma'lumotlar va hujjatlar almashib turadi; JSST BMTga o‘z faoliyati haqida ma’ruzalar jo‘natib turadi; BMT texnik yordamni kengaytirish buyicha JSSTga har yili pul mablag‘lar ajratadi;
- Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha tashkilot (FAO), uning vazifasiga qishloq joylarida sog‘liqni saqlash va ovqatlanish muammolarini hal qilish kiradi;
- Atom energiyasi bo‘yicha halqaro tashkilot (MAGATE) - tibbiyotda atom energiyasidan foydalanish va nurlanishdan himoyalanish masalalarini yechadi;
- Ta’lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkilot (YUNESKO) - ilmiy tadqiqot ishlarini, ilmiy ma'lumot, aholini gigienik tarbiyalash masalalarini yechadi;
- Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF) - onali va bolalakni himoyalash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish, bolalar ovqatlanishini yaxshilash bilan shug‘ullanadi, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash bo‘yicha masalalarni hal qiladi.

JSST ko‘pchilik (120ga yaqin) xukumatga qarashli bo‘lmagan halqaro tashkilotlar, shu jumladan, Qizil Koch jamiyati, halqaro reabilitatsiya jamiyati, Jahon tibbiyot assotsiatsiyasi, halqaro tibbiyot ilmiy

tashkilotlar kengashi, ko‘rlarga yordam ko’rsatish jahon federatsiyasi, SEV va b.q.

2.2. Sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish

Har xil davlatlarda sog‘liqni saqlash xizmati har xil tashkillashtirilgan, lekin asosiy maqsad pul va kadrlar resurslaridan foydalanib, aholi uchun maksimal darajada foyda olish. Shuning uchun regional byurolar epidemiologik tadqiqot orqali JSST a’zo – mamlakatlar tajribasini umumlashtirishga harakat qiladi. Bu tadqiqotlarning maqsadi - sog‘liqni saqlash xizmatini ilmiy asosda rejalashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bunga, misol sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarda birinchi navbatda qishloq joylarida JSST sxemasi asosan birlamchi tibbiy – sanitariya yordamini tibbiy muassasa tarmoqlarini tashkillashtirish misol bo‘la oladi.

Kasalliklarni oldini olish va ularga qarshi kurash. JSST faoliyati sog‘liqni saqlash xizmati tizimini tashkil qilish kerakki, u kasallikni davolash va profilaktikasiga barobar e’tibor qaratishni ko‘zda tutadi. Xususan, JSST tomonidan quyidagi dasturlar ishlab chiqilgan: bezgakka qarshi kurash dasturi; parazitar kasalliklarga qarshi kurash dasturi; yurak – qon – tomir kasalliklariga qarshi kurash dasturi. Bundan tashqari, JSST faoliyatida ruhiy va o’sma kasalliklar, dorilarga o‘rganib qolish, og‘iz bo‘shlig‘i himoyasi, revmatik kasalliklar, suyiqasd va b. katta e’tibor qaratiladi.

Atrof – muhitni himoyalash va yaxshilash. 1978 yil atrof – muhit gigienasini mustahkamlash buyicha JSST umumiyl dasturi ishlab chiqildi. Unda kommunal suv taminotiga va chiqindilar yo‘qotish, atrof – muhitni nazorat qilish va baholash, aholi yashash punklarida tibbiy – sanitariya holatini yaxshilash masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Ko‘pchilik industrial rivojlangan mamlakatlarda sanoat va qishloq xo‘jaligida suv va tuproq, havoni kimyoviy zaharlanish muammolari yuzaga kelmoqda. JSST xo‘jalik va sanoat shovqini, nurlanishdan himoyalash muammolariga ko‘proq e’tibor qaratmoqda.

Ona va bola salomatligini himoyalash. Har xil davlatlarda onalik va bolalikni himoyalash milliy xizmati turli xarakterliva to‘g‘ri darajada taraqqiy etgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tashkilotlari onalar va bolalar o‘limini kamaytirishga va xomiladorlar uchun xizmatlar tashkil etishga harakat qilmoqda. Rivojlangan

mamlakatlarda onalar va bolalar o‘limi juda past darajada, shuning uchun sog‘liqni saqlashning bu sohadagi yangi dasturlari onalar va bolalar holatini yaxshilashga mo‘ljallangan. JSST oilani rejalashtirish va tug‘ruqlar orasidagi vaqtini nazorat qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi, bu oila salomatligini saqlash xodimlarni ishlash uchun tayyorlashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda bolalarni immunizatsiyasining kengaytirilgan dasturlari, butun dunyo bolalarini qizamiq, ko‘kyo‘tal, qoqshol, qizilcha, poliomielit va sil kasalliklariga qarshi immunizatsiyani taminlash yo‘li bilan, shu kasalliklardan o‘lim va kasallanishni kamaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda har yili tug‘iladigan 80 mln. chaqaloqlardan faqat 10%i to‘liq immunizatsiya qilinadi.

Tibbiyot xodimlarini tayyorlash. JSST unga a’zo mamlakatlar bilan tibbiyot xodimlarini tayyorlash buyicha dasturlarini tahlil qilishda hamkorlik qiladi. JSST dasturlari, nafaqat vrachlarni, balki barcha tibbiyot xodimlarining ish faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Sog‘liqni saqlashda kadrlarni rivojlantirish bo‘yicha asosiy choralardan biri - bu stipendiya buyicha dasturlar. U bir mamlakatning tibbiyot xodimi kelajakdagi tayyorgarligini boshqa mamlakatda o‘tish imkoniyatini yaratish orqali, sog‘liqni saqlash milliy xizmatini mustahkamlashga mo‘ljallangan. Faqat Evropa regional byurosi har yili stipendiyaga 2500dan ortiq arizani ko‘rib chiqadi. Ularning ko‘pchiligi region sog‘liqni saqlash organlari tavsiya qilgan kandidatlardan keladi, yanada boshqa regionlardan kelgan arizalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Regional byuro ularning dunyoning universitet va boshqa o‘quv muassasalarida o‘qishga joylashtirishga javobgar. JSSTning stipendiya buyicha dasturi, ko‘pchilik mamlakatlarda shifokorlar, hamshiralar, injenerlar, tashkilotchilar va sog‘liqni saqlashning boshqa xodimlarini tayyorlashga yordam berdi. Qaror qabul qilishda til buyicha qiyinchiliklarni e’tiborga olish kerak. Masalan, epidemiologiya va tibbiy - sanitar statistika bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, hozirgi kunda ingliz, fransuz va rus tilida, Londonda, Bryussel va Bratislavda olib boriladi. Hamma mamlakatlarning sog‘liqni saqlashi har tomonlama tayyorlangan, shu jumladan, yuqori malakali hamshiralarga muhtoj. Hozirgi kunda bu hamma mamlakatlarda tan olingan bo‘lib, Jamoada hamshiralik ishi bo‘yicha tayyorlanish uchun universitet va boshqa darajadagi dasturlar tashkillashtirilgan. Bu dasturlar milliy sog‘liqni saqlash xizmatida

hamshiralalar unvonini oshirishga yo‘naltirilgan, yana hamshiralarni tayyorlash va hamshira xizmatini taminlashga bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Tibbiy - biologik tadqiqotlarni rivojlantirish

JSST ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e’tibor qaratadi. Lekin, JSSTning o‘z ilmiy-tadqiqot muassasasi yo‘qligi sababli, u ilmiy-tadqiqot muassasalariga ega mamlakatlar bilan shartnoma tuzish yo‘li bilan ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi, ularni pul mablag‘lari, jihozlar va kerakli materiallar bilan taminlab beradi. JSST ilmiy tadqiqotlar tashkillashtirish uchun ekspert-maslahati kengashlari, ekspertlar qumitasi va tadqiqot guruuhlarini yaratadi.

Ekspert - tadqiqot kengashi - bu mutaxassislar guruhi. Ularni JSST a’zo-mamlakatlari taklifi buyicha bosh direktor tayinlaydi va ijroiya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi. Hozirgi vaqtida 50ga yaqin bunday kengashlar mavjud: o‘sma, yurak qon-tomir kasalliklari, atmosfera havosining ifloslanishi, tishlar gigienasi, ovqatlanish, sanitar statistika, nurlanish va b. buyicha. Kengash tarkibidan qo‘mita ekspertlari va sog‘lijni saqlash va tibbiyot sohasiga kiruvchi, boshqa masalalar bo‘yicha tadqiqot guruuhlarini tashkil qilish mumkin.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha hamshiralalar aholiga tibbiy xizmatni ko`rsatish sifatini oshirishda asosiy resurslardan biri deb qarashmoqda. Oliy ma`lumotli hamshiralarga katta imkoniyatlar ochilgan, ya`ni ular nafaqat kasalxona va poliklinikalarda o‘z kasbi bilan shug`ullanishlari, balki Oliy, o`rta maxsus ta`lim muassasalarida dars berishi va o`zining yo`nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishlari mumkin. Hamshiralik ishini tubdan o`zgartirish, zamonaviy hamshiralik yordamini ko`rsatishda barcha soq‘lijni saqlash muassasalarida har xil toifadagi mijozlar bilan ishlovchi turli sohadagi tibbiyot hamshiralaringning ish faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniq tahlil qilmasdan turib amalga oshirib bo`lmaydi. Bu murakkab vazifani amalga oshirish uchun, hamshiralik ishini ijtimoiy va kasbiy statusini, kasbiy amaliyot asosini tashkil etuvchi ilmiy bilimlar bazasi yaratilishi shart. Bu hamshiralik ishi o`zining ilmiy – tekshirish bazasiga ega bo`lishi kerakligidan dalolat beradi. Hamshiralik ishida ilmiy tekshirishlar boshqa sohalardagi kabi, kasbiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida ilmiy asoslangan haqqoniy ma`lumotlarni olish usuli hisoblanadi. Aynan ilmiy tekshirishlar tibbiyot hamshiralaringning savodxonligi va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Har hil davlat tajribalarining ko`rsatishicha, hamshiralik tekshirishi tarixining

rivojlanish davomiyligi, o`rta tibbiyot ishchilari tomonidan o`tkazilgan sifatli ilmiy tekshirish va ulardan amaliy faoliyatida olingan natijalardan to`q`ri foydalanish zarurligi, turli darajadagi mutaxassislarining ilmiy tekshirishlarni olib borish va ulardan foydalanish to`q`risidagi bilimlar bazasiga ega bo`lishi katta ahamiyatga egadir.

JSST faoliyatida nashriyot muhim o`rinni tutadi. Asosiy, davriy va ilmiy nashriyot - “JSST Byulleteni” unda tibbiyot va sog‘liqni saqlashning dolzarb muammolari yoritiladi. “JSST Xronikasi” - JSST faoliyati haqida umumiy ma’lumotlarni chop etadi, “Dunyo salomatligi”, “Dunyo sanitariya statistikisining yillik ma’lumoti”, “Journal of Community Health Nursing” hamshiralik ishida dolzarb muammolarni yoritadi va x.

Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va hamshira.

JSST hozirgi kunda xamshiralik ishiga katta etibor bermoqda. JSST tomonidan hamshiralarning 4 vazifasi belgilangan:

1. Hamshiralik parvarish: bemorni parvarish kilish, profilaktik va reabilitaction tadbirlarlar utqazish, bemorni psihologik qo’llap-quvatlash. Hamshira vazifasiga bemor ehtiyojini tahlil kilish, bemorni parvarish kilish rejasini tuzish va uni hamshiralik ishi bo'yicha qabul qilingan standartlariga ko'ra amalga oshirish kiradi.
2. O'qitish vazifasi, yani inzon salomatligini yahshilashga qaratilgan bilim va ko'nigmalar darajasini tahlil qilish, kerakli ahborotlarni toplash, uni baholash, bilim va lo'nilmalar darajasini oshirishda oz hissasini qo'shish.
3. Tibbiyot brigadasida ishlash – vaziyatga ko'ra hamshira mustaqil yoki vrach tavsiyalarini bajaradi. Hamshira vazifasiga bemor, uning qarindoshlari, hamda kasbdoshlar bilan birgalikda bemorni parvarish qilish rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish kiradi.
4. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar natijasiga asoslangan holda hamshiralalar ishini takkomillashtirish.

Hamshiralik faoliyatining asosiy sharti bu kasbiy vakolatligidir. Hamshira doimo o'z faoliyatida kasbiy standartlarga rioya qilishi, o'z bilimini doimo oshirib borishi, bemorning ahloqiy va yuridik huquqlarini hurmat qilishi kerak. Asosiy shartlardan biri bu bemorning inson qadr-qimmatini hurmat qilish. Hamshira bemorning yoshi va jinsi, kasallik, irqiy yoki etnik kelib chiqishi, diniy yoki siyosiy fikri, ijtimoiy yoki moddiy holati yoki boshqa farqlardan qat'iy nazar har doim ularga vakolatli g'amxo'rlik ko'rsatishga tayyor bo'lishi kerak. Takabburliqga, beparvo yoki bemorning kamsituvchi muomalaga yoj qo'ilmasligi kerak.

Hamshiraning ma'naviy burchi - bemorni uning huquqlari haqida xabardor qilish. Bemorning huquqini hurmat qilgan holda uning salomatligi, havf xatarlar, kasallik tashxisi, tavsiya etilayotgan davolash usullarining prognozi haqida ma'lumot berishi mumkin. Lekin, bemor va uning oilasiga xabar berish vazifasi shifokor uchun tegishli ekanligini hisobga olib, hamshira faqat shifokor bilan kelishilgan holda ma'lumotni berish huquqiga ega.

Hamshira bemorning har qanday tibbiy aralashuvga rozi yoki uni rad etish huquqini hurmat qilishi kerak.

Hamshira faqat qonun bilan qat'iy muvofiq bemorni yoki muomalaga layoqatsiz bemorning (15 yoshgacha bo'lgan bola yoki aqli zayif shaxsning) qonuniy vakili roziligesiz tibbiy aralashuvni o'tqazishi mumkin.

Hamshira unga ishonib topshirilgan yoki professional vazifalarini bajarishda ma'lum bo'lgan bemorning shaxsiy hayot holati, kasallik tashxisi, davolash, proqnoz to'g'risidagi ma'lumotni bemor vafotidan keyin ham maxfiy tutish kerak.

Hamshira o'g'ir kasallika chalingan bemorlarga o'lim oldida insoniy va munosib muomala , inson hayotini oxirigacha eng yuqori jismoniy, hissiy va ruhiy farovonlikka erishish imkonini yaratish kerak. Shu bilan bir vaqtida hamshira palliativ yordam berish bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kerak.

Hamshira o'z kasb bilimini kengaytirish uchun ilmiy-tadqiqot fishlarda faol ishtirok etishga harakat qilish kerak. Tadqiqot ob'ekti sifatida inson olingan bo'lsa hamshira tibbiy etika bo'yicha xalqaro (Xelsinki Deklaratsiyasi va boshqalar) va Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qilishi shart. Bemor manfaati har doim jamiyat va ilm-fan manfaatidan ustun bo'lishi kerak.

Hamshira shifokor tomonidan berilgan tavsiya va muollajalarni tibbiy xizmatlar ro'yxatiga muvofiq aniq va professional ravijda o'tkazishi kerak.

III – bob: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

3.1. Aholi salomatligini ximoyalashning asosiy tamoyillari

Aholi salomatligini muhofaza qilishning turli qirralarini yoritishdan avval “salomatlikni muhofazalash” tushunchasiga to‘xtalib o‘tish lozim, chunki o‘tgan asrning 50-yillarigacha turli mamlakatlarda ushbu tushunchaga turlicha ta’rif berilgan. 1952 yil Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining jamoat sog‘lig‘ini saqlashni tashkillashtirish ekspertlari tomonidan aholi salomatligini muhofazalash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan.

“Salomatlikni muhofazash” – bu kasalliklarni oldini olish, umrni uzaytirish, aqliy va jismoniy salomatlikni ta’minalash va odamlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, jamiyatning tashkiliy faoliyatlarini kuchaytirish orqali atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, odamlarni shaxsiy gigiena qoidalariga o‘qitish, erta tashxislash va kasalliklar profilaktikasini amalga oshirish uchun tibbiyot va vrachlik yordamini tashkil etish, hamda har bir insonning turmush darajasini, salomatligini yaxshilash, qo’llab quvvatlash maqsadida ijtimoiy mexanizmlarni taraqqiy ettirish haqidagi san’at va fandir. Bunday farovonliklar ta’minlanganda har bir fuqaro uzoq umr ko‘rishga, sog‘lom hayot kechirishga bo‘lgan o‘zining ajralmas huquqini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda aholi salomatligini muhofazalash faqat sog‘liqni saqlash tashkilotlarininggina vazifasi emasligi hammamizga ma’lum. Bu umuman davlat, jamiyat ishi, ammo bu jarayonni boshqarishda sog‘liqni saqlash tizimi, muhim birlashtiruvchi, koordinatsiyalashtiruvchi rolni o‘ynaydi. Jamoat sog‘lig‘ini saqlash, aniq aholi guruhining ehtiyojlaridan kelib chiqib keng qamrovli sog‘liqni saqlash xizmatini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham aholi salomatligi holatidan kelib chiqqan holda, tegishli resurslarni aniqlash bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi. Demak, Jamoat sog‘lig‘ini saqlashning mohiyati aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolash, hamda jismoniy, ijtimoiy va kasbiy jonlashtirish maqsadida kadrlarni, tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan turli tibbiyot apparatlari, asboblarini aniqlashdan iborat.

JSST tashkilotining ta’rificha Sog‘liqni saqlash tizimi - bu uyda, ta’lim muassasalarida, ish joyida, jamoada, jismoniy va ruhiy ijtimoiy doiralarda, hamda sog‘liqni saqlash va u bilan bog‘liq muassasalarda amalga oshiriladigan, salomatlikni mustahkamlashga yordam beruvchi bir – biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan chora- tadbirlar yig‘indisidir.

Tibbiy yordam deganda – oliv va o’rta maxsus tibbiy bilimga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tug‘ruqda, kasallanish, shikastlanish va zaharlanishda amalga oshiriladigan davolash profilaktik chora tadbirlar yig‘indisi tushiniladi.

O’zbekistonda aholi salomatligini muhofazalash yillar davomida shakllangan kuchli sog‘liqni saqlash tizimi orqali amalga oshiriladi. O’zbekiston Respublikasining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonunida fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minalash; fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish belgilab berilgan.

Davlat va sog‘liqni saqlashnining boshqa tizimlarini “Jamoat sog‘lig‘ini saqlash” degan umumiy tushuncha birlashtiradi. Jamoat sog‘lig‘ini saqlash (public health as a system) – bu aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash, kasallanish va shikastlanishlarni profilaktikasi, mehnat faoliyati va O’rtacha umrni uzaytirishga qaratilgan, davlat, jamiyat, tibbiy va notibbiy tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan ilmiy va amaliy chora – tadbirlar yig‘indisidir.

3.2. Davlat sog‘liqni saqlash tizimi, qonuniy asoslari

Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga O’zbekiston respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qorakalpag‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari, ularni shahar va tuman bo‘linmalari kiradi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo‘lgan va davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqaruv oraganlariga bo‘ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, klinikalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda, ularni qayta tayyorgarlikdan o‘tkazadigan o‘quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiyot ekspertiza muassasalari, tibbiy dori-darmonlar va tibbiyot

texnikasi ishlab chiqaradigan korxonalar, asosiy faoliyati fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash bilan bog‘liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar kiradi.

Ilmiy-tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalar, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika va dorixona muassasalari davlat sog‘liqni saqlash tizimiga kiradi.

Davlat byudjeti hisobidan ta’minlanadigan davlat sog‘liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

Sog‘liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari jumlasiga xususiy tabobat amaliyoti yoki xususiy farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar, xususiy korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan mablag‘ bilan ta’minlanadigan davolash-profilaktika, dorixona muassalar hamda, tabobat va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

O’zbekistonda aholi salomatligini saqlash va yanada mustahkamlash davlatning muhim tibbiy – ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi va davlatning boshqa qonunchilik hujjatlarida o‘z aksini topgan. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aholi salomatligini saqlash, sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha alohida moddalar o‘rin olgan. Jumladan, "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlari" nomli ikkinchi bo‘limning 18-moddasida O’zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar, deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 39-moddasida esa "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega" ekanliklari, 40-moddada "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"ligi, 65-moddada – "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", deb belgilab qo‘yilgan. Aholi salomatligini saqlashning barcha qirralari 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi qonunida to‘lig‘icha o‘z aksini topgan.

Ushbu qonunni yaratilishida jahoning rivojlangan mamlakatlaridagi sog‘liqni saqlashga doir qonunlar, ulardagi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlanishi, aholiga ko‘rsatilaetgan tibbiy yordamning yunalishini e’tiborga olingan, Birlashgan millatlar tashkilotining «Inson huquqlari deklaratsiyasi», Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi halqaro shartnomalari va qonun hujjatlariga amal qilingan holda tuzilgan.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun katta siyosi, ijtimoiy, huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuridik hujjat hisoblanadi. U O’zbekistonda xozirgi davrdagi sog‘liqni saqlash holatini aks ettirgan holda, kelgusida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, isloh qilishning me’yoriy huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiqlashtirishlari, respublika vazirliklari va idoralari mazkur Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlari lozim.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashga doir huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash;
- fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

O’zbekiston Respublikasi «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonun VI-bob, 47-ta moddadан iborat. Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonunda davlat organlari vazirlik, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi vakolatlari, ularning vazifalari 4-5-6-moddalarda mukammal yoritilgan.

Ushbu qonunda O’zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishga, qayta qurishga alohida ahamiyat berilgan (7-8-10 moddalar). Qonunning 7-moddasida O’zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlaridan iborat yagona sog‘liqni saqlash tizimi amal qiladi deb yoziladi.

Shu munosabat bilan qonuning 11 -moddasida davlat sog‘liqni saqlash tizimiga kiruvchi tibbiyot muassasalari, xususiy sog‘liqni saqlash muassasalari, hamda sog‘liqni saqlash korxonalari,

muassasalari va tashkilotlariga, shuningdek, tabobat hamda farmatsevtika bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga litsenziyalar berish tartibi va shartlari aloxida qayd etilgan.

Qonunda fuqarolarning sog‘lig‘ini huquqiy jihatdan muhofaza qilishga keng o‘rin berilgan (13-28 moddalar). Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan ka’tiy nazar fuqarolarning sog‘lig‘i saqlanishini ta’minlaydi.

Qonunda oila sog‘lig‘ini saqlashga, tibbiy-ijtimoiy yordam olishga voyaga etmaganlarning, pensiya yoshidagi fuqarolarning, nogironlarning, favqulodda vaziyatlar tufayli jabr ko‘rgan fuqarolarning, bemorlarning huquqlari alohida moddalarda keng yoritilgan.

Fuqarolarga tibbiy - ijtimoiy yordam ko‘rsatish alohida bobni tashkil etib, u birlamchi tibbiy sanitariya-yordami (29-modda) shoshilinch va tez tibbiy yordam (30-modda) ixtisoslashgan tibbiy yordam (31-modda)dan tashkil topganligi alohida ta’kidlangan. Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish (32-modda), atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtiimoiy yordam ko‘rsatish (33-modda) kabi va boshqa moddalarni o‘z ichiga oladi. Fuqarolar kasal bo‘lib qolganda, mehnat layoqatini yuqotgan va boshqa xollarda profilaktik, tashxis qo‘yish-davolash, kuch-quvvatini tiklash, sanitariya-kurort, protez ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek, bemorlarni, mehnatga layoqatsiz davrida va nogironlarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lashni o‘z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega.

Qonunning IV - bobi tibbiy ekspertizaga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 36-moddasida fuqarolarning kasallik, shikastlanganlik, homiladorlik, tuqqanlik, oilaning betob a’zosini parvarishlanganlik, protez qo‘ydirganlik, sanatoriya - kurortda davolanganlik munosabati bilan va boshqa hollardagi mehnatga vaqtincha layoqatsizligini ekspertizalash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi deb yozib qo‘yilgan. Tibbiy ekspertiza mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertizalash bilan bir qatorda nogironlarning sababi va guruhini, harbiy - tibbiy ekspertiza, sud tibbiyoti va sud psixiatriya ekspertizalarini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi va ularni o‘tkazish qonun qoidalarini, yo‘l-yo‘riqlarini belgilaydi.

Qonunning V - bobida tibbiyot va farmatsevtika xodimlarning huquqlari, xususiy tibbiyot amaliyoti bilan shug‘ullanish huquqi, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, O’zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga oliv yoki O’rta maxsus tibbiyot o‘quv yurtini tamomlaganlik to‘g‘risida diplom olgan shaxslar, ro‘yxati O’zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan muayyan tibbiyot va farmatsevtika faoliyati turlari bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Demak, oliv yoki O’rta maxsus tibbiy ma’lumot to‘g‘risida diplom va tanlangan faoliyat turi bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olgan shaxslar xususiy tibbiyot amaliyoti shu jumladan, tabiblik (halq tabobati) bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini professional tibbiyot uyushmlari va mahalliy davlat hokimiylatlari organlari, shuningdek, ruxsatnama (litsenziya) bergan organ nazorat qilib boradi. G‘ayri qonuniy ravishda tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Yakunlovchi VI - bobda vrachlik etikasi va deontologiyasiga oid moddalar kiritilgan. Jumladan qonunning 44-moddasida «O’zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi», 45-moddada esa shifokor siri, 46-moddada fuqarolarning sog‘lig‘iga etkazilgan zararni qoplash, 47-moddada esa sog‘liqni saqlash sohasida fuqarolar huquq va erkinliklarini kamsituvchi davlat organlari hamda mansabdar shaxslarning hattixarakatlari ustidan fuqarolarning shikoyat qilish huquqlari bo‘yicha tartib qoidalar berilgan.

Shunday qilib, O’zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonuni - aholi salomatligini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish va ularni muvoffaqiyatli hal qilishning huquqiy bazasini yaratdi.

Sog‘liqni saqlashni boshqaruv organlarining asosiy vazifalari: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi vakolatlari:

- sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlari himoya qilinishi;
- fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash va tibbiyot fanini rivojlantirish dasturlari tasdiqlanishi va mablag‘ bilan ta’minlanishi;
- sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanini rivojlantirish dasturlari tasdiqlanishi va mablag‘ bilan ta’minlanishini;
- sog‘liqni saqlash davlat tizimini boshqarishni;

- sanitariya – epidemiologiya xotirjamligini ta'minlash ustidan nazoratni;
- favqulodda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va ularning sog'lig'ini muhofaza etish chora - tadbirlarining ko'rinishini, fuqarolarni favqulodda vaziyat zonasidagi ahvol va ko'rilibayotgan chora- tadbirlardan xabardor qilishni;
- fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida statistika hisobi va hisobotning yagona tizimi o'rnatilishini;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy sug'urtasining tayanch dasturlarini tasdiqlanishni;
- fuqarolarning ayrim guruhlariga tibbiy yordam ko'rsatishadi va ularni dori – darmon bilan ta'minlashda imtiyozlar belgilanishni;
- davlat boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishni va nazorat qilib turishni;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining vakolatlari:

- fuqarolar sog'lig'ini saqlashning, sog'liqni saqlashni hamda tibbiyot fanini rivojlantirish yo'lida moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanish ustun yo'nalishlarini belgilaydi;
- sog'liqni saqlash davlat boshqaruv organlari, tibbiy va ilmiy muassasalar, tibbiyot va farmatsevtika o'quv yurtlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturini ishlab chiqadi;
- sog'liqni saqlash muassasalari uchun tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatining davlat standartini va qiymatining normativini belgilaydi;
- sog'liqni saqlash tizimidagi davolash muassasalarining, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan xususiy tartibda shug'ullanuvchi shaxslarning aholiga o'z vaqtida malakali va sifatlari yordam ko'rsatishlarini nazorat qilib boradi;
- tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar beradi;
- dori - darmonlar va dezinfeksiya vositalari, immunobiologik preparatlar va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar, kuchli ta'sir etuvchi va zaharli moddalar, giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalarni sertifikatlashtirishni amalga oshiradi, ularning ishlab chiqarilishi hamda qo'llanish tartibini nazorat qilib boradi;

- sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi, davlat sanitariya – epidemiologiya nazoratini ta'minlaydi;
- profilaktik yordam yo'nalishlari va hajmlari, profilaktika maqsadlarida emlashlar o'tkazishning muddat va usullari to'g'risida qarorlar qabul qiladi, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi;
- boshqa davlatlar hududidan yuqumli va karantindagi kasalliklar olib kirilishining oldini olish ishlarini manfaatdor organlar bilan birgalikda tashkil etadi va nazorat qilib boradi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi o'z vakolatlari doirasida davolash – profilaktika, sanitariya, epidemiyaga qarshi, radiatsiya, ekologiya masalalari yuzasidan chiqaradigan normativ – huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi xududidagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoa birlashmalari hamda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vakolatlari:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlarini himoya qilish;
- fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini ta'minlash;
- sog'liqni saqlash tizimining boshqaruva organlarini shakllantirish, uning muassasalari tarmog'ini ta'minlash;
- sog'liqni saqlash tizimining boshqaruva organlarini shakllantirish, uning muassasalari tarmog'ini rivojlantirish;
- birlamchi tibbiy-sanitariya va tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish, ulardan hammaning bahramand bo'la olishini ta'minlash, tibbiy yordam sifatining klinik-statistik standartlariga rioya etilishini nazorat qilish, tasarrufidagi hududda fuqarolarni dori-darmonlar va tibbiyot mahsulotlari bilan ta'minlash;
- sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyaviy ta'minlashning o'z manbalarini shakllantirish;
- fuqarolarning sanitariya - epidemiologiyajihatidan xotirjamligini ta'minlash, profilaktika, sanitariya-gigiena, epidemiyaga qarshi va tabiatni muxofaza qilish tadbiralarini amalga oshirish;
- atrof muhitni muhofaza qilishva ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- favqulodda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va ularning sog'lig'ini muhofaza etish chora-tadbirlarini ko'rish, fuqarolarni favqulodda vaziyat zonasidagi ahvol va ko'rilib-yotgan chora - tadbirlardan xabardor qilish;

-sog'liqni saqlash tizimi organlari, muassasalari va korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish, sog'liqni saqlash muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy - ijtimoiy yordam sifatini nazorat qilib borish;

-nogironlar va tibbiy – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning kuch-quvvatini tiklaydigan muassasalar tashkil etish va ular faoliyatini ta'minlash;

-oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

-fuqarolarga sanitariya - gigiena va ekologiya ta'limi berishni tashkil etish;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

3.3 Sog'liqni saqlashni tashkil etishning asosiy prinsiplari.

O'zbekistonda fuqarolar sog'lig'ini saqlash, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Respublikamizning o'ziga xos sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy - geografik, demografik, kasallanish, sanitariya-epidemiologik jihatlarini e'tiborga olgan holda, olib borilmokda. O'zbekistonda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi.

1. Sog'liqni saqlash sohasida inson xuquqlariga rioya qilish.
2. Aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan baxramand bo'la olish.
3. Profilaktik chora tadbirlarning ustivorligi.
4. Fuqarolar sog'lig'ini ijtimoiy himoya qilish.
5. Tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya kilinishi prinsipi. Ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi" qonunning 13-moddasida o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, ushbu moddada - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida tegishli huquqlarga egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqish, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qa'tiy nazar -fuqarolarning sog'lig'ini saqlanishni ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan ka'tiy nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzgan, aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar deb belgilab qo'yilganligining o'zi O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi qonun orqali himoya qilinishini kafolatlaydi.

Aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan baxramand bo'la olish prinsipi. Aholi sog'lig'ini saqlash va uni yanada yaxshilash

xukumatimizning ijtimoiy sohadagi muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun esa

Respublikamizda ko‘plab shifo maskanlari faoliyat ko‘rsatmokda.

Respublika, viloyat, shahar, tuman markaziy shifoxonalari, tibbiyot sanitariya qismlari, tug‘ruqxonalar, poliklinikalar, dispanserlar, qishloq vrachlik punktlari, Respublika shoshilinch tibbiy yordam tez yordam ilmiy markazi va uning viloyat, Shahar, tuman filiallari, Oliy tibbiyot o‘quv yurtlari ularning klinikalari xalkimiz xizmatida. Aholining barcha qatlamlari, ayniqsa qishloq aholisiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatni yaxshilash, vrachlik xizmatini yanada yakinlashtirish. Bu esa o‘z navbatida qishloq aholisiga malakali vrachlik xizmatini yaqinlashtirish imkonini beradi. Ushbu qishloq vrachlik punktini tashkil etishda aholining demografik, kasallanish ko‘rsatkichlariga aloxida e’tibor berishmokda. Davlat, xokimiyat organlari, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish chora tadbirlarni amalga oshirmoqdi. Tibbiy sanitariya va tibbiy-ijtimoiy yordamdan hammaning baxramand bo‘lishini ta’minlashda mahalliy davlat hokimiyati organlari mas’ul hisoblanadi.

Profilaktik chora-tadbirlarning ustivorligi prinsipi. Oxirgi paytlarda ko‘pgina mamalakatlarning olimlari kasallikni davolash emas, aholi salomatligini mustahkamlash maqsadga muvofiq deb hisoblashmoqda. Bu konsepsiya tobora kuchayib bormoqda, chunki kasallikni davolashdan ko‘ra uni oldini olish arzonroq tushadi. Shuning uchun sog‘liqni saqlash xizmatini tashkilashtirish va loyixalashtirish sog‘liqni tiklash, salomatlikni saqlashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Sog‘liqni saqlash tizimining ravnaqi kasalliklarni davolash bilan emas, balki salomatlikni muxofazasi bilan bog‘liq deb hisoblanmoqda, natijada esa bu sog‘liqni saqlash tizimi organ va muassasalarining profilaktik faoliyati rolini oshishiga olib keladi. Shuni takidlab, o‘tish kerakki «Sog‘lomlarni salomatligini saqlash» konsepsiysi hayotiy xakikatga aylanishi zarur, bu esa o‘z navbatida sog‘liqni saqlash sistemasi resurslaridan unumli foydalanishga olib keladi.

“Kasalni davolashdan uni oldini olish afzal” degan maqol bor. Birinchidan bemorni kasalligini davolashga ketgan mablag‘, kasalikni oldini olishga sarflanadigan moddiy mablag‘dan ancha qimmat turadi. Ikkinchidan kasallangan bemorning ruhiy holati, yoki kasalini - surunkali formaga o‘tishi, ayrim hollarda nogironlikka olib kelishi, o‘lim bilan tugash hollari, aholi salomatligiga katta putur etkazadi O‘rtacha umrni qisqarishiga olib keladi, aholini mehnat faoliyatini kamaytiradi.

Ishlab chiqarish jarayonini bir müncha izdan chiqaradi. Yuqoridagilar halq xo‘jaligining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va moddiy zarar etkazadi.

Uchinchidan bemorning oilasiga moddiy va ma’naviy zarar etadi. Shuning uchun xam Respublikamizda aholi salomatligini saqlash, sog‘lijni saqlashni rivojlantirishda profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish ustivor yo‘nalishga ega. Sog‘lijni saqlash vazirligi hukumat organlari, hokimiyatlar, viloyatlar sog‘lijni saqlash boshqarmalari, bo‘limlari, Shahar, tuman sog‘lijni saqlash bo‘limlari, hamda ularning joylardagi organlari sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, mahalla qo‘mitalari, "Ekosan" "Sog‘lom avlod uchun xayriya jamg‘armalari» aholining sanitariya-epidemiologiya xotirjamligini ta‘minlash uchun atrof muhitni sog‘lomlashtirish, ovqatlanishni, mehnat, turmush, dam olishda ta‘lim tarbiya berish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonunchilik sanitariya xolatini yaxshilash va epidemiyaga karshi, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Sog‘lijni saqlash vazirligi joylarda profilaktik yordam yo‘nnalishlari va hajmlari, profilaktik maqsadlarda emlashlar o‘tkazishning muddati va usullarini belgilaydi, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishni nazorat qiladi.

Shu jihatdan kasallikni oldini olishga qaratilgan profilaktik choratadbirlarning samarasi birinchi navbatda aholini, oilani, har-bir shaxsni tibbiy-sanitariya madaniyatiga, tibbiy faolligiga, o‘z salomatligini saqlashga bo‘lgan ma’suliyatiga bog‘liq. Agar aholi, o‘z salomatligi ustida qayg‘urmas ekan, uni mustahkamlash uchun shug‘ullanmas, kurashmas ekan, shu yunalishda tibbiyot muassasalari olib borayotgan tadbirlar samarasi past, natijasi qonikarsiz bo‘lib qola beradi. Shu bilan birga ushbu ishlarni samarasini oshirishda o‘rta tibbiyot hodimlar roli judayam kattadir.

Sog‘lig‘ini yuqotgan taqdirda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish prinsipi. Ushbu prinsip O‘zbekistonning rivojlanish va o‘ziga xos tariqqiyot yo‘lining eng asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan aholining kuchli ijtimoiy himoya qilish tamoyiliga to‘la mos tushadi.

"Sog‘lijni yo‘qotganda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinish, tibbiy ijtimoiy yordam olish huquqi" Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi" qonunning 16 moddasida aloxida kayd etilgan. Jumladan ushbu moddada kasal bo‘lib qolganda, mehnat layoqatini yuqotganda va boshqa xollarda fuqarolar profilaktik, taxshis qo‘yish, davolash, kuch

quvvatini tiklash, sanatoriya-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish parvarishlar yuzasidan ijtimoiy chora - tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lashni o‘z ichiga oladigan tibbiy ijtimoiy yordam olish huquqiga ega. Tibbiy ijtimoiy yordam tibbiyat xodimlari va boshqa mutaxasislar tomonidan ko‘rsatiladi deb belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolar o‘zlarini ixtiyoriy ravishda tibbiy sug‘urta qildirish asosida, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag‘lari, o‘z shaxsiy mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish huquqiga ega. Fuqarolarning ayrim toifalari protez ortopedik va moslama buyumlar va eshitish apparatlari, harakatlanish vositalari va boshqa maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta’minlanish huquqiga ega.

Tibbiyat ilm-fani va amaliyotning birligi prinsipi.

O‘zbekistonda ko‘plab tibbiyat oliy o‘quv yurtlari, tibbiyat ilmiy tekshirish institutlarida keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, olingan yangiliklar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ruxsati bilan sog‘liqni saqlash amaliyotiga tadbiq etilmokda.

Ilm-fan va amaliyotning birlik prinsipi, ilm-fan axlining tibbiyotda ishlayotgan amaliyot xodimlari, sog‘liqni saqlash tashkilotchilari bilan xamkorlikda o‘tkazayotgan se’zdlar, simpoziumlar, konferensiyalari orkali namayon bulmoqda.

Bundan tashkari Respublikamizda ko‘pgina Ilmiy jurnallarda: "O‘zbekiston tibbiyat jurnali", "Pediatriya", "Xirurgiya", "Patologiya" "Hamshira" jurnallari va shunga o‘xshash ko‘pgina jurnallarda olimlarimizning ilmiy makolalari chop etilmokda va ular o‘z navbatida tibbiyat amaliyotchilariga etib bormoqda. Profilaktika, tashxis qo‘yish, davolashning yangi usullari, dori-darmonlar, mikrobiologik preparatlar va dezinfeksiya vositalarini qo‘llanishi, hamda biologiktibbiy tadqiqotlar o‘tkazish tartibi "Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 34-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Jumladan sog‘liqni saqlash amaliyotida faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llanishga ruxsat etilgan profilaktika, tashxis qo‘yish, davolash usullaridan tibbiyat texnologiyalari, dori - darmonlar, immunobiologik preparatlar va dezinfeksiya vositalaridan foydalaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tashxis qo'yish, davolash usullari va dori-darmonlarni, immunobiologik preparatlar va dezinfeksiya vositalarini, shu jumladan, chet elda foydalilaniladiganlarini qo'llanish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi deb qayd etilgan. Shunday qilib, tibbiyot ilm-fani, tibbiyot amaliyoti bilan chambarchas bog'lik. Albatta tibbiyotda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda va uni amaliyotga tadbiq etishda yuqorida keltirilgan qonun qoidalarga amal qilish talab etiladi.

3.4. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va sog'liqni saqlashning milliy modelini ishlab chiqish bosqichlari

Islohat terminining ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, BMT tomonidan unga quyidagicha ta'rif berilgan: islohatlar bu – sistematik tashkiliy o'zgarishlarga olib keluvchi yo'naltirilgan dinamik va barqaror jarayon.

Ko'plab davlatlarda sog'liqni saqlash tizimida islohatlar o'tkazilishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Sog'liqni saqlash tiziminining samaradorligini oshirish;
2. Moliyalishtirishning qo'shimcha manbalarini aniqlash;
3. Aholini sifatli tibbiy yordam bilan ta'minlash;
4. Vrach va bemor huquq va majburiyatlarini belgilash;
5. Aholini qarishi, kasallanish tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lishi, yangi tibbiy texnologiyalarning paydo bo'lishi, sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'larga bo'lgan talabning ortishi va boshqa muammolar.

O'zbekistonda sog'liqni saqlashni isloh qilishning zaruriyati. 1991 yildan boshlab mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatida ko'plab o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda. Bu o'zgarishlar o'z navbatida sog'liqni saqlash tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va unda tubdan islohatlar olib borish zaruriyatini tug'dirdi.

Sobiq Sovet ittifoqi davrida O'zbekistonning sog'liqni saqlash tizimi juda ko'p sog'liqni saqlash muassasalaridan va shifo o'rinalidan iborat edi. Bu esa o'z navbatida tibbiy-sanitariya yordamini barchaga barobarligini ta'minlab bergen, lekin ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati juda past bo'lgan, mavjud imkoniyatlardan esa to'liq foydalanimagan. Sog'liqni saqlash tizimi asosan shifoxona sharoitida ko'rsatiladigan yordamga qaratilgan bo'lib, har yili 25% aholi shifoxona

sharoitida tibbiy yordam olishga muvaffaq bo‘lardi. Birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar aholining tibbiy yordamga muhtojligini to‘liq qondira olishiga qaramasdan ulardan to‘liq foydalanilmasdi. Sovet davrida aholi salomatligini saqlash siyosatining asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlarini tibbiy yordamga teng huquqlilagini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Sog‘lijni saqlash tizimining xizmatlaridan foydalanishda aholi uchun mablag‘ chegaralanmagan miqdorda ajratilgan. Mamlakatda davlat sog‘lijni saqlash tizimi tashkil etilgan bo‘lib, barcha aholiga tibbiy xizmatlar davlat sog‘lijni saqlash muassasalari tomonidan bepul ko‘rsatilar edi.

Hozir biz yashab turganimiz yangi XXI–asrning so‘ngi o‘n yilliklari singari, insonlarda faollik bilan mustaqil faoliyat olib borish, qarorlar qabul qilish, o‘zgarib turadigan xayot sharoitlariga chaqqonlik bilan moslashib olish xislatlari bo‘lishini tobora ko‘prok talab qilmokda. Shu munosabat bilan Sog‘lijni saqlash tizimining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida yangi islohatlar olib borilishiga to‘g‘ri keldi. Bu tibbiy xizmatlarning sifati va samaradorligi jamiyatimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Respublikamizda yuz berayotgan o‘zgarishlar sog‘lijni saqlash tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Fuqarolar salomatligini saqlash masalasidaadolatni ta’minlash va sog‘lijni saqlash doirasida tibbiy xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish uchun ma’lum bir qayta tashkillashtirish zarurati yuzaga keldi.

O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash tizimini isloh qilish va sog‘lijni saqlashning milliy modelini ishlab chiqish o‘z navbatida faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o‘rganibgina qolmasdan, balki demografik jarayonlarni o‘rganishni ham talab etmoqda. Sog‘lijni saqlashning asosiy vazifalarini ajratib olish va jamoa salomatligini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash qonuni”ga asosan aholini malakali tibbiy xizmat bilan ta’minlash va ijtimoiy himoyalash, shuningdek tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish maqsadida konstitutsion huquqlarni ta’minlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, mamlakatda amalga oshirilayotgan qayta tashkillashtirish davlat dasturiga mos holatda amalga oshirilmokda. Sog‘lijni saqlashni davlat tomonidan moliyalashtirishda tejab qolingan moliyaviy vositalari tibbiy xizmatchilar mehnatini rag‘batlash, sog‘lijni saqlash tizimining moddiy texnika ba’zasini mustahkamlashga ishlatiladi. Sog‘lijni saqlashni

tizimining birlamchi zvenolarini qayta tashkillashtirishda (shaxar, maxalla) QVPlarni tashkil qilish, tez tibbiy yordam tizimini qayta tashkil qilish va mukammallashtirish, UASH tizimiga bosqichma-bosqich o'tish ko'zda tutilgan.

1991 yilda Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan O'zbekistonning o'ziga xos spetsifik, demografik, tarixiy, manaviy va boshqa shart-sharoitlarni hisobga olgan holda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiysi ishlab chiqilgan va 1992 yilda tasdiqlangan.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Barcha turdag'i sog'liqni saqlash muassasalarining tuzilishi va tarmoqlarini qayta ko'rib chiqish, isloh qilishni gorizontal va vertikal bo'yicha olib borish.
2. Tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish bilan birgalikda ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish.
3. Sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan taminlashni qayta ko'rib chiqish, bir shifo o'mini mablag' bilan taminlashdan bir aholi sonini mablag' bilan taminlashga o'tish.
4. Sog'liqni saqlash tizimining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan sog'liqni saqlashni profilaktik yo'nalishi prinsipini mustahkamlash va bu borada ambulatoriya-poliklinikalar yordami, tibbiy yordam ko'rsatishning yangi turlarini keng qo'llash (kunduzgi statsionarlar, uy statsionarlari)
5. Davolash-profilaktik muassasalar, shifo o'rinalarini qayta ko'rib chiqish, ularni qisqartirish va ixtisoslashtirish tadbirlarini o'tkazish.
6. Milliy-farmatsevtik va tibbiy industriyani tuzishda qo'shma korxonalar tashkil qilish va tibbiy texnikani katta sanoat korxonalari bazasida ishlab chiqish orqali respublikada dori-dormon va tibbiy texnikaga bo'lgan ehtiyojini qondirish.
7. Sil va o'sma kasalliklar, virusli hepatit, OITS, giyohvandlik va jinsiy aloqa orqali yuquvchi kasalliklarning oldini olish maqsadida dasturlar ishlab chiqish va sog'liqni saqlash amaliyotiga tadbiq etish.
8. Sog'liqni saqlash muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va qisman privatizatsiya qilish prinsiplarini ishlab chiqish.

Islohatlarning maqsadi - mamlakatda aholi salomatligini saqlash va yaxshilashni ta'minlovchi sog'liqni saklash tizimini yaratish, hamda sog'lom avlodni tarbiyalash uchun sharoitlarini shakllantirishdan iboratdir.

Sog‘liqni saqlash tizimi islohatlari bir necha bosqichlarda olib borilmoqda.

- 1- bosqich 1998 dan 2005 yilgacha
- 2 - bosqich 2003 dan 2007 yilgacha
- 3 - bosqich 2007 dan 2011 yilgacha
- 4 - bosqich 2012 dan 2015 yilgacha

Islohatlarni amalga oshirish uchun quyidagi prinsiplarga amal qilinish kerak:

1. Malakali tibbiy yordam olishda va ijtimoiy himoya qilishda aholining konstitutsiyaviy huquqlarini saqlash;
2. Hamma tibbiy xizmat turlarining aholining barcha qatlamlari uchun barobarligi;
3. Aholi salomatlik holatini va istiqomat qilish muhitini davlat tomonidan nazorat qilinishini ta’minlash;
4. Bozor munosabatlari tamoyillari va mexanizmlarini joriy qilish asosida sog‘liqni saqlash tizimini chuqur isloh qilish;
5. Onalik va bolalikni muhofazalashning samarador tizimini yaratish;
6. Profilaktik yo‘nalishga qaratilgan sog‘liqni saqlash tizimini yaratish, sog‘lom turmush tarzi, ratsional ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ulanishni keng targ‘ibot qilish;
7. Bepul shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishni bosqichma-bosqich tarzda maxsus hamda umumdavolash muassasalarida pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan hamohang tarzda olib borilishi, tibbiy sug‘urta tizimni rivojlantirish;
8. Xususiy tibbiy amaliyotni rivojlantirishni qo‘llab –quvvatlash;
9. Aholi salomatligini himoyalash uchun ajratilgan mablag‘larning samaradorligini oshirish.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Davlat tomonidan belgilangan hajmda aholini sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bilan ta’minlash;
2. Aholiga shoshilinch va kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini mustahkamlash;
3. Davolash-profilaktika muassasalarini tashkil qilish va joylashtirish tizimini takomillashtirish, umumiyl amaliyot shifokori tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;
4. Tibbiy xizmatlar bozori va tibbiy sug‘urtalashni shakllantirish;
5. Boshqarishni soddalashtirish hisobiga Sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, davolash-profilaktika

muassasalariga erkinlikni ta'minlash, sog'liqni saqlashda davlatdan tashqari sektor va xususiy tibbiy amaliyat tizimini rivojlantirish;

6. Bepul tibbiy xizmat ko'rsatishga ajratilgan mablag'dan samarali foydalanish hisobiga sog'liqni saqlashning moliyaviy bazasini mukammallashtirish, aralash va xususiy moliyalashtirishning turli xil shakllarini rivojlantirish;

7. Sohani isloh qilishning me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish;

8. Tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish;

9. Jismoniy tarbiya va aholi salomatligini profilaktika qilishning har xil shakllarini integratsiyalash;

10. Xalqaro aloqalarni kengaytirish va sohaga chet el investitsiyalari hamda texnologiyalarini jalb qilish;

Sog'liqni saqlash tizimi moliyaviy bazasini mukammallashtirishni amalga oshirish vazifasi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni bepul (ya'ni, xizmat ko'rsatish uchun mablag'lar davlat tomonidan ajratiladi), va pulli (ya'ni, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mablag'lar) turlarga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy-sanitar yordam hajmi doirasida quyidagi hollarda bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi:

- shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam ko'rsatishda;
- sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida va bir qator davolash-profilaktika muassasalarida, avvalo qishloq joylarida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatda;
- bir qator yuqumli kasalliklarga qarshi aholini emlash va immunizatsiyalashda;
- atrofdagilarga havf tug'diruvchi va ijtimoiy ahamiyatli kasallarga (sil, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrin va kasb kasalliklari bor shaxslar) maxsus tibbiy yordam ko'rsatishda;
- bolalarni tekshirish va davolashda (pulli kasalxonalardan tashqari);
- chaqiruv komissiyalarining yo'llanmasiga binoan 15-17 yoshdagи o'smirlarni va chaqiruv yoshidagi (18-27 yosh) shaxslarni tekshirish va davolashda;
- tug'ruqqa yordamlashuvchi xizmatlarni ko'rsatishda (pulli muassasalardan tashqari);
- imtiyozga ega toifadagi bemorlarni davolash (nogironlar, urush veteranlari, g'irt etimlar) davlat davolash-profilaktika muassasalarida davolashda.

Bundan tashqari davlat quyidagi hollarda mablag‘ bilan ta’minlaydi:

- aralash moliyalashtirishga asoslangan dasturlarni davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlashda;
- davlat dasturlariga ko‘ra profilaktik, tabiatni muhofaza qilish, sanitargigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil qilish va amalga oishirishda;
- davlat granti asosida tibbiy kadrlarni tayyorlashda;
- maqsadli milliy dasturlarga asosan fundamental va amaliy ilmiy izlanishlarni olib borishda.

Pulli tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi yuridik va jismoniy shaxslar mablag‘lari hisobiga xarajatlarni qoplash bilan xususiy moliyalashtirish yo‘li orqali va davlat byudjeti hisobiga shakllantiriladi.

Aralash moliyalashtirish ko‘zda tutilgan tibbiy muassasalarga kattalar va bolalar ko‘p profilli kasalxonalari, viloyat va respublika ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlari va klinikalari kiradi va quyidagilar uchun ko‘zda tutilgan:

- bepul tibbiy yordam tizimiga kirmagan ilmiy tekshirish instituti (ITI) klinikalari, tuman, shahar va ko‘p profilli davolash-profilaktika muassaslarida bemorlarni tekshirish va davolashda (imtiyozli kategoriyalardan tashqari);
- imtiyozli kategoriyatagi bemorlarni (nogironlar, urush qatnashchilari, chin etimlar) ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida tekshirish va davolashda;
- alohida ko‘p profilli kasalxonalar;
- sog‘liqni saqlash, sanitariya va farmokologiya sohalarida ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borishda;
- o‘rnatilgan davlat grantidan tashqari tibbiy kadrlarni tayyorlashda;

Kelajakda xususiy sog‘liqni saqlash tizimini va tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

1. Davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan teng ta’minlash tamoyillari buzilmagan hollarda, mavjud davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va privatizatsiya qilish;

Bunda mavjud davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va privatizatsiya qilish ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalarini tender asosida to‘laligicha yoki aksiya paketlarini qo‘lga kiritish orqali amalga oshiriladi, shu bilan birga privatizatsiya

qilinayotgan binolarni chet el sarmoyadorlari tomonidan faqat tibbiy yordam ko'rsatish uchun foydalanish sharti bilan;

2. O'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tgan ta'sis chilarning mablag'lari hisobiga xususiy davolash-profilaktika muassasalarini yaratish. Xususiy davolash-profilaktika muassasalari mavjud davlat muassasalari ko'rsatayotgan xizmatlarini sifat va son jihatdan to'ldirib borishi bilan birga parallel holda rivojlanib boradi.

Tibbiy xodimlar jamoalari va individul shaxslarga xususiy davolash-profilaktika muassasalarini barpo etish uchun davlat davolash-profilaktika muassasalari binolarini uzoq muddatli ijaraga berish yoki sotish orqali amaliy yordam ko'rsatilsin;

3. Shaharlarda mavjud davlatga qarashli bepul tug'ruqqa ko'maklashuvchi muassasalari bilan parallel ravishda pulli, shu jumladan xususiy tug'ruqqa ko'maklashuvchi muassasalarni tashkil eitsh.,

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan berilgan maxsus litsenziyalariga ko'ra individul vrachlik amliyoti bilan shug'ullanuvchi, hamda sertifikatga ega va akkreditatsiyadan o'tgan xususiy davolash-profilaktika muassasalari tarkibida ishlovchi tibbiyot xodimlari shug'ullanadigan xususiy tibbiy amaliyotni rivojlantirish.

1999 yilning birinchi yarmida xususiy davolash-profilaktika muassasalarini tashkil qilish, akkreditatsiyadan o'tkazish va sertifikatlash, xususiy vrachlik amaliyotni litsenziyalash, pulli tibbiy xizmatlar uchun tariflarni tartibga solib turuvchi, tibbiy xizmat standartlari va boshqalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash ko'zda tutilgan.

Aralash va xususiy moliyalash tizimiga kiritilgan nodavlat tibbiy muassasalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra imtiyozga ega bemorlar kontingentiga 20 foizgacha bepul tibbiy xizmat ko'rsatadi.

Sog'lijni saqlash sohasini davlat tomonidan boshqarish va tartibga solib turish O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash Vazirligi tomonidan quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- sog'lijni saqlashning va tibbiy sug'urtalashning me'yoriy bazasini ishlab chiqish, sog'lijni saqlashning sifati va unga barcha tibbiy muassasalar rioya qilishini nazorat qilish bo'yicha davlat standartlari ishlab chiqish;
- davlatning aholi salomatligini himoyalash sohasidagi maqsadli dasturlarini amalga oshirish;

- aholiga davlat tomonidan kafolatlangan hajmdagi birlamchi tibbiy-sanitar yordam ko‘rsatishni byudjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish;
- mulkchilik shaklidan qat’i nazar, davolash-profilaktika va dorixona muassaslarini sertifikatlash va akkreditatsiyalash, xususiy vrachlik va famatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalarni berish;
- tibbiy xizmatlar tariflari darajasini tartibga solish, tibbiy xizmatga bo‘lgan yagona tariflarni belgilash, shu tariflar doirasida, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, davolash-profilaktika muassasalari territorial va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda, mustaqil ravishda tariflarni o‘rnatish.
- respublika territoriyasida ishlatish uchun ruxsat berilgan dori vositalari va preparatlarini standartlash va sertifikatlash.

Sog‘liqni saqlashni isloh qilish konsepsiysi profilaktik yo‘nalishning rivojlanishiga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, sog‘lom avlodni tarbiyalashga, kasalliklarning xavf omillari hamda sabab va oqibatning bog‘liqlik aloqalarini aniqlashga asosiy e’tiborni qaratishni ko‘zda tutadi.

Bu vazifalar Respublika “Salomatlik” markazi negizida tashkil qilingan Salomatlik Instituti zimmasiga yuklangan.

Salomatlik institutning asosiy vazifalari:

- izlanishlarni muvofiqlashtirish va profilaktik tibbiyotni amaliy jihatdan joriy qilish;
- sog‘lom turmush tarzi va ratsional ovqatlanishni faol targ‘ib qilishni ta’minlash;
- salomatlikni himoyalash sohasida gigienik va huquqiy tarbiyalash ishlarini yo‘lga qo‘yish;
- jismoniy tarbiya va slomatlik hamda ommaviy sport harakatlarini profilaktik tibbiyot bilan integratsiyalashuvini amalga oshirish;
- ijtimoiy izlanishlar olib borish, aholi salomatlik holati bo‘yicha monitoring, tahlil va prognozlash ishlarini olib borish.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish.

Onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ko`plab qonun hujjatlari mavjud va yangilari qabul qilinmoqda. Xususan, Konstitutsiyamizning 65-moddasining 2-qismida: “Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb belgilab qo‘yilgan.

Onalik va bolalikni himoyalash xizmatini rivojlantirish quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- tug‘ruqqa ko‘maklashuvchi va bolalar muassasalarini integratsiyalash;
- xavfsiz onalikni ta’minlash, tug‘ruq yoshidagi ayollar salomatligini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha ishlarni takomillashtirish;
- ayollarga, homiladorlar va bolalarga birlamchi tibbiy-sanitar yordamni yaxshilash;
- Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda va xomilador ayollarda tug‘ma va boshqa patologik holatlarni erta aniqlash va bolalikdan nogironlikning oldini olish maqsadida regional “Ona va bola skrininggi” markazlarini tashkil etish;
- ayollar va bolalarni tekshirish uchun ixtisoslashtirilgan tibbiy-genetik markazlarini rivojlantirish;
- pediatriya xizmatini qayta tashkil etish va sifatini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 1 avgust kuni “2014—2018 yillarda O‘zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o’smirlar sog’lig’ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to‘g’risida”gi Qarori imzolandi. Qarorda qayd etilganidek, «Sog’lom ona — sog’lom bola» onalar va bolalar sog’lig’ini muhofaza qilish Milliy modelini, «Sog’lom bola yili» Davlat dasturini amalga oshirish doirasida respublikada aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida tibbiy yordam ko’rsatayotgan tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini kuchaytirishga, zamonaviy tashxis usullarini joriy etish, ayollar, bolalar va o’smirlar kasalliklarining oldini olish va davolashga yo’naltirilgan keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2009—2013 yillarda respublikada homilador va tug‘adigan ayollarga tibbiy yordam ko’rsatuvchi 227 ta muassasa zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi, viloyatlarda zamonaviy perinatal markazlari tashkil etildi, qishloq joylardagi 1,5 mln.dan ortiq homilador ayollar Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan polivitamin komplekslari bilan ta’minlandi.

Natijada, keyingi 5 yil mobaynida nonormal rivojlangan bolalar tug‘ilishi 1,3 barobarga kamaydi. 6—15 yoshgacha bo‘lgan bolalar o’rtasida o’tkir respirator virus infeksiyalari bilan kasallanish — 9,7

foizga, pnevmoniya — 49,1 foizga, bronxit — 32,8 foizga skolioz bilan kasallanish esa — 32,7 foizga pasaydi

Davlat dasturiga ko'ra, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'liqni saqlash tizimining barcha bosqichlarida onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha sifatli tibbiy xizmatlardan keng va bir xil foydalanish ta'minlanadi. Nonormal rivojlangan bolalarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish sifatini oshirish, nogiron bolalar va o'smirlarni sog'lomlashtirish, ularning jamiyat hayotida to'laqonli qatnashishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Tibbiy yordam ko'rsatishning barcha bosqichlarida, ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'in muassasalarida onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasidagi tibbiy kadrlar salohiyati mustahkamlanadi. Shuningdek, yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish borasida zamonaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish, aholini onalar, chaqaloqlar, bolalar va o'smirlarni parvarishlash bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirlar va dasturlarda ishtirok etishga faol jalb etish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, sog'lom va ahil oila qurish afzalliklarini targ'ib qilish ishlari olib boriladi. Har bir viloyat, tuman va aholi punktida Davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek ularning so'zsiz bajarilishi ustidan muntazam nazorat o'rnatish va monitoring olib borishni ta'minlaydi.

Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish. Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 2000 yildan boshlab davolash muassasasi turi, xizmat darajasi, tibbiy yordamning sifati va tugallanganligini hisobga oluvchi davlat standarti joriy qilinadi va quyidagilar haqida ma'lumot beradi:

- tabaqalashgan kasalliklar guruxlari bo'yicha va xizmatlar turlariga tariflar ko'rsatilgan holda davolashning turli bosqichlarida davolash-diagnostika taktikasining me'yoriy kriteriyalariga mosligi va to'laqonligi;
- birlamchi, shoshilinch, malakali va ixtisoslashtirilgan yordamni ko'rsatish uchun kerakli asbob-uskuna va dori-darmonlarning mavjudligi;
- tegishli tibbiy yordamni ko'rsatish uchun malakali mutaxasislar bilan ta'minlanganligi.

Tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Jamiyatning kadrlar sifati va mutaxassisligiga bo‘lgan talablarining doimiy o‘zgarib turishini tahlil qilishga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy qilish rejalashtirilmoqda. Taraqqiy topgan pedagogik va informatsion texnologiyalar joriy qilinadi.

Hamshiralik ishi yonalish bo‘yicha tibbiy kadrlarning kasbiy ta’lim darajasini oshirish maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- 1999—2000 o‘quv yilidan boshlab, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining davolash fakultetlari huzurida o’rta tibbiy ma’lumot negizida o‘qitish muddati 3 yil bo‘lgan oliy ma’lumotli tibbiyot hamshiralari (reanimatciya va anesteziologiya hamshiralari, jarrohlik hamshiralari, tug‘ruqxona akusherkalari va menejer)ni tayyorlash bo‘limlarini ochish ko‘zda tutilgan;
- oliy ta’lim ikki bosqichda – oliy ma’lumotli hamshira (bakalavr) tasdiqlangan davlat ta’lim standartlariga mos ravishda 3 yil o‘qish muddati bilan va bakalavriat bazasida magistraturada kamida 2 yil o‘qish muddati bilan mutaxassislardan tayyorlash;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim – doktorantura, oliy hamshiralik ishi tizimini rivojlantirish uchun maxsus ta’lim dasturlariga muvofiq malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash.

Aholini va sog‘liqni saqlash tizimini dori-darmon bilan ta’minalash tizimini takomillashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- dori-darmonlarga bo‘lgan umumiyligi talabni aniqlash, davlat davolash muassasalarida dorilar bilan (bepul) ta’minalashning kafolatlangan hajmini aniqlash, hamda sotib olish va mablag‘ bilan ta’minalash mexanizmini takomillashtirish;
- milliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish va haddan tashqari toza tibbiy ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro GMP standartlarini joriy qilish yo‘li bilan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish
- dori vositalari bozorini rivojlantirish, dori-darmonlar bilan ta’minalash tizimida bozor infrastrukturasiini yaratish;
- dori vositalarini ro‘yxatga olish va sertifikatlash, sifatini nazorat qiluvchi yagona davlat tizmini yaratish;
- farmatsiya sohasida xalqaro aloqalarni qo‘llab quvvatlash;
- dori vositalari bilan muomala qilish sohasini xalqaro talablarga binoan tartibga keltiruvchi me’yoriy va huquqiy aktlarni takomillashtirish.

3.5. SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARINING NOMENKLATURASI

O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 20 dekabrdagi №566 -sonli «Sog'liqni saqlash muassasalarining nomenklaturasini tasdiqlash haqidagi» buyrug'iga asosan sog'liqni saqlash muassasalari va sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi sog'liqni saqlashni boshqaruv organlarining quyidagi tarmoklari farklanadi:

A. Sog'liqni saqlash muassasalari

I - Davolash-profilaktika muassasalari:

1. Shifoxona muassasalari (bolnitsalar) Respublika ixtisoslashgan tibbiyat markazi va uning filiallari, Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyat ilmiy-amaliy markazi va uning filiallari, Respublika tibbiyat ilmiy markazi, Ko'p tarmoqli respublika shifoxonasi (bolnitsa), Klinikalar (oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari), Ko'p tarmoqli viloyat tibbiyat markazi, Ko'p tarmoqli viloyat bolalar tibbiyat markazi, Shahar shifoxonasi (shu jumladan bolalar), Markaziy tuman (Shahar) shifoxonasi, Tuman shifoxonasi, Qishloq uchastka shifoxonasi, Tibbiy sanitariya qism, Temir yo'l transporti shifoxonasi, Fuqarolar havo yo'llari shifoxonasi, Ixtisoslashgan shifoxonalar va markazlar.

2. Tez va shoshilinch tibbiy yordam, qon quyish muassasalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning viloyatlardagi filiallari, Tez yordam stansiyasi, Qon quyish stansiyasi.

3. Onalik va bolalakni muhofazalash muassasalari

Viloyat perinatal markazi, shahar tug'ruq kompleksi, onalar va bolalar skrining markazi, bolalar uyi, ixtisoslashgan bog'cha – yasli.

4. Dispanserlar

Kardiologiya, silga qarshi, onkologiya, ruhiy asab, narkologiya, teritanosil, endokrinologiya, vrachlik – fizkultura, o'smirlar,

5. Ambulatoriya – poliklinika muassasalari

Viloyat (Shahar) tibbiyat diagnostika markazi, ko'p tarmoqli markaziy tuman (Shahar) poliklinikasi, shahar poliklinikasi, shu jumladan bolalar poliklinikasi, oilaviy poliklinika, bolalar stomatologiya poliklinikasi, shahar bolalar diagnostika markazi, temir – yo'l transporti poliklinikasi, stomatologik poliklinika, qishloq vrachlik punkti (Shahar vrachlik punkti, mahalla vrachlik punkti)

6. Sanatoriya sog'lomlashtirish muassasalari

Bolalar sanatoriysi, sanatoriya (sanatoriya-profilaktika).

7. Muhim tipdagi davolash profilaktika muassasalari

Leprozoriy

II. Sanitariya – profilatik muassasalari

1. Sanitariya –epidemiologiya muassasalari

Davlat sanitariya –epidemiologiya nazorati (respublika, viloyat, shahar, tuman) markazlari, “O’zbekiston havo yo’llari” davlat sanitariya epidemiologiya markazi, OITSga qarshi markaz (respublika, viloyat), Karantin va o’ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi respublika markazi va uning filiallari, bo’limlari, Dezinfeksiya stansiyasi (respublika, viloyat, shahar, tuman), boshqa vazirliklar va tashkilotlar sanitariya – epidemiologiya xizmati muassasalari.

2. Sanitariya maorifi muassasalari

Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti va uning filiallari

III. Sud tibbiyoti ekspertizasi va patologo-anatomiya muassasalari

Sud tibbiyoti ekspertizasi byurosi, Respublika patalogoanatomiya markazi, Viloyat patalogoanatamiya byurosi

B. Boshqaruv organlari sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi boshqa muassasalalar nomenklaturasi

1. Sog‘liqni saqlashni boshqaruv organlari

O’zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpag‘iston sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar hokimligi sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi, Viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari, Shahar (tuman) tibbiyot birlashmalari, Tibbiy-sanitariya birlashmasi.

2. Ilmiy tadqiqot instituti filiallari

3. Oliy va O’rta maxsus tibbiy ta’lim muassasalari

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalari.

4. Boshqa sog‘liqni saqlash tasarrufidagi muassasalar

Vrachlar va farmatsevtlarni attestatsiyalash va litsienziyalash Respublika markazi, tibbiyot va dori vositalari sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi, xususiylashtirish va pulli tibbiy xizmatni tashkil etish boshqarmasi, o’smirlar va chaqiruv yoshdagilarga tibbiy xizmatni tashkil etish markazi, DOTS markazi, **Ikkinchi boshqarma**, kompleks ekspluatatsiya qilish boshqarmasi, O’zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tibbiy ta’limni rivojlantirish markazi, Respublika ilmiy tibbiy kutubxona, Sog‘liqni saqlash muzeyi, avtomobil xo‘jaligi, zaxira “rezerv” birlashmasi, tibbiyot arxivi, Respublika tashqi iqtisodiyot korxonasi (Uztabeksport), UzP kislород заводи, Qurilish birlashgan direksiysi, tibbiyot texnikalariga xizmat ko‘rsatish respublika davlat unitar korxonasi va uning filiallari, davriy tibbiyot bosmaxonasi, respublika reproduktiv salomatlik markazi, bolalar va o’smirlar reproduktiv salomatlik markazi.

3.6 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ONALIK VA BOLALIKNI MUXOFAZA KILISHGA QARATILGAN CHORATADBIRLAR VA HAMSHIRALAR ROLI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65 - moddasida «Onalik va bolalik davlat tomonidan mohofaza qilinadi» deb belgilab qyoilgan. Onalik va bolalikni mohofaza qilishning ijtimoiy-gigienik ahamiyatlaridan biri shundan iboratki, mamlakat aholisining halq ho'jaligida ishlovchilarning yarmidan ko'pini ayollar va mamlakatimiz aholisining 61,5%ni esa bolalar va o'smirlar tashkil etadi.

Мустақилликнинг ilk кунларидан бошлаб Ўзбекистонда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан этиб белгиланди. Бу масалада Ўзбекистон қўшилган дастлабки ҳалқаро хужжатлардан бири 1992 йил 9 сентябрда Парламентимиз томонидан ратификация қилинган «Бола ҳуқуқлари тўғрисида»ги Конвенциядир. Ушбу хужжат кейинчалик «Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида»ги Конуннинг қабул қилиниши билан мустаҳкамланди. Мамлакатимизда таъсис этилган биринчи орденнинг «Соғлом авлод учун» деб аталиши хам рамзий маънога эга.

Prezidentimiz tomonidan 1998-yil Oila yili, 2000-yil Sog'lom avlod yili, 2001-yil Ona va bola yili, 2008-yil Yoshlar yili, 2012-yil Mustahkam oila yili, 2014-yil Sog'lom bola yili, deb e'lon qilingani hamda shu munosabat bilan tegishli davlat dasturlarining bajarilgani bu boradagi ezgu ishlarga mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini isloh qilish barcha bosqichlarda amalga oshirilgan va quyidagilarni o'z ichiga olgan:

1. Aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish.
2. Ona va bola skriningi.
3. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish, tibbiy madaniyatni yaxshilash borasida mutaxassislarning malakasini oshirish va uzlusiz ta'lim tizimini hamda aholining bilim darajasini rivojlantirish.
4. Ayollarning reproduktiv salomatligi, bola tug'ish va tarbiyalash sohasidagi xalqaro aloqalarni kengaytirish.
5. Bolalik va tug'ruqqa ko'maklashuvchi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.
6. Respublika gematologik xizmatini rivojlantirish.
7. Fertil yoshdagi ayollarni sog'lomlashtirish:
 - Tug'ruqlar orasidagi optimal masofani saqlash;
 - Tug'ish yoshidagi ayollarni dispanserizatsiya qilish;

- Kontratseptiv vositalaridan foydalanishni kengaytirish;
- Yoshlar va o'smirlar o'rtasida reproduktivlik qoidalarni targ'ibot qilish;
- 20 yoshgacha va 30 yoshdan keyingi homiladorlikni oldini olish.

Buning samarasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Sog'lom ona – sog'lom bola” konsepsiysi xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Ushbu konsepsiyaning izchil amalga oshirilayotgani tufayli keyingi besh yilda mamlakatimizda har 100 ming chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishdi.

Davlatimiz tomonidan tibbiyat muassasalari, xususan, perinatal va skrining markazlarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyat hamshiralari ko'paytirish, akusher-ginekologlar va pediatrlar malakasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Onalik va bolalikni muxofaza qilish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish uchun davlatimiz tomonidan qator farmon va qarorlar qabul qilingan.

Ushbu qarorlarning maqsadi:

- aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash
- sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish
- jismoniy va ma'naviy barkamol yosh avlodni voyaga etkazish

Dasturlarning yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash tizimini takomillashtirish, sog'lom bola tug'ilishi uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- tug'ruqqa yordam ko'rsatish, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari hamda onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'lijni saqlash birlamchi bo'g'ini muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash;
- aholi o'rtasida sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash, yoshlarda sog'lom va ahil oila qurishga, sog'lom turmush tarzini olib borishga intilishni shakllantirish bo'yicha tushuntirish ishlarni kuchaytirish;

- bolalar va o'smirlarni jismoniy jihatdan bekamu ko'st hamda uyg'un kamol toptirish, jismonan baquvvat va ma'nan barkamol yosh avlodni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, onalar va bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash.

Onalar va bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning sifatini ta'minlash maqsadida JSST, UNICEF, UNFPA va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan quyidagi dasturlar yo'lga qo'yilmoqda:

Samarali perinatal yordam va parvarish;

Yangi tug'ilganlar reanimatsiyasi;

Xavfsiz onalik;

Ko'krak bilan emizish;

Tug'ruq muassasalarida onadan bolaga OIV infeksiyasi o'tishining profilaktikasi;

Birlamchi zveno va statsionarda bolalar kasalliklarini bog'liqligini ta'minlash;

Sog'lom va kasal yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish asoslari; Davolash-profilaktika muassasalarida kritik holatlarni va onalar o'limini konfidensial tarzda tekshirish;

Ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish masalalari bo'yicha aholini axborot bilan ta'minlashni oshirish;

Bachardon bo'yni havfli o'smasi profilaktikasi.

Onalar va bolalarga yuqori texnologiyali malakali tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yanada oshirish, chaqaloqlik davridan 18 yoshga to'lguniga qadar bolalarga kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, urologiya, nefrologiya, onkologiya va boshqa ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash, bolalar o'limi va nogironligini kamaytirish uchun zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari barpo etilmoqda va bir nechta davolash-profilaktik, davolash-tashxis qo'yish muassasalar, ayollar salomatlik markazini qurish va jihozlash rejalashtirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, muntazam ravishda bolalar va homilador ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish muassasalari, jumladan, Respublika perinatal markazi, viloyat perinatal markazlari, Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filiallari, 13 viloyat bolalar ko'p tarmoqli markazlari, shahar va tuman davolash-profilaktika muassasalari, shuningdek, ularning bolalar va homilador ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlari moddiy-

texnik bazasi kuchaytirilib kelmoqda. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirish uchun 2016-2018-yillarda markazning qo'shimcha 11 hududiy filiali, Alovida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Homilador ayollar va chaqaloqlarni perinatal va neonatal skriningdan o'tkazish orqali ularda tug'ma hamda irsiy kasalliklarni erta aniqlash, homilador ayollarni birlamchi sog'liqni saqlash tizimi bo'g'inida ommaviy perinatal ultratovushli skriningdan o'tkazish, 13 skrining markazini ko'p funksiyali zamonaviy raqamli ultratovush tizimi bilan jihozlash Davlat dasturida belgilangan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bularning barchasi bolalarning tug'ma va irsiy kasalliklar bilan tug'ilishining oldini olish, bolalar nogironligi va o'limini kamaytirish imkonini beradi.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturida turmush qurayotgan yoshlarning nikohdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlari, ayniqsa hamshiralari, mas'uliyatini yanada kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish, poliklinikalarni zamonaviy tashxis qo'yish uskunalari bilan jihozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yuksaltirish, aholi o'rtasida mustahkam oila qurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muhimligini tushuntirish maqsadida keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, sanitariya va gigiyena, homilador ayollar sog'lig'ini saqlash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarishlashni kuchaytirish, ularning ovqatlanish ratsioni sifati va kaloriyasini boyitish chora-tadbirlari ham amalga oshiriladi.

To'g'ri ovqatlanish va diyetologiya sohasida yagona ilmiy hamda amaliy siyosatni zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasi huzurida Respublika diyetologiya ilmiy-amaliy markazini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlari qurish va mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskuna va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali murabbiylar bilan ta'minlash "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturida belgilangan muhim vazifalardir.

Inson salomatligini muhofazalashda malakali shifokorlar bilan bir qatorda mahoratli hamshiralarning ham alohida o‘rni bor. Hamshiralarimiz aholi o‘rtasida tibbiy profilaktika tadbirlarini, bolalar, o‘smirlar, reproduktiv yoshdagi ayollar ko‘rigini tashkil etish, onalik va bolalikni muhofazalashga oid tushuntirish ishlarida ham faol ishtirok etmoqda. Bunday tadbirlar orqali hamshiralar aholining tibbiy madaniyati tobora o‘sirish, ularni o‘z salomatligiga e’tibori kuchayishiga katta yordam beradi.

IV bob: TIBBIY – BIOLOGIK TADQIQOTLARDА STATISTIKANI QULLANILISH ASOSLARI

4.1.Hamshiralik ishida statistik tadqiqotlarni tashkil etish

Aholi salomatligini saqlash va uni mustahkamlash maqsadida o‘tqaziladigan sanitariya statistik tadqiqotlarni o‘tkazishda nafaqat shifokor-tadqiqotchi, balki hamshira ham qatnashadi. Hamshira ham tibbiy statistikaning nazariy asoslari bo‘lgan materialistik dialektika, siyosiy iqtisod va o‘tkazilayotgan tadqiqot sohasidagi tibbiyot fanlari haqida etarli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari statistik tadqiqotlarning umumiyligi nazariyasi, statistik kuzatishlarni tashkil etish, olingan materiallarni rasmiylashtirish va ularni jamlash, hisoblash qoidalari va statistik tahlil usullari haqida bilimga ega bo‘lishi kerak. Hamshira o‘z amaliy ish faoliyatida, ilmiy asoslangan tanlov va hisoblash usuli bo‘lgan matematik – statistik usullardan foydalanish, ijtimoiy-gigienik tadqiqotlarni o‘tkazishda qatnashish va aholi salomatligini o‘zgarishi qonuniyatlarini o‘rganish, ularga tashqi muhit ta’sirini aniqlash va o‘tkazilgan tadqiqotlar yordamida aholi yoki uning ayrim guruhlari salomatligini yanada yahshilash borasidagi chora-tadbirlarini o‘tkazish kabilardan foydalanadi.

Statistika - bu jamiyat fanlaridan biri bo‘lib, u jamiyat orasida uchraydigan hodisalarning miqdor o‘zgarishlarini, sifat o‘zgarishlari bilan bog‘lab o‘rganadigan fandir.

Statistika fani jamiyat hayotining qaysi sohasiga tegishli hodisalarni o‘rganishiga qarab, u shu sohaning nomi bilan ataladi: sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, kommunal xo‘jalik, sud statistikasi va hokazolar. Jamiyat fanlaridan tashqari statistik uslublar biologiya, kimyo, fizika fanlarida ham qo‘llaniladi va ular biologik, kimyo, fizik statistikasi nomlari bilan yuritiladi.

Tibbiyot, gigiena, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan statistika tibbiyot yoki sanitariya statistikasi deb ataladi.

Tibbiyot statistikasi jamoat sog‘lig‘ini saqlash fanining asosiy bir bo‘lagi hisoblanadi va u o‘z navbatida ikki qismga bo‘linadi: aholi salomatligi statistikasi va sog‘liqni saqlash statistikasi.

Aholi salomatligini saqlash va uni mustahkamlash kabi masalalarni hal etish uchun aholi salomatligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlovchi va ularning konuniyatlarini ochib beruvchi, ijtimoiy-gigienik tadqiqotlarda keng qo‘llaniluvchi statistik uslublarga murojaat etiladi.

Statistik usul aholi salomatligini va undagi o‘zgarishlarni, tibbiyot muassasalarini faoliyatini va uning samarasini ob’ektiv baholash imkonini beradi. Klinik, eksperimental ilmiy tadqiqotlarda sanitariya statistikasi o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini, ichki qonunniyatlarini ochib beradi. Statistik usulning eng muhim bosqichlaridan biri olingan ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil etish va baholashdan iboratdir.

Statistik usul ko‘prok matematik statistikaga suyangan holda tadqiqot natijalarini hisoblaydi va tahlil etadi. Ularga nisbiy qiymatlar, o‘rtacha qiymatlar, standartlash usuli, korrelyasion tahlil, dispersion tahlil kabi baholash mezonlari va boshqalar kiradi.

Statistik tadqiqotlar aholi orasidagi tug‘ilish, o‘lim, kasallanishlarni, ularning kattaliklarini va qonuniyatlarini ochib berish uchun qisqa umumiyl dastur orqali, ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy - gigienik, tibbiy - biologik omillar va tibbiy yordamning tashkil etilganligini keng va chuqur dastur orqali olib borilishi va o‘tkazilishi mumkin.

Har qanday tashkil etilgan statistiktadqiqotlar bir turdagи sxemaga asoslangan va bir xil statistik bosqichlardan iborat.

Sanitariya - statistik tadqiqotlar birma - bir davom etuvchi 4 bosqichdan iborat:

1 - bosqich - tadqiqot rejasini va dasturini tuzish.

2 - bosqich - statistikma’lumot yig‘ishva kuzatish.

3 - bosqich - olingan statistik ma’lumotlarni guruhlash, jamlash va hisoblash.

4 - bosqich - statistiktahlil, xulosalar chiqarish va ularni amaliyotga tadbiq etish.

Birinchi bosqich - asosiy tayergarlik bosqichi hisoblanadi, chunki tadqiqotlarni natijasi oldindan to‘g‘ri tuzilgan aniq reja va dastur asosida olib borilishiga bog‘liq.

Ikkinci bosqich – bunda statistik kuzatishlar yoki statistik ma’lumot yig‘ish amalga oshiriladi. Bu bosqich tibbiyot muassasalaridagi ma’lum qayd etuvchi hujjatlarni hamshira tomonidan to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich – yig‘ilgan statistik ma’lumotlarni guruhlarga ajratish, jadvallarga o‘tkazish, ularni jamlash va mutloq qiymatlardan nisbiy qiymatlar keltirib chiqarishdan iborat.

To‘rtinchi bosqich – olingan kattaliklarni taqqoslash, solishtirish, ularga baho berish va amaliyotga tadbiq qilishdan iborat. Bu bosqichda o‘rganilayotgan hodisaga omillarning ta’sirini o‘rganish va ularni qonuniyatlarini aniqlash uchun har - xil matematik usullar (korrelyatsiya, standartizatsiya, olingan ma’lumotlar aniqligini baholash) qo‘llaniladi. Umuman statistik tadqiqot olingan natijalarni tahlil qilish, o‘tkazilgan tadqiqot xulosalarini amaliyotga tadbiq qilish bilan yakunlanadi.

Birinchi bosqich - tadqiqot rejasini va dasturini tuzish. Bu bosqich tadqiqotni olib borish uchun tayergarlik bosqichi hisoblanib u kuzatuv dasturini, rejasini, kuzatuvdan olingan ma`lumotlarni qayd etuvchi hujjatni tuzishni o‘z ichiga oladi va kuzatuvning turi, tadqiqot usuli, kerakli kuzatuvlar sonini aniqlaydi.

Kuzatuv dasturini tuzishda, birinchi navbatda kuzatuv maqsadi va shu maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo`lgan vazifalar belgilab olinadi.

Masalan: Maqsad – “aholi orasidagi kasallanishlarni o‘rganish” deb yoritilganda u mavhum bo`lib qoladi. Buning uchun esa qaysi tur kasalliklari, aholining qaysi guruhida o‘rganilishi va oxirgi bosqichda olinadigan natijalarga qarab amaliyotga tavsiyalar berilishi qisqa, aniq va ravshan qilib yoritilgan bo`lishi shart.

Ko`zda tutilgan maqsad - mavzu faqat tadqiqotchigagina tushunarli bo`lib qolmasdan, balki u boshqa mutaxassis va lavozimda ishlaydigan shaxslarga ham tushunarli bo`lishi kerak.

Masalan: Tumandagi bir yoshli bolalar o`limining asosiy sabablari va uni kamaytirish yo`llari.

Odatda har qanday maqsadga to`la erishish uchun sanitariya - statistik va ijtimoiy - gigienik tadqiqotlarda quyidagi vazifalar o`z aksini topgan bo`lishi kerak:

1. O`rganilaetgan statistik majmuada, olingan kuzatuv birligini tarqalganligi, uning natijalari.
2. Olingan voqeа yoki hodisaning ma`lum mintaqalar va davr orasida o`zgarishlari.
3. Voqeа yoki hodisaga umumlashtirilgan tavsil berish va uni bir necha statistik majmualar orasida taqqoslash (nisbiy va o`rtacha qiymatlar orqali).
4. Olingan statistik qiymatlarni aniqligini baholash.
5. Natijaviy belgiga (kasallanish, o`lim ko`rsatkichlariga) ijtimoiy - gigienik, ijtimoiy – iqtisodiy, tabiiy, ekologik omillarni ta`sirini o`rganish.
6. Omillar orasidagi o`zaro bog`liqlikni aniqlash.
7. Natijaviy belgilari orasidagi o`zaro aloqadorlikni aniqlash.
8. O`tkazilgan tadiqiqot yakuniga asosan amaliyotga kerakli takliflar va tavsiyalar berish.

Uncha katta bo`lmagan statistik tadqiqotlarda vazifalar odatda 4 - 6 tadan oshmasligi kerak.

Tadqiqotchi ma`lum bir maqsad va vazifalarni oldiga qo`yishdan oldin shu haqdagi tegishli adabiyotlar bilan to`la tanishgan bo`lishi kerak.

Statistik kuzatuvning rejasi deganda:

1 – kuzatuv olib boriladigan ob`ektini; 2 – kuzatuv birligini; 3 – kuzatuv olib boriladigan muddatni; 4 – kuzatuv o`tkaziladigan joy; 5 - kuzatuvni kimlar olib borishi; 6 - kimning rahbarligida olib borilishi; 7 - tadqiqotni o`tkazish uchun sarf bo`ladigan moddiy mablag` miqdorini aniqlash tushuniladi;

Kuzatuv olib boriladigan ob`ekt deganda, bevosita statistik ma`lumot yig`iladigan muhit tushuniladi. Bu shahar yoki tuman aholisi, viloyat muqim shifoxonalarida davolangan bemorlar soni, institut talabalari, mintaqa yoki hududda yashovchi aholi, zavod, fabrikalarning faoliyati va boshqalar tushuniladi.

Kuzatuv birligi – statistik tadqiqot olib borilayotgan muhitning asosiy tarkibiy qismi bo`lib, u qayd etilish lozim bo`lgan belgilarni o`z ichiga oladi. Ko`p hollarda kuzatuv birligi sanoq birligi deb ham ataladi. Kuzatuv birligi ko`zda tutilgan maqsadga qarab bemor, o`lgan shaxs, sog`lom inson, oila va boshqalar bo`lishi mumkin. Kuzatuv birliklarining soni statistik majmuuaning hajmini (n) belgilaydi.

Statistik majmua deb - ma`lum vaqt ichida, ma`lum chegarada olingan mazmunan bir xil, shaklan har - xil elementlardan tashkil topgan guruhlarga aytildi.

Statistik majmua 2 xil bo`ladi: 1.General majmua; 2.Tanlab olingan majmua.

General majmua deb - barcha kuzatish birligini o`z ichiga olgan majmuaga aytildi. General majmua tushunchasi nisbiy bo`lib, u kuzatishni maqsadiga qarab, bir vaqtning o`zida general yoki tanlab olingan majmua deb qaralishi mumkin. Masalan: "N" viloyatidagi "A" tumanda yashovchi bolalar soni shu tuman uchun general majmuani, viloyat bolalari uchun esa tanlab olingan majmuani tashkil etadi. General majmuani ko`pincha cheksizlikka intilayotgan majmua deb qaraladi. Masalan: OITS kasalligini tarqaganligini bilish uchun er yuzida OITS bilan kasallangan barcha bemorlarni o`rgana olsak, u holda general majmuaga erishgan bo`lar edik. General majmuada statistik tadqiqotlar olib borish uchun uning ba`zi belgilariga (vaqtga, territoriyaga) qarab cheklab o`rganiladi

Tanlab olingan majmua general majmuani bir qismi bo`lib u maxsus yo`llar orqali tanlab olinadi. Tanlab olingan majmuani eng muhim tomonlaridan biri uning reprezentativligi, ya`ni u general majmuaning vakili hisoblanib, undagi hamma asosiy belgilarni o`zida namoyon qila olishi kerak.

Ikki xil xususiyatlarni o`zida namoyon qilgan bir qism majmua general majmuaga nisbatan reprezentativ hisoblanadi:

1. Belgilari jihatidan general majmuaga nihoyatda o`xshash bo`lishi kerak.
2. Kuzatuvlar soni etarli bo`lishi kerak (general majmuadan 10% va undan yuqori).

Statistik majmua o`zida bir necha xil: o`xshashlik va farqli, sifat va son, omil va natija belgilarni namoyon qiladi. Masalan: "N" tumanida 2013 yilda 1 yoshgacha bolalar o`limini sabablari o`rganilayotgan bo`lsin. Bunda bir yoshgacha o`lgan bolalar statistik majmuani tashkil etadi. Ularning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: o`xshashlik belgisi - barchasi "N" tumanda tug`ilgan, 2013 yilda o`lgan, bir yoshli;

farqli belgilar: o`g`il bola, qiz bola, onasining yoshi, homiladorlik va tug`ishlar soni;

sifat, yani so`z bilan ifodalanadigan belgilar: jinsi, tashxis, onasining

kasbi, uy sharoiti, ovqatlanish xarakteri;

son, yani son bilan ifodalanadigan belgilar: bolaning yoshi, onasining yoshi, homiladorlik va tug`ishlar soni, bolaning vazni; omil belgilari: bolaning jinsi, yoshi, onasining yoshi, kasbi, bolaning tug`ilgandagi vazni, uy sharoiti, ovqatlanish xarakteri; natija belgi: o`lim.

Tadqiqotni tashkil etishni birinchi bosqichida asosiy o`rinni statistik majmuani to`g`ri tashkil etish egallaydi. Statistik tadqiqotlar ular o`tkaziladigan vaqtga, statistik majmuani hajmiga va kuzatish usuliga qarab ma`lum klassifikatsiyaga bo`linadi. Statistik tadqiqotlar kuzatish o`tkazilgan vaqtga qarab 2 ga bo`linadi: lahzada va joriy kuzatish.

Lahzada kuzatish usulidan o`rganilayotgan hodisalar tez o`zgarish xususiyatiga ega bo`lmagan paytda foydalaniadi. Bu usulda voqealar va hodisalarni aniq olingen bir vaqtligi kattaliklar o`rganiladi. Masalan: aholini ro`yxatga olish, muqim shifoxonadagi o`rirlarni, tibbiyot muassasalaridagi xodimlarni ro`yxatdan o`tkazish, aholini profilaktik ko`rikdan o`tkazish, jismoniy rivojlanishni o`rganish kabi tadbirlar kiradi. Bir vaqtda o`tkaziladigan kuzatishlardan olingen ma`lumotlar ularni bir - biriga taqqoslab, chuqur o`rganish uchun boy materiallar beradi.

Joriy kuzatish usuli – sog`liqni saqlash sistemasida asosiy usullardan biri hisoblanib, har xil intensiv kattalikka ega bo`lgan voqealarni o`rganishda qo`llaniladi. Joriy kuzatish usuli deb - voqealarni paydo bo`lishiga qarab ularni doimiy ravishda qayd etishga aytildi (tug`ilish, o`lim, kasalliklar, vaqtincha ish qobiliyatini yo`qotganlik haqidagi hodisalarni qayd etish shular jumlasiga kiradi).

Bir qism tanlab olingen majmuani hosil qilishning bir necha xil yo`llari bor:

1. monografik kuzatish yoki yakka kuzatish
2. asosiy dahani kuzatish usuli
3. tanlab olish usuli (tipologik tanlov, tasodifiy tanlov, mexanik ravishda tanlov)

General majmuadan bir qism tanlangan majmuani xosil qilish usullari belgilangandan so`ng tadqiqotlardan olingen natijalar aniqligini, ishonchlilagini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biri: tanlab olingen majmuuning tadqiqot o`tkazish uchun etarli bo`lgan sonini aniqlash lozim.

Statistik tadqiqot o`tkazish uchun etarli bo`lgan kuzatuv birliklari sonini hisoblash uchun, yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatoliklar asos

qilib olinadi, ya`ni tanlab olingan majmuadan kelib chiqqan natijani, general majmuada olinishi mumkin bo`lgan natijadan farqi. Masalan: bolalar shifoxonalarda yotgan bir yoshli bolalarning zotiljam kasalligidan o`lim hollari o`rganilmoqda. Bolalar shifoxonalarda bir yoshli bolalarning o`lim ko`rsatkichi (letallik) 3 % tashkil etgan bo`lsa, bu ko`rsatkichning aniqligini bilish uchun uning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatoligini, ya`ni ushbu ko`rsatkichning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan chegara oralig`ini kattaliklarini aniqlash lozim. Ushbu ko`rsatkichning 1 % teng bo`lgan xatoligidagi ishonch chegarasini aniqlaymiz. Demak, letallik ko`rsatkichi 3 ± 1 % bo`lganda, uning ishonchlilik chegarasi 2 % dan 4 % gacha bo`lgan oraliqni tashkil etadi.

Matematik statistikada ko`rsatkichning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatoligini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta = t \cdot \sqrt{\frac{P \cdot q}{n}}$$

bu erda:

P - ko`rsatkichning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatoligi;

q - ko`rsatkichning qiymati (o`rganilayotgan belgi uchun):

n - kuzatuvlar soni;

t - ehtimollik kriteriyasi (ishonchlik qiymati).

Tibbiy, biologik tadqiqotlar uchun odatda **t** ni 2 ga teng deb olinadi, bu esa olinishi lozim bo`lgan ko`rsatkichni 95 % aniqligini ta`minlaydi.

Sanitariya - statistik tadqiqotlarda har bir kuzatilayotgan birlik haqida ma`lumot yig`ishning bir necha usullari bor: 1) bevosita kuzatish, 2) hujjatlar asosida ma`lumot to`plash, 3) anamnestik (xotirlash) anketa - so`rov usullari.

Bevosita kuzatish usuliga - klinika va laboratoriyyada olib borilayotgan eksperiment natijalarini qayd etish orqali ma`lumot yig`ish kiradi. Hujjatlar yordamida ma`lumot to`plash usulida tibbiyot, sanitariya - epidemiologiya muassasalarida qo`llanilayotgan har xil hujjatlarni o`rganish orqali ma`lumot yig`iladi.

Ayrim hollarda tadqiqotchi kartadan keng va to`la ma`lumotlar olish uchun o`zi sezmagan holda undagi savollarni va uning hajmini keragidan oshirib yuboradi. Natijada yig`ilgan ma`lumotlarning bir qismi materiallarni qayta ishlashda foydalanilmay qoladi, uni yig`ish

uchun esa bekorga ortiqcha vaqt va kuch sarflanadi, bundan tashqari materiallarni jamlash va guruhlash davrida ayrim savollar (ba`zan muhim) anketaga kiritilmagani va ularga kerakli javoblar olinmaganligi sezilib qoladi, buning uchun esa qaytadan tekshirishlar o`tkazish lozim bo`ladi. Shuning uchun maxsus anketa yoki karta tuzishdan oldin tadqiqotchi o`tkaziladigan tadqiqotning tub ma`nosini va mazmunini tushunib etgan bo`lishi kerak.

Ikkinch bosqich - ma`lumot yig`ish va kuzatish. Bu bosqich eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi, chunki tadqiqot yakunida chiqariladigan xulosalar, hamda tadqiqoddan kutilayotgan natijalarning to`g`riliqi birinchi navbatda yig`ilgan statistik ma`lumotlarning to`laligiga va aniqlik darajasiga bog`liq. Shuning uchun ham, ma`lumot yig`ish uchun maxsus tayyorgarlikdan o`tgan yoki shu o`rganilayotgan soha bo`yicha etarli malakaga ega bo`lgan shaxslar jalb etilishi kerak. Ijtimoiy - gigienik tadqiqotlarda ma`lumotlarni qayd etish uchun har - xil hujjatlardan foydalilanildi:

- davlat statistikasi qo`mitasining maxsus tibbiy va statistik hujjatlari (muqim shifoxonada yotgan bemorning kartasi, ambulatoriya bemorining kartasi, bolalarning rivojlanish tarixi, tug`ruq va o`lim haqidagi guvohnoma va hokazo);
- tibbiy va statistik hujjatlardan ma`lumotlarni ko`chirib yozish uchun tuzilgan maxsus kartalar;
- har bir konkret kuzatilayotgan birlik uchun tuzilgan maxsus anketa, savol - javob varaqasi, kundaliklar va hokazo.

Material yig`ish davomida olingan ma`lumotlarning sifatini doimo nazorat qilib borish, barcha materiallar yig`ib bo`lingandan so`ng ularni sifat va miqdor jihatdan to`g`ri to`ldirilganligini tekshirish kerak. Ayrim savollarga to`liq javob olinmagan kartalar iloji bo`lsa qaytadan to`ldiriladi, bo`lmasa u tadqiqot kuzatuvidan chiqarilib yuboriladi.

Uchinchi bosqich - yig`ilgan materiallarni guruhlarga ajratish, jamlash va hisoblash. Bu bosqich o`z navbatida ikkita kichik bosqichlarga bo`linadi:

- a) ma`lumotlarni guruhlarga ajratish;
- b) jamlash va hisoblash;

Guruhlash deganda - barcha yig`ilgan statistik materiallarni ularning birlashtiruvchi (o`xshashlik) belgilari bo`yicha ayrim guruhlarga ajratish tushuniladi.

Barcha va o`rgatilayotgan hodisalarning jarayonini, qonuniyatlarini chuqur tushunib etgan holda guruhlarga ajratish taqozo etiladi.

Guruhash o`tkazilayotgan tadqiqotning maqsadiga bevosita bog`liq bo`ladi va u o`rganilayotgan belgining farqi va soniga qarab 2 xil bo`ladi:

1. atributiv, tipologik guruhash - bunda belgining sifatiy tarkibiga qarab guruhlarga ajratiladi. Masalan: yashash joyiga qarab, shahar va qishloq, jinsi bo`yicha erkak va ayol, ijtimoiy holati bo`yicha ishchi va xizmatchi va bemorlarning tashxislariga qarab guruhlarga ajratish.

2. variatsion guruhashada esa belgining miqdoriy tarkibiga qarab guruhlarga ajratiladi. Masalan: aholining Yoshiga, vazniga, bo`yiga, bemorlarning muqim Shifoxonalarda davolanish muddatiga qarab guruhlarga ajratiladi.

Juda ko`p guruhlarga ajratish, olinishi lozim bo`lgan ma`lumotlarni maydalanib ketishiga va hodisalarning ayrim qonuniyatlarini ochilmay qolishiga olib keladi, kam sonli guruhash esa, o`z navbatida voqealarning xarakterli tomonlarini ochib bera olmaydi. Guruhash statistik materiallarni jamlash uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Jamlash - statistik kuzatish natijasida olingan, yakka holda uchraydigan hodisalarni yig`ish, ma`lum guruhlarga ajratish demakdir. Jamlash bosqichida ayrim yakka holda yozilgan belgilar yig`ilib, o`rganilayotgan majmuaga miqdoriy son jihatidan tavsif beruvchi jadvallarga o`tkaziladi. Ma`lumotlarni jamlash natijalari statistik jadvallarda aks ettiriladi.

Statistik jadvallar ikki xil bo`ladi: oddiy va murakkab.

Statistik jadvallar statistik ma`lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishda bir universal vositasi sifatida xizmat qiladi.

Murakkab jadvallar o`z navbatida guruhlashgan va konbinatsion jadvallarga bo`linadi. Har qanday jadval uning mohiyatini ko`rsatuvchi ega va eganing mohiyatini ochib beruvchi kesimdan iborat bo`ladi. Odatta jadvalning egasi chap tomondagi qatorlarda, jadvalning kesimi esa yuqoridaq ustunlarda joylashgan bo`ladi. Har qanday jadval ma`lum nomga ega bo`lib, u jadvalda keltirilgan ma`lumotlarning qisqa va aniq holda tub mohiyatini ko`rsatib beradi.

Oddiy jadvallarda (jadval 4.1) statistik material faqat bitta belgi bo`yicha son jihatdan taqsimlanadi. Guruhlashgan jadvalda (jadval 4.2) esa statistik material bir - biriga bog`liq bo`lgan ikki belgi bo`yicha, kombinatsion jadvalda (jadval 4.3) esa bir - biriga bog`liq bo`lgan uchta va undan ko`p belgilar bo`yicha taqsimlanadi. Jadvalarni maketini oldindan birinchi bosqichda tayerланади. Jamlash va hisoblash

zamonaviy elektron hisoblash mashinalari yordamida statistik - matematik usullardan foydalangan holda o`tkaziladi.

yadval 4.1

QVPga yil davomida murujaat qilganlar soni

murujaat qilganlar	Shu jumladan	
	ayollar	erkaklar

yadval 4.2

QVPga yil davomida murujaat qilganlar soni

murujaat qilganlar yoshi (yillarda)	shu jumladan	
	ayollar	erkaklar
20 yoshgacha		
20-29		
30-39		
40-49		
50 va undan yuqori		
jami		

yadval 4.3

QVPga yil davomida murujaat qilganlar soni

murujaat qilganlar yoshi (yillarda)	shu jumladan			
	profilaktik ravishda		kasallik tufayli	
	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
20 yoshgacha				
20-29				
30-39				
40-49				
50 va undan yuqori				
jami				

To`rtinchi bosqich - statistik tahlil, xulosalar chiqarish va ularni amaliyatga tadbiq etish. Barcha statistik ma`lumotlarni jadvallarga o`tkazib, ulardan nisbiy, o`rtacha qiymatlar keltirib chiqarilgandan so`ng, olingan natijalarni yaqqolroq va ko`rgazmali qilib ifodalash uchun har xil diagrammalardan foydalilanadi.

Tadqiqot yakunida, tadqiqot natijasida olingan va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma`lumotlarga asoslangan holda tadqiqotning xulosalari keltirilib chiqariladi, hodisalarning qonuniyatları ochib beriladi va aholi salomatligini yanada yahshilash, sog`liqni saqlash muassasalarining ishini muvofiqlashtirish, hamda samarasini oshirish borasida amaliyotga takliflar kiritiladi.

4.3.NISBIY VA O`RTACHA MIQDORLAR

Nisbiy miqdorlar, ularni sog`liqni saqlash soxasida qollanilishi. Mutloq sonlar o`rganilayotgan voqealarning umumiyligi sonini, ularning dinamikada o`zgarishini ko`rsatadi, ammo ko`pgina holatlarda mutloq sonlardan foydalanib xulosa chiqarish mumkin emas. Majmua ichida belgilarni tarqalish darajasiga tavsif berishda va turli majmualarni tahlil davomida taqqoslash uchun nisbiy miqdorlar qo`llaniladi.

Statistik materiallarni jadvallarga jamlash orqali mutloq sonlar olinadi. Mutloq sonlar o`rganilayotgan voqealarning umumiyligi sonini, ularning dinamikada o`zgarishini ko`rsatadi. Masalan: viloyat aholisi, vrachlar, o`rta tibbiyot xodimlarining soni, kasalliklar uchrashi, ularning ko`paygan yoki kamayganligini tasdiqlash uchun mutloq sonlardan foydalanish mumkin. Ammo ko`pgina hollarda, ayniqsa o`rganilayotgan hodisalar va voqealarning kattaligini, o`zgarishini, sifatiy xususiyatlari va ayrim qonuniyatlarini vaqt va muhit oralig`ida (ayrim kollektivlarda) bir - biri bilan solishtirish va taqqoslashda mutloq sonlardan foydalanib xulosa chiqarish mumkin emas, ushbu holatda mutloq sonlardan nisbiy qiymatlar keltirib chiqarish lozim.

Nisbiy qiymatlar to`rt turli bo`ladi :

1. Intensiv ko`rsatkich
2. Ekstensiv ko`rsatkich
3. Aloqadorlik ko`rsatkichi
4. Yaqqollik ko`rsatkichi.

Intensiv ko`rsatkich – ma`lum muhitdan kelib chiqqan hodisani shu muhitda tarqalishini, ya`ni qancha marta uchrashini ko`rsatadi. Intensiv ko`rsatkich quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

hodisa · asos

Intensiv ko`rsatkich = -----;
muhit

Ijtimoiy - gigienik tadqiqotlarda muhit sifatida odatda aholi yoki uning ayrim guruhlari olinadi (yosh, jins, kasb va boshqalar bo`yicha). Hodisa deb, shu muhitdan kelib chiqqan voqealarni jarayon tushuniladi. Masalan: aholi (muhit) orasidagi tug`ilish va o`lim hollari (hodisa) va hokazo. Asos qilib odatda 100, 1000, 10000 va hokazo sonlar olinadi. Agar intensiv ko`rsatgich 100 ga hisoblansa, olingan kattalik % (foizlarda), 1000 ga xissoblansa - % (promilli), 10000 ga hisoblansa - % (prodetsimilli), 100000 ga hisoblansa - % (prosantimillilarda) ifodalananadi.

Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo`qotganligi haqidagi ko`rsatkich 100 ta ishchiga, muqim shifoxonalarda o`lgan bemorlar o`lim ko`rsatgichi – 100 ta shifoxonada davolangan bemorlar soniga, umumiyoq kasallanish, umumiyoq o`lim, tug`ilish kabi ko`rsatkichlar 1000 aholiga hisoblanadi.

Intensiv ko`rsatgichlar aholini sanitariya holatiga baho berishda keng qo`llaniladi. Aholi sanitariya holatini ko`rsatuvchi intensiv ko`rsatgichlarga tug`ilish, o`lim, kasallanish, shikastlanish, nogironlik kabi ko`rsatgichlar misol bo`la oladi. Masalan: «N» tumanida yashovchi 50000 aholidan bir yilda 350 tasi o`ldi deylik:

$$\text{Intensiv ko`rsatkich} = \frac{350 \cdot 1000}{50000} = 7\%$$

Demak, «N» tumanida har 1000 odamdan bir yilda etti kishi o`lmoqda (bu esa aholining o`lim ko`rsatkichi 7% ekanligini ko`rsatadi).

Intensiv ko`rsatgichlar o`z navbatida umumiyoq va xususiy intensiv ko`rsatgichlarga bo`linadi. Umumiyoq intensiv ko`rsatgichlarga barcha aholining soniga (tuman, viloyat, shahar) hisoblanuvchi tug`ilish, o`lim, kasallanish kabi ko`rsatgichlar misol bo`ladi. Xususiy intensiv ko`rsatgichlar yuqoridagi hodisalarning ma`lum olingan guruhlari orasida taraqalganligini ko`rsatish uchun ishlatiladi (aholining yoshi, jinsi, ish staji bo`yicha kasallanish ko`rsatkichlari).

Intensiv ko`rsatkichlar u yoki bu hodisaning kattaligini, tarqalganligini bir necha majmular orasida taqqoslash (masalan: turli tumanlar, shaharlar, viloyatlar, mamlakatlar orasidagi tug`ilish ko`rsatkichlarini, yoki turli xil yoshdagi aholi orasidagi o`lim ko`rsatkichini solishtirish) uchun qo`llaniladi. Intensiv ko`rsatkichlar o`rganilayotgan majmualarda hodisalarni tarqalish darajasini, ulardagi o`zgarishlar dinamikasini (vaqt oralig`ida) kuzatish uchun qo`llaniladi.

Ekstensiv ko`rsatkich – qismning butunga nisbatini, yoki butunning qismlarga taqsimlanishini ko`rsatadi. Odatda ekstensiv ko`rsatichlar % larda, ya`ni foizlarda hisoblanadi. Ekstensiv ko`rsatkichlarni hisoblash uchun butun 100 deb olinib, uning qismlari esa X deb, qabul qilinadi.

$$\text{Ekstensiv ko`rsatkich} = \frac{\text{hodisani qismi} \times 100}{\text{hodisani hammasi}}$$

Ekstensiv ko`rsatkichlarga leykotsitar formula, aholining yoshi, jinsi, ijtimoiy guruhlar bo`yicha taqsimlanishi, o`lim, kasallanishlar strukturasi va hokazolar misol bo`ladi. Ekstensiv ko`rsatkichlar statistik majmuaning strukturasini aniqlash va uni tashkil etgan ayrim bo`laklarini taqqoslash uchun ishlatiladi. Ekstensiv ko`rsatkichlar bir muhitning yoki hodisaning ichida uning ayrim olingan bo`laklari bir - biriga nisbatan ko`p yoki ozligini ko`rsatadi. Ekstensiv ko`rsatkichlar yordamida hodisa yoki voqealarni muhit yoki vaqt oralig`ida tarqalish darajasini belgilash mumkin emas. Buning uchun esa doimo shu hodisa yuz bergen muhitning sonini bilish va intensiv ko`rsatkichni hisoblash lozim.

Aloqadorlik ko`rsatkichi - hodisaning u bilan bevosita bog`liq bo`lмаган muhit orasida tarqalish darajasini ko`rsatadi. Mazmunan bir - biridan farq qilsada, hisoblash usuli bo`yicha aloqadorlik ko`rsatkichi intensiv ko`rsatkichga o`xshash.

$$\text{hodisa} \cdot 100 (1000, 10000)$$

$$\text{Aloqadorlik ko`rsatkichi} = \frac{\text{hodisa kelib chiqishida bevosita bog`liq}}{\text{bo`lмаган muhit}};$$

Aloqadorlik ko`rsatkichiga har 1000 olingan aholiga muqim Shifoxonadagi o`rinlar, vrachlar, o`rta tibbiyat xodimlari bilan ta`minlanganligi haqidagi ko`rsatkichlar misol bo`la oladi. Aloqadorlik ko`rsatkichi sog`liqni saqlash muassasalarini faoliyatiga baho berishda keng qo`llaniladi.

Yaqqollik ko`rsatkichlari – har xil territoriyada yoki muddatdagи bir jinsli ko`rsatkichlarni bir-biriga nisbatini ko`rsatadi. Bunda ko`rsatkichlardan biri 100 deb qabul qilinadi, qolganlari esa, shu ko`rsatgichga nisbatan hissoblanadi. Bir-biriga taqqoslanayotgan

qiymatlar mutloq sonlardan, nisbiy, o`rtacha qiymatlarda berilgan bo`lishi mumkin (jadval 4.4). Masalan: «B»-tumandagi bolalarning zotiljam kasalligi bilan kasallanish dinamikasi aniqlash kerak.

$$\begin{array}{l} 157,0 - 100 \\ 145,0 - X \quad X=92,0 \text{ va hokazo.} \end{array}$$

Yaqqollik ko`rsatkichi o`rganilayotgan jarayonning dinamikada o`zgarishini, yo`nalishini, ko`paygan yoki kamayganligini mutloq sonlarda, nisbiy yoki o`rtacha qiymatlarda solishtirish, taqqoslash qiyin bo`lganda qo`llaniladi.

jadval 4.4

«B»-tumandagi bolalarning zotiljam kasalligi bilan kasallanish dinamikasi

Yillar	Kasallanish 1000 ta bolaga.	Yaqqollik ko`rsatgichi
2011	157,0	100
2012	145,0	92
2013	140,0	89
2014	130,0	83
2015	136,0	87

O`rtacha miqdorlar, ularning o`rganilayotgan hodisaga baho berishdagi ahamiyati. Statistikada o`rtacha qiymatlar katta ahamiyatga ega. Ular yordamida kuzatilayotgan voqeaga umumlashtirilgan holda bitta son bilan baho beriladi. Aholini jismoniy rivojlanishiga, sog`lom va kasal organizmda kechayotgan har - xil jarayonlarga, ayrim kasalliklarni muqim shifoxonalarda davolanish muddatini aniqlashda, dori – darmonlarni samaradorligiga va boshqa ko`pgina masalalarga baho berishda o`rtacha miqdordan foydalaniladi. O`rtacha qiymatlarni olish uchun variotsion qator tuziladi. Voqealar va hodisalar o`z kattaliklariga qarab o`sib yoki kamayib borish tartibida joylashtirilgan va ularning takrorlanish sonlari bilan birgalikda tuzilgan qatorlarga variatsion qator deyiladi.

Variatsion qator varianta (V) va ularning takrorlanishini ko`rsatuvchi (P) sonlardan tashkil topadi. Varianta (V) - o`rganilayotgan belgini sonlarda ifodalangan kattaliklaridir. Chastota yoki takrorlanish darajasi (P) – har bir variantani necha marta uchraganligini ko`rsatadi. Variatsion qatorga misol qilib bemorlarning davolanish muddati va bemorlar soni olingan (jadval 4.5).

jadval 4.5

Bemorlarning davolanish muddati bo`yicha taqsimlanishi

Davolanish muddati (kunlarda) (V)	Bemorlar soni (R)
-----------------------------------	-------------------

13	1
14	3
15	5
16	7
17	10
18	9
19	8
20	5
21	2
	50

Variatsion qatorlar uch xil bo`ladi: oddiy, guruhli, interval-guruhli. Oddiy variatsion qatorlarda har qaysi varianta bir martadan ko`p uchramaydi. Kuzatuvlar soni ko`p bo`lganda bir xil kattalikka ega bo`lgan variantalar guruhlarga ajratiladi va shu yo`l bilan guruhli variatsion qator tuziladi. Kuzatuvlar soni ko`p, boshlang`ich va oxirgi variantalar orasidagi amplituda katta bo`lganda, qo`shti variantalarini bir-biriga qo`shtish yo`li bilan ma`lum intervallar bo`yicha variatsion qator tuziladi. Bunday variatsion qatorni interval-guruhli variatsion qator deyiladi.

Sanitariya statistikasida eng ko`p ko`llaniladigan va foydalilaniladigan kattalik bu o`rtacha arifmetik qiymatlardir. Variatsion katordan o`rtacha arifmetik qiymat (**M**), o`rtacha kvadratik og`ish (**σ**) va o`rtacha xatolik (**m**), bir necha usullarda keltirib chiqariladi.

I. Oddiy usul. Variatsion qatordagi har qaysi varianta bir martadan ko`p takrorlanmaganda yoki barcha variantalar bir xil sonda takrorlanganda arifmetik qiymat oddiy usul bilan topiladi. Bunda variantalarni oddiy bir - biriga qo`shib, topilgan yig`indini kuzatuvlar soniga bo`linadi. Masalan: muqim shifoxonada zotiljam kasalik bilan yotgan bemorlarning o`rtacha davolanish kunini topish talab etilmoqda (jadval 4.6).

jadval – 4.6

Muqim shifoxonada yurak ishemik kasalik bilan davolanish muddati

V (kunlar)	P (bemorlar soni)	d	d^2
14	1	- 5	25
15	1	- 4	16
16	1	- 3	9
17	1	- 2	4
18	1	- 1	1
19	1	0	0
19	1	0	0
20	1	1	1
21	1	2	4
22	1	3	9

23	1	4	16
24	1	5	25
228	12	0	110

Tegishli qiymatlar quyidagi formulalar orqali keltirib chiqariladi.
O`rtacha arifmetik qiymat

$$M = \frac{\Sigma V}{n}$$

O`rtacha kvadratik og`ish

$$\sigma = \pm \sqrt{\frac{\Sigma d^2}{n}}$$

O`rtacha arifmetik qiymatning o`rtacha xatoligi (kuzatuvlar soni 30 dan ko`p bo`lganda).

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

O`rtacha arifmetik qiymatning o`rtacha xatoligi (kuzatuvlar soni 30 dan kam bo`lganda).

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n-1}}$$

Bu erda:

V – varianta;

n – kuzatuvlar soni;

Σ – yig`indini ko`rsatuvchi belgi (epsilon);

d – variantalarni o`rtacha arifmetik qiymatidan farqi ($d = V - M$)

Qiymatlarni o`rniga qo`yib kattaliklarni aniqlaymiz.

$$M = \frac{\Sigma V}{n} = \frac{228}{12} = 19,0 \text{ kun}$$

$$\sigma = \pm \sqrt{\frac{\Sigma d^2}{n}} = \pm \sqrt{\frac{110}{12}} = \pm 3,02 \text{ kun}$$

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n-1}} = \pm \frac{3,02}{\sqrt{11}} = \pm 0,91 \text{ kun}$$

O`rtacha arifmetik qiymatlar bir necha xususiyatlarga ega.

- 1) O`rtacha arifmetik qiymatlar variatsion qatorning o`rtasida joylashgan bo`ladi ($M=19, 0$).
- 2) O`rtacha arifmetik qiymatlar abstrakt xarakterga ega bo`lib, ular umumlashtirilgan kattaliklardir va o`rganilayotgan voqealarning qonunniyatlarini ochib beradi.
- 3) Variantalarning o`rtacha qiymatdan farqlarining algebralik yig`indisi $\Sigma d=0$ ga teng. Bu esa o`rtacha qiymatni topishdagi hisoblashlarni to`g`ri ekanligini tekshirish va lahma usulida M - ni topish uchun qo`llaniladi.

O`rtacha qiymatlarni hisoblashda quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak:

- 1) Tuzilgan variatsion qatordagi materiallar mazmuni bir xil bo`lishi kerak (yoshi, jins, kasbi, tashxis, va hokazo).
- 2) Kuzatuvlar soni etarli bo`lishi shart.
- 3) Variatsion qator tarqoq bo`lmasligi kerak:

a) variatsion qatorning tarqoq emasligini va o`rtacha qiymatning tipik ekanligini o`rtacha kvadratik og`ish (σ) orqali aniqlanadi. Agar $M \pm 1\sigma$ da kamida – 68,3%, $M \pm 2\sigma$ da – 95,5%, $M \pm 3\sigma$ da 99,9% kuzatuvlar soni joylangan bo`lsa, variatsion qator zinch, kuzatilayotgan majmua esa simmetrik, o`rtacha arifmetik qiymat tipik hisoblanadi.

Bizning misolimizda $M = 19, 0$ kunga, $\sigma = \pm 3,02$ kunga teng. Bu holda $M \pm 3,02$ quyidagi ko`rinishda bo`ladi $19 \pm 3 \cdot 3,02$

Olingan misolda $M \pm 3\sigma$ da 100% kuzatuvlar soni joylashgan. Demak, variatsion qator zinch degan xulosa chiqarish mumkin.

b) sanitariya statistikasida jismoniy rivojlanishni baholash uchun o`rtacha kvadratik og`ishdan foydalaniladi:

$M+1\sigma$ – oralig`idagi kattaliklarni o`rtacha qiymatlar;

$M+1\sigma$ dan, $+2\sigma$ gacha – o`rtadan yuqori qiymatlar;

$M+2\sigma$ dan, $+3\sigma$ gacha – yuqori qiymatlar;

$M-2\sigma$ dan, -1σ gacha – o`rtadan past qiymatlar;

$M-3\sigma$ dan, -2σ gacha – past qiymatlar deb hisoblanadi.

v) o`rtacha kvadratik og`ish yordamida o`rtacha arifmetik qiymatning o`rtacha xatoligi (m) aniqlanadi.

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n}} ; \quad n \leq 30 \text{ bo`lsa} \quad m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n-1}}$$

O`rtacha xatolik, tanlab olingen majmuadan keltirilib chiqarilgan o`rtacha arifmetik qiymatni, general majmuadan olinishi mumkin bo`lgan o`rtacha arifmetik qiymatdan qanchaga farq qilishini ko`rsatadi.

O`rtacha arifmetik qiymatlar, doimo o`zlarning o`rtacha xatoliklari bilan birgalikda yoziladi.

M+m , 19, 0 ± 0, 91 kun

II. Vazn usuli. Bu usul har – bir varianta bir necha bor takrorlanib kelganda, kuzatuvlar soni bir necha ko`p bo`lganda (30 dan ko`p) qo`llaniladi. O`rtacha arifmetik qiymatlarni vazn usulida hisoblash uchun variatsion qator tuziladi va har bir variantani (**V**), uning takrorlanish soniga (**P**) ko`paytirib, ularning yig`indisi **ΣVP** ni topiladi. So`ngra olingen yig`indini kuzatuvlar soniga bo`lib (n), o`rtacha arifmetik qiymat topiladi:

$$M = \frac{\Sigma VP}{N}$$

Sirdaryoda yashovchi bir yoshli o`g`il-o`zbek bolalar bo`yining uzunligini aniqlash talab etilgan bo`lsin (jadval 4.7).

Jadval – 4.7

Sirdaryoda yashovchi bir yoshli bolalar bo`yi (sm)

V	P	VP	d	d ²	d ² P
71	2	142	-5	25	50
72	3	216	-4	16	48
93	4	296	-3	9	36
74	14	1036	-2	4	56
75	30	2250	-1	1	30
76	16	1216	0	0	0
77	12	924	1	1	12
78	11	858	2	4	44
79	6	474	3	9	54
80	4	320	4	16	64
81	3	243	5	25	75
	105	7971			469

$$M = \frac{\Sigma VP}{n} = \frac{7971}{105} = 75,91 \approx 76 \text{ sm}$$

$$\sigma = \pm \sqrt{\frac{\sum d^2 P}{n}} = \pm \sqrt{\frac{469}{105}} = \pm 2,11 \text{ sm}$$

$$\sigma = 2,11$$

$$m = \pm \frac{\sum d^2 P}{\sqrt{n}} = \pm \frac{469}{\sqrt{105}} = \pm 0,21 \text{ sm}$$

Demak $M = 76 \text{ sm}$, $\sigma = \pm 2,11 \text{ sm}$, $m = \pm 0,21 \text{ sm}$

4.7 jadvalda keltirilganidek vazn usulida o`rtacha kvadratik og`ish (σ) bir necha bosqichlarda hisoblab topiladi:

- 1) O`rtacha arifmetik qiymat topiladi (M)
- 2) Har bir variantning o`rtacha arifmetik qiymatdan farqi ($d = V - M$) topiladi.
- 3) Har bir olingan farq kvadratga ko`paytiriladi (d^2).
- 4) Farqlarni kvadratini tegishli chastotaga, ya`ni takrorlanishlar soniga ($d^2 P$) ko`paytiriladi.
- 5) Yuqoridagi ko`paytmalarning yig`indisi topiladi ($\sum d^2 P$)
- 6) Formula asosida o`rtacha kvadratik og`ish hisoblab topiladi

III. Lahza usuli. O`rtacha arifmetik qiymatni lahza usulida hisoblash variatsion qatordagi har - bir varianta bir - necha bor takrorlanib kelganda, kuzatuvlar soni ko`p bo`lganda, hamda matematik hisoblashlarni soddalashtirish uchun qo`llaniladi.

O`rtacha arifmetik qiymatni lahza usulida hisoblash formulasi:

$$M = M_1 + \frac{\Sigma d P}{n}$$

M – izlanayotgan o`rtacha arifmetik qiymat;

M_1 - shartli qabul qilingan o`rtacha qiymat.

Odatda, shartli arifmetik qiymat sifatida variatsion qatorda eng ko`p uchragan varinta qabul qilinadi, chunki ushbu qiymat aniqlanishi lozim bo`lgan haqiqiy o`rtacha qiymat kattaligiga yaqin turadi.

P – chastota, variantalarning takrorlanishi.

n – kuzatuvlar soni

Σ - yig`indi belgisi.

d – variantani, ahartli qabul qilingan o`rtacha arifmetik qiymatdan farqi ($d = V - M_1$).

Lahza usuli alohida olingan variantalarning o`rtacha arifmetik qiymatdan farqining algebraik yig`indisi “0” ga tengligiga asoslangan.

Variantalarni shartli ravishda olingan o`rtacha arifmetik qiymatdan farqlarining yig`indisi “0” ga emas balki, musbat yoki manfiy ifodali songa teng bo`ladi.

O`rtacha arifmetik qiymatni lahma usulida hisoblash bir necha bosqichdan iborat:

- 1) Variatsion qator tuziladi.
- 2) Shartli, variatsion qatorda eng ko`p uchraydigan son, o`rtacha qiymat (M_1) deb qabul qilinadi.
- 3) Shartli o`rtacha qiymatdan variantalar farqi ($d = V - M_1$) topiladi.
- 4) Har bir variant bo`yicha olingan farq, variantalarning takrorlanish soniga ko`paytiriladi ($d \times P$).
- 5) Olingan ko`paytmalarning (ΣdP) yig`indisi topiladi.
- 6) Olingan yig`indini kuzatuvlar soniga bo`linadi va shu yo`l bilan shartli o`rtacha arifmetik qiymatdan, variantalarning o`rtacha farqi topiladi – lahzaning birinchi darajasi ($\Sigma dP / n$).
- 7) Shartli o`rtacha arifmetik qiymatga lahzaning birinchi darajasini qo`sish yo`li bilan izlanilayotgan haqiqiy o`rtacha arifmetik qiymat topiladi (o`rtacha farq musbat sonni tashkil etsa, bu farq shartli o`rtacha arifmetik qiymatga qo`shiladi, manfiy sonni tashkil etsa ayrıladı)

O`rtacha arifmetik qiymatni guruhli variatsion qatordan lahma usulida hisoblash tartibini ko`rib chiqamiz (jadval 4.8).

jadval 4.8

Guruhli variatsion qatordan lahma usulida o`rtacha arifmetik qiymatni aniqlash

V	P	d	dP	d^2	d^2P
8	1	-3	-3	9	9
9	3	-2	-6	4	12
10	8	-1	-8	1	8
11	10	0	0	0	0
12	6	1	6	1	6
13	4	2	8	4	16
14	2	3	6	9	18
15	1	4	4	16	16
	35		7		85

$$M = M_1 + \frac{\Sigma dP}{n} = 11 + \frac{7}{35} = 11,20$$

$$\sigma = \pm \sqrt{\frac{\Sigma dI}{n}} = \pm \sqrt{\frac{85}{35}} = \pm 1,56$$

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n}} = \pm \frac{1,56}{\sqrt{35}} = \pm 0,26$$

4.4. Statistik tadqiqot natijalarining chinligiga baho berish va baholashning parametrik usullari.

Tibbiyotda tadqiqot ishlari ko`pincha tanlab olingan majmuada o`tkaziladi. Majmua qancha puxtalik bilan tanlab olinmasin, u general majmuaga qanchalik o`xshash yoki reprezentativ bo`lmasin, bari - bir tanlab olingan majmua, general majmuadan farq qiladi, demak, tanlab olingan majmuadan olingan nisbiy va o`rtacha qiymatlar general majmuadan olinishi mumkin bo`lgan kattaliklardan farq qiladi. Shuning uchun ham bir qism tanlab olingan hodisalarni o`rganish orqali, jami hodisalar va ularning qonuniyatları haqida to`g`ri xulosa chiqarish uchun tadqiqot natijasida olingan ko`rsatkichlarni aniqligiga baho berish talab etiladi. Ko`rsatkichning aniqlik darajasini o`lchaydigan kattalik uning xatoligi hisoblanadi.

Ko`rsatkichning xatoligi, tanlab olingan majmuadan olingan kattalik (nisbiy yoki o`rtacha), general majmuadan olinishi mumkin bo`lgan kattalikdan qanchaga farq qilishini ko`rsatadi. Shunday qilib, statistik tadqiqot natijasida olingan nisbiy va o`rtacha qiymatlarni aniqlik darajasini belgilash uchun ularning o`rtacha xatoliklari keltirib chiqariladi.

Nisbiy qiymatlarning o`rtacha xatoligini hisoblash formulasi:

$$m = \pm \sqrt{\frac{P \cdot q}{n}}$$

Bu erda:

m – ko`rsatkichning o`rtacha xatoligi;

P – ko`rsatkich;

q - nisbiy miqdorga qarab olingan teskari miqdor.

Uni quyidagicha hisoblash mumkin: agarda ko`rsatkich (P) foizlarda (%) hisoblangan bo`lsa, $q=100-P$ bo`ladi; agarda ko`rsatkich (P) promillilarda (%) bo`lsa, $q=1000 - P$ va hokazo.

n - jami kuzatuvlar soni.

Agar kuzatuvlar soni 30 dan kam bo`lsa formulaga qo`shimcha kiritiladi:

$$m = \pm \sqrt{\frac{P \cdot q}{n-1}}$$

O`rtacha arifmetik qiymatning o`rtacha xatoligini topish formulası:

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

Kuzatuvlar soni 30 dan kam bo`lganda

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n-1}}$$

P general majmua = P tanlangan majmua $\pm tm$

M general majmua = M tanlangan majmua $\pm tm$

Bu erda (t) aniqlik darajasi (ishonchlik kriteriyasi, mezoni).

Sanitariya statistikasida agar $t=1$ ga teng bo`lsa, P - ning aniqlik darajasi 68,3%, $t = 2$ ga teng bo`lsa aniqlik darajasi 95,0%, agarda $t = 3$ ga teng bo`lsa, aniqlik darajasi 99,0% ga teng bo`lishi aniqlangan. Tibbiy va biologik tadqiqotlarda aniqlik darajasi $t=2$ yoki 95% aniqlikka ega bo`lgan ko`rsatkichlar beradigan kuzatishlar soni etarli hisoblanadi.

Bunda general majmuadan olinishi mumkin bo`lgan ko`rsatkichning chegarasi $P \pm 2m$; $M \pm 2m$ oralig`ida bo`ladi, ishonchlilik, ya`ni aniqlik darajasi 95% dan kam bo`lmaydi. Ishonch chegarasi bo nisbiy va o`rtacha miqdorlarning chegarasi hisoblanadi va ushbu chegaradan chetga chiqish hollari tasodifiy tebranishlar tufayli juda kamda-kam ehtimolligi bor. Tanlab olihgan majmuadagi nisbiy va o`rtacha miqdorlar har doyim o`z hatosi bilan ifodalanadi ($P \pm m_P$; $M \pm m_M$).

Masalan: 520 bolani tibbiy ko`rikdan o`tkazilganda, ularning 26 tasida surunkali tonzillit kasalligi topilgan, ko`rsatkichni (P), ko`rsatkichning o`rtacha xatoligini (m), va 95 % aniqlikdagi ko`rsatkichning ishonchlilik chegarasini topish talab etilgan bo`lsin:

1) **520 – 26**

$$100 - X$$

$$P = 5,0 \% \quad q = 100 - 5 = 95$$

$$2) m = \pm \sqrt{\frac{P \cdot q}{n}} = \pm \sqrt{\frac{5 \cdot 95}{520}} = \pm 0,95$$

Bolalar orasida tarqalgan surunkali tonzillit kasalligi ko`rsatkichining 95% teng bo`lgan ishonchlik chegarasi quyidagicha topiladi:

$$P_{g.m.} = P_{t.m.} \pm 2 \cdot m$$

$$P_{g.m.} = 5 \pm 2 \cdot 0,95$$

Demak, ishonchlik chegarasi 6,9 % dan 3,1 % cha bo`ladi

Tibbiyotda ko`pincha taqqoslanayotgan ikki ko`rsatkich orasidagi farqning haqiqiyligiga baho berish talab etiladi. Masalan: ikki guruhdan erkak va ayol, ishchi va xizmatchi, tajriba va nazorat, jismoniy rivojlanish, kasallanish, o`lim ko`rsatkichlar farqini, yoki yangicha tashxislash, davolash, profilaktika usullarining samarasiga baho berish kerak bo`ladi. Bunday hollarda, birinchi navbatda ikki taqqoslanayotgan ko`rsatkichlarning orasidagi farqni aniqlash kerak bo`ladi. U quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$t = \frac{P_1 - P_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}} \geq 2; \quad t = \frac{M_1 - M_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}} \geq 2$$

Agar ko`rsatkichlar orasidagi farq ularning xatoliklari orasidagi farqdan 2 barobar ko`p bo`lsa, ko`rsatkichlar orasidagi tafovut haqiqiy deyiladi.

Misol: qizamiqqa qarshi yangi ishlab chiqilgan vaktsina bilan 380 ta bola emlanganda (tajriba guruhi) ulardan 39 tasi, 250 ta emlangan (nazorat guruhi) bolalardan esa 90 tasi qizamiq kasalligi bilan og`rigan. Qizamiqqa qarshi yangi ishlab chiqilgan vaktsinaning samarasini aniqlash talab etiladi. Buning uchun esa: P_1 , P_2 , m_1 , m_2 , va t ni aniqlash lozim.

$$1) \quad 380 - 39$$

$$100 - X \quad P_1 = 10,3 \%$$

$$2) \quad 250 - 90 \\ 100 - X \quad P_2 = 36,0 \%$$

$$3) m = \pm \sqrt{\frac{P \cdot q}{n}} = \pm \sqrt{\frac{10,3 \cdot (100-10,3)}{380}} = \pm 1,56$$

$$4) m = \pm \sqrt{\frac{P \cdot q}{n}} = \pm \sqrt{\frac{36 \cdot (100-36)}{250}} = \pm 3,03$$

$$5) \quad t = \frac{P_1 - P_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}} = \frac{36,0 - 10,3}{\sqrt{3,03^2 + 1,56^2}} = 7,5$$

Xulosa: ko`rsatkichlar orasidagi tafovut, farqning xatoligidan 7,5 marta katta. Demak, ko`rsatkichlar orasidagi farqni haqiqiy deb qabul qilishimiz mumkin. Shunday qilib, yangi ishlab chiqilgan vaktsina samarali bo`lib, u bilan bolalarni emlash qizamiq kasalligini keskin kamayishiga olib keladi.

4.5. Dinamik qatorlar va ularni tahlil qilish usullari

Sog`liqni saqlash sistemasining, tibbiyot muassasalarining ish faoliyatini, aholining tabiy harakatini, qolaversa ayrim hodisalarni vaqt mobaynida o`zgarishini tahlil qilish uchun dinamik qatorlardan foydalilanadi. Hamshiralalar ham o`z faoliyatida dinamik qatorlardan ko`p foydalanishadi, yani hududida aholi soni yillar davomida o`zgarishini, ma`lum bir yillar orasida bolalarni emlash bilan qamrab olish, kasalanish, tug`ilish, o`lim va boshqa ko`rsatkichlarni tahlil qilishda. Shuning uchun ham dinamik qatorlarni to`g`ri tuzish, va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bir turdagи bir-biriga taqqoslanayotgan kattaliklardan iborat bo`lgan va hodisalarni ma`lum vaqt mobaynida o`zgarishini xarakterlaydigan qatorlar - dinamik qatorlar deb ataladi.

Dinamik qatorlarning kattaliklari, qatorning darajasi deb ataladi. Dinamik qatorlar mutloq sonlardan, nisbiy va o`rtacha qiymatlardan tuzilgan bo`lishi mumkin. Dinamik qatorlar ikki turli bo`lishi mumkin:

oddiy va murakkab. Oddiy dinamik qatorlar mutloq sonlardan, murakkab dinamik qatorlar esa nisbiy va o`rtacha qiymatlardan tuzilgan bo`ladi.

Hodisani qaysi vaqt oralig`idagi o`zgarishlarni ko`rsatishiga qarab oddiy dinamik qatorlar o`z navbatida 2 xil bo`lishi mumkin: lahzalik va intervalli. Lahzalik qatorlar hodisani aniq bir olingan sanadagi o`zgarishlarini ko`rsatadi (masalan: yilning boshi 1 yanvar, yoki yilning oxiri 31 dekabr).

Intervalli qatorlar – hodisani ma`lum bir vaqt oralig`idagi o`zgarishlarini ko`rsatadi (masalan: bir oy, bir kvartal, bir yil mobaynida).

Lahzalik qatorlarga misol qilib 1 yanvar yoki 31 dekabrga olingan muqim shifoxonalardagi o`rinlar soni, poliklinikalar, dispanserlar, tug`ruqxonalar soni, vrachlar, hamshiralalar soni va hokazolarni olish mumkin.

Intervalli dinamik qatorlarga yil mobaynida olingan tug`ilish, kasallanish, o`lim, shikastlanishlar soni misol bo`ladi. Interval qatorda olingan davr (yil, oy, hafta, kun) hodisani o`zgaruvchanligiga bog`liq, hodisa qancha sekin o`zgarsa, davr shunchalik katta olinadi.

Dinamik qatorlarni tahlil qilish uchun quyidagi ko`rsatgichlardan foydalilanadi.

1. Mutloq o`sish (kamayish); 2) O`sish sur`ati (kamayish); 3) Yiriklashish sur`ati (kamayish); 4) Bir foiz o`sishning mutloq miqdori; 5) Yaqqollik ko`rsatkichi.

Misol: «N» shahridagi zotiljam kasalligi bilan og`rigan bemorlarni muqim shifoxonalarda o`rtacha davolanish muddatlari (kunlarda) jadval 4.9.

jadval 4.9.

Bemorlarni muqim shifoxonalarda o`rtacha davolanish muddatlari (kunlarda)

Yillar	O`rtacha davolanish muddati	Mutloq o`sish	Yiriklashish su`rati	O`sish su`rati	1% o`sishning m.m.	Yaqqollik ko`rsatkichi.
2010	23,0	-	-	-	-	100
2012	22,0	-1	95,7	-4,3	0,23	95,7
2012	20,0	-2	90,9	-9,1	0,22	87,0
2013	19,0	-1	95,0	-5,0	0,20	82,0
2014	18,0	-1	94,7	-5,3	0,19	78,3
2015	20,0	+2	11,1	+11,1	0,18	87,0

Mutloq o`sish – joriy va o`tgan yil ko`rsatkichlari orasidagi tafovut.

Mutloq o`sish = joriy yil ko`rsatkichi – o`tgan yil ko`rsatkichi =

$$\text{Mutloq o'sish} = 22,0 - 23,0 = -1$$

Yiriklashish sur`ati – keyingi yil ko`rsatkichini o'tgan yil ko`rsatkichiga foizlardagi (%) nisbati.

$$\begin{aligned} \text{Yiriklashish sur`ati} &= \frac{\text{keyingi yil ko`rsatkichi} \times 100}{\text{o'tgan yil ko`rsatkichi}} \\ \text{Yiriklashish sur`ati} &= \frac{22,0 \times 100}{23} = 95,7 \end{aligned}$$

O'sish sur`ati – mutloq o'sishni o'tgan yil ko`rsatkichiga foizlardagi (%) nisbati.

$$\begin{aligned} \text{O'sish sur`ati} &= \frac{\text{Mutloq o'sish} \times 100}{\text{o'tgan yil ko`rsatkichi}} \\ \text{O'sish sur`ati} &= \frac{-1 \times 100}{23,0} = -4,3 \end{aligned}$$

Bir foiz o'sishning mutloq miqdori = mutloq o'sishni o'sish sur`atiga nisbati.

$$\begin{aligned} \text{Mutloq o'sish} \\ 1 \% \text{ o'sishning mutloq miqdori} &= \frac{\text{Mutloq o'sish}}{\text{o'sish sur`ati}} \end{aligned}$$

$$1 \% \text{ o'sishning mutloq miqdori} = \frac{-1}{-4,3} = 0,23$$

Yaqqollik ko`rsatkichini hisoblash usuli nisbiy qiymatlar mavzusida yoritilgan.

Uzoq yillar davomidagi ko`p sonli kuzatishlar har doim ham o`rganilayotgan hodisani dinamikadagi o`zgarishlarini aniq ko`rsatib beravermaydi. Bunday hollarda dinamik qatorlarining qonuniyatlarini aniqlash uchun, qatorlarni «tekislash» tavsiya etiladi.

Dinamik qatorlarning tekislashning bir necha usullari mavjud. Intervallarni yiriklashtirish - bir necha yonma-yon turgan davrlarning kattaliklarini yig`indisini topishdan iborat. Natijada birmuncha uzoq davr mobaynidagi kattaliklar olinadi. Masalan: kasalliklarning oylik sonlarini kvartallar bo`yicha kattalashtirish (jadval 4.10.)

jadval 4.10.

Shaharda ichak infektsiyasi kasalligi oylar bo`yicha o`zgarishi

Kasalliklar soni	oylar											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Oylar bo`yicha	129	193	133	387	300	288	530	470	280	231	137	260
Kwartallar bo`yicha	455			975			1280			628		

Dinamik qatorlar oralig`ini kattalashtirilgandan so`ng II va III kvartallarda kasalliklar sonini ko`payganligini aniqlaymiz. Guruhlararo o`rtacha arifmetik qiymatlarni topish orqali dinamik qatorlarni «tekislash» usuli. Buning uchun yonma-yon davrlarning kattaliklarni bir-biriga qo`shib, interval oralig`i kattalashtiriladi va har bitta kattalashtirilgan davr uchun o`rtacha arifmetik qiymat aniqlanadi (javdal 4.11).

jadval 4.11

N nomidagi tumanda chaqoloqlar o`limi ko`rsatkichning dinamikasi

Yil	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
o`lim ko`rsatkichi %	11, 0	9, 8	8, 0	9, 2	8, 2	8, 6	8, 5	7, 9
Guruhlararo o`rtacha arifmetik qiymat	10, 4		8, 6		8, 4		8, 2	

Guruhlararo o`rtacha arifmetik qiymatlarni aniqlash, tashxislar tafovutini (%) dinamikada kamayib borayotganligini ko`rsatib turibdi.

Dinamik qatorlarni «tekislash»ning asosiy usullaridan biri

o`zgaruvchan o`rtacha arifmetik qiymatlarni hisoblashdir. Buning uchun har bir kattalik, o`zining va unga qo`shni bo`lgan ikki kattalikning yig`indisidan keltirilib chiqarilgan o`rtacha arifmetik qiymat bilan almashtiriladi (jadval 4.12).

jadval 4.12

N nomidagi tumanda chaqoloqlar o`limi ko`rsatkichning dinamikasi

Yil	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
o`lim ko`rsatkichi %	11,0	9,8	8,0	9,2	8,2	8,6	8,5	7,9
O`zgaruvchan o`rtacha arifmetik qiymat	-	9,6	9,0	8,7	8,6	8,4	8,3	-

Ushbu usul dinamik qatorni ma`lum darajada tekislab, o`rganilayotgan hodisaning asosiy qonuniyatlarini ochib berishga yordam beradi.

4.6 Grafik tasvirlar, turlari, qo`llanilishi


Statistik tadqiqotlar natijasida olingan ma`lumotlar jadval tarzida keltiriladi. Ammo, ko`p hollarda jadvalda keltirilgan qiymatlar orqali tahlil etilayotgan hodisani ko`rinarliroq, yaqqolroq qilib yoritish imkoniyati bo`lmaydi. Olingan natijalarni ko`rgazmali qilish, yahshiroq o`zlashtirish va ilmiy tahlilni osonlashtirish uchun turli diagrammalar ko`rinishidagi grafik tasvirlar qo`llaniladi

Grafik tasvirlar uch turli: diagramma, kartogramma, kartodiagramma shaklida bo`ladi. Sanitariya statistikasida eng ko`p qo`llaniladigan grafik tasvirlardan biri diagrammalardir. Diagrammalar o`z navbatida chiziqli, ustunli, sektorli, radial va figurali diagrammalarga bo`linadi.

Chiziqli diagrammalar. To`g`ri, egri, bukri chiziqlar shaklida bo`lishi mumkin. chiziqli diagrammalarni tuzish uchun koordinatadan foydalilanadi. Buning uchun abtsissa (gorizontal) va ordinata (vertikal) o`qlari chizilib, ular kesishgan nuqta «0» deb olinadi va shu qiymatlarga qarab teng bir xil bo`laklarga ajratiladi. So`ngra abtsissa o`qida belgilanayotgan nuqtalardan tasvirlanayotgan hodisaning kattaliklariga teng bo`lgan balandlikda ordinata o`qiga parallel chiziqlar tortiladi. Har bir o`tkazilgan ordinatalarning oxirgi nuqtasi bir-biri bilan tutashtirilgandan so`ng, o`rganilayotgan hodisaning dinamikasini ko`rsatuvchi chiziqli diagramma hosil bo`ladi.


Bunday diagrammaga misol qilib bemorlarning haroratini o`lchash varaqasini olish mumkin. chiziqli diagramma ma`lum hodisaning

ko`rsatkichlarini vaqt oralig`idagi o`zgarishlarini, dinamikasini tasvirlash uchun qo`llaniladi. chiziqli diagrammlardan ikki hodisani o`zaro bir - biriga bog`liqligini (vazn va bo`y) tasvirlash uchun ham qo`llaniladi (rasm 1).




rasm 1. chiziqli diagramma

Ustunli diagrammalar chiziqli diagrammalar kabi tuzilgan bo`ladi, bunday diagrammalar hodisaning dinamikasini ko`rsatish uchun emas, balki ularning ma`lum vaqt oralig`idagi yoki territoriyalardagi kattaliklarini solishtirish uchun qo`llaniladi (rasm 2).



rasm 2. ustunli diagramma

Sektorli diagrammalar aylana yoki lenta shaklida bo`lishi mumkin. Aylana shaklidagi sektorli diagrammalarda o`rganilayotgan hodisaning ayrim bo`laklari aylananing sektorlari sifatida tuziladi. Bunday diagrammalar ko`pincha ekstensiv ko`rsatkichlarda ifodalangan hodisalarni tasvirlash uchun qo`llaniladi (rasm 3).



rasm 3. sektorli diagramma


Lenta shaklli diagrammalar. Bunday diagrammalarni tuzish uchun to`g`ri burchakli to`rtburchak tanlab olinib, o`rganilayotgan hodisaning kattaliklariga qarab bo`laklarga ajratiladi (rasm 4).



rasm 4. Lentali diagramma

Aylana va lentali diagrammadan ikki yoki undan ko`p bo`lgan majmualarning yoki bir xil hodisalarning vaqt orasidagi kattaliklarini taqqoslash uchun ham foydalaniladi.


Radial diagrammalar. Bunday diagrammlar tug`ilish, kasallanish va o`lim ko`satkichlarini yilning mavsumiga (kun, xaftha, dekada ,oy) qarab o`zgarishini tasvirlash uchun qo`llaniladi. Radial diagrammalarni tuzish hodisa kattaliklari yil davomida (kun, hafta) necha marta bo`linib o`rganilgan bo`lsa, Shuncha bo`lakka bo`linadi (masalan: hodisalar har bir oy bo`yicha o`rganilgan bo`lsa, aylana 12 bo`lakka bo`linadi (rasm 5).



rasm 5 Radial diagramma


Radial diagrammada aylananing radiusi hodisaning bir yildagi o`rtacha kattaligiga teng deb olinadi. Har bir radius esa o`rganilayotgan (kasallanish yoki o`lim) ko`rsatkichining tegishli oylaridagi kattaliklariga qarab ajratiladi. Agar yilning ma`lum oylarida o`rganilgan ko`rsatkich yilning o`rtacha ko`rsatkichlaridan yuqori bo`lsa, unga tegishli radiusni davom ettirish lozim (aylanining tashqarisiga davom ettiriladi), agar kichik bo`lsa aylanining ichki qismida qoladi. Yilning oylari tegishli radiuslarga soat strelkasi yo`nalishida belgilanadi (yuqoridan o`ngga, pastga, keyin chapga va yuqoriga). Belgilangan nuqtalar bir - biri bilan siniq chiziqlar orqali tutashtiriladi.

Figurali diagrammalardan, biror o`rganilayotgan hodisaning (aholi, vrachlar, o`rta tibbiyot xodimlarining soni) vaqt oralig`idagi yoki territoriyalarda o`zgarishni tasvirlash uchun foydalaniladi. Hodisalarni ma`lum figuralar: to`rtburchak, aylana, uchburchak, odamchalar ko`rinishida tasvirlanadi. Bunda hodisalarning kattaliklari figuralarni katta - kichik qilib tasvirlash orqali aks ettirilmasdan, balki ularni sonini ko`paytirish yoki kamaytirish orqali ifodalash maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki o`zgarishlarni figuralarning kattaligi yoki hajmiga qarab belgilab bo`lmaydi (rasm 6).



rasm 6. Figurali diagrammalar

Kartogrammalar deb ma`lum bir hodisaning o`zgarishlarini territoriyalar bo`yicha geografik yoki sxematik xaritalarda ifodalashga aytildi. Buning uchun o`rganilayotgan hodisaning kattaliklari xaritadagi territoriyalar bo`yicha har xil rang va shtrixlar tarzida ko`rsatildi (rasm 7).



rasm 7. Kartogramma

Kartodiagramma - kartogrammaga qo`shimcha ravishda diagrammalar chiziladi. Kartodiagramma bir hodisaning kattaliklarini ikkinchi bir olingan hodisaning kattaliklariga bog`liqligini territoriyalarda tasvirlash uchun foydalaniadi.

Har bir diagramma qanday grafik tasvir turiga tegishli bo`lmisin:

Tasvirni mazmuni to`liq, aniq va ravshan tushuntiruvchi nomga ega bo`lishi kerak.

Diagrammalarga tegishli sonlarni uning o`zida yoki unga keltirilgan jadvalda ko`rsatilishi lozim.

Zarur bo`lgan diagrammalarda shartli belgilar keltirilishi kerak.

Geometrik belgilar, figuralar, har - xil ranglar, shtrixlar shartli belgilar orqali ko`rsatilishi lozim.

V bob: AHOLI SALOMATLIGINI BAHOLOVCHI KO‘RSATKICHLAR

5.1. Salomatlik tushunchasi, uni baholash ko‘rsatkichlari

Jahon Sog‘liqni Saqlashni Tashkiloti (JSST) 1948-yilda qabul qilgan nizomida keltirilgan ta’rificha: salomatlik - bu nafaqat kasallik va jismoniy kamchiliklarning bo‘lmasligi, balki sog‘lom, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatga ega bo‘lishlikdir.

Aholi salomatligiga baho berishda ularning 4 ta darajasini qayd etish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Alohida shaxs salomatligi – individual salomatlik.
2. Ijtimoiy va etnik guruh salomatligi – guruh salomatligi.
3. Ma’muriy mintaqaviy aholining salomatligi – mintaqaviy yoki regional salomatlik.

4. Jamoat, populyasiya salomatligi - jamoat salomatligi.

JSST hujjatlarida odamlar salomatligi bu - ijtimoiy sifat ekanligi bir necha bor ta'kidlanib, uni baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsija etiladi:

- yalpi ichki mahsulotlardan sog'liqni saqlashga ajratilgan umumiyxarajat;
- birlamchi tibbiy – ijtimoiy yordamning ommabopligi;
- aholini tibbiy yordam bilan qamrab olinganligi;
- aholini emlash darajasi;
- malakali mutaxassislar bilan homiladorlarni tekshirish darajasi;
- bolalarning ovqatlanish holati;
- bolalar o'limi darajasi;
- kutilayotgan o'rtacha umr;
- aholining gigienik savodxonligi.

Tibbiy ijtimoiy tadqiqotlarda ayrim guruh, mintaqaviy jamoat salomatligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Demografik ko'rsatkichlari.
2. Kasallanish ko'rsatkichlari.
3. Nogironlik ko'rsatkichlari.
4. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari.

Demografik ko'rsatkichlariga tug'ilish, o'lim, bolalar o'limi, perinatal o'limi, onalar o'limi, serpushtlik, tabiiy o'sish, o'rtach yashash davomiyligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Kasallanish ko'rsatkichlariga birlamchi kasallanish, umumiy kasallanish, vaqtinch mehnat qobiliyatini yoqotish kasallanish, jarohatlanish, tibbiy ko'rikda aniqlangan kasallanish ko'rsatkichlari, kasallanish dinamikasi va hokazolar kiradi.

Nogironlik ko'rsatkichlariga birlamchi nogironlik (kalendar yili davomida ma'muriy hududa ro'yxatga olingan birlamchi nogironlar kontingenti) va umumiy to'plangan nogironlar (aholi orasida nogironlarning umumiy kontingenti) ko'rsatkichlari kiradi.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari - bo'yi uzunligi; vazn; ko'krak qafasi diametri; bosh aylanasi; mushaklar kuchi.

5.2. Tibbiy demografiya va aholining tabiiy harakati

Demografiya – (yunoncha demos – aholi, grafiya – o'rganaman) aholi va uning rivajlanishi haqidagi fan. Demografik statistika aholining

soni, tarkibi, tug‘ilishi, o‘limi, ko‘payishi, harakati haqidagi asosiy qonuniyatlarni o‘rganadi. Demografik ma’lumotlar aholining tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun, uni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega (muqim shifoxonadagi o‘rinlar soni, poliklinikadagi lavozimlar, shtatlar, yasli, sanatoriyalardagi o‘rinlar soni, vrachlar va o‘rta tibbiyat xodimlarining, dorixonalarning soni va boshqalar). Aholi, sog‘liqni saqlash muassasalar uchun bevosita sog‘lomlashtirish ishlari olib boriladigan obyekt hisoblanadi. Aholini o‘rganish ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1. Aholini statikasi, boshqacha qilib aytganda aholining ma’lum bir vaqtda olingan soni, tarkibi (jinsi, yoshi, kasbi, mashg‘uloti, oilaviy ahvoli, millati, tili, ma’lumoti), turar joyi, geografik joyylanishi, zichligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

2. Aholi dinamikasi (harakati) - aholi sonining o‘zgarashi. U o‘z navbatida ikki xil bo‘ladi:

a) mexanik harakat;

b) tabiiy harakat (tug‘ilish va o‘lim natijasida).

Aholi dinamikasi (harakati). Aholining ichida tabiiy va mexanik (migratsiya jarayonlari) harakat farqlanadi. Aholining tabiiy harakati deganda, asosiy demografik jarayon tug‘ilish va o‘limning natijasida ma’lum bir territoriyada aholi sonining o‘zgarishi tushuniladi.

Migratsiya deganda esa aholining bir davlat ichida yoki bir davlatdan ikkinchi davlatga mexanik ravishdagi harakati tushuniladi. Migratsiyaning har xil formalari bo‘lib birinchi navbatda tashqi migratsiya – davlatlararo va ichki migratsiya – bir davlatning ichidagi harakat tushuniladi. Ichki migratsiya ham ikki xil bo‘ladi. Masalan: doimiy yashash joyini o‘zgartirish natijasidagi harakat va mavsumiy migratsiya – aholining ma’lum bir vaqtdagi (mavsumdagi) harakati va boshqalar. Migratsiya jarayonlari katta ijtimoiy-gigienik va epidemiologik ahamiyatga ega:

a) aholining mexanik harakati ma’lum bir territoriyada aholining son jihatdan ko‘payishiga, boshqa bir territoriyada esa kamayishiga, aholining yoshi, jinsi, kasbi bo‘yicha tarkibini o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida sog‘liqni saqlashmuassasalarining faoliyatniko‘rib chiqishni talab etadi;

b) aholining mexanik harakati, ayniqsa davlatlararo migratsiyasi natijasida u yoki bu davlatda Yuqumli kasallikkarni kelib chiqishiga olib keladi.

Aholining tabiiy harakati. Aholi – odamlardan tashkil topgan, demografik hodisalar esa aholida odamlarga tegishli bo‘lgan belgilardan tashkil topgan. Demak, jamiyat orasida uchraydigan boshqa hodisalar kabi, kuzatilayotgan voqealar soni aholining umumiy soniga bog‘liq. Shuning uchun ham, kuzatilayotgan hodisaningkattaligi, intensivligi haqidaso‘z yuritar ekanmiz, uning mutloq sonlardagikattaligini bilish etarli emas. Aholi orasida bo‘layotgan jarayonlar haqida aniqroqma’lumotlar olish uchun Shu hodisalarning ular kelib chiqqan muhitga, ya’ni aholi soniga taqqoslashimiz kerak. Bu esa demografik ko‘rsatkichlar degan qiymatlardan foydalanishni talab etadi. Aholi soni esa-yilning oxiriga yoki boshiga olingan bo‘ladi. Shuning uchun hamdemografik ko‘rsatkichlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun birinchi navbatda o‘rtacha aholi sonini keltirib chiqarish kerak. Ko‘pincha aholining o‘rtacha soni sifatida uning-yil boshidagi (1yanvar) va-yil oxiridagi (31 dekabr) sonining yig‘indisini yarmi olinadi. Aholining-yillik o‘rtacha soni aniqlangandan so‘ng tuman, viloyat, shahar, respublika bo‘yicha aholining tabiiy harakatini tashkil etuvchi asosiy tibbiy – demografik ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Aholi yosh-jins tarkibi aholining salomatlik darajasi va ko‘payishini belgilaydi. Aholining ko‘payishi 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning va 50 undan katta yoshdagilar orasidagi nisbat orqali ifodalanadi.

14 yoshdagi bolalarni 50 va undan katta yoshdagilarga nisbatan ko‘pligi aholi sonining ko‘payishidan darak beradi.

14 yoshdagi bolalarni 50 va undan katta yoshdagilarga nisbatan kamliyi aholi sonining kamayishidan dalolat beradi.

14 yoshdagi bolalarni 50 va undan katta yoshdagilar nisbatini teng bo‘lishi aholi sonining o‘zgarmayotganligidan dalolat beradi.

Aholi orasidagi demografik o‘zgarishlarni baholash uchun bola tug‘ish davriga tegishli guruhni (15 – 49 yosh) alohida ajratib, o‘rganish katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha 15 – 49 yoshli aholi, aholini umumiy sonini 50%izini tashkil etadi. Ana shunga asoslangan holda aholining yosh bo‘yicha 3 turli tarkibi farqlanadi (jadval 5.1.)

Jadval 5.1

Yosh (yillarda)	Aholi tarkibi (ja’miga nisbatan % da)		
	Progressiv tip	Statsionar tip	Regressiv tip
0 – 14	30	25	20

15 – 49	50	50	50
50 va undan yuqori	20	25	30

Aholi statikasi haqidagi ma'lumotlarni olish uchun asosiy manba bo'lib davlat tomonidan davriy ravishda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish hisoblanadi. Aholini ro'yxatga olish – bu aholi soni, uning tarkibi va joylashishini aniqlashdir.

Aholi ro'yxati lahzalik prinsipiiga asoslangan bo'lib, u aniq bir kun va soatda, aholi eng kam harakat qiladigan payti, qish faslining dekabr yoki yanvarida o'tkaziladi va u barcha aholini ro'yxatdan o'tkazishga asoslangan. Aholini ro'yxatdan o'tkazish barcha territoriya bo'yicha bir xil dastur va reja asosida bevosita so'rov usullari orqali amalga oshiriladi. Aholini ro'yxatdan o'tkazish juda katta mehnat, kuch, mablag'ni talab qilganligi uchun ham odatda 10 yilda bir marta o'tkaziladi.

O'zbekiston Respubлиka aholisi oxirgi 1989 yil 12 yanvarda yoppasiga o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq 19 million 905 ming kishini tashkil etdi. 2015 yilda O'zbekiston aholisining soni 31575,3 mlnni tashkil etdi. Shundan qishloq aholisi 49,4% va shahar aholisi 50,6% tashkil etdi. Dunyo bo'yicha O'zbekiston aholi soniga ko'ra 42 o'rini, markaziy osiyo respublikalari ichida O'zbekiston aholi soni va zichligi jihatidan birinchi o'rinni egallaydi.

Aholini ruyxatga olish qo'yidagi printsiplarga asoslangan holda olib boriladi:

- 1) Davriylik (ko'pgina davlatlarda har 10-yilda, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda – 5-yilda).
- 2) Umumiylit (barcha aholi hisobga olinadi).
- 3) Yagonalik (yagona shakldagi anketalardan foydalilanadi).
- 4) Aniq belgilangan vaqtda olib borilishi (25 dekabrdan – 5 yanvargacha).
- 5) Ma'lumotlarni so'rov usuli bilan yig'ish.
- 6) Ma'lumotlarni markazlashgan holda tahlil qilish.

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar uning istiqbolini aniqlashda, milliy xo'jalik sohalarini rivojlanishini rejalashtirishda, aholining sanitariya holatini baholash va salomatligining turli ko'rsatkichlarini hisoblashda, nohush sanitariya-epidemiologik tadbirlarni baholash maqsadida foydalilanadi.

Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari. Demografik jarayonlarni o'rganishda aholining tabiiy harakati umumiyl va maxsus demografik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi.

Demografik jarayonlarni tahlil qilishda bir necha usullardan foydalilanildi:

1.umumi demografik ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash;

2.turli aholi guruhlari orasida maxsus ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash;

3.standartlashtirigan ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash;

4.o'lim va yashash jadvallarini tuzish.

Demografik ko'rsatkichlardan quyidagi hollarda foydalilanildi:

1. aholi salomatligini baholash uchun (tug'ilish,o'lim,o'rtacha umr davomiyligini hisoblashda);

2. aholining tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi tug'ilish ko'rsatkichini baholashda;

3.aholi soni va tarkibi asosida tibbiy kadrlarni rejalashtirish va joylashtirish;

4. tibbiy-ijtimoiy tadbirlarni samarasini baholash, rejalashtirish va prognozlashda.

Aholining sonini va tarkibini bilmasdan turib, aholi salomatligi va tibbiyot muassasalarining faoliyatini chuqur tahlil qilish, ular ishini rejalashtirish mumkin emas.

Demografik ko'rsatkichlarni asosan 1000 aholiga nisbatan hisoblanib quyidagilarga bo'linadi: umumi va maxsus.

Umumiy demografik ko'rsatkichlar:

1.Tug'ilish ko'rsatkichlari – xududdagi 1000 aholiga to'g'ri keladigan tug'ilishlar sonini ko'rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida tug'ilganlar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha-yillik soni}};$$

2.O'lim ko'rsatkichi – xududdagi 1000 ta aholiga to'g'ri keladigan o'limlar sonini ko'rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida o'lganlar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha-yillik soni}};$$

aholining o‘rtacha soniga

3.Tabiyy o‘sish ko‘rsatkichi – 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan ko‘paygan aholi sonini ko‘rsatadi:

$$X = \text{tug‘ilish ko‘rsatkichi} - \text{o‘lim ko‘rsatkichi}$$

4.Hayot indeksi – tug‘ilganlarning mutloq sonini o‘lganlarning mutloq soniga bo‘lgan nisbatini ko‘rsatadi. Undan o‘lim jadvallarini tuzish, umr davomiyligini prognozlashtirishda foydalaniladi.

yil davomida tug‘ilganlar soni

$$X = \frac{\text{yil davomida tug‘ilganlar soni}}{\text{yil davomida o‘lganlar soni}};$$

Tug‘ilish hodisalarini statistik ruyxatga olish. Qonunga muvofiq yangi tug‘ilgan chaqaloqlar bir oy mobaynida tug‘ilgan yoki yashash joyiga qarashli FXDYO tashkilotlarida ruyxatdan o‘tilishi shart. FXDYO tashkilotida bolani ruyxatga olish «Tug‘ilganligi haqidagi tibbiy guvohnoma» (103/h hujjati) asosida olib boriladi.

Demografik jarayonlarni o‘rganishda aholining ayrim guruhlari orasida tabiiy harakat ko‘rsatkichlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Aholi orasida tug‘ish yoshidagi ayollarni (15-49 yosh) ko‘p yoki kamliги tug‘ilish ko‘rsatkichiga ta’sir ko‘rsatganligi sababli maxsus demografik ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi.

Maxsus demografik ko‘rsatkichlar:

1.Umumiy serpushtlik ko‘rsatkichi – xududda 1000 ta tug‘ish (fertil) yoshidagi ayollarga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlarni ko‘rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida tug‘ilganlar soni} \times 1000}{\text{15-49 yoshdagi ayollar soniga}};$$

2.Nikohdagi serpushtlik ko‘rsatkichi – 1000 ta tug‘ish (fertil) yoshida va nikohda turgan ayollarga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar sonini ko‘rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida tug‘ilganlar soni} \times 1000}{\text{15-49 yoshdagi nikohda turgan ayollar soniga}};$$

Sog‘liqni saqlash tizimini samaradorligini o‘rganishda aholining yosh guruhlari orasida o‘lim ko‘rsatkichlari alohida o‘rin egallaydi, Shu jumladan go‘daklar, neonatal va perinatal o‘lim ko‘rsatkichlari.

3.Go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi – 1000 tirik tug‘ilganlarga nisbatan 1 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘lgan bolalarning sonini ko‘rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida 1 yoshgacha o‘lgan bolalar soni} \times 1000}{\text{Tirik tug‘ilganlar soni}};$$

4.Neonatal o‘lim ko‘rsatkichi – 1000ta tirik tug‘ilgan bolalarga nisbatan hayotining 1 oyida o‘lganlar sonini ko‘rsatadi va quyidjagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida 1 oyida o‘lgan bolalar soni} \times 1000}{\text{tirik tug‘ilganlar soniga}};$$

5. Perinatal o‘lim ko‘rsatkichi -1000 ta o‘lik va tirik tug‘ilganlarga to‘g‘ri keladigan o‘limlar sonini ko‘rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida perinatal davrda uylgan bolalar soni} \times 1000}{\text{tirik va o‘lik tug‘ilganlar soni}};$$

Perinatal davr homiladorlikning **28 haftasi**, tug‘ish davri va hayotining birinchi haftasi (168 soat) o‘z ichiga oladi.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi va uning ijtimoiy gigienik ahamiyati, Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi aholi salomatligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini, aholi sanitariya – demografiya holatini, tibbiy xizmat sifatini, sanitariya – epidemiologiya, profilaktika va davolash ishlarining samaradorligini ko‘rsatadigan o‘ziga xos barometr – indikatori hisoblanadi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini, uning sabablarini va dinamikasini tahlil qilish, sog‘liqni saqlash muassasa-

larini, bolalar salomatligini yahshilash uchun zarur ma'lumotlar bilan qurollantiriladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limini kamaytirish, aholining umumiyoq o'lim ko'rsatkichlarini kamayishiga, aholini ko'payishiga, umr ko'rish darajasini oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bir Yoshgacha bo'lgan bolalar bolalar o'limi hozirgi davrning birinchi navbatdagi ijtimoiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi, aholi o'limining umumiyoq ko'rsatkichlaridan 4-5 barobar ko'p bo'lganligi uchun ham muhim ijtimoiy – gigienik ahamiyatga ega. Kelgusida bolalar o'limini (1 yoshgacha), chuqur ijtimoiy gigienik tadqiqotlar orqali o'rganib, onalar va bolalar salomatligini yahshilashning har tomonlama maqsadli, chora tadbirlarini ishlab chiqqan va ularni hayotga tadbiq qilgan holda kamaytirishga erishish mumkin.

Bolalar o'limi (1 yoshgacha) haqidagi statistik ma'lumotlar o'limni, o'lim haqidagi vrachlik guvohnomasiga va tug'ilishni esa tug'ruq to'g'risidagi guvohnomaga o'z vaqtida qayd qilishiga asoslangan. Olingan ma'lumotlarning sifati va uning aniqligi tibbiyat muassasalari va statistika bo'limlarining xodimlariga va ularning malakasiga bog'liq. 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi haqidagi statistik ma'lumotlarning to'liqligiga va sifatiga erishishda hujjatlarni to'ldirishga, tug'uruqxonalaragi o'lik tug'ilish va o'limni o'z vaqtida ro'yxatga olib, qayd etishga, hamda har bir o'limning sabablarini bevosita tahlil qilishga javobgar bo'lgan tibbiyat muassalari, ularda ishlovchi xodimlarning roli katta ekanligini aholida ta'kidlash lozim.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkichi xududlarda (tuman, shaxar, viloyat) tug'ilish ko'rsatkichi va tug'ilgan chaqaloqlar soniga chambarchas bog'lab o'rganiladi. Agar biror tuman yoki shaharda bir-yilning ichida 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi kamayib ketsa, bu xuddudda bolalar o'limini oldini olish bo'yicha chora tadbirlar yahshi yo'lgan deb bo'lmaydi.

Ko'rsatkichlar bir necha yil, ya'ni kamida uch yil mobaynida bir xil kamaygan holda saqlanib qolsa, unda bu ko'rsatkich xaqiqatdan ham kamayganligiga ishonch hosil qilsa bo'ladi. Shuni nazarda tutib, tumanlar bo'yicha oddiy va qulay bo'lgan bir yoshgacha bolalar o'limi ko'rsatkichini uch yillik o'rtachasini hisoblash tavsiya etiladi. Tug'ilgan va o'lgan bolalarning soni ma'lum bo'lsa, buni hisoblab chiqarish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini tahlil qilishning asosiy qismlaridan biri ular hayotining ayrim davrlarga bo‘lib o‘lim ko‘rsatkichlarini aniqlashdir. Bu o‘z navbatida bolalarning (1 yoshgacha) o‘limini aniq sabablarini ochib, ularni kamaytirishga qaratilgan maqsadli chora tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limining qonuniyatlarini aniqlash uchun uni ma’lum olingen viloyatlar, respublikavaboshqadavlatlardagikattaliklaribilansolishtirish zarur. Bir yoshli bolalar o‘limi ko‘p jihatdan tug‘ilish darajasiga bog‘liq. Qaerda tug‘ilish ko‘p bo‘lsa, tabiiy hol u erda o‘lim, ayniqsa bir yoshli bolalar o‘limi bir muncha yuqori bo‘ladi.

Quyidagi ta’riflar jahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan ham xalqaro taqqoslov ishlari uchun tayyorlangan statistik ko‘rsatkichlarga muvofiq ham mazkur ko‘rsatkichlar olingen ma’lumotlarni taqdim qilish bo‘yicha tavsiyalarga muvofiq qabul qilingan:

Tirik tug‘ilish deb ona organizmidan homiladorlikning davomiyligidan qat`iy nazar urug‘lanish mahsulotining to‘liq chiqishiga aytildi, Shu bilan birga homila bunday jarayondan so‘ng nafas oladi yoki yurak urishi, kindik pul`satsiyasi kabi boshqa hayot belgilarini yoki erkin muskulaturaning yaqqol xarakatlarini kindik kesilganmi, yo‘qmi va yo‘ldosh ajralishidan qat`iy nazar namoyon etadi; bunday tug‘ilishning har bir maxsuloti tirik tug‘ilgan deb qaraladi.

O‘lik tug‘ilish (o‘lik tug‘ilgan homila) homiladorlikning davomiyligidan qat`iy nazar homilani ona organizmidan to‘liq xaydalishi yoki ajratib olinishiga qadar o‘limidir; homilani bunday ajratib olingandan so‘ng nafasning yoki yurak urishi, kindik pul`satsiyasi yoki erkin muskulaturaning ma’lum xarakatlari kabi xayotning boshqa belgilarining yoqligi o‘lim yuz bergenidan dalolat beradi.

Tug‘ilganda gavda og‘irligi homila yoki chaqaloqning tug‘ilishi bilanoq qayd etilgan gavda og‘irligi.

Tirik tug‘ilgan chaqaloqlarda gavda og‘irligini o‘lchash hayotining ilk soatlarida, postneotal davrda gavda og‘irligi sezilarli kamayishiga qadar o‘tkazilishi lozim. Statistikada qabul qilingan homila tug‘ilganda 500 g-li oraliqni qo‘llash bilan gavda og‘irligi bo‘yicha guruhlash taqazo etilmaydi. Homilaning aniq og‘irligi, u qanday o‘lchangan bo‘lsa, shu anqlikda qayd etilishi lozim.

Homilaning «kichik», «juda kichik», «o‘ta kichik» gavda og‘irliklari tafovutlanadi:

Tug‘ilish vaqtidagi kichik gavda og‘irligi 2500 g dan kam gavda og‘irligi (2499 g gacha);

Tug‘ilish vaqtidagi juda kichik gavda og‘irligi 1500 g dan kam (1499 g gacha);

Tug‘ilish vaqtidagi o‘ta kichik gavda og‘irligi gavda og‘irligi 1000 g dan kam (999 g gacha);

Chala tug‘ilish: homiladorlikning to‘liq 37 haftasidan kam muddat-dagi tug‘ruq (259 kundan kamroq).

Vaqt-soatida tug‘ilish: 37 to‘liq haftadan 42 to‘liq haftagacha bo‘lgan homiladorlik muddatidagi tug‘ruq (294 kundan ko‘proq).

Perinatal davr: perinatal davr homilaning ona qornidagi davrining 22-chi to‘liq haftasidan (154 kundan) boshlanadi va tug‘ilgandan so‘ng 7 to‘liq kun o‘tgandan keyin tugaydi.

Neonatal davr: neonatal davr tug‘ilishdanoq boshlanadi va tug‘ilgandan so‘ng to‘liq 28 kun o‘tgandan keyin tugaydi. Neonatal o‘lim (tirik tug‘ilganlar ichida xayotning dastlabki to‘liq 28 kuni davomidagi o‘lim), ilk neonatal o‘lim, ya’ni hayotining birinchi 7 kuni ichidagi o‘lim, kech neonatal o‘lim ya’ni xayotning 7 to‘liq kundan 28 to‘liq kungacha bo‘lgan davr mobaynidagi o‘limga bo‘lishi mumkin.

Hayotining birinchi kunidagi (0-chi kun) bola o‘limining vaqtini to‘g‘risidagi yozuvda hayot davomiyligi aniq (to‘liq soat yoki daqiqa) ko‘rsatilishi lozim. Bolaning o‘limi ikkinchi sutkada, uchinchi sutkada (2-chi kuni) va qolgan 27 to‘liq kun davomida yuz bersa bolaning yoshi kunlarda belgilanadi.

Ma’lumotlarni qayd etish mezonlari: O‘lik tug‘ilish va tirik tug‘ilishlarni qayd etishga qo‘yiladigan yuridik talablar mamlakatlararo, xattoki, mamlakat ichida turlicha bo‘lishi mumkin. Gavda og‘irligi 500 g dan kam bo‘lmagan homila tug‘ilish holatlarini, ular tirik yoki o‘liklidan qat`iy nazar imkonini boricha statistikaga kiritish lozim. Agar tug‘ilish vaqtida gavda og‘irligi noma’lum bo‘lsa, unda homiladorlik muddatini tegishli aniqlash mezonlarini qo‘llash lozim (22 to‘liq hafta) yoki gavdaning uzunligiga mo‘ljal qilish mumkin (bosh chanoq suyagi cho‘qqisidan 25 sm o‘tib tovongacha). Ushbu hodisa perinatal davrda ro‘y bergenmi degan savolga javob uchun mezonlarni quyidagi tartibda qo‘llash lozim: 1) tug‘ilishda gavda og‘irligi, 2) homiladorlik muddati, 3) gavdaning bosh chanoq suyagi cho‘qqisidan tovongacha uzunligi. Milliy statistikaga 500 g dan 1000 ggacha gavda og‘irligida tug‘ilgan

homila va chaqaloqlarni kiritish Shu maqsadda tavsiya etilganki, zero ushbu ma'lumotlar mustaqil moxiyatga ega va bundan tashqari 100 g va undan ortiq gavda og'irligi bilan tug'ilgan homila va chaqaloqlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'laqonliligini oshiradi.

Halqaro qiyoslov uchun statistik ishlovlar: Halqaro kiyoslov uchun statistikaga kichik gavda og'irligi bilan tug'ilgan chaqaloqlar guruhi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish tavsiya etilmaydi, chunki bu qiyoslanadigan ma'lumotlarning ishonchliliginini susaytiradi. Mamlakatlar ro'yxatga olish va hisobga olish ishlarini shunday tashkil etishlari lozimki, konkret holat va mezonlarni statistik ko'rsatkichlarga kiritish uchun oson aniqlanishi mumkin bo'lsin. Mazkur mezonlarga (masalan, 1000 g dan kichik gavda og'irligiga ega homila) mos kelmaydigan homila va chaqaloqlar, agar yuridik va boshqa jiddiy asoslar bo'lmasa, perinatal o'lim statistikasidan istisno qilinishi lozim (agar kiritilsa, kiritilish sababi aniq asoslanishi lozim). Agar tug'ilganda gavda og'irligi, homiladorlik muddati va gavda uzunligi noma'lum bo'lsa, o'lim holatlari perinatal davrdagi o'lim statistikasidan chiqarishdan ko'ra aynan kiritilishi lozim. Mamlakatlar barcha ko'rsatkichlar va nisbatlarning sur'ati kabi maxraji ham faqat 1000 g va undan ortiq gavda og'irligiga ega: homila va chaqaloqlar (gavda og'irligini xisobga olingandagi ko'rsatkichlar va nisbatlar)ga tegishli statistik ma'lumotlarni takdim etishi kerak; kachonki tug'ilganda gavda og'irligi to'g'risida ma'lumot bo'lmasa, homiladorlik muddati (28 to'liq xaftha) yoki gavda uzunligi (chanoq cho'qqisidan 35 sm tovongacha)ning mos ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

O'lik tug'ilish, perinatal, neonatal va chaqaloqlar o'limi hamda tug'ma nuqsonlar natijasidagi o'lim holatlarining sonini statistikasi bo'yicha hisobotida imkon boricha tirik tug'ilganlar va o'lik tug'ilganlar uchun alohida va shuningdek tug'ilganda gavda og'irligi 500-999g va gavda og'irligi 1000 g va undan ortiq guruhlар uchun alohida ko'rsatish lozim. Tug'ma nuqsonlar natijasida neonatal davrdagi o'lim holatlarini ilk va kech neonatal davrlar uchun aloxida kayd etish kerak. Bunday informatsiya tug'ma nuqsonlar natijasida yoki ularsiz ro'y bergan o'lim holatlarini xisobga olib, perinatal va neonatal o'lim haqidagi statistik ma'lumotlarni yoritishga imkon beradi.

VIbob: АҲОЛИ КАСАЛЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ ВА УНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИДА ХАМШИРАЛАРНИ УРНИ

6.1. Aholini kasallanishini turlari, uni o‘rganish usullari

Aholining salomatlik darajasiga baho beruvchi ko‘rsatkichlardan biri kasallanish hisoblanadi. Kasallanish deganda - aholi orasida yoki uning ayrim guruhlari ichida tarqalgan kasalliklar tushuniladi. Ayrim joylarda va ma’lum vaqt oralig‘ida kasallanishlarni o‘rganish sog‘liqni saqlash muassasalari uchun katta ahamiyatga ega. Kasallanish ko‘rsatkichi aholi o‘rtasida, barcha kasalliklarni birgalikda va har bir nozologik shakl bo‘yicha alohida aholining yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mutaxassislik va boshqa guruhlari bo‘yicha tarqalish darajasini ko‘rsatadi. Kasallik ko‘p hollarda bemorlar tibbiy yordam olish uchun murojaat etganlarida ro‘yxatga olinadi. Shu sababli kasallanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liqligi, asosan tibbiy yordam hajmi, xarakteri, sifati, ixtisosligi va ko‘rsatilishi bemorlarning murojaat qilish imkoniyatiga bog‘liqdir. Aholining kasallanish ko‘rsatkichining aniqligi, to‘liqligi, sifati asosan vrach va uning yordamchisi hamshiraga bog‘liq, chunki u o‘zining mutaxassislik faoliyatida kasallikni aniqlaydi, halkaro tasnifiga ko‘ra tashhis qo‘yadi va ruyxatga oladi.

Bemorni davolayotgan va kasallikni ruyxatga olgan vrach kasallikni belgilashda, unga to‘g‘ri tashxis qo‘yishda klassifikatsiyadan foydalanadi. Kasallanishlarni o‘rganayotgan tibbiyot xodimlari hozirgi paytda ishlatilayotgan kasalliklar klassifikatsiyasidan foydalanib, statistik materiallarni to‘g‘ri guruhlay bilishi kerak.

1900 yil 21 avgusda Parijda 26 mamlakatdan kelgan delegatlar ishtirokida kasalliklar va o‘lim sabablari klassifikatsiyasini ko‘rib chiqish uchun birinchi marta halqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan va u birinchi klassifikatsiyani tasdiklangan. Konferensiya karori bilan xar 10 yilda klassifikatsiya qaytadan ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Hozirgi paytda jahon sog‘liqkni saqlash tashkilotini sanitar statistika sohasidagi ekspertlari bunday klassifikatsiya qaytadan ko‘rish bilan bevosita shug‘ullanadilar. Kasallik va o‘lim sabablarini halqaro klassifikatsiyasi va nomenkulaturasi o‘tgan davrlar mobaynida 10 marta ko‘rib chiqiladi.

1989 yilda 10 – chi HKT qayta ko‘rib chiqilgan 1993 yili Jahon sog‘liqni saqlash Assambleyasi sessiyasida qabul qilindi.

Ushbu “Xalqaro kasalliklar tasnifi va sog‘liq bilan bog‘liq muammolar” hafaqat undan foydalanuvchilarning diagnostik ma’lumotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun balki inson salomatligini xarakterlovchi boshqa ma’lumotlarni ham o‘z ichiga qamrab olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vaziri buyrug‘i (22 yanvar 2003 yil 31 sonli) ga ko‘ra HKT – 10 ni bizning Respublikada amalga kiritish bo‘yicha tartib va chora tadbirlar belgilangan. Ushbu buyruqning joriy etilishi kasalliklar va o‘lim sabablarini barcha boshqa mamlakatlar bilan qiyoslash imkonini beradigan nomenklaturaga o‘tish imkonini beradi.

Bu esa, o‘z navbatida statistik ma’lumotlar sifatini yaxshilash, sog‘liqni saqlashni boshqarish va tibbiy ilmi rivojini integratsiyalash imkonini yaratadi. Uning o‘zbek tilidagi nashri 2004 yili birinchi bor chop etildi.

HKT–10 da barcha bir turdagи patologik holatlar olingan ma’lumotlarni tahlil etish uchun guruhlarga ajratilgan. HKT–10 da barcha kasalliklar, sinflarga bo‘lingan, sinflar o‘z navbatida – bloklarga, bloklar uch belgili ruknlarga, uch belgili ruknlar to‘rt belgili kenja ruknlarga bo‘lishgan.

10-qayta ko‘rilgan ""Kasalliklar, shikastlanishlar va o‘lim sabablarini xalqaro klassifikatsiyasi" 21-ta sinfdan iborat.

- I sinf – Ba’zi infeksion va parazitar kasalliklar
- II sinf – O‘smalar
- III sinf – Qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari va immun mexanizmni jalb etuvchi ayrim buzilishlar
- IV sinf – Endokrin sistema kasalliklari, ovqatlanish tartibsizligi va moddalar almashinushi buzilishlari
- V sinf – Ruhiy buzilishlar va hulq atvor buzilishlari
- VI sinf – Nerv sistemasining kasalliklari
- VII sinf – Ko‘z va uning qo‘shimcha apparati kasalliklari

- VIII sinf – Qulq va so‘rg‘ichsimon o‘sig‘ kasalliklari
- IX sinf – Qon aylanish sistemasi kasalliklari
- X sinf – Nafas organlari kasalliklar
- XI sinf – Hazm qilish organlari kasalliklari
- XII sinf – Teri va teri osti klechatkasi kasalliklari
- XIII sinf – Suyak – mushak sistema va qo‘shuvchi to‘qima kasalliklari
- XIV sinf – Siyidik tanosil sistema kasalliklari
- XV sinf – Homiladorlik, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davr
- XVI sinf – Perinatal davrda yuzaga keladigan ba’zi holatlar
- XVII sinf – Tug‘ma anomaliyalar (rivojlanish nuqsonlari), deformatsiyalar va xromosom buzilishlar
- XVIII sinf – Boshqa ruknlarda tasniflanmagan klinik va labarator tekshiruvlarda aniqlanmagan, simptom, belgi, normadan chetga chiqishlar
- XIX sinf – Tashqi sabablar ta’sirining jarohatlar, zaharlanishlar kabi va ayrim boshqa oqibatlari
- XX sinf – Kasallanish va o‘limning tashqi sabablari
- XXI sinf – Salomatlikning holatiga ta’sir qiluvchi omillar va sog‘liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish.

HKT – 10 sog‘liqni saqlash amaliyotida qo‘llash uchun yaratilgan, shuning uchun tasniflashdan tashqari kasalliklar maxsus guruhlarga ham ajratilgan:

- Epidemik kasalliklarga
- Konstitutsion yoki umumiy kasallikkha
- Mahalliy kasalliklar (anatomik joylashish bo‘yicha)
- O‘sish, rivojlanish bilan bog‘liq kasalliklarga
- Jarohatlarga

Shunday qilib, HKT–10 aholi salomatligini o‘rganish metodologiyasini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan muhim hujjat bo‘ldi.

Ma'lumki, kasallanish aholining salomatlik darajasiga baho beruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va uni o'rganish sog'liqni saqlash muassasalari uchun katta ahamiyatga ega.

Birinchidan kasallanishlar aholi salomatligini, uning sanitariya holatini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan kasallanishlar sog'liqni saqlash muassasalarining ish faoliyatini sifatini va samarasini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Uchinchidan kasallanishlarni o'rganish va uni kamaytirish sog'liqni saqlash, sanitariya-epidemiologiya, davolash-profilaktika muassasalarining va barcha shifokor, hamshiralarning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan kasalliklarning dinamikasini o'rganish natijasida aholi orasidagi patologik jarayonlarning o'zgarishi haqida chuqur ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Buning asosida aholining tibbiy sanitariya yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlab uni tashkil etishga, yanada yahshilash bo'yicha tibbiy chora-tadbirlarni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega.

Kasallanishni o'rganishda turli usul va statistik hujjatlardan foydalilanadi. Har bir qullaniladigan usul kasallanish to'g'risida ma'lum bir ma'lumotlarni beradi. Aholining to'liq kasallanish darajasini o'rganish uchun barcha usullardan foydalinish mumkin.

Kasallanishni o'rganish usullari va manbalari

Kasalliklar haqida ma'lumotlar to'plashning asosiy manbalari	Kasallanish turlari
1. Aholining tibbiy muassasalariga murojaati	Birlamchi kasallanish. Umumiy kasallanish. Yuqumli kasalliklar bilankasalanish. Muhim noinfektsion kasalliklar bilan kasallanish. Mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga olib keladigan kasalliklar. Muqim shifoxonada yotgan bemorlarning kasallanishlari. Tibbiy ko'rik natijasida topilgan kasalliklar bilan kasallanish. O'limga sabab bo'lgan kasalliklar bilan kasallanish.
2. Tibbiy ko'rik ma'lumotlari	
3. O'lim sabablarini o'rganishdan olingan ma'lumotlar	
4. Axoli orasida o'tqazilgan so'rovlardan olingan ma'lumotlar	

6.2 Aholining tibbiy muassasalariga murojaati asosidagi kasallanish

Aholi orasida kasallanishlarni o‘rganishning boshlang‘ich va asosiy manbalaridan biri bemorlarni davolash-profilaktika muassasalariga tibbiy yordam olish maqsadidagi murojaati hisoblanadi. Umumiylashtirishni kasallanishlar haqidagi ma’lumot barcha kasallanishlarni joriy ro‘yxatga olishga asoslangan. Har bir kasallik bo‘yicha joriy yildagi birlamchi murojatlar kuzatuv birligi sifatida qabul qilinadi. Surunkali kasallik bo‘yicha bemor yil mobaynida davolash-profilaktika muassasalariga bir necha marta murojaat qilishidan qat`iy nazar, u kuzatuv birligi qilib bemorning birinchi murojaatida hisobga olinadi.

Ushbu kasallikni qaytalanishi natijasida joriy-yildagi takroriy murojaatlar kasallanishlarga qo‘shilmaydi. Bemor o‘tkir kasaliklar bilan yil davomida bir necha bor kasallanishi mumkin. Bunday hollarda u har doim yangi sifatida qayd etiladi.

Aholining kasallanish darajasini o‘rganish va tasniflashda uchta tushunchadan foydalaniladi:

- 1.kasallanishning o‘zi (birlamchi kasallanish)
- 2.kasalliklarni tarqalish darjasini (umumiylashtirishni)
- 3.patologik zararlanish (tibbiy ko‘rikdan o‘tganlar orasidagi kasallanishi aniqlanish).

Birlamchi kasallanish – bu 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan yangi kasalliklar sonidir. Bu ko‘rsatkich qo‘yidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil mobaynida aniqlangan yangi kasalliklar soni} \times 1000}{\text{aholining o‘rtacha yillik soni}};$$

Yangi aniqlangan kasalliklar – bu yil davomida necha marta kelib chiqishidan qa’tiy nazar o‘tkir kasalliklar va hayotida birinchi bor aniqlangan surunkali kasalliklardir.

Umumiylashtirishni – aholi kasallanishini o‘rganishning bir turi bo‘lib. Ambulatoriya-poliklinika muassasalariga qilingan barcha murojaatlar asosida o‘rganiladi. Umumiylashtirishni o‘rganishda kuzatuv birligi bo‘lib, joriy kalender yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalariga kasallik bo‘yicha murojaat etgan yoki uyga shifokor chaqirgan shaxs hisoblanadi.

Bunda surunkali kasalliklar yurak qon-tomir, oshqozon ichak va boshqa uzoq kechuvchi kasalliklar yilda bir marta bemorning birinchi

murojaatida hisobga olinadi. Joriy yilda surunkali kasallik bilan qayta murojaat etganda, bu kasallik ruyxatga olinmaydi.

Umumiy kasallanish – 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan joriy yilda aniqlangan barcha kasalliklarni ko‘rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{yil davomida aniqlangan barcha kasalliklar soni} \times 1000}{\text{aholining o‘rtacha-yillik soni}};$$

Yuqorida ko‘rsatilgan ikki tushuncha orasida kattagina farq bor. Kasallanishning o‘zi – bu muhit sharoitlarining o‘zgarishiga tez ta’sir qiluvchi ko‘rsatkich bo‘lib, bu ko‘rsatkichni bir necha yil davomida tahlil qilganda kasallikning kelib chiqish va dinamikasi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lamiz. Shu bilan birgalikda ijtimoiy-gigienik va davolash-profilaktik tadbirlarini samarasini aniqlashimiz mumkin.

Kasallanishlar haqidagi ma’lumot barcha kasallanishlarni joriy ro‘yxatga olishga asoslangan. Har bir kasallik bo‘yicha joriy yildagi birlamchi murojatlar kuzatuv birligi sifatida qabul qilinadi va har bir murojaat etgan bemorga «Yakuniy diagnozlarning statistik taloni» (Sh-025-2/h) to‘lidiriladi. O‘tkir kasalliklar yilda necha marta aniqlanishidan qa’tiy nazar bemorlarning har bir murojaatida ro‘yxatga olinadi. Shu sababli yil davomida bir odamda bir necha o‘tkir kasalliklar ro‘yxatga olinishi mumkin. Bunda barcha yangi kasalliklar (+) belgisi bilan, surunkali kasalliklar esa (-) belgisi bilan belgilanadi. Surunkali kasalliklar yilda bir marta, yani DPMga ushbu kasallik bo‘yicha birinchi marta murojat qilganda.

Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish – yuqumli kasalliklar aholi uchun xavf tug‘diradi, chunki yuqumli kasalliklarni o‘z vaqtida oldi olinmasa ular tez tarqalib epidemiyaga aylanib ketishi mumkin shu munosabat bilan ularni nazorat qilish uchun har bir yuqumli kasallikni o‘z vaqtida qayd etib tuman, shaxar davlat sanitariya-epidemiologik nazorat markazlariga shoshilinch xabar berish zarur. Yuqumli kasalliklar aniqlanganda yoki ular to‘g‘risida gumon qilinganda shoshilinch xabar berish majburiy qisoblanadi.

Barcha xabar berilishi lozim bo‘lgan yuqumli kasalliklarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Karantin kasalliklar (o'lat, vabo, qora chechak, sariq isitma, qaytalama tif).
2. Davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati markazlari bilan bir vaqtning o'zida maxsus ixtisoslashgan davolash profilaktika muassasalarida - axborot to'planadigan kasalliklar (sil, zaxm, so'zak, traxoma, zamburug'li kasalliklar, moxov).
3. Davolash profilaktika muassasalari davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlariga faqat yig'ma ravishda axborot beradigan kasalliklar (gripp, yukori nafas yuli infeksiyalari).
4. Har bir kasallik va kasal haqida maxsus axborot beriladigan kasalliklar (oshqozon tifi, paratif, salmonellyoz, ichburug', enteritlar qizamiq, ko'kyutal, meningit, ensefalit, infektion gepatit, skarlatina, qoqshol, poliomelit, quturish, rikketsiozlar, toshmali tif, bezgak, leptospiroz, 1-oylik bolalardagi sepsis, suvchechak, qizilcha, gemorragik isitma, epidemik parotit, ornitoz va boshkalar).

Yuqoridagi kasalliklar guruhlari bo'yicha mavjud qonunga asosan yuqumli kasallikni birinchi bo'lib aniqlangan yoki gumon qilgan xar bir vrach, o'rta tibbiyat xodimi davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlariga shoshilinch xabar yuborishi zarur (058-u shaklga muvofiq). Bunday xabar shaxar, tuman DSENMLariga davolash-profilaktika muassasalarining xodimlari tomonidan beriladi.

DSENM xodimlari shoshilinch xabarni maxsus "Yuqumli kasalliklarni harakati" daftariga qayd etadi va o'zidan yuqorigi DSENMLarga 85 – forma "Yuqumli kasalliklar harakati hakida hisobot" orqali oylik hisobot yuboradilar.

Davolash-profilaktika muassasalari 85-gripp shakl orqali sanitariya-epidemilogiya stansiyalariga gripp va yuqori nafas yullari infeksiyalari haqida hisobot beradi.

Yuqumli kasalliklarni tahlil qilishda yuqoridagi hisobot formalari bilan bir qator yuqumli kasalliklarning o'chog'ida tekshiruv olib borish natijasida epidemiolog tomonidan to'ldirilgan "Yuqumli kasallik o'chog'ini epidemiologik tekshiruv" (sh.357-h) kartasidan ham foydalilanildi.

Natijada har bir tuman va shahar sanitariya-epidemiologiya stansiyalari tomonidan yuqumlik kasalliklar haqida haftalik, 10 kunlik, oylik, kvartal, yarim yillik va yillik ko'rsatkichlar hisoblanib tahlil qilinadi.

Aniqlangan infektsion kasallik, qanday sharoit bo'lishidan qa'tiy nazar, oziq ovqatdan zaharlanish, o'tkir kasbiy kasallik yoki unga shubxa tug'diruvchi xollarda, shuningdek diagnozi o'zgartirilganda tibbiyot xodimi to'ldiriladi, hududiy DSENMga bemor aniqlangan vaqtidan boshlab, 12 soat ichida yuboriladi.

Muhim noinfektsion kasalliklar. Noinfektsion kasalliklarga hozirgi vaqtida butun dunyoda katta e'tibor berilmoqda. Chunki, ushbu kasalliklar o'tish jixatdan og'ir, atrofdagi odamlar va kelajak avlod uchun xavf-xatar tug'dirishi jihatdan muhim ahamiyatga egadir va alohida hisobga olib boriladi. Bunday kasalliklar jumlasiga sil, yuqumli tanosil kasalliklar, zamburug'li kasalliklar, traxoma va xavfli o'smalar kiradi. Har qanday davolash-profilaktika muassasining vrachlari shunday kasalliklarni aniqlaganda maxsus ixtisoslashtirilgan dispanserlarga tegishli hujjatni to'ldirish orqali axborot beradi (sh. 089-, sh.090-h). Joylardagi dispanserlarga tashxisni aniqlangandan so'ng ularni ro'yxatga oladi va bemorni kuzatib boradi. Dispanserlarda kasallik tasdiqlangandan so'ng bemor haqidagi xabar tegishli viloyat dispanserlariga yuboriladi va u erda ayrim kasalliklar bo'yicha 6 oyda, boshqa bir kasalliklar bo'yicha 1 yilda 1 marta 61 a, b, j formalari bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

Ana shu hisobot formalarida ma'lumotlarga asosan viloyat bo'yicha kasallanish ko'rsatkichlari xar 100.000 aholiga hisoblanadi.

Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan kechadigan kasallanishlar – faqat ishlovchi aholi orasida o'rganiladi. Ularning alohida guruhga ajralishining sababi ular nafaqat aholi salomatligiga ta'sir etadi, balki iqtisodiy tomonidan ham zarar keltiradilar.

Bu kasallik turiga ishlovchilar tomonidan ishga chiqmasligiga sabab bo'lgan barcha kasalliklar kiradi. Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan kasallikni o'rganishda joriy-yilda ishlovchi tomonidan vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib kelgan har bir hodisa hisobga olinadi.Bu kasallik guruhini o'rganishda vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib kelgan har bir hodisa

hisobga olinadi. Bu kasalliklar guruhini o‘rganishda vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish varaqasi manba bo‘lib xizmat qiladi. U yuridik hujjat bo‘lib, nafaqat mehnatdan ozod qiladigan, balki moliyaviy hamda statistik hujjat bo‘lib ham hisoblanadi, chunki mehnat qobiliyatini yo‘qotilganda ijtiomiy sug‘o‘rta mablag‘lari hisobidan nafaqa to‘lanadi.

Har bir korxona va muassasada kasaba uyushmalari va tibbiy sanitariya qismlari vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotish bo‘yicha chorakli hisobotlar 16-MYa va yillik hisobot 21-T shakllarini to‘ldiradilar.

Ushbu hisobot shakllari asosida vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bo‘yicha qator ko‘rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi.

Mehnat qobiliyatini vaqtincha yo‘qotishga olib boradigan kasalliklar to‘g‘risida uchta asosiy ko‘rsatkichga qarab fikr Yuritiladi:

1. Ishchilarning 100-tasiga to‘g‘ri keladigan mehnatga yaroqsizlik hollarining soni

mehnatga yaroqsizlik hollar soni X 100

X = -----;

ishchilar soni

2. Ishchilarning 100-tasiga to‘g‘ri keladigan mehnatga yaroqsizlik kunlarning soni

mehnatga yaroqsizlik kunlar soni X 100

X = -----;

ishchilar soni

3. Bitta mehnatga yaroqsizlikholining o‘rtacha muddati

mehnatga yaroqsizlik kunlar soni

X = -----;

mehnatga yaroqsizlik hollar soni

Bemorlar kontingenti bo‘yicha kasallanishni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

1. Salomatl ikindeksi - mazkur kollektivda yil bo‘yi kasal bo‘lмаган ishchilarning ulushi:

mazkur kollektivda yil bo‘yi kasal

bo‘lмаганишчилар soni x 100

X = -----;

ishchilarning o‘rtacha soni

5. Bemor shaxslar ko‘rsatkichi

*joriy-yilda mehnat qobiliyatini
yo‘gotgan ishchilar soni x 100*

X = -----;
ishchilarining o‘rtacha soni

Muqim shifoxonada yotgan bemorlarning kasallanishlari. Muqim shifoxonadagi o‘rinlar sonini, mutaxassislar soni aniqlashda va ayrim ixtisoslashgan kasalxonalarini tashkil etishni rejalashtirishda, muqim shifoxonada davolanganlar soni bilan bir qatorda ularning kasallanishlarining ko‘rsatkichlari ham katta axamiyatga egadir.

Hozirgi paytda kasalxonadagi kasallanishlarni ro'yxatga olish va o'rghanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Har bir shifoxonaga yotqizilish holi kuzatuv birligi hisoblanadi. Bemorga kasalxonadan chiqqanlarning statistik kartasi (sh.066-h) to'ldiriladi. Muqim shifoxonada yotgan kasallanishlar ko'rsatkichi tuman, shaxar, viloyat respublika buyicha har 1000 axoliga hisoblanadi. Bundan tashqari, muqim shifoxonalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlarni aniqlashimiz mumkin:

1. Tashxis ko‘pligi, ularning kattaligi, xarakteri, asosiy kasalliklar, qo‘sishimcha kasalliklar, ularning asorati.
 2. Vrach qo‘ygan tashxisning sifati, ularni poliklinika tashxislari va o‘lim hollari yuz berganda patologoanatomik tashxislar bilan mos kelishi.
 3. Har xil kasalliklar bo‘yicha bemorlarni muqim shifoxonalarda davolanish muddati.
 4. Ma’lum kasaliklar bo‘yicha o‘z vaqtida kasalxonaga yotkizilganligi va ularning kattaligi.
 5. Muqim shifoxonada yotgan bemorlarning yosh, jins, kasb, klinik bo‘limlar bo‘yicha strukturasi.
 6. Har-xil davolash usullarining samaradorligi (jarroxlik, terapevtik, medikamentoz, fizioterapevtik davolashlar).
 7. Kasalxonada davolanishlarning oqibati - sog‘ayish, qisman sog‘ayish, yomonlashish, o‘lim holatlari.

8. Bir yil davomida ma'lum bir kasallik bilan takror yotqizishlar soni.

6.3 Tibbiy ko'rik ma'lumotlari

Umumiy kasallanishlarni o'rganishning asosiy manba'laridan biri, aholi orasida o'tkaziladigan profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklar hamda dispanser kuzatuvlaridir. Bu usul orqali yashirin kechuvchi, oldindan ma'lum bo'lмаган yoki aholini faol ravishda tibbiy yordam olish uchun murojaat etishga majbur qilmagan surunkali kasalliklar aniqlanadi.

Tibbiy ko'riklar oldiga qo'yilgan maqsad, vazifa va qo'llanilayotgan tashkiliy texnologiya turiga qarab oldindan, davriy va maqsadli bo'lishi mumkin.

Ko'rik ma'lumotlari, aholining murojaati natijasida olingan ma'lumotlar bilan qo'shib kasallik haqida materiallarni yanada to'ldiradi, ularga birmuncha aniqliklar kiritadi va aholining umumiy kasallanishlarini yanada to'laroq yoritishga yordam beradi.

Aholi orasida tibbiy ko'rik o'tkazish natijasida aniqlangan kasalliklar haqida axborotlar olishni "patologik zararlanish" yoki "tibbiy ko'rikda aniqlangan ko'shimcha kasallanishlar" deb nomlanadi.

Patologik zararlanish aholi yoki uning ayrim guruhlari orasida tibbiy ko'riklar natijasida aniqlangan kasalliklarni tarqalish darajasini ko'rsatib beradi. Bunda tibbiy ko'riklar natijasida faqatgina kasallikning o'zi emas, balki keyinchalik kasalliklarga olib keladigan premorbid, morfologik va funktsional o'zgarishlarni ham hisobga oladi. Bu ko'rsatkich 1000 ta tekshirilganlarga nisbatan quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{tibbiy ko'riklar vaqtida aniqlangan kasalliklar soni} \times 1000}{\text{tibbiy ko'rikdan o'tgan shaxslar soni}};$$

6.4 O'lim sabablari asosida kasallanishni o'rganish.

Mazkur turdag'i kasallanishni o'rganish manbalari quyidagi hujjatlardir: markaziy tuman va oilaviy poliklinikalar, QVP, statsionarlar shifokorlari, sud ekspertiza patologoanatomlari tomonidan beriladigan

«O‘lim haqidagi shifokor guvohnomasi» 106/h-shakl, «Perinatal o‘lim haqidagi shifokor guvohnomasi» 106-4/h –son shakl.

VII bob. NOGIRONLIK.

Nogironlik - bu mehnat qobiliyatini doimiy (uzoq muddat) yo‘qotganliq yoki ko‘p jihatdan qisqarganlikdir.

Nogironlik vrachlik - mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilanadi. Davolash-profilaktika muassasalari nogironlik sabablarini o‘rganadilar.

Vrachlik mehnat ekspertiza komissiyalari sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sug‘o‘rta va ijtimoiy - ta’minot muassasalarining faoliyatini o‘zida mujassam qilgan tashkilotdir. Ular kasb talablariga binoan ishchilarni mehnatga layoqatligini aniqlaydilar va I,II,III - guruh nogironliklarini belgilaydilar. VMEK o‘z faoliyatida quyidagi hujjatlar bilan ishlaydi: «VMEKga yollanma», «VMEK guvohlik akti», «VMEK kengashi haqidagi protokollar kitobi», «VMEK guvohlik aktiga statistik talon», VMEK-yiliga bir marta 7 forma bo‘yicha hisobot tuzadi.

Sog‘liqni saqlash muassasalari o‘z faoliyatlarida nogoronlik ko‘rsatkichlaridan ko‘p foydalanadilar.

Nogironlik ko‘rsatkichlari:

1. Birlamchi nogironlik ko‘rsatkichi

*joriy-yilda birinchi marta nogironlik berilgan ishchilar
(kolxozchilar)soni x 1000 yoki 10000*

X = -----;

ishchilarning (kolxozchilarning) umumiy soni

2. Birlamchi nogironlik strukturasi (kasalliklar, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha)

*joriy-yilda birinchi marta nogironlikberilgan ishchilar
(kasalliklar,yoshi ,jinsi, ijtimoiy kelib chikish, bo‘yicha) x100*

X = -----;

*bir-yilda birinchi marta nogironlik
berilgan ja’mi ishchilar soni*

3. Birlamchi nogironlikning guruhlar bo‘yicha kattaliklari

*yil mobaynida I-guruh II - guruh, III guruh
nogironligi berilgan shaxslar*

soni x1000 (10000)

X =-----;
ishchilarning umumiy soni

4. Birlamchi nogironlikni, nogironlik guruhlari orasida taqsimlanishi

I guruh(II - III guruh) nogironligini olgan shaxslar soni x 100
X =-----;
VMEKtomonidan bir-yilda birlamchi nogironlik berilgan shaxslar soni

5. Umumiy nogironlik ko'rsatkichi
1, 2, 3, 4 - punktlarda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar kabi hisoblanadi.

6. Guruhan bo'yicha nogironliklar dinamikasi (ushbu ko'rsatkichni ayrim guruhan bo'yicha ham hisoblash mumkin)

*joriy-yildagi nogironlik ko'rsatkichi
(birlamchi yoki umumiy) × 100*

X =-----;
o'tgan -yildagi nogironlikko'rsatkichi (birlamchi yoki umumiy)

7. Barcha nogironliklar ichida birlamchi nogironliklarning ulushlari

joriy-yilda berilgan birlamchi nogironlar soni × 100
X =-----;
umumiy nogironlar soni

8. Umumiy nogironlar orasida, bolalikdan nogironlarning ulushlari

joriy-yildagi bolalikdan nogironlar soni × 100
X =-----;
umumiy nogironlar soni

VIII bob. JISMONIY RIVOJLANISHI BAHOLASH USULLARI

Jismoniy rivojlanishko'rsatkichlarini aniqlash kompleks usulda olib boriladi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari aholining sanitariya holatini ifodalovchi ma'lumotlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari bolalar va o'smirlarning salomatlik darajasini, shuningdek, o'sish va rivojlanish davrida tashqi muhit sharoitining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ham belgilaydi. Ko'p holatda bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini o'rganiladi. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini aniqlash, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bir qatorda olib borish kerak.

Har bir bolaning jismoniy rivojlanishini mumtazam va yakka tartibda kuzatish uchun o'sishi va rivojlanishi to'g'risida aniq ma'lumot beradi. Shaxsiy jismoniy rivojlanishni aniqlashdan tashqari, bolalarning jismoniy rivojlanishini bolalarda o'tkaziladigan yoppasiga kuzatish usuli qisqa muddat ichida bir mintaqada sog'lom bolalarda aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar har bir bolaning yoshiga, jinsiga hamda millatiga qarab statistika usuli bilan o'rtacha ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi.

Jismoniy rivojlanishni aniqlashda *antropometrik* usuldan foy-dalaniladi. Antropometrik usulni qo'llash yoki tekshirish dasturini tuzish bolaning yoshiga bog'liq. Umuman tibbiyotda qator antropometrik usuldan faqat bir nechtasigina qabul qilingan.

Somatometrik ko'rsatkichlari bu bo'yning (o'tirgan va turgan holida) uzunligi, vazni, ko'krak qafasining kengligi, fiziologometrik funksional ko'rsatkichlardan o'pkaning sig'imi, qo'l va bel mushaklarining kuchi va h.k. Somatoskopiya ko'rsatkichlariga yana qaddi-qomatning tuzilishini (umurtqa pog'onasining shakli, ko'krak qafasi, oyoq mushaklari rivojlanishi, teri ostidagi yog' qatlaming miqdori va h.k.), jinsiy rivojlanish alomatlari kiradi. O'tkaziladigan antropometrik tekshiruvlar bolalarning yoshiga qarab har xil tuzilishi mumkin.

Antropometrik tekshiruvlarni kunning birinchi yarmida, to'g'ri asboblar bilan yorug' xonalarda, qulay mikroiqlim sharoitida, bolani yalang'och qilgan holda o'tkazish kerak.

Bolalar va o'smirlar bolalik davrining turli bosqichlariga qarab quyidagi muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va jismoniy rivojlanishning antrometrik usulida tekshiriladi.

1. Chaqaloqlar bar oyda bir marta.
2. Ilk bolalik davrida har uch oyda bir marta.
3. Maktabgacha yoshda har 3—6 oyda.
4. Maktab yoshi davrida bir yilda bir marta.

IX bob. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLARI

9.1 Turmush tarzi tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillari.

Tibbiy xizmatning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, o'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib sog'liqni saqlash xizmatini tashkil etishda bir tomonlikka yul kuyildi. Bu bir tomonlamalik tibbiy xizmatni rivojlantirishda ko'plab shifoxanalar qurish, dori darmon ta'minotiga zo'r berish, davolovchi vrachlarni tayyorlash, ya'ni davolovchi tabobatni rivojlantirishdan iborat edi. Bu holat bir tomonidan kishilarda uz sog'liqlariga boqimandalik kayfiyatini shakllantirsa, ikkinchi tomonidan tibbiy xizmatning kasalliklarni oldini olish sohalari ishini e'tibordan chetda qoldirdi. O'tgan asrning oxirlarida Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining ma'lumoti bo'yicha, kishilar sog'ligening 50-52 foizi turmush tarziga, 20 foizi irsiy omillarga, 20 foizi atrof muhitga bog'liq bo'lib, atigi 8-10 foizigina tibbiy xizmatning darajasiga bog'liq degan ilmiy xulosalardan keyingina sog'liqni saqlashni davolovchi tabobatdan ko'ra ko'proq kasalliklarni oldini oluvchi tabobatga tomon yo'naltirishga sabab bo'ldi. Shu jumladan, mustaqil respublikamizda ham sog'lom turmush tarzi davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib, kishilar salomatligini mustahkamlash va kasalliklarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga katta e'tibor berildi. Eng muhimmi, bu sohadagi ishlar davlat xujjatlari bilan mustahkamlanib,

respublikada kasalliklarni oldini olishga qaratilgan harakatning qonuniy asoslari yaratildi. 1993 yil mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq onalar, bolalar va yoshlar salomatligi hamda ma'naviyatini mustahkamlash ishlarida faol qatnashgan kishilarni rag'batlantirish maqsadida «Sog'lom avlod uchun» ordeni tayinlanib, shu nomdagi xalqaro jamg'arma tashkil etildi. 1996 yilda «Fuqarolar salomatligini saqlash to'g'risida», 1998 yilda «Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning Davlat dasturi» to'g'risidagi Prezident qonun va farmonlari qabul qilindi. Natijada Respublikada qator profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. «Sog'lom avlod uchun», «Mehr-shavqat va salomatlik», «Ekosan» kabi tashkilotlar vujudga keldi. Onalar va bolalarga zamonaviy tibbiy xizmat korsatish sohalari barpo etildi, jahon andozalari darajasida xizmat ko'rsata oladigan shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam tizimi yaratildi. Aholiga malakali tibbiy xizmatni yaqinlashtirish maqsadida qishloq vrachlik punktlari tashkil etilib, shahar va tuman muasalalari bilan epchil shugillanadigan «Salomatlik institutlari» tashkil etildi. Bulardan tashqari mustaqillik yillarida an'anaga aylangan har yilni ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlash va shu muammolarni hal qilish borasida Davlat dasturlari asosida ish olib borish tartibi ham sog'lom turmush tarzidan iborat edi. Chunki sog'lom turmush tarzi bu asosan insoniy hatti harakatlarning yig'indisidir. Shuning uchun, vatanimizda «Oila yili», «Ayollar yili», «Sog'lom avlod yili», «Onalar va bolalar yili», «Qariyalarni qadrlash yili», «Obod mahalla yili», «Mehr va muruvvat yili», «Sixat salomatlik yili», «Homiyalar va shifokorlar yili» kabi tadbirlarni xalqimiz sog'ligini saqlash yulidagi tadbirlar deb baholash mumkin. Sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda aholining o'z sog'ligiga ma'suliyatini oshirish, ya'ni har bir fuqaroda sog'lom turmush tarzi shakllantirishdek muhim hayot zarurati tobora ayon bo'lib bormoqda. Zamon tibbiyoti yutiqlari, sog'lom turmush tarzi kechiruvchi kishilarning hayot tajribalari, ilm-fan yutiqlarining odam organizmi sir asrorlariga chuqurroq kirib borishi, har bir organizmga individual yondoshishga tug'ri keldi. Shu bilan o'z navbatida organizm talablariga mos turmush tarzi va sog'lomlashtirish usullarini qo'llash, tibbiyotda

mutlaqo yangi oqimni, ya’ni sog’lom turmush tarzi oqimini yuzaga keltirdi. Bu oqimda har bir organizmga o’ziga xos yondoshish, unga mos ovqatlanishni tashkil qilish, kun tartibi, Shunga o’xshash munosobatlar va boshqalarni tashkil qilishga asoslangan. Deyarli har bir kishi ertami kechmi sog’liq bilan bog’liq muammoga duch keladi. Chunki kishilar o’rtasida uchrayotgan o’limning asosiy sababchisi kasalliklar va baxtsiz hodisalar bo’lib qolmoqda. Har birimizda shakllangan tushunchaga ko’ra tabobatchi degan fikr tug’ilishi mumkin.

Turmush tarzi, salomatlik o’zgarishlarini asosiy tendensiyalarini aniqlaydigan etakchi umumlashgan omil bo’lib inson hayot faoliyatining turli sifatlarida ko’rib chiqiladi. Turmush tarzini tibbiy ijtimoiy ta’rifi bilan birgalikdagi strukturasiga quyidagilar kiradi:

- Mehnat faoliyati va mehnat sharoiti.
- Maishiy xo’jalik faoliyati (yashash joyining xili, yashash maydoni, maishiy sharoitlar, maishiy faoliyatga vaqtning sarflanishi va boshqalar);
- Jismony kuchlarni tiklash va atrof muhit bilan munosobatlarga yo’naltirilgan regression faoliyat.
- Oiladagi ijtimoiylashtiruvchi faoliyat (bolalarni, keksa yoshdagilarni parvarishlash).
- Oilani rejalashtirish va oila a’zolari orasidagi munosobatlar.
- Ijtimoiy –psixologik status va uzini tutish xususiyatlarini shakillanishi.

Tibbiy ijtimoiy faollik (salomatlik va tibbiyotga munosobatlar, sog’lom turmush tarzini amalga oshirish) turmush tarzi bilan quyidagi tushinchalarni – hayot darajasini (odam boshiga to’gri keladigan foyda), hayotning turmush sifati (insonning moddiy ta’minlanganlik darajasini ta’riflovchi parametrlarni o’lchash), yashash uslubi (o’zini tutishning psixologik individual o’ziga xosligi) yashash tartibi (turmush ma’daniyati va boshqalar).

Ovqatlanishni to’gri tashkil etish. Ushbu yo’nalis umumiylar harakterga ega bo’lib, u sog’lom turmush yulidagi harakat dasturini belgilaydi. 19-asrdan boshlab oziq-ovqatlarning tarkibiy mutanosibligi, energiya muvozanati, mikroblar, ovqatlanish tartibi haqida ilmiy

qarashlar paydo bo'ldi, bu esa uz navbatida dietologiya fanini shakllanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunga kelib esa, noto'g'ri va noratsional ovqatlanish kishilar o'rtasida uchrayotgan oshqozon - ichak, yurak qon-tomir, ichki sekretsiya bezlari, bo'gimlar, modda almashinuvining buzilishi, rak kasalliklarining asosiy sababchisi ekanligi ilmiy ravishda isbotlandi.

Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining ekspertlari P.Ravel va Ch. Ravellar «Kishilar o'rtasida uchrayotgan kasalliklarning 80% noto'g'ri ovqatlanishdan» degan fikrlarni bildirganlar. Portugaliyalik buyuk dietolog E. Perish aytganidek «Faqatgina ovqatlanish bizni mayda yoki yirik, nodon yoki aqli, nimjon yoki kuchli, bo'shashgan yoki g'ayratli, odamovi yoki sog'lom muammolarga layoqatli qiladi». Lekin insoniyat bu masalada hamon o'zining o'tmishdagi odati – ovqatlanishda nafs va hohishning ta'siridan qutila olmayapti. Oqibatda bu holat kishilar o'rtasida kasalliklar va o'limning asosiy sababchilaridan biri bo'lmoqda. Bu masalalar ovqatlanishda savodsizlik va befarqlik bilan bir qatorda jamiyatda oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish va ovqatlanishni biznes asosga qo'yilganligi, pul va boylik orttirish yo'lida bir qancha oziq-ovqatlar, ichimliklar reklamasi, shuningdek, ovqatlarni nogigienik tayyorlashga asoslangan «ko'cha ovqatini kafe, bar, restoranlar» ham katta rol o'ynashmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish, inson kundalik turmushining eng asosiy talablaridan biri va buni sog'lom turmush tarzini tashkil etishda hisobga olmaslik mumkin emas. Bu kundalik iste'mol qilinayotgan oziq - ovqat maxsulotlarini kishilar organizmida fiziologik, biologik talablar asosida tashkil etishdir. To'g'ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerak-ki, u o'zining fizik –kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og'irlilik qilmasligi, aksincha tez va oson hazm bo'lib, organizmni kerakli oziq moddalari bilan ta'minlay olishi lozim. Bu o'rinda biz quyidagi talablarga rioya qilishimiz kerak:

- ovqatlik maxsulotlari tarkibini kishi organizmining fiziologik talablariga mos bo'lishini ta'minlash;
- iste'mol qilinadigan ovqatning miqdorini kishi sarf qiladigan energiyaga mos bo'lishini ta'minlash;

- ovqatlanish rejimini kishi badanidagi biologik qonuniyatlarga mos bo'lishini ta'minlash;
- har galgi ovqatlanishda badan fiziologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish;
- ovqatlarni tayyorlashda uning tarkibi va sifatini saqlab qolish tartiblariga rioya qilish;
- ovqatlik mahsulotlarni etishtirish, tanlash va saqlashga bo'lgan talablarga rioya qilish;
- ovqat hazm qilish a'zolari tuzilishi va ulrning funktsiyalari to'grisidagi qisqacha ma'lumotlarga ega bo'lish;
- ovqat hazm qilish tizimi normalarini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarni bilish;
- ovqat hazm qilish tizimi muammolarida tadbirlar qo'llash hamda mutaxasislarga murojaat qilish.

Agarda, ovqatlanishda yuqoridagi harakat dasturiga rioya qilsangiz va shu talablarning har birisi bo'yicha oddiygina tushunchalarga ega bo'lib, ularni o'z turmushingizda qo'llashni bilsangiz, siz ovqatlanishni ongli tashkil qilgan bo'lasiz va hech qachon u bilan bog'lik muammolarga duch kelmaysiz. Shuning uchun, yuqoridagi ovqatlanishga bo'lgan talablarning har birisi bo'yicha alohida to'xtalib utishga to'g'ri keladi.

Ovqatliklarning tarkibida un mahsulotlari va shirinliklarni muntazam ortiqcha iste'mol qilish natijasida butun tanada xilt ko'payib ketadi. Ortiqcha xiltlar ichki a'zolar, badan bushliqlari va bo'gimlarga o'tib a'zolar faoliyatini qiyinlashtish oqibatida, artrit, poliartirit, radikulit, osteoxondroz, semirib ketish, ichaklarda qabziyat, qandli diabet, tomirlarda ateroskleroz, tana va ichki a'zolarda o'smalar paydo bo'lishi kabi kasalliklarga sharoit yaratadi. Ovqatining tarkibida un mahsulotlari va shirinliklar ko'p bo'lgan insonlar orasida tez-tez shamollah, har xil virusli toshmalar toshishi, gaymorit, frontit, otit, surunkali tanzillit, faringit va tanadagi ortiqcha xiltlarni bronxlar orqali ko'plab ajralib chiqishidan tez-tez tomoq qirish, burun qoqish, balg'am tupirish kabi holatlar ko'p uchraydi.

Ovqatliklarning tarkibida go'sht, tuxum kabi oqsillarni surunkali iste'miol qilish natijasida buykaklar faoliyatining qiyinlashuvi, buyrakda, o't qopida, siydk chiqaruv yo'llarida tosh hosil bo'lish, ichaklarda qabziyat, ruxiayatning buzilishi, asabiylik kabi holatlarga sabab bo'ladi.

Ovqatliklar tarkibida yog'larni, ayniqsa mol yog'larining ortiqchaligidan qonning tarkibi quyuqlashib, tomirlarda aterioskleroz va uning oqibatida yurakda stenokardiya, infarkt holatlari, qon bosimining yuqori bo'lishi, xolesistit, semirib ketish kabi holatlarga olib keladi.

Ovqatliklar tarkibida vitaminlarning etishmasligidan parchalanish jarayonlari sustlashuvi oqibatida a'zolarning faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalar yetishmasligi sodir bo'ladi. Oqibatda bolalarda raxit, kattalarda shapko'rlik, organizmdagi barcha muhim jarayonlarning susayishi kabi holatlarga olib keladi.

Ovqatliklarning kimyoviy zaharli moddalar bilan zararlanishidan turli darajalardagi ovqatdan zaharlanishlar, radioaktiv moddalar bilan zaharlanishidan esa, sochlarning to'kilib ketishi, ichki a'zolar faoliyatining susayishi, bepushtlik, rak, oq qon kabi og'ir oqibatlarga olib keluvchi kasalliklar yuzaga keladi.

Ba'zi bir ovqatlik turlarining ayrim odamlar organizmiga mos kelmasligidan terida har xil toshmalar toshishi va qichishi (dermatitlar), oshqozon va ichaklarda - gastrit va kolit, miya to'qimalarining zaharlanishi – migren, meningit, nafas olishning kiyinlashuvi – diqqinfaslik, yurakda xuruj-stenokardiya va butun organizmda bezovtalikka sabab bo'luvchi allergik holatlarga olib keladi.

Ortiqcha ovqatlanish va ovqatxo'rlik tufayli, semirib ketish kadi qomatning buzilishi, go'zallik va epchillikning izdan chiqishi, kishi gavdasining beso'naqay, ko'rimsiz, kiyim - kechak yarashmaydigan ahvolga kelib qolishi, nafas olish va harakatlarning qiyinlashuvi, tanadan va og'izdan qo'lansa hidlarning tarqalishidan noqulay ahvolga tushish, kasallanish ehtimollarining ortib borishi yuz beradi.

Spirli ichimliklarni surunkali iste'mol qilish oqibatida ruhiyatning buzilishi, asabiylik, o'z hatti-harakatlarini nazorat qila olmaslikdan insoniy, ahloqiy normalardan chetga chiqish, obro'-e'tiborning, farzandlar tarbiyasida ma'suliyatning bo'lmasligi, jinoyatga qo'l urish,

insonni shaxs sifatida inqirozga yuz tutishi, uydan, eldan, oiladan, bala-chaqadan ajrab yakka yolg'izlikda yashab umrini barbod qilish holatlari uchrab turibdi.

Bugungi hayotimizdan bizga shu narsa ma'lumki, taraqqiyot imkoniyatlari va qulayliklari bizni harakat qilishdan deyarli ozod qilib qo'ydi. Bu holat inson organizmining chidamliligin pasaytirib, kasalliklarga beriluvchanligini oshirdi. Tana va mushaklar mustahkamligi kamaydi. Kam harakatlilik tufayli organizmda o'tirib qolgan chiqitlar (chala parchalanish mahsulotlari) ichki a'zolar faoliyati yomonlashdi. Natijada ovqat hazm qilish, moddalar almashinuvi, ayirish sistemasi a'zolarining va boshqa a'zolar faoliyatini buzulishi bilan bog'lik kasalliklar ko'paydi. Demak insoniyat uchun harakat va uning turlarini, o'zining kundalik turmushiga ongli ravishda kiritish zarurati paydo bo'ldi. Shuning uchun salomatlik, ishchanlik, faol va baxt keksalik, uzoq umr kabi inson orzu qafaslarini ro'yobga chiqarishda harakatli turmush jismoniy mashg'ulotlarning roli va ahamiyatini fan ham, hayot ham allaqachon isbotlagan. Salomatlikning bu samarali vositasini kundalik turmushimizga kiritishga ba'zan hayotning o'zi majbur qilsa (tirikchilik yolidagi harakatlar va yugur-yugurlar), ko'pchilik ishlarda davr talabi va davlat siyosati natijasidagi zamondoshlarimizning ongli intilishlari sabab bo'lmoqda. Buni shaharlar, viloyatlar va tumanlar markazidagi qurilgan va qurilayotgan stadionlar, tennis kortlari, sport maydonlari, sog'lomlashtirish markazlari yoki ushbu masalalarga bag'ishlangan Prezident farmonlari, xukumat qarorlarida olib borilayotgan katta targ'ibotchilik ishlarida ko'rish mumkin. Oqibatda harakat va jismoniy mashgulotlarni kishilar turmushiga kiritish hamda qo'lllashning imkoniyatlari ko'paymoqda. Shuningdek aholii o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishning asosiy tamoyillaridan biri jismoniy faollikkidir. Harakat natijasida insonning turli a'zo va tuzulmalar faoliyati me'yorlashadi, akliv va jismoniy mehnatga bo'lgan faoliyati ortadi. Inson uchun harakat to'laqonli hayot va faoliyat ko'rsatgichidir. Harakatchanlik tufayli inson quyidagilarga erishadi:

- Butun kun davomida yahshi kayfiyatda bo'ladi;

- Ishda charchamaydigan, ishingiz sifatli va unumli, ijodiy faoliyatningiz kuchli bo'ladi.
- Asab tizimi muvozanatlashib, bosiq uyli mulohazali bo'ladi.
- Teri osti va ichki a'zolarga to'plangan yog'lar kamayib ixcham, epchil chaqqon bo'ladi.
- Korin va shalviragan joylaringiz tortishib, mushaklaringiz taranglashib, qomatingiz ko'rkar va kelishgan bo'ladi.
- Tomirlarda qonning oqishi yahshilanib, butun tanaga kislorod hamda oziq moddalarning borishi yahshilanadi.
- Qon bosimi yahshilanadi.
- Organizmni ximoya kobiliyati oshadi.
- Tengdoshlariga qaraganda ancha yosh va ixcham ko'rindi.

Lekin harakatlar hamma vaqt ham sog'liqga xizmat qilavermaydi. Me'yoridan ortiq harakatlar esa zo'riqishga, organizm extiyojlarini isrof bo'lishiga, tana hamda a'zolarning toliqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun harakatlarning mohiyatini, ya'ni chiniqish, charchash va toliqish holatlarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Chinikish - bu organizmning tashqi muhitning turli ta'sirlariga, turmushning jismoniy va ruxiy yuklamalariga chidam berish qobiliyatidir. Bunda quyidagilarga amal qilinishi lozim: asta-sekinlik; muntazamlik; har tomonlamalik; o'ziga xos (individual) yondoshish; o'zini-o'zi nazorat kilib borish.

Ma'lumki kishilar organizmidagi hayotiy jarayonlar ichki a'zolarning, shuningdek tana qismlarini tabiat o'zgarishlari jismoniy harakatlar hamda ruhiy o'zgarishlarga mos va xos ishlashidan iborat. Masalan: tomir urishi, qon bosimi, qonning kislorod bilan to'yinishi va boshqalar. Harakatlar yuklamasi va vaqt qanchalik ko'p bo'lsa tomir urishlar, nafas olishlar soni, qon bosimining oshib turish vaqt uni shunchalik ko'p hamda uzoq vaqt davom etadi. Demak organizm butun bir sistema bo'lib, birining funksiyasi ikkinchisiga bog'lik. Mana shu bog'liklik qanchalik kuchli bo'lsa, organizmning chidamliligi shunchalik yahshi va mustahkam bo'lar ekan. shuning uchun ham bu bog'liklik salomatlik uchun nihoyatda muhim, balki shuning o'zi salomatlikdir.

Charchash - bu organizm funksiyalari yoki ma'lum bir azolarini biror ishni bajarish jarayonida o'z ixtiyojlarini sarflash natijasida ish qobiliyatining susayib borishidir. Charchash ikki xil bo'ladi:

- jismonan charchash - ya'ni ma'lum qismdagi ish bajaruvchi muskullarning charchashi.
- aqliy mehnat natijasida miya faoliyatining charchashi.

Bu holatlar organizm 5-10 minut dam olgandan so'ng qayta tiklanadi.

Toliqish - bu charchashning og'ir shakli bo'lib, organizm charchagandan keyin ham, unga charchoqni yozishni zarur bo'lgan energiyani qayta tiklab olish vaqt bermaslik oqibatida sodir bo'ladigan holatdir. Toliqishdan so'ng organizmning ish qobiliyatini tiklash uchun, bir necha ko'plab maxsus sharoit, rejimli turmush ba'zan esa salomatlikni tiklovchi tadbirlarni qo'llashga to'g'ri keladi.

Harakat turlari:

1. Mehnat;
2. Raqs;
3. Bolalar o'yinlari;
4. Sport o'yinlari;
5. Yoga mashqlari;
6. Ushu, karate, taekvondo, kabi mashqlar ;
7. Jismoniy tarbiya.

Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.

- Chigallarni yozuvchi mashgulotlar.
- Piyoda yurish.
- Yugurish.
- Namoz amalini bajarish.
- Sayr qilish.
- Velosipedda yurish.
- Sog'lomlashtiruvchi markazlarda trenajerlardan gimnastika va turli mashqlardan foydalinish.
- Raqs tushish.
- Sayohat.
- Cho'milish.

Kun va ishni biologik rejmlar asosida tashkil qilish.

Bizga ma'lumki, moddiy olamdagи barcha hodisalar va shuningdek tirik organizmlardagi barcha jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Barcha turdagи harakatlar deyarli bir xil vaqtlar orasida davriy ravishda takrorlanib turish xossasiga ega. Mana shu takrorlanib turish xususiyatiga ritm deyiladi. Ritm uchun harakterli bo'lган xususiyat harakat va xodisalarning botartibligidir. Agarda shu botartiblik bo'lmasa, tabiatda hech bir o'zgarish va rivojlanish bo'lmaydi. Masalan: haftalik ish tartibi, har kungi ishni ma'lum soatlarga mo'ljallash va boshqalar. Demak biz jamiyatda yoki o'zimizda nimaiki shakllantirmoqchi bo'lsak, uzviy takrorlanishini ta'minlashimiz lozim. Shu tartibda turmush tarzi shakllanadi. Xullas tabiatdagи bunday holatning abadiy va uzliksiz takrorlanishi, inson organizmida ma'lum bir qonuniyatlarni vujudga keltirib bo'lган. YA'ni organizmdagi faollikni kunduzi kuchayib, kechqurun susayishi bunga oddiy misoldir. Orgizmdagi bunday o'zgarishlar yurak, o'pka , oshqozon va ichaklar kabi hayotiy muhim a'zolar ishidan tortib azolar, to'qimalar va xatto hujayralardagi kimyoviy o'zgarishlargacha bo'ladi. Kishi organizmidagi tabiatga monand bunday o'zgarishlar soni 300 taga yaqin bo'lib, ularga bioritmlar deb ataladi. Demak, bioritmlarni tirik mavjudodlardagi ritmik o'zgarishlarga moslashish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Organizmlardagi bunday davriylik nafaqat kundalik turmush, hafta, oy, yillar bilan, balki umrimizning davrlari bilan ham bog'liq. Kishining dunyoga kelib, o'sish, voyaga etib, keksayib, qarib-qartayib, olamdan o'tishi ham nihoyatda muhim jarayon bo'lib, bu jarayon har bir kishida deyarlik bir xil vaqt va oraliqda sodir bo'ladi, hamda shu jithatdan ma'lum ma'noda davriylik qonuniga bo'ysunadi. Olimlarning ta'kidlashiga kecha va kunduz davomida kechadigan tabiatdagи o'zgarishlarga asoslanib, hayot faoliyatimizning muhim elementlari bo'lishi: ish, dam olish, uyqu kabilarni to'g'ri joylashtirishimiz lozim. Tekshirish natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlangan: organizmdagi kechasi susaygan biologik faollik ertalabki soat 4 lardan boshlab ko'tarila boshlaydi, ertalabki 7-8 larda eng yuqori darajaga ko'tarilib 5 ballga (eng yuqori) etadi. Bu holat kunduzgi soat

10-11 largacha saqlanadi. Kunduzgi soat 12 lardan soat 14 largacha biologik faollik susayib (2,5-3 ballgacha), soat 16-17 larda u yana yuqori darajaga ko'tariladi. Bu holat ham kechgi soat 20-21 largacha saqlanadi. Kechki soat 21 larda biologik faollik ancha sustlashib, kechki soat 23 larda eng past darajada bo'ladi. Bu sustlik ertalabki soat 4 largacha davom etadi. Bu davriylik hamma vaqt abadiy davom etadi. Shuning uchun inson o'zining kundalik faoliyatini shu biologik tartibga mos tashkil qilsagina u yashaydi, salomatligi mustahkam, ishi unumdor, umri uzoq bo'ladi. Ana shu ilmiy xulosa esa bizga kun va ish rejimini tuzishga yordam beradi.

Kun tartibi haqidagi bunday fikrlar har bir kishining sharoiti, imkoniyati, salomatlik darajalariga qarab o'zgartirilishi mumkin. Lekin, umumiylab biologik faol vaqtarga ish vaqtlarini, biologik sust vaqtarga esa dam olish vaqtlarini rejalashtirish talabga muvofiqdir. Tabiatning bu qonuniga mos va xos turmush tarzini tashkil etish, sog'lom turmush tarzini eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bioritmlarda quyidagi holatlarga ahamiyat berilishi lozim:

- haftalik, oylik, yillik bioritmlar va ularga xos turmush tarzini tashkil etish;
- yil fasillaridagi biologik o'zgarishlar;
- kishi hayotidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrlar va bu davrdagi turmush tarzini o'ziga xosligi.

Kishi hayotidagi davrlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz, sababi har bir davrda organizmda o'ziga xos o'zgarishlar bilan kechadi, shuning uchun har bir davrda o'ziga xos turmush tarzini tashkil etishimiz lozim.

1. Homila davri.
2. Bolalik davri (14 yoshgacha).
3. O'smirlik davri (15-17 yosh).
4. Yoshlik davri (18-30 yosh).
5. Navqironlik davri (31-45 yosh).
6. Etuklik davri (45-60 yosh).
7. Keksalik (61-70 yosh).
8. Qarilik (71-90 yosh).
9. Qartayganlik (90 va undan yuqorilar).

Oilani to'gri tashkil qilish (irsiyj, jinsiy va oilaviy omillar).

Agar munosabatlarda oila tartibi bo'limganda, ijtimoiy hayotning xech bir sohasida tartib bo'lmasdi, aslida jamiyatni boshqarishdagi ko'pgina tartiblar oilani boshqarishdan kelib chiqqan. Oila jamiyat hayotida qanchalik muhum ahamiyatga ega bo'lsa, jamiyat ham oila uchun shunchalik muhumdir. Shuning uchun har qanday jamiyat o'z tartib intizomlariga xos oilani vujudga keltiradi. Har bir kishi o'zining butun umri davomida oilada bir –biridan keskin farq qiluvchi 3 ta davrda bo'ladi, ya'ni:

- Tug'ilib, o'sib voyaga etguncha ota-onasining tarbiyasi va qarmog'idagi davr;
- Voyaga etib, oilali bo'lgandan keyingi davr (o'z oilasi va farzandlari);
- Qarilik davri farzandlar ta'minoti va parvarishga muhtojlik davri.

Bu davrlaning har biri kishi hayoti va salomatligida muhum rol o'ynaydi. Shuning uchun, oilani kishilar hayoti, salomatligi va uzoq umr ko'rishlarida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy maskan deyish mumkin, chunki salomatlikning asoslari oilada va oilaviy muhitda yaratiladi hamda shakllanadi.

Inson salomatligini ta'minlashda ahamiyatga ega bo'lgan talablar quyidagilar:

1. Oilani oqilona va to'gri tashkil qilish.
2. Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
3. Oilaviy munosabatlarni to'gri tashkil qilish.
4. Farzand ko'rishga tayyorgarlik, homiladorlik va bu davrni o'ziga xos talablarini hisobga olish.
5. Chaqaloqni kutib olish va uning parvarishiga bo'lgan talablar hamda sharoitlarini ta'minlash.
6. Barvaqt va kutilmagan homiladorlikning oldini olishning usullari haqida ma'lumotga ega bo'lish. Abortning oqibatlarini anglash.
7. Oilaviy tashvishlarni salomatlik nuqtai nazaridan hal qilish.
8. Erkaklar va ayollarda uchrashi mumkin bo'lgan ba'zi bir tanosil kasalliklari haqida tushunchaga ega bo'lish.
9. Yosh o'tishi bilan bog'lik bo'lgan ba'zi bir kasalliklar va fiziologik muammolarni to'gri hal qilish.

10. Bularning har biri to'grisida qisqacha to'xtalib o'tishimiz lozim.
Har biri bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Oilani to'gri va okilona tashkil qilish.

Oilani to'gri va okilona tashkil qilish ichun tibbiy biologik va psixologik omillarni hisobga olish kerak. Kishilar tabiatdan turli - tuman bo'lishadi, buni birinchi marotaba Gippokrat aniqlagan va ularni 4 ta toifaga ajratgan:

- xoleriklar - qo'nimsiz, shoshqaloq, chidamsiz, tavakkalchi, to'griso'z, kayfiyati tez o'zgaruvchan, qiziqqon, hayajoni tez o'zgaruvchan.
- sangviniklar - xushchaqchaq, ishchan, g'ayratli, chidamli, jamoatchi, dilkash, ba'zan esa shoshqaloq, hayolparast kishilar.
- flegmatiklar – sovuqqon, xotirjam, ehtiyotkor, andishali, chidamli, kamgap, o'zini tuta biladigan.
- melanxolik – nimjon tipdir, ular tortinchoq, uyalchan, qopolikka sezgir bo'lishada, ular ro'yu berib turgan xodissalar va odamlarning o'zaro munosabatlariga judaziyuraklil bilan baxo berishadi.

8.2 Sogлом турмуш тарзини шакллантирishда hamshiralар о'rни.

Turmushni to'gri tashkil qilish, turmush sharoitini (uy joy bilan ta'minlanganlik darajasi) yahshi yo'lga qo'yish, oila a'zolarining ma'lumot va madaniyat darajasi, oiladagi shaxsni xulqi va zararli odatlari (shuningdek, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi, chekishi, narkotik moddalarni iste'mol qilishi), dori - darmonlarni me'yoridan ortiq iste'mol qilishi holatliri, gipodinamiya, adinamiya holatlari, yolg'izlik, ishsizlik va bular oqibatida kelib chiqadigan turli stressli vaziyatlar kasalliklar kelib chiqishida asosiy o'rinda turadi. Kasalliklarni kamaytirish va oldini olish uchun avvalom bor turmush tarzini yahshilash kerak va bu borada hamshiralar roli beqiyosdir. Ular aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish bilan barobar uni shakllantirish yollarini ham o'rgatishlari kerakdir. Turmush tarzini yahshilash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- Ovqatlanishni to'gri tashkil qilish.
- Gipodinamiyani oldini olish (harakat va salomatlik).

- Kun va ishni biologik rejmlar asosida tashkil qilish.
- Oilani har tomonlama to'gri tashkil qilish (yaratish).
- O'zaro munosobatlarni me'yorlash.
- Zararli odatlardan tiyilish.
- Tozalik va tozalanish masalalariga rioya qilish.
- Baxtsiz hodisalar va jaroxatlanishlardan ehtiyotkor bo'lism.
- Sog'lom turmush tarzi haqida bilim va malakaga ega bo'lism.

Turmush tarzi. - bunda asosan sog'lom turmush tarziga e'tibor berib o'tamiz. Sog'lom turmush tarzi - mehnat, turmush va dam olish gigienasi ekologik va shaxslararo munosabatlar madaniyati bo'lib, uz organizimini fiziologik jihatdan ma'lum holatda saqlab bora olish va atrofdagilarning salomatligi to'grisida q'aygurish singari kompleks omillarini o'zining ichiga oladi va hokazo. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish muayan darajadagi yuqori madaniyatga erishgani, iste'mol qilish, odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lism va sog'lomlashtirishni aql bilan olib borib, madaniyatli bo'lismni ko'zda tutish. Hozirgi davrda respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muammolarni hisobga olsak, sog'lom turmush tarzining ijtimoiy-gigienik mezonlarini aniq belgilab olish amaliyotga, ayniqsa muhimdir.

Sog'lom turmush tarzi – o'z ichiga insonni hayotga intilishini, sog'ligini kuchaytirish va uning buzilishini oldini olishga qaratilgan hatti - harakatlarining yig'indisini qamrab oladi. Demak, sog'lom turmush tarzi - bu odamlarni o'z salomatliklarini saqlash va yahshilashga qaratilgan faoliyatidir.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- Organizmga tasir ko'rsatuvchi tashqi muhitning salbiy omillari va bu omillar tasirini kamaytirish to'g'risida aholining bilimlar darajasini muntazam ravishda oshirib borish uchun doimiy faoliyat ko'rsatuvchi targ'ibot – tashviqot tizimini yaratish;
- Sanitar – gigienik jihatdan aholini tarbiyalash;

- Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni va chekishni tarqalishini kamaytirish, ichkilikbozlikni kamaytirish, giyohvand moddalarni iste'mol qilishni profilaktikasi;
 - Jismoniy mashg'ulot, sport va turizmga aholini jalg etish va sog'lomlashtirish turlarini ommabopligrini oshirish;
- Sog'lom turmush tarzini tashkillashtirish uchun aholini gigienik tushunchalarga, sanitar gigienik me'yorlarga bo'lgan tushunchalarni o'shirish kerak. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni olib borish lozim:
- Aholining barcha ijtimoiy guruhlari orasida sog'lom turmush tarzi haqida tibbiy gigienik ma'lumotlar berish;
 - Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi davlat, jamoat tashkilotlarning faoliyatini rag'batlantirish;
 - Sanitar oqartuv va tarbiyaviy ishlarini barcha tibbiyot xodimlarini jalg etish orqali olib borish;
- Sog'lom turmush tarzini targ'ibot etishning muhim yo'nalishlariga quyidagilar kiradi.

1. Salomatlikni saqlashni ta'minlovchi omillarni targ'ib etish;

- Mehnat gigienasi.
- Sog'lom jinsiy aloqa.
- Ratsional ovqatlanish.
- Shaxsiy gigiena.
- Dam olish gigienasi.
- Optimal harakat rejimi.
- Jismoniy tarbiya va sport.
- Stresslar, zo'riqishlar bilan oqilona kurashish.
- Organizmni chiniqtirish.
- Er – xotin munosabati gigienasi va oilani rejalashtirish gigienasi.
- Psixogigiena.
- Tibbiy – ijtimoiy faollik.
- Atrof - muhit gigienasi.
- Salomatlikka zarar etkazuvchi xavf omillari.

Aholini gigienik tarbiyalash va o‘qitish mактабгача tarbiya va boshqa o‘quv muassasalarida amalga oshirishi o‘rgatilishi kerak, ishchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish vaqtida ularning o‘quv dasturiga gigienik bilimlarni kiritish kerak.

Aloҳida shaxsning turmush tarzini kompleks ko‘rsatkichlari qatoriga turmush harakteri, turmush darajasi, turmush stili va sifati kiradi. Turmush tarzi – jamoadagi yashash tartibi urf - odat, milliy madaniyat hayot tarzi. Masalan, aniq tarixiy taraqqiyot jarayoniga asoslangan urf-odatlari vaqt mobaynida takrorlanib turadi. Ular o‘z navbatida, ehtiyoj bo‘lib qolgan harakatlarni, odatlarni yuzaga keltiradi.

Turmush darajasi deganda odamlarning ovqatlanish, ma’lumoti, ish bilan ta’minlanganligi, ish sharoiti, yashash sharoiti, ijtimoiy taminlanganligi, dam olishi, kiyinishi, bo‘sh vaqtি huquqi tushuniladi. Shu bilan birga bu miqdoriy ko‘rsatkichlar oxirgi maqsad bo‘lib qolmasdan, faqat yahshi turmush sharoitini yaratishning instrumentidir. Hayot uslubi – hatti-haraktning hulq-atvorning psixologik va individual xususiyatidir.

Sog’lom turmush tarzini muammosi insonning oldida to’rgan eng muhim muammodir-shaxsning tamomlama rivojlantirish, mehnat-turmush va dam olish maqsadida odamlar ijtimoiy faolligi kuchayib borishiga yordam beradigan ilmiy maqsadiga asoslangan ijtimoiy gigienik jihatidan oqilona bo’lgan turmush tarzini shakillantirishdir; Bir qancha tadqiqotchilarning malumotlariga qaraganda, Mamlakatimizdagi amaliy salomatlik kamida 50 bora ish vaqtining, 15-20 % atrof muhitga va sog’lijni saqlash sistemasiga bog’likdir.

Sog’lom turmush tarzini targ’ibot qilish prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- Davlat harakteriga ega ekanligi, bunda hamma sog’lijni saqlash muassasalari, mamuriy - xo’jalik organlarining aholining gigienik tarbiyalash asosiy burchlari hisoblanadi va Shu bilan birga ishlab chiqarish korxonalari va alohida hududlarinig iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish rejalarida hammaga malum bo’lgan sog’lom kompleks dasturiga kiritiladi.

- Ilmiyligi, taklift etilayotgan mavzu bo'yicha chuqur va har tamonlama adabiyotlardagi malumotlarni o'rganishi, bayon etiladigan fikrlarni konkretlashtirish, sonlarni ishlatish, xulosalarni ilmiylashtirish va boshqalar.
- Muammolarga dinamik yondashish: qo'uyilgan mavzular tarixiy asoslangan bo'lishi kerak, bu esa hozirgi zamon tibbiyotining yutuqlarini ko'rgazmali qilib tasviriy asoslaydi.
- Tinglovchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarning mazmuni tanlanishi va ularni etkazilishi lozim (jinsi, yoshi, kasbi, kasalligi, materiallarni yoritishni hamma to'gri keladigan shakllarni olishi kerak).
- Muntazamliligi - agarki bir-biriga o'zaro bog'lik bo'lgan tsiklik bir auditoriyada uzoq vaqt davom etsa, unda etkaziladigan ma'lumotlarni to'liqligini ta'minlash maqsadida eng muhim muammolarni ishlab chiqish shartdir: Masalan: sog'lom turmush tarzi mavzusi bo'yicha quyidagi maruzada shuki, o'z navbatida maruzalar tuzilishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini asosiy mazmuni yomon odatlarga qarshi kurash, xavfli omilar profilaktikasi va boshqalar.
- Maqsadga muvofiqligi - gigienik tarbiyalash aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak.
- Kompleks ravishda ta'sir etish - bu targ'ibotning har xil vosita usullarining birikmalaridir.

Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishda bolalarni, yoshlarni, o'smirlarni gigienik tarbiyalashga katta ahamiyat berilishi kerak. Bu ishlar hammasi xalq ta'limi orqali sistemali ravishda olib borilishi kerak.

Aholining sanitariya madaniyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini prinsiplarini targ'ibot qilish, ish qobiliyatini oshirish, sog'lomlashtirish ishlarini olib borish birlamchi davolash-profilaktik muassasalar hamshiralariiga yuklatilgan.

Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish xizmati o'zaro bog'lik holda olib boriladi. Resblikamizda Sog'lomlashtirish markazi hodimlari tomonidan barcha DPM hodimlari bilan birgalikda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha kompleks ishlar olib borilmoqda.

Markazning asosiy vazifalari: Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish ishlirini tashkil qilish, boshqarib borish, tibbiyot muassasalari va davolash muassasalari tomonidan olib boriladigan sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish ishlarini tashkiliy-uslubiy ta'minlash, aholi orasida tibbiy va gigienik bilimlarni targ'ibot qilish, ommaviy axborot vositalarini qo'llash, yoshlar orasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish. kasallikka moyillikni aniqlash va chora-tadbirlarni targ'ibot qilish, aniqlangan moyillik omillarini va salomatlik holatlariga qarab aholi orasida sog'lomlashtirish ishlarini olib borish.

Sog'lomlashtirish markazi tuzilishi:

- tashkiliy bo'lim;
- metodik bo'lim;
- o'qituv bo'limi;
- nashiryot bo'limi;
- maslaxat sog'lomlashtirish bo'limi;
- ma'muriy xo'jalik bo'limi.

Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish usullari:

Og'zaki targ'ibot uslubi (hammabop ma'ruza, suhbat, munozara, bahs, konferensiya, ko'rsatma, tashviqot va axborotli chiqishlar, savol va javob kechalari, baland ovozda o'qish).

Bosma targ'ibot uslubi (gazeta, buklama, byulleten, maqola, varaka, shior, eslatma, kitob).

Ommaviy targ'ibot uslublari (ommaviy bosma, televedenie, kinofilimlar, radio).

Tasviriy va kurgazmali targ'ibot uslubi (plakat, suratlari, ko'rgazmalar, slaydlar, diopozitivlar, maket va mulyajlar).

Aralash vositalar (muzey, kasalxonadagi ko'rgazmalar, sanavtomobil, poezd, salomatlik maktablari, onalik va otalik maktablari, gigienik ta'lim maskanlari).

Gigienik ta'limga qo'yiladigan asosiy talablarni ko'rib chiqamiz:
Aholi o'rtasida ilmiy bilimlarni tarqatishni asosiy vositalaridan biri - ma'ruzadir. Ma'ruza bu ma'lum bir savolni sistematik ravishda ifoda qilishdir, uni taylorlashda, ma'ruza mavzularini tanlanishida ma'ruza qancha kishiga va qanday kontingentga o'qilishiniga e'tibor berilishi

kerak. Maruzalar klassik tuzilishi, kerakli materialar (ko'rgazmali qurollarni, adabiyotlar, maqolalar) bilan ta'minlanishi kerak. har qanday ma'ruzadan tinglovchilarни olgan bilimlarini amalga oshirishga chorlash zarurdir.

Suhbat ma'ruzaga nisbatan kamroq qo'llaniladi. Suhbat bu tinglovchilar bilan ikki tomonlama bo'ladi, tinglovchilar soni 25 ta dan kam bo'lmasligi kerak.

Sanbyulleten - bu tibbiy mavzuga bag'ishlangan devoriy ruzinomasi chiroyligi bezatilgan va uning mavzui nomi kuzga tashlanadigan bo'lishi kerak. Maqolalar oson o'qiladigan bo'lishi lozim. Demak, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish tadbirlarini olib borishda vaziyatni quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash kerak :

- tinglovchilarни soni.
- tinglovchilarни jinsi, yoshi, tarkibi, tinglovchilarning bilim darajasi va boshqalar

Kasalliklarni kelib chiqishida turmush tarzi, ishlab chiqarish va atrof-muhit, hayot faoliyatining noqulay sharoitlari bilan bog'liq xavf omillarining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydigan tadbirlar majmui profilaktika deb nomlanadi. Profilaktikaning 3 turi mavjud.

Birlamchi profilaktika – barcha aholi, alohida region, ijtimoiy, yosh, alohida kasbiy shunga o'xshash guruhlar uchun umumiyoq bo'lib, kasalliklar oldini olishga qaratilgan tibbiy va notibbiy kompleks tadbirlardir.

Birlamchi profilaktika bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi; Odam organizmiga salbiy ta'sir qiluvchi zararli omillarni kamaytirish (atmosfera havosini, ichimlik suvini, ovqatlanish ratsionini, mehnat turini, dam olishni yahshilashdir) bo'yicha tadbirlar.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

Ruhiy kasalliklar, jarohatlar, baxtsiz hodisalarini, avtohalokatlarni, nogironlikni va o'limni kamaytirish, oldini olishga qaratilgan tadbirlar; Profilaktik tibbiy ko'rik davrida salomatlikka zararli ta'sir etuvchi omillarni barvaqt aniqlash va ularni kamaytirish;

Turli aholi guruhlari orasida immunoprofilaktika o'tkazish;

Zararli omillar ta'sir qiluvchi muhitda bo'lgan aholini sog'lom lashtirish, ularga tibbiy va notibbiy yordam ko'rsatish.

Shunday qilib birlamchi profilaktikaning muhim komponentlaridan biri sog'lom turmush tarzini shakllantirishdan iborat.

Ikkilamchi profilaktika - kasalliklarni kelib chiqishi, asoratini, surunkali holatga o'tishini, mehnat sharoitining pasayishini, nogironlikni va erta o'lim holatini oldini olishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, sanitargigienik, psixologik, va boshqa chora tadbirlani yig'indisidir.

Ikkilamchi profilaktika quyidagilarni o'z ichiga oladi;

Patsientlar va ularning oila a'zolarini aniq olingan kasalliklar yoki kasalliklar guruhi haqidagi bilimlari, ko'nikmalarini oshirish va sanitargigienik jihatdan tarbiyalash;

Dinamikada salomatlik holatini baholash, kasalliklarni rivojlanishi oldini olish maqsadida har xil sog'lom lashtirish, davolash ishlarini, tibbiy dispanser ko'riklarini o'tkazish;

Davolash, profilaktika maqsadli sog'lom lashtirish, jumladan, parhez ovqatlanish, shifobaxsh jismoniy tarbiya, tibbiy massaj va sanatoriya - kurortlarda sog'lom lashtirish ishlarini olib borish;

Salomatlik holatini o'zgarishlarga tibbiy - psixologik moslashtirish, organizmning ehtiyojiga va imkoniyatlariga to'g'ri munosobatini shakllantirish;

Xavfli omillar ta'sir darajasini kamaytirishga qaratilgan davlat tibbiy-ijtimoiy, iqtisodiy harakterdagi chora tadbirlarni o'tkazish, bemor va nogironlarga optimal hayot faoliyatini kechirish uchun sharoitlar yaratish, ijtimoiy muhitga moslashtirish (parhez ovqat mahsulotlarini, arxitektura rejallashtirish ishlarini amalga oshirish, hayot faoliyati chegaralangan shaxslarga tegishli sharoitlar yaratish).

Uchlamchi profilaktika yoki reabilitatsiya – bu ijtimoiy, kasbiy statusni tiklashga qaratilgan kompleks tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy chora- tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Guruh va jamoa darajasidagi tibbiy profilaktika odatda tibbiy tadbirlarni o'z ichiga olib qolmasdan, balki salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks dasturlarni ham qamrab oladi.

Profilaktik dasturlar shu sohada olib borilayotgan faoliyatlar tizimi – kompleks va maqsadga yo‘naltirilgan ko‘rinishlardir. Bu dasturlar asosan 4 ta komponentdan iborat:

tahlil - dastur tsiklining boshlang‘ich komponenti bo‘lib, aholining salomatlik holatini, uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omil va sharoitlarni o‘rganish jarayonini salomatlikni mustahkamlash, kasalliklar profilaktikasining imkoniyat darajasini o‘z ichiga oladi;

rejalashtirish – ustivor yo‘nalish, maqsad, vazifa, usul va vositalarni tanlash jarayonini o‘z ichiga oladigan komponent;

amalga oshirish – profilaktik dasturni bajarishda texnik, qonuniy, siyosiy chora - tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

baho berish – olingan natijalar, yuqoridaq dasturlar orqali ko‘zda tutilgan chora - tadbirlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan dinamik jarayon.

Dastur tsiklini baholash profilaktik dasturni boshqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastur tsiklining komponentlari sog‘liqni saqlash sohasining turli yo‘nalishlaridan tashqari, insoniyat faoliyatining boshqa sohalarida ham qo‘llanishi mumkin.

Shunday qilib, har qanday profilaktik dasturni amalga oshirish uning sifati va samaradorligini baholash bilan yakunlanadi.

Tibbiy profilaktik yordam sifati – zamonaviy tibbiyot fani, tibbiy profilaktik texnologiyalar darajasida, jamiyat va patsientlar, ehtiyojini qondirishga qaratilgan tibbiy-profilaktik yordamni ko‘rsatishga qaratilgan tasdiqlovchi tavsiflar majmuasidan iborat.

Tibbiy profilaktik yordamning sifati quyidagicha tavsiflanadi:

- kasalliklar profilaktikasi va sog‘liqni mustahkamlash maqsadida ishlataladigan resurslar, texnologiyalar va chora tadbirlarning adekvatligi;
- qo‘llanilayotgan tibbiy-profilaktik choralarning xavfsizligi;
- tibbiy-profilaktik chora-tadbirlarning amalga oshirishning aniqliligi;
- talab qilinayotgan tibbiy-profilaktik xizmat turining mavjudligi va ommabopligi;
- ko‘rsatilayotgan tibbiy-profilaktik yordamning doimo takomillashtirilganligi va qulayligi;

- sog‘liqni saqlash tizimida patsientlarni sog‘lomlashtirish va o‘qitish jarayonining o‘zluksizligi va izchilligi;
- qo‘llanilayotgan tibbiy-profilaktik tadbirlarning o‘z vaqtidaligi va natijaviylici;
- profilaktika faoliyatida alohida patsient, guruh va barcha aholining ehtiyojini qondirish xususiyati;
- olingan natijalar va jarayonlarning barqarorligi;
- ijobiy, tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy balansga erishish uchun qo‘llanilayotgan tibbiy-profilaktik yordamning samaradorligi.

X bob: SAHAR VA QISHLOQ AHOLISIGA DAVOLASH- PROFILAKTIK YORDAMINI TASHKILLASHTIRISHDA HAMSHIRALAR O’RNI

10.1 Aholiga davolash - profilaktika yordamini tashkil etish.

Davolash - profilaktika ishlari sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim bo‘lagi hisoblanib aholiga davolash - profilaktika yordami asosiy tamoyillarga amal qilgan holda tashkil etiladi:

1. Davolash va profilaktika ishining birligi;
2. Davolash - profilaktika yordamini barcha uchun bir xil darajada ko‘rsatilishi;
3. Profilaktika davolash - profilaktika muassasalarining asosiy ustivor faoliyat turi.
4. Aholini malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam bilan ta’minlash;
5. Dispanserizatsiya davolash - profilaktika yordamining muhim bo‘lagi;
6. UASH - oila shifokori tamoyilida xizmat ko‘rsatish;

Shaharlarda (tumanlarda) aholiga tibbiy yordam sifatini yanada Shahar (tuman) tibbiyot birlashmasi tuman (shahar) markaziy kasalxonasi negizida, Toshkent shahrida tuman ko‘p tarmoqli poliklinikalar bazasida tashkil etildi. Birlashma o‘z faoliyatida – tegishli tuman hokimligiga va viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasiga

buysunadi. Birlashma tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirish uchun klinik baza hisoblanadi.

Birlashmaning asosiy tarkibiy qismiga tumanlarda (shaharlarda) – markaziy shahar (tuman) shifoxonasi, shoshilinch tibbiy yordam bo‘limi bilan, shahar (tuman) ko‘p tarmoqli poliklinika, oilaviy poliklinikalar (shaharlarda), qishloq vrachlik punkti, dispanserlar, akusherlik komplekslar, bolalar shifoxonalari, ixtisoslashtirilgan shifoxonalar, xususiy tibbiyot muassasalari kiradi. Shahar (tuman) markaziy shifoxonasi bosh vrachi shahar (tuman) tibbiyot birlashmasi boshlig‘i hisoblanadi.

Toshkent shahridagi tuman tibbiyot birlashmalari tarkibiga – tuman markaziy ko‘p tarmoqli poliklinika, oilaviy poliklinikalar, o‘rinsiz dispanserlar, bolalar uyi, xususiy tibbiyot muassasalari kiradi. Tuman markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikasi mudiri tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i hisoblanadi. Toshkent shahrining statsionar muassasalari (shifoxonalar, tug‘ruq uylari va boshqalar) shahar maqomiga ega bo‘lib, Toshkent shahar sog‘lijni saqlash boshqarmasi tasarrufida bo‘ladi.

Shahar (tuman) birlashmalari lavozimiga (Toshkentda – Toshkent shahar hokimi), tumanlarda tegishli viloyatlar hokimlari tasdiqnomasiga binoan O‘zbekiston respublikasi sog‘lijni saqlash vaziri tomonidan tayinlanadi.

Shahar (tuman) tibbiyot birlashmalari boshliqlarining ambulatoriya – poliklinika yordami bo‘yicha muovinlari – markaziy shahar (tuman) ko‘p tarmoqli poliklinikaning mudirlari hisoblanadi. Birlashma boshlig‘ining muovinlari Qoraqalpag‘iston Sog‘lijni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahri sog‘lijni saqlash boshqarmalari bilan kelishilgan holda birlashma boshlig‘i tomonidan tayinlanadi va ishdan bo‘shatiladi.

Birlashmaning asosiy maqsadi va faoliyati:

- yagona – tashkiliy uslubiy rahbarlikni, hamda aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati ustidan nazoratni ta’minlaydigan sog‘lijni saqlashni zamonaviy tashkiliy tuzilmasini shakllantirish;

- qishloq vrachlik punktlari (QVP), oilaviy poliklinikalarga (OP) va boshqa tibbiyot muassasalariga davolash – profilaktika, sanitariya – maorifi tadbirlarini o‘tkazishda va sog‘liqni saqlashni tiklashga oid tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va yangicha uslubiy yordam berish.

Birlashmaning asosiy vazifalari:

- aholiga malakali birlamchi ambulator – poliklinika yordamini ko‘rsatish;
- bemorlarga birlamchi va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, statsionar sharoitida davolash, hamda QVPga va oilaviy poliklinikalarga shahar (tuman)ning boshqa tibbiyot muassasalariga tashkiliy – uslubiy rahbarlik qilish;
- kasalliklar, avvalambor yuqumli va virusli kasallikkarni tarqalishini oldini olish uchun profilaktik tadbirlar o‘tkazish;
- samarali sanitariya – epidemiologik nazoratni ta’minlash;
- bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishning zamonaviy diagnostika va davolash standartlarini amaliyotga tadbiq etish va ularning bajarilishi bo‘yicha tuman tibbiyot muassasalari ustidan nazorat o‘rnatish;
- aholi orasida oilaning tibbiy madaniyatini oshirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, joy – joyiga qo‘yish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tuman sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish, material – texnik jihatdan ta’minlash, istiqbol rejalar tuzish.

Birlashma oldiga qo‘ylgan maqsad va vazifalarga erishish uchun aholiga bepul yuqori malakali davolash – profilaktika, konsultativ tibbiy yordam ko‘rsatadi, zamonaviy sifat talablari darajasida diagnostika va davolash standartlarini yanada rivojlantiradi, qo‘llab quvvatlaydi, xodimlarni qayta tayyorlaydi, malakasini oshiradi, birlashmaning material - texnik bazasini rivojlantiradi, amaliyotga zamonaviy tibbiyot texnikasi va texnologiyalarini joriy etadi.

10.2 Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini tashkil etishda hamshiralar o’rni

Aholini birlamchi tibbiy sanitariya yordami bilan ta’minlash davlat siyosatining asosiy ustivor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakat

rivojlanishining har bir bosqichida, ijtimoiyadolat ruhida aholiga iloji boricha yashash va ish joyiga yaqin joyda, jamoatchilikning barcha kuchlari yordamida ko'rsatiladigan sog'lijni saqlash chora – tadbirlaridandir shuning uchun hozirgi kunga kelib birlamchi tibbiy sanitariya yordami (BTSYo), tibbiy sanitariya xizmatining muhim shakli bo'lib, aholi va mamlakatning imkoniyatlaridan kelib chiqib, aholining, jumladan har bir insonning faol ishtirokida uning ehtiyojiga ko'ra ko'rsatiladigan kerakli va muhim yordam hisoblanadi.

BTSYo rivojlanishtirish strategiyasi 1978 yilda Olmatada o'tqazilgan halkaro anjumanda qabul qilingan. BTSYo asosiy qismi bu profilaktika va aholining tibbiy saviyasini oshirishdir, aynan shu ish ko'p mamlakatlarda ko'proq hamshirallar zimmasiga yuklatilgan. Bizning respeblikamizda ham oilaviy, patronaj hamshiralar profilaktik, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan ishlarni UASH bilan birobar amalga osgirib borishadi. BTSYo muassasalarida umumiyl (oila) amaliyat shifokori va uning yordamchisi oila hamshirasi faoliyat yuritishadi. BTSYo muassasalari faoliyatining asosiy qismini yoshi va jinsidan qat'iy nazar oilaning har bir a'zosiga birlamchi tibbiy sanitariya yordami ko'rsatish, profilaktik tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tashkil etadi. Ikkinch Evropa - konferensiyasi qarori bilan tuzilgan ekspert guruhining ta'rifiga ko'ra umumiyl amaliyat shifokori - oliv tibbiyot o'quv yurtining bitiruvchisi bo'lib, «u alohida kishi, oila va aholiga yoshi, jinsi va kasalligining turidan qat'iy nazar induvidual birlamchi va uzluksiz tibbiy yordam ko'rsatuvchi shaxsdir».

Davlat sog'lijni saqlash tizimi muassasalari, ijtimoiy ta'minot hamda, jamoa birlashmalari tomonidan ko'rsatiladigan BTSYO tibbiy xizmatning asosiy va bepul turi hisoblanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Oilani, onalik va bolalikni muhofazalash, yashash joyi bo'yicha tibbiy - sanitariya yordamini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarni o'tkazish.

- Eng ko'p tarqalgan kasalliklar, jarohatlanishlar va boshqa noxush holatni davolash;

- Sanitariya - gigiena, epidemiyaga qarshi tibbiy profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 noyabr 1998-yilgi № PF-2107 «O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash tizimini isloh

qilish davlat dasturi to'g'risida»gi qaroriga binoan, birlamchi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni mustahkamlashtirish chora tadbirlari kiritildi, shu qarorda davlat tomonidan aholiga bepul ishonchli birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish alohida belgilangan.

10.3 Oilaviy poliklinikaning (OP) ish mazmuni

Poliklinika - grekcha *polins* shaxar, *klinika* - davolash so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, birinchi marta bunday muassasalar shaxarlarda, tuman va viloyat markazlarida tashkil topgan bo‘lib axolining qatnab davolanishi va uyda tibbiy yordam olishi uchun mo‘ljallangandir.

Oilaviy poliklinika, o‘ziga biriktirilgan hudud aholisining kasalliklarini kamaytirish bo‘yicha sog‘lom aholi guruhini va bemorlarni dispanser nazoratiga olishga, bemorlarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatishga, keng ko‘lamdagi profilaktik chora - tadbirlarni olib borishga mo‘ljallangan davolash profilaktika muassasasidir.

Oilaviy poliklinika aholiga tibbiy xizmatni oila hududi prinsipida ko‘rsatadi. Poliklinika muassasalari, birinchi marta shaharlarda, tuman va viloyat markazlarida tashkil etilgan bo‘lib, aholining qatnab davolanishi va uyda tibbiy yordam olishi uchun mo‘ljallangan. Poliklinika xizmati sog‘liqni saqlash tizimida muhim o‘rinni egallaydi.

Poliklinika — katta profilaktik ishlarni olib boradi, epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni o‘tkazadi, poliklinika huidiga kiritilgan aholining salomatligini o‘rganadi va shu aholi orasida tibbiyot ishlarini olib boradi, erta kasallanishni aniqlaydi, uning ro‘yxatni tashkillashtiradi va aholi salomatligi xolati ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi, biriktirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarida vaqtinchalik ishlay olmaydiganlar kasalligini o‘rganadi.

Sog‘likni saqlash tizimi muassasalari nomenkulurasiga ko‘ra poliklinika muassasalariga quyidagi muassasalar kiradi:

- *tuman, shaxar ko‘p tarmoqli poliklinika
- *oilaviy poliklinika
- *stomatologik poliklinika
- *qishloq vrachlik punktlari
- *ixtisoslashtirilgan dispanserlar

Xizmat ko'rsatayotgan aholi guruxiga qarab kattalar va bolalar poliklinikalariga bo'linadi.

Joylashgan joyiga qarab shaxar va tuman poliklinikasiga bo'linadi.

Ixtisosligi bo'yicha esa umumiy va aloxida ixtisoslik bo'yicha bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashgan poliklinikalarga: stomatologik, fizioterapevtik, sanatoriya-kurort poliklinikalari hamda dispanserlarning poliklinika bo'limlari misol bo'la oladi .

Shuningdek, axoliga poliklinika yordami respublika ixtisoslash-tirilgan markazlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, viloyat ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlarining poliklinikalari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Birinchidan, poliklinikalar eng ommaviy va aholi uchun eng yaqin tibbiyot muassasalaridan biri bo'lib, unda-yiliga 80%dan ortiq aholi tibbiy yordam oladi.

Ikkinchidan, bunday muassasalarda ishlovchi shifokorlarning faoliyati juda katta profilaktik ahamiyatga egadir (barvaqt tashxis qo'yish, yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va boshqalar).

Uchinchidan, poliklinikalarning faoliyati boshqa tibbiyot muassasalarining ishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Poliklinikaning ish sifati ayniqla, kasalxonalarning faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, poliklinikada bemorlarga qanchalik o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yilib, shifoxonaga yuborilsa, ularni shifoxonada davolanish muddati qisqaradi, kasallikdan xalos bo'lishi tezlashadi. Poliklinikalarda kasalliklar (bemorlar) qancha erta malakali, sifatlari aniqlansa va davolansa, ularning kasalxonalarda davolanishga bo'lgan ehtiyoji shuncha kamayadi.

Poliklinika muassasalarining ishini yanada yahshilash uchun quyidagilarga katta ahamiyat berilishi lozim.

1. Kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash.
2. Aholiga kerakli davolash - sog'lomlashtirish yordamini ko'rsatish, ularni tizimli dispanserizatsiyadan o'tkazish;
3. Poliklinikalarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash;

4. Poliklinikalar faoliyatida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga, kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xavf omillar guruhlarini aniqlashga katta ahamiyat berish.

5. Poliklinika xizmatini yanada yahshilash va ishini takomillashtirish maqsadida poliklinika, tez tibbiy yordam va kasalxonalar o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni yanada rivojlantirish.

Poliklinika faoliyati negizi hududiy-uchastkali tamoyilga asoslangan, Shu hududda yashovchi odamlarga tibbiy yordamni ko‘rsatadi. Poliklinika va uning shtatlari faoliyatini rejalashda, poliklinika xizmat ko‘rsatadigan odamlar soni, yoshi va jinsi, kasallik darajasi va turiga asoslanishi lozim.

Zamonaviy poliklinika katta ko‘p qirrali maxsuslashgan davoprofilaktik maskandir, tibbiy xizmat ko‘rsatishga moslashtirilgan va kasallikni oldini olishga va odamlar sog‘lig‘ini tiklash maqsadida o‘tkaziladigan profilaktik muolajalar o‘tkaziladi. Poliklinika axoliga tibbiy xizmatni oila teritorial prinsipi asosida xizmat ko‘rsatadi.

Oilaviy poliklinika vazifalari:

- OPda unga biriktirilgan axoliga birlamchi malakali tibbiy sanitariya yordamini ko‘rsatish;
- to‘satdan paydo bo‘lgan va o‘tkir kasalliklarda, jarohatlanishlarda birlamchi tibbiy yordamni ko‘rsatish;
- poliklinikaga murojaat qilganda, uyga chaqirilgan kasallarga davo muolajalarni o‘tkazish;
- dispanser nazoratini rejalashtirish va o‘tkazish;
- vaqtincha ishga layoqatsizligini aniqlash, mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish, uzoq muddatli va turg‘un mehnat qobiliyatini yo‘qotgan bemorlarga vrachlik mehnat ekspert xay’atiga yo‘llanma berish.
- bemorlarni sanator-kurortga davoga yuborish;
- kasalxonada davolanishga muxtoj bo‘lgan bemorlarni kasalxonaga yuborish;
- homilador ayollarni tug‘ruqdan oldin, tug‘ruqdan keyin belgilangan tartibda nazoratga olish, ularga konsultativ yordam ko‘rsatish;

ushbu hududga biriktirilgan aholini, shuningdek bolalar, ayollar, qariyalarning salomatlik holatini tahlil etish va sog‘lomlashtirish chora – tadbirlar rejalar ishlab chiqish;

aholi o’rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘ycha ishlar olib borish;

laboratoriya va instrumental tekshirishlarni o‘tkazish;

poliklinika faoliyatini tahlil qilish, hisobiy hujatlarni olib borish va hisobotlar tuzish.

Poliklinika yordamining xajmi axolining profilaktik va maqsadli tibbiy ko‘riklari, bemorlar dispanserizatsiyasi, surunkali kasalliklari bor bemorlarni sog‘lomlashtirish, nogironlarni individual reabilitatsiyasi, bemorlarga uyda ko‘rsatiladigan tibbiy yordam hamda biriktirilgan axoli, maxalla, xizmat doirasidagi o‘quv muassasalari va korxonalarda kasalliklarni oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha sanitariya-targ‘ibot tadbirlari bilan belgilanadi.

Umumiy amaliyot shifokorining asosiy vazifasi - yoshi va jinsidan qatiy nazar biriktirilgan axolining salomatligini muxofaza qilish, kasalliklarning profilaktikasi, diagnostikasi va davolash bo‘lib, axoliga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni tashkillashtirish. Umumiy amaliyot shifokori faoliyatini tashkil qilishda sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan qabul kilingan buyruqlarga asoslanish zarur bo‘ladi.

Oilaviy poliklinikaning tarkibi quyidagilardan iborat:

- ro‘yxatxona;
- vrachgacha qabul xonasi;
- konsultativ kunduzgi shifoxona;
- umumiy amaliyot shifokorlari xonalari;
- klinik tashxislash labaratoriysi;
- funksional diagnostika xonasi, oral regidratatsiya punkti;
- sog‘lom bola xonasi, fizioterapiya bo‘limi, markaziy sterillash bo‘limi;
- axborot kommunikatsiya yoki statistika xonasi;
- buxgalteriya;
- ma’muriy xo‘jalik bo‘limi.

Ro‘yxatxona davolash-profilaktika muassasalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u kelgan bemorlarni vrach qabulida va uyda tibbiy yordam ko‘rsatish uchun ro‘yxatga oladi.

Ro‘yxatxonada vrachlar qabuliga yozilish va ularni uyga chaqirish, mehnatga yaroqsizlik varaqalari va spravkalarni berish, hamda tibbiyot arxivi uchun joy ajratiladi. Ro‘yxatxona ishiga bevosita **bosh hamshira** rahbarlik qiladi.

Ro‘yxatxonaning asosiy funktsiyasi:

1. Oldindan va bevosita murojaat qilganda, hamda telefon orqali bemorlarni vrach qabuliga va uyga chaqirish bo‘yicha ro‘yxatga olishni tashkil etish.
2. Har kuni hamda bayram va dam olish kunlaridagi vrach qabuli haqida, ularning qabul vaqtлari va xonalarini ko‘rsatgan holda aholiga axborot berish.
3. Vrachni uyga chaqirish, oldindan qabulga yozilish, bosh vrach va uning muovinining qabul vaqtini va kunlari, dorixonalar, statsionar, tunda, dam olish, bayram kunlari aholiga shoshilinch vrachlik yordamini ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasalari ularning manzillari haqida axborot berish.
4. Mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik varaqasi va ma’lumotnomalarni maxsus jurnalga qayd etish.
5. Yangi kelgan patsientlarni ro‘yxatga olish.
6. Tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri yuritish.

Ro‘yxatxonaning muhim vazifalaridan biri murojaat etayotgan patsientlarni vrach qabuliga yozish, uyga chaqiruvni ro‘yxatga olishdan iborat.

Murojaat etayotganlar oqimini to‘g‘ri boshqarish uchun mehnatni tashkil etishning yangi progressiv shakllarini amaliyatga tadbiq etish, registraturani tashkiliy texnik vositalar bilan ta’minlash zarur.

Vrachni uyga chaqirish bevosita registraturaga murojaat etish yoki telefon orqali yozilish tufayli amalga oshirilishi mumkin. Qabul qilingan chaqiruvlar “Vrachni uyga chaqirish kitobi”ga yoziladi. Jurnal shakli SSVning 2006 yil 287-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanganadi.

Registratura ishini optimallashtirishda registrator ish o‘rnini oqilona tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy registratura oynasi oldida bo‘lim raqami, vrachlarning ismi sharifi, ular xizmat ko‘rsatuvchi ko‘chalarining nomlari, uylar soni ko‘rsatilgan doska bo‘lishi lozim.

Vestibyulda vrachlarning qabul soatlari, kunlari, qabul xonalarining nomeri ko‘rsatilgan doska osib qo‘yilishi lozim. Ushbu doskada bosh vrach va uning muovinlarini qabul kunlari, vaqt haqida hamda dam olish kunlari, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatadigan shahar (tuman) statsionarlarining manzili, vrachlarni uyga chaqirish uchun telefon raqamlari ko‘rsatiladi.

Bemorlarga o‘z vaqtida tez tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun registraturadagi shkaflarda kartalar oila - hudud prinsipi bo‘yicha joylashtirilgan bo‘lib, har bir oila - hududga qarashli kartalar - ko‘chalar, uylar, xonodonlar bo‘yicha joylashtirilishi lozim. Tibbiy registrator ishini engillashtirish uchun har - bir umumiy amaliyot shifokoriga tegishli kartalar maxsus ranglar bo‘yicha markerlanadi.

Kelgusida registratura ishini qog‘ozsiz usulga, ya’ni axborotlar saqlashni elektron tizimiga o‘tkazish mumkin. Buning uchun esa har - bir vrach xonasi, tashxislash - davolash xonalarida terminallarga ega bo‘lgan poliklinika bo‘yicha lokal kompyuter tarmog‘ini yaratish lozim.

Hozirgi kunda, yuqoridagi usulga o‘tish, tibbiyot axborotlarini ma’lum tizimga tushirish va bu bilan bog‘liq holda bemorlarning kartalarni kompyuter tizimiga moslash uchun xodimlarning kompyuter savodxodligini oshirish borasida joilarda tegishli ishlar olib borilmoqda.

Registratura faoliyatida tibbiyot hujjatlarini (ma’lumotnomalar, yo‘llanmalar va boshqalar) to‘g‘ri yuritish katta ahamiyatga ega. Registratura xodimlari hujjat bergen shaxslar bilan birgalikda ularni to‘g‘ri to‘ldirishga mas’ul hisoblanadi. Odatda aholi birinchi bor tibbiy yordam uchun umumiy amaliyot shifokoriga murojaat qiladi. Har bir umumiy amaliyot shifokoriga 1300-1500 ta aholi biriktiriladi. 2000 aholiga 1,5 ta umumiy amaliyot shifokori shtati lavozimi ajratiladi.

9.3.1 Oilaviy poliklinika ishini tashkil etish.

Oilaviy poliklinika aholiga statsionargacha bo‘lgan birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan tibbiy muassasadir. Shuning uchun hozirgi kunda respublikamiz shaharlarida oilaviy poliklinikalarni tashkil etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Poliklinika ishiga bosh vrach rahbarlik qiladi. Bosh vrach muassasada ko‘rsatilayotgan davolash profilaktika yordamining sifati va madaniyatiga, tashkiliy, ma’muriy - xo‘jalik va moliyaviy faoliyatga mas’ul javobgar. U poliklinika hududidagi aholiga davolash - profilaktik yordamini ko‘rsatish rejasini tuzadi va uning bajarilishini ta’minlaydi. Oilaviy poliklinikaning shtati shtatlar me’yoriga mos holda belgilanadi.

OP bosh vrachi vazifalari:

- Tibbiyot va ma’muriy xo‘jalik xodimlarini tanlaydi va ularni ishga qabul qiladi;
- Ularning ishini nazorat qiladi, lozim topganda rag‘batlantiradi;
- Mehnat intizomi buzilganda esa ularni ma’muriy javobgarlikka tortadi.
- Vrachlar va o‘rta tibbiyot xodimlarini malakasini oshirishni tashkil etadi;
- Bo‘limlarga rahbar xodimlar zahirasini yaratadi;
- Kun tartibini belgilaydi;
- Xodimlarning ish grafigini tasdiqlaydi va boshqalar.

Bosh vrach tajribali, malakali, tashkilotchilik xususiyatlariga ega bo‘lgan vrachlardan o‘ziga birinchi muovin tanlaydi. Bosh vrach bo‘lmagan davrda u bosh vrachning majburiyatlarini bajaradi. U muassasaning jami davolash - profilatik faoliyatiga javobgar hisoblanadi. Shu maqsadda bosh vrachning davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari bemorlarni o‘z vaqtida poliklinikada qabulda va uyda to‘g‘ri sifatli tekshirish va davolashni tashkil etadi va nazorat qiladi; Yangi tashkiliy usullar va tibbiyot muassasalarining ilg‘or ish tajribalarini bemorlarni tashxislash, davolash va kasalliklar profilaktikasining zamonaviy samarali usullarini poliklinika faoliyatiga tadbiq etadi. U poliklinika bilan statsionar o‘rtasida bemorlarni tekshirish va davolash bo‘yicha o‘zaro uzviylikni, bog‘liqlikni ta’minlaydi, bemorlarni lozim bo‘lganda statsionarga yotqizishni tashkil etadi, barcha profilaktik

ishlarga rahbarlik qiladi, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish rejasini bajarilishini ta'minlaydi. Davolash nazorat komissiyasining ishini tashkil etadi, hay'at bilan birgalikda tashxislar tafovuti, vrachlik xatosi va davolash - tasxislash ishlari holatini muhokama qiladi; tibbiyot statistikasi xonasining ishini tashkil etadi va nazorat etadi.

Bo'lim mudiri - oilaviy poliklinikaning ish faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. Har 9 umumiy amaliyot shifokoriga 1 ta bo'lim mudiri lavozimi ajratiladi. Agar umumiy amaliyot shifokorning soni 6,5 dan 9 tagacha bo'lsa, 0,5 bo'lim mudiri lavozimi kiritiladi, Yuqorida ko'rsatilganidan kam bo'lsa, unda shifokorlarning biriga bo'lim mudirining vazifalari yuklatiladi.

Bo'lim mudirining vazifasiga bo'limdagi shifokorlar bilan birgalikda davolash profilaktika ishlarining rejasini va jadvalini tuzish, tashxislash - davolash jarayoniga, profilaktik emlash, rejali statsionarga yotqizish, dispanserizatsiya, sanatoriya - kurortlar, bir yoshgacha bolalar salomatligini saqlash bo'yicha olib borilayotgan UASh ishini nazorat qilish, rahbarlik qilish va uni tekshirib borish, ishning sifatiga va samaradorligiga alohida ahamiyat berish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hollarini ekspertiza qilish va boshqa vazifalar kiradi.

O'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lim mudiri vaqt - vaqt bilan shifokorlar qabulida bo'lishi, zarur bo'lgan vaqtda kasallarning uylariga ham borib ko'rishi kerak. Bo'lim mudiri tibbiyot hujjatlarini to'ldirib va ularni olib borilishi bilan tanishadi, shifokorlar bilan birga bemorlarni vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligini ekspertiza qiladi.

Bo'lim mudirining eng muhim vazifalaridan biri tibbiyot xodimlarini malakasini oshirishdan iborat bo'lib, bu ish: konferensiylar o'tkazish, tashxis qo'yish va davolash muolajalarining yangi usullarini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, shifokorlarning davolash, tashxislash ishlarining sifati va samaradorligini muntazam ravishda ekspertiza qilish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, bo'lim mudiri - yahshi tajribali - amaliyotchi, tashkilotchi - pedagog bo'lishi kerak.

Oila (uchastka) hamshirasi birlamchi tizimdagi “oliy hamshiralik ishi”, «umumiyl amaliyat hamshirasi», «feldsher», “tibbiyat hamshirasi”, «akusherka» kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan yoki «umumiyl amaliyat hamshirasi» dasturi bo‘yicha diplomdan keyingi ixtisosligini muvaffaqiyatli o‘tgan diplomli mutaxassisdir.

Oila hamshirasi ish faoliyatida biriktirilgan aholiga, jinsi va yoshidan qat’iy nazar birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va karantin, o‘ta xavfli va boshqa yuqumli kasallikkarni oldini olish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazadi. Oila hamshirasi umumiyl amaliyat shifokori bilan hamkorlikda va o‘zi mustaqil ravishda UAShning bevosita nazorati ostida faoliyat yuritadi.

Oila hamshirasi o‘z ish faoliyatida tashkiliy-uslubiy masalalari bo‘yicha bevosita nazorat qiluvchi UAShga, maxsus **jamoada hamshiralik ishi** masalalari bo‘yicha — bosh, katta hamshira-feldsherga, umumiyl masalalar bo‘yicha esa muassasa rahbariga bo‘ysinadi.

Oila hamshirasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi direktiv va me’yoriy xujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari, me’yoriy xujjatlari, sanitariya qoida va yo‘riqnomalari, Qoraqalpog‘iston, Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyat boshqarmalari, xududiy va mahalliy organlarning buyruqlari, muassasaning ichki buyruq va ko‘rsatmalariga, shuningdek mazkur nizomga asosan o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Oila hamshirasini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish amaldagi mehnat qonunchiligidan belgilangan tartibda, muassasa rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Oila hamshirasi o‘z vakolati doirasida UASh bilan birgalikda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

*Biriktirilgan aholiga, barcha oila a’zolariga kasallikkarning oldini olish va davolash ishlari bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatadi;

*Xomilador va chilla davridagi ayollar, fertil yoshidagi ayollar, emizikli ayollar, 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar ko‘rigini xonadonlarda o‘tkazadi;

*Oila hamshirasi mahalla faollari va ijtimoiy xodimlar bilan hamkorlikda yolg‘izlar, qariyalar, nogironlar, surunkali kasalliklari bo‘lgan bemorlar ko‘rigini xonadonlarda o‘tkazib,tibbiy yordam ko‘rsatadi;

*Yuqumli va surunkali kasalliklarni erta aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko‘riklarda hamda biriktirilgan aholining orasida sanitariya-gigiena, aseptika va antiseptika qoidalariga, emlashdan keyingi asoratlar, virusli gepatitlar, OIV iifeksiyasi va boshqa parazitar hamda yuqumli infeksiyalarni oldini olish choralariga rioya qilishni targ‘ib etadi.

*Vaksina va dori-darmonlarni saqlash, tashishni muzlatgich zanjiriga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

*Bolalarni milliy emlash jadvali va epidemik ko‘rsatma asosida xavfsiz emlashni amalga oshiradi.

*Uchastka xududidagi aholini ro‘yxatga olishni amalga oshiradi;

*Tibbiy asbob anjomlarni dezinfeksiya, sterilizatsiya va utilizatsiya qilish qoidalarini bilishi kerak.

Oila hamshirasining asosiy ko‘nikmalari:

*Turli yoshdagi aholi guruhlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, infektsion va noinfektsion kasalliklarni oldini olish bo‘yicha aholi o‘rtasida sanitariya targ‘ibot ishlarni olib boradi.

Bolalar salomatligini muhofaza qilishda:

* chilla davridagi chaqaloqning fiziologik holatlarini baholash (vazni, bo‘yi, fiziologik moslashuvi, uning parvarishi);

* 2 yoshgacha bo‘lgan davrda tana vaznini o‘lchash;

*bolaning bo‘y uzunligini o‘lchash;

*bosh va ko‘krak aylanasini o‘lchash;

*olingan o‘sish ko‘rsatkichlarini baholash;

*asab tizimining holatini baholash;

*teri elastikligini aniqqlash;

- *teri va shilliq qavatlarini parvarishlash;
- *sezgi a'zolarining holatini baholash;
- *endokrin tizimining holatini baholash;
- *nafas olish sonini hisoblash;
- *puls tezligini hisoblash;
- *AB ni o'lchash;
- *periferik limfa tugunlarini paypaslash va baholash;
- *ovqat hazm qilish tizimining holatini baholash (qusish, ich kelishi, qorin dam bo'lishi);
- *og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirish;
- *qorinni paypaslash;
- *siydkh chiqarish tizimining holatini baholash;
- *emlanish holatiga baho berish;
- *shifokor tavsiyasiga ko'ra muolajalarni bajarish.

Onalik va bolalikni muhofazasi bo'yicha:

- *tashqi jinsiy a'zolarni ko'zdan kechirish;
- *qindan surtma olish;
- *chanoqning tashqi o'lchamlarini o'lchash.
- *kontratseptivlardan foydalanish bo'yicha maslahatlar berish;
- *ayol organizmida homiladorlik tufayli ro'y beradigan fiziologik o'zgarishlar haqida va xavfli belgilar xaqida 3 oyda 1 marta ma'lumot berish;
- *homiladorlik belgilarini va muddatini aniqlash;
- *homiladorlik davri gigienasi va uning xususiyatlari;
- *o'smirlardagi homiladorlik asoratlari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;
- *tuqqan ayolni shaxsiy gigienaga o'rgatish;
- *chaqaloqlarni erkin yo'rgaklash;
- *chaqaloqlarni emizishga yordam berish;
- *ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish;
- *klimakterik davr haqida tushuncha berish;
- *shifokor tavsiyasiga ko'ra muolajalarni bajarish.

Qariyalar salomatligini muhofazasi bo'yicha:

- *hayotiy ko'rsatkichlarni o'lchash (pulsni sanash, arterial bosimni o'lchash, nafas maromini sanash);
- *qariyalarga harakatlanish xavfsizligini o'rgatish;
- *shifokor tavsiyasiga ko'ra muolajalarni bajarish;
- *turli faollik holatidagi qariyalarda gigienik talablarga rioya qilishni o'rgatish;
- *yotoq yaralarning oldini olishni va parvarish qilish bo'yicha maslahat berish;
- *keksa bemorlarga buyurilgan dori darmonlarni belgilangan vaqtida qabul qilishga o'rgatish;
- *sezgi a'zolarini faoliyatini kuzatish;
- *depressiv holatdagi bemor kuzatuvi bo'yicha qarindoshlarga maslahat berish;
- *qarilik oldi va qarilik demensiyasi bor bemorlarni kuzatish bo'yicha qarindoshlarga maslahat berishni;
- *terminal davrdagi qariyalarni parvarishlashni va ularning yaqinlariga psixologik yordam berish.

Mahalla faollari, bog'cha, maktab va o'rta maxsus kollejlari bilan hamkorlikda aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha:

- *ob'ektlarga tasdiqlangan jadvallar asosida tashrif buyurishni rejorashtirish;
- *salomatlik va hamshiralik parvarishdagi muammolarni aniqlash;
- *aholi va bemorlar bilan yuqumli va boshqa kasalliklar bo'yicha suhabatlar o'tkazish;
- *aholi orasida dispanser ko'rigini o'tkazishda qatnashish;
- *sanitariya-gigiena qoidalari bo'yicha suxbat o'tkazish;
- *jamoada sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- *kasallikning oldini olish maqsadida jamoada dispanser ko'rigida ishtirok etish va targ'ibot ishlariii olib borish;
- *oila haqida ma'lumot yig'ish va tahlil qilish;
- *balog'atga etmagan qizlar va ayollar o'rtasida uchraydigan kasalliklarni oldini olish tadbiralarida ishtirok etish;

- *istalmagan xomiladorliknnng oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, zamonaviy kontratseptiv vositalarini qo‘llash bo‘yicha sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;
- *karantin va o‘ta xavfli yuqumli infektsiyalar paydo bo‘lganda sanitariya- epidemiyaga qarshi tadbirlarda ishtirok etish;
- *aholining ruhiy salomatligini saqlash bo‘yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirish;
- *infeksiya o‘chog‘ida o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

Oila hamshirasi quyidagi huquqlarga ega:

- *Muassasa rahbari va umumiyl amaliyot vrachi, katta hamshira/feldsherga mehnatni tashkil etish, zarur dori-darmon vositalari, asbob-uskunalar. tibbiyotga oid buyumlar bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha, shuningdek o‘z vakolati doirasida aholiga ko‘rsatiladigan davolash-profilaktika yordamini yahshilash masalalari bo‘yicha takliflar berish.
- *Oila hamshirasi biriktirilgan hududda davolash-profilaktika va tashkiliy masalalar bo‘yicha yig‘ilishlar (majlislar) da ishtirok etadi.
- *Xududdagi UA Shga biriktirilgan bitta ish o‘rniga (stavka) ega hamshira tomonidan bir ish kunida 6 ta xonadonda faol qatnov (1 haftada 36 va 1 oyda 144 qatnov) amalga oshiradi.
- *Hamshira biriktirilgan aholi o‘rtasida har oyda dolzarb mavzular bo‘yicha 1 oyda 8 ta suhbat o‘tkazadi.
- *Hamshira qatnov vaqtida muolajalarni bajarish, tibbiy ko‘rikka chaqirish, emlashdan keyingi holatni nazorat qilish, observatsion tadbirlarni amalga oshiradi.
- *Hamshira bajargan tadbirlarini «uchastka (oila) hamshirasining kundalik faoliyati» jurnaliga qayd qiladi va kun yakunida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilib boriladi.
- *O‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini o‘z ustida uzlusiz ishslash, sog‘lijni saqlash boshqaruv organlari tomonidan tashkil etiladigan qisqa muddatli o‘quv kurslari va seminarlarda, shuningdek malaka oshirish kurslarida ishtirok etish takomillashtirish.

*O‘z malaka toifasiga munosibligini tasdiqlash uchun har besh yilda bir marta attestatsiyadan o‘tish.

Oila hamshirasining javobgarligi:

*Biriktirilgan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish natijasida, o‘z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida muassasa faoliyatiga yoki biriktirilgan xududdagi bemorlar sog‘ligiga zarar etkazgan holatlarida;

*Tibbiy jihozlardan samarali foydalanish va ishchi holatida saqlashda, *UASHning ko‘rsatmalariga asosan dori-darmonlardan to‘g‘ri foydalanishda va shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etishda;

*“Uchastka (oila) hamshirasi faoliyatini qayd qilish” jurnalini o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘ldirilishiga javobgardir.

Aholi va bolalarga statsionargacha ko‘rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordamning hajmi

1. Kollaps, koma (gipoglikemik, diabetik, jigar, uremik), shok (anafilaktik, gipovolemik, postgemorragik, infeksion - toksik, travmatik, kardiogen).

2. Barcha etiologiyalarga xos asfiksiya (chaqaloq asfiksiyasi, yot jism, cho‘kish, osish va boshqalar).

3. O‘tkir nafas etishmovchiligi: halqum shishi, astmatik status, bronxoobturatsion sindrom, pnevmotoroks, o‘pka shishi.

4. O‘tkir Yurak etishmovchiligi: paraksizmal taxikardiya, mersal paroksizm, Morgani - Adams - Stokssindromi, o‘tkir qon yo‘qotish va qon ketish, giperotonik kriz, eklampsiya, o‘tkir Yurak to‘xtashi, kliniko‘lim.

5. O‘tkir qorin sindromi: jigar, buyrak kolikasi, o‘tkir siydiq chiqarishni to‘xtashi.

6. Bosh va orqa miya jarohatlari.

7. Turli etiologiyaga xos bo‘lgan tutqanoq sindromi: epileptik status, gipertermik sindrom, degidratatsiyasindromi, o‘tkir allergik reaksiyalar, tireotoksik kriz.

8. Angionevrotik shish (Kvinke shishi)

9. Ko‘zning termik va kimyoviy kuyishi, ko‘z olmasi va orbitasining shikastlanishi, glaukomaning o‘tkirxuruji.

10. Elektr jarohat, kuyish, qo‘sish va ko‘plab shikastlanishlar (shikastlanishlar va sinishlar), hayvonlarningtishlashi va hasharotlarning chaqishi.

11. Zaharlanishlar (uyqu dori, uglerod oksidi, fosfor organik birikmalar, kislotalar, ishqorlar, qo‘ziqorinlar, oziq- ovqat mahsulotlari).
12. Alkogol deliriyasi.

Oilaviy poliklinikalarda bajariladigan tibbiy muolajalar

1. Retsept yozish.
2. Bemorlarni palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya yordamida tekshirish va antropometrik o‘lchashlar o‘tkazish.
3. Qo‘llarda va oyoqlarda qon bosimini o‘lchash.
4. EKG apparatida ishslash, mustaqil EKG olish va ularni tahlil qilish.
5. Gemogramma tekshiruvi uchun qon olish.
6. Fotometrik usul Yordamida eritrotsitlar, leykotsitlar, gemoglobin miqdorini va eritrotsitlar cho‘kish tezligini (ECHT) aniqlash.
7. Leykotsitar formulani hisoblash uchun qondan surtma tayyorlash va uni hisoblash.
8. Qon va siydikning ko‘rsatkichlarini klinik ahamiyatini tahlil etish, qonda qand, transferazalarni (ALT,AST), bilirubin, mochevina miqdorini aniqlash.
9. Turli yosh guruhlarida kaptogrammani norma va patologik jarayonlardagi xususiyatlarini tekshirish.
10. Siydikning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, zamonaviyekspress - usullar, oqsil, qand, atseton va o‘t pigmentlarning siydikdagi miqdorini aniqlash usullari, siydik cho‘kmalari mikroskopiyasi, Nechiporenko usulini qo‘llash va klinik baholash.
11. Chaqalojni birlamchi cho‘miltirish, Apgar shkalasi bo‘yicha baholash, jonlashtirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish, elka va son suyagi singanda fiksatsiyalovchi bog‘lamlar qo‘llash; uyda tuqqandakindik yarasini birlamchi yuqumsizlantirish.
12. Rinoskopiya, faringeskopiya, otoskopiya, tashqi quloq va mo‘rtaklar lakunalarini Yuvish, bakteriologik tekshiruvlar uchun tanglaydan, burundan va ko‘zdan surtmalar olish, eshitish qobiliyatini yo‘qotganlik darajasini aniqlash.
13. Oftalmoskopiya, Maklokov tanometri yoki palpator usulda oftalmotonusni aniqlash, jadval yordamida va taxminan ko‘zning o‘tkirligini aniqlash, ko‘rish qobiliyatini baholash, qovoqni oddiy ag‘darish, kon‘yuktivadan yuzaki yot jismlarni olib tashlash, ko‘z jarohatlanganda, kuyganda, statsionargacha bo‘lgan yordam, mono va binokulyar bog‘lov texnikasi.

14. Antibakterial preparatlarni oqilona tanlash.
15. Respirator va qo‘l bilan sun’iy nafas oldirish texnikasi, mexanik usulda yoki otsos yordamida og‘iz bo‘shlig‘idagi moddalarni olib tashlash, konikotomiya va traxeya intubatsiyasi texnikasi.
16. Yurakni bilvosita massaj qilish, infuzion vositalarni miqdorini aniqlash va ularni venaga Yuborish.
17. Sun’iy ravishda qayt qildirish va oshqozonni yuvish, oshqozonga oral va nazogastral yo‘l bilan zond qo‘yish, qizilo‘ngach kuyganda statsionargacha yordam, oral va infuzion regidratatsiya va dezintoksitsiyani hisoblash, tozalovchi huqna qilish texnikasi.
18. To‘g‘ri ichakni barmoq va instrumental (rektal oyna) tekshirish, tushgan to‘g‘ri ichakni qaytarish texnikasi.
19. Siydiq qopini yumshoq kateter yordamida kateterlash, siydiq qopini qovuq usti punksiyasi texnikasi, parafimozni to‘g‘rilash, balantit va balanapastitda olatni yuqumsizlantirish, prostata bezini tekshirish usuli.
20. Kichik xirurgik aralashuvlarda qo‘lni yuqumsizlantirish texnikasi, xirurgik iplar yordamida tikish va ularni olib tashlash, tishlangan yara va kuygan joylarni zarararsizlantirish, yiringli yaralarni yorish va drenaj qo‘yish (panaritsiy, abssess, flegmona), bo‘shliq va g‘ovaklarga zond qo‘yish, tildagi so‘galni olib tashlash, yumshoq to‘qimalarda yot jismlarni olib tashlash, qoqsholga qarshi anatoksin va zardob yuborish usuli.
21. Yirik bo‘g‘imlar jarohatlanganda yumshoq bog‘lov qo‘yish, langet qo‘yish va olib tashlash, simli va transport shinasi, singanda joyli anesteziya, umurtqa pog‘onasi jarohatlanganda va suyaklar singanda bemorni joylashtirish va transportda yuborish texnikasi. Tashqi qon ketishida vaqtincha qon ketishni to‘xtatish.
22. Kuyganda, bug‘ilganda, cho‘kkanda, sovuq urganda, elektr jarohatida, hasharotlar chaqqanda, hayvonlar va kalamushlar tishlaganda statsionargacha yordam ko‘rsatish.
23. Paranefral va boshqa hollarda novokain bilan blokada qilish texnikasi.
24. Diabetik parhez va kam yog‘li, yog‘siz parhez ovqatlarni yozish.
25. Jinsiy rivojlanganlikni aniqlash formulasi.
26. Qinni akusher tekshirushi va uni o‘tkazish, Papanikolau usulida surtma olish, bachadon bo‘ynida o‘sma borligini skrininglash, qin surtmasingin tozaligi darajasini aniqlash,

27. Ginekologik tekshiruv, Shu jumladan oyna bilan bimanual tekshiruv.
28. Genitaliy shikastlanganda statsionargacha Yordam.
29. Homiladorlik davridagi favqulotda shoshilinch holatlarda birlamchi vrachlik Yordami.
30. Kontratseptiv vositalarining zamonaviy usullari.
31. Funksional diagnostika testlarini tahlil etish.

10.4 Oilaviy poliklinikada o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar

Oilaviy poliklinikada quidagi profilaktik tadbirlar o‘tkazish ko‘zda tutilgan:

- 1.Sanitariya - maorifi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ratsional ovqatlanishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- 2.Alkogol, chekish, giyohvandlik va zararli odatlarga qarshi kurash. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni targ‘ibot etish;
- 3.Xizmat ko‘rsatayotgan aholi orasida OITS, OIV, sil, onkologik kasalliklar, shikastlanishlar va zaharlanishlarga qarshi profilaktik tadbirlar o‘tkazish;
- 4.Kasallikkarni barvaqt aniqlash bo‘yicha profilaktik ko‘riklarni tashkil etish va o‘tkazish;
- 5.Aholi orasida dispanserizatsiyani tashkil etish, shu jumladan, 15 yoshgacha bolalar, o‘smirlar (15-17), chaqiruv yoshidagilar (18-27 yosh), tug‘ruq yoshidagi ayollar (15-49 yosh) va qariyalarni patronaj qilish.
- 6.Nikohdan o‘tayotgan yoshlarda tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish va yosh oilalar orasida soglom bola tug‘ilishiga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib boorish; .
- 7.Genetik kasallikkarni (tug‘ruqdagi nuqsonlar) kelib chiqishini oldini olish maqsadida xotin - qizlar qo‘mitasi, mahalla qo‘mitalari bilan hamkorlikda yaqin qarindoshlik nikohiga qarshi tashviqot ishlarini amalga oshirish;
- 8.Hududiy DSENM va TMSHLarini aniqlangan yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar va favqulotda hodisalar haqida ogohlantirish;;
- 9.Jamoa tashkilotlarini aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o‘tkazishga keng jalb qilish.

Oilaviy shifokorlarining asosiy ish usuli - *dispanser usuli* bo‘lib tibbiy xizmatning sifatini, samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Dispanser usuli - bu o‘tkazilayotgan davolash - profilaktika chora - tadbirlarining sintezi hisoblanadi. Dispanserizatsiya - sog‘lom va bemor shaxslarni aktiv va muntazam ravishda kuzatishga aytildi.

Dispanserizatsiya hozirgi vaqtda shifokorlarning ish usuligina bo‘lib qolmay, balki barcha tibbiyot muassasalarning kundalik ish tartibining ajralmas bir qismiga aylangan. Dispanserizatsiyaning asosiy vazifasi kasalliklarni barvaqt, faol aniqlash, ularni faol davolashni o‘z vaqtida boshlash, kasalliklarni muntazam ravishda faol kuzatish, ish, turmush sharoitlarini sog‘lomlashtirish, patronaj kabi ishlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Dispanserizatsiyaning maqsadi sog‘lom shaxslar salomatligini saqlash, kasalliklarni oldini olish, kasalliklarni dastlabki bosqichlarida aniqlash, mehnat qobiliyatini yo‘qotishini oldini olish.

Dispanserizatsiya ikki bosqichda olib boriladi:

- 1) aholini dispanser kuzatuviga olish;
- 2) davolash - profilaktika choralarini amalga oshirish.

Dispanserizatsiyaning asosiy elementlari:

1. Kasalliklarni faol aniqlash:

- ularni tibbiyot muassasalariga kundalik murojaati paytida;
- profilaktik tibbiy ko‘riklar vaqtida;
- kasalxonalarda davolanish vaqtida;
- uyda tibbiy xizmat ko‘rsatish vaqtida;
- yuqumli kasalliklar bilan aloqada bo‘lgan shaxslarni kuzatish jarayonida;
- sanatoriya - kurortlarda davolanish vaqtida;
- aholi kasalligini va o‘lim sabablarini tahlil qilish orqali.

2. Faol kuzatish:

- salomatlik darajasiga qarab barcha ko‘rikdan o‘tganlar 3 guruhga bo‘linadilar:

- Sog‘lomlar - bu guruhga hech qanday shikoyatlari bo‘lmagan, hayot mobaynida (anamnezida) surunkali kasalliklarga chalinmagan va

tekshirib ko‘rilganda tana a’zolari va sistemalarining faoliyati me’yorida bo‘lgan shaxslar kiradi (D_1);

- Amaliy sog‘lomlar - bu guruhga hayot davomida o‘tkir va surunkali kasalliklarni boshidan kechirgan, lekin bu kasalliklar hayotida muhim bo‘lgan hayot faoliyatiga va hozirgi paytda mehnat qobiliyatiga ta’sir etmagan shaxslar kiradi (D_2).

- Bemorlar - surunkali kasalliklari bor bemorlar (D_3). Ushbu guruh o‘z navbatida kasallikni turi, kechishi, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab 3 guruhga bo‘linadi: Kompensatsiya; subkompensatsiya; dekompensatsiya holatidagi bemorlar.

Kompensatsiya davrining (D_{3k}) kechishi bemorlar holatiga mehnat qobiliyatini yuqotish darajasiga kamroq ta’sir etishi bilan harakterlanadi. Subkompensatsiya guruhi D_{3s} kasallikning biroz og‘ir kechishi va uning tez-tez qaytalanib turishi, mehnat qobiliyatining uzoq muddatga yo‘qotilishi bilan harakterlanadi. D_{3d} guruhida bemorlar ko‘pincha dekompensatsiya holatida bo‘ladi, bunda kasallik odam organizmida turli patologik o‘zgarishlarni vujudga kelishiga, mehnat qobiliyatini turg‘un darajada yo‘qotilishiga olib keladi.

Har bir guruhda ishlab chiqarishga, turmushga va genetik harakterga ega bo‘lgan xatarli omillari bo‘lgan shaxslarni alohida ajratiladi.

Dispanser kuzatuvlari yuqorida ko‘rsatilgan dispanser guruhlariga qarab belgilanadi, masalan D_1 guruhdagilar yiliga bir marta, D_2 guruhdagilar ikki marta, D_3 guruhidagilar doimiy ravishda kuzatib borilishi kerak .

Lekin bu ko‘rsatmalarga har doim qo‘llanilishi shart emas, balki har bir shaxsni individual holatini hisobga olgan holda kuzatuvlarni rejalashtirmoq lozim. Dispanser kuzatuvlaridan tashqari har bir dispanser guruhidagi shaxsga uning salomatligini alohida holatiga qarab laboratoriya, rentgenologik, funktsional tekshirishlar o‘tkazilib turiladi.

3. Faol davolash: poliklinikalarda, uyda, kasalxonalarda, sanatoriyalarda bemorlar faol davolanishi lozim. Davolashni shunday amalga oshirish kerakki, u profilaktik harakterga ega bo‘lishi lozim. Kasallikning kuchayishini, qaytalanishini kutmasdan, uni barvaqt chaqirib profilaktik ravishda, retsidivga qarshi davolashni boshlash kerak. Shunda kutilayotgan qaytalanish, kasallikning kuchayishi engilroq shaklda o‘tishi yoki bunday holatlar umuman ro‘y bermasligi mumkin, bu juda katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

4. Hamshira patronaji - u quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi;

- bemor yashayotgan sharoitni yahshilab o‘rganish;
- bemorlar tomonidan shifokorlar belgilagan tavsiyalarni o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilib borish;
- har bir oilada sog‘lom turmush tarzini, sanitariya gigiena qoidalarini targ‘ibot qilish va boshqalar.

5. Jamoatchilik asosida profilaktik chora - tadbirlarni amalga oshirish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- har bir oilada sog‘lom turmush tarzini, sanitariya gigiena qoidalarini targ‘ibot qilish va boshqa ishlar;
- korxonalarda va muassasalarda sanitariya - gigiena qoidalariga to‘liq rioya qilish;
- texnika xavfsizligiga to‘liq rioya qilish;
- ishlab chiqarish va turmush bilan bog‘liq bo‘lgan xatarli omillarni oldini olish;
- turar joy sharoitlarini yahshilashga qaratilgan muhim choralarini ko‘rish;
- salomatlik uchun zararli bo‘lgan odatlarni oldini olish;

Shunday qilib, aholini har yilgi dispanserizatsiyadan o‘tkazish katta ma’suliyatli vazifa bo‘lib, bu ishni bajarishda davolash - profilaktika muassasalaridan tashqari hokimiyat, jamoat, xo‘jalik organlari ham ishtirok etishlari lozim.

Barcha aholini dispanserizatsiyadan o‘tkazishda eng muhim ishlardan biri barcha aholini alohida hisobga olib, har bir shaxsni uning salomatligiga qarab (dispanser guruhlariga qarab) "Диспансер кузатувининг назорат картаси "ni (Sh 030/h) to‘ldirish kerak. Bunday

karta shu poliklinika hududida yashovchi har bir kishiga tutiladi, unda pasport ma'lumotlari bilan birqalikda kasalliklar, o'tkazilgan tekshirishlar va ularning natijalari yozib borilishi kerak.

Dispanser kuzatuvini o'z vaqtida va muntazam o'tkazilayotganligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

- kasallikni premorbid davrida dispanser nazoratiga olinganlar (funktsional o'zgarishlar vujudga kelgan davrda dispanser kuzatuviga olinganlar);
- o'z vaqtida dispanser kuzatuviga olinganlar ko'rsatkichi (kasallik tashxisi qo'yilgandan so'ng bir oygacha bo'lgan davrda dispanser kuzatuviga olinganlar);
- dispanserizatsiyaga kech olinganlar (kasallikning tashxisi qo'yilgach 6 oydan so'ng dispanser kuzatuviga olinganlar).

Dispanser nazoratiga baho berish uchun qo'yidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

- sistematik ravishda kuzatilganlarning foizlardagi miqdori;
- epizotik ravishda kuzatilganlarning foizlardagi miqdori;
- faqat bir yilda bir marta kuzatilganlarning foizlardagi miqdori;
- yil davomida umuman kuzatilmaganlarning foizlardagi miqdori;

Dispanserizatsiyani amalga oshirishda eng muhim omillardan biri poliklinikadagi shifokor mutaxassislar o'rtasida hamda poliklinika bilan kasalxona o'rtasida izchillik bo'lishini ta'minlashdir.

Poliklinika va kasalxona o'rtasidagi izchillikning turli xil shakllari mavjuddir: misol uchun poliklinikadan kasalxonaga bemorlarni yuborayotganda, hamda kasalxonadan davolanib chiqayotgan bemorlar haqida etarlicha malumotlarni bir - birlariga yozma ravishda etkazish, yoki bo'lmasa poliklinika va kasalxonada shifokorlarning ikki zveno bo'lib va almashinib ishlashlarini ta'minlash, undan tashqari kasalxonada bo'ladigan klinik konferensiyalarga poliklinika shifokorlarini taklif etilishi kabi tadbirlar poliklinika va kasalxona o'rtasidaga izchillikni ta'minlaydi.

Dispanserizatsiya ishining samaradorligini oshirish uchun keyingi vaqtda poliklinikada salomatlikni qayta tiklash, davolash bo'limlari

ochilmoqda. Bunday bo‘limlarning asosiy vazifasi yurak-qon tomir, asab-ruhiy, tayanch-harakat tizimlari kasalliklarini davolash, salomatligini va mehnat qobiliyatini tiklashdan iboratdir.

10.5 Мехнат қобилиятини экспертиза қилиш асослари

Poliklinika faoliyatining muhim taraflaridan biri mehnatga layoqatsizlik hollarini ekspertiza qilishdan iborat, bunda davolovchi shifokor, bo‘lim mudiri, bosh shifokorning vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni ekspertiza qilish bo‘yicha muovini asosiy vazifalarni bajaradi. Davolovchi shifokor bemorni har tomonlama tekshirib, ish sharoitlarini o‘rganib, vaqtincha mehnatga layoqatsizligini aniqlab unga kasallik varaqasini yozib beradi. Kasallikni yahshi o‘rgangach davolash muddatini va kasallik varaqasini cho‘zish uchun bemorni bo‘lim mudiriga yoki bosh shifokor muoviniga tavsiya etadi. Zarur bo‘lgan hollarda bemorni bo‘lim mudiri bilan birgalikda vrachlik konsultatsiya hay’atiga tavsiya etadi. Bo‘lim mudiri davolovchi shifokor tomonidan yuborilgan bemorlarni har tomonlama o‘rganib chiqqach, kasallik varaqasini yanada cho‘zishga ruxsat beradi. Uzoq muddat davomida davolanuvchi bemorlarni har o‘n kunda albatta ko‘rib turishi zarur. Bo‘lim mudiri bilan birgalikda mehnat qobiliyatini turg‘un darajada yo‘qotgan bemorlarni vrachlik konsultatsiya komissiyasiga (VKK) tavsiya etib, u erdan vrachlik mehnat ekspertizasi komissiyasiga (VMEK) yuborish masalasini hal qilishda ishtirok etadi. Tanlov uslubi bilan vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarning davolanishi va ularning mehnatga qobiliyatsizligi qanday holatdaligini nazorat qiladi.

Mehnatga layoqatsizlik ikki xil bo‘ladi:

1. Vaqtinchalik ayrim xastaliklar tufayli kasblari bo‘yicha mehnat vazifasini vaqtincha bajara olmaslik. Bu o‘tkinchi xarakterga ega va vaqtinchalik mehnatga layokatsizlik deyiladi.
2. Doimiy - yoki uzoq muddatli mehnat qobiliyatini yo‘qotish bo‘lib, nogironlikka olib keladi. Nogironlik tufayli odamlar uzoq muddat davomida yoki bir umr mehnatga layokatsiz bo‘lib qolishi mumkin.

3. Ish qobiliyatini yo‘qotish darajasiga qarab, qisman yoki to‘liq mehnatga layoqatsizlik farqlanadi. To‘liq mehnatga layokatsizlikda odam hech qanday ishni bajara olmasligi va maxsus davolash tartibiga muxtojlikdir. Kisman mehnatga layokatsizlikda esa, vazifasi yoki kasbi bo‘yicha ishni bajara olmaslidir yoki ish hajmi chegaralanishidir.

Fuqarolarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi mehnatga layoqatsizlik varaqasi bilan, ba’zi holatlarda esa O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomlar bilan tasdiqlanadi.

Mehnatga layoqatsizlik varaqalari ishlamaydigan shaxslarga, ish haqi saqlanmagan holda mehnat ta’tiliga chiqqanlarga, harbiy xizmatchilarga (erkin yollanganlardan tashqari), shuningdek, ichki ishlar vazirligining attestatsiyasidan o‘tgan xodimlarga berilmaydi. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi quyidagi ahamiyatga ega:

- a) ishdan ozod etish huquqini beradi (juridik);
- b) ijtimoiy sug‘urta mablag‘i shaxslarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan bog‘liq holatlarda nafaqa olishni ta’minlaydi (moliyaviy).
- v) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarni o‘rganish (statistik).

Mehnatga layoqatsizlik varaqalari yoki ma’lumotnomalar ma’muriy jihatdan qaysi tashkilotga bo‘ysunishidan qat’iy nazar, davlat davolash-profilaktika muassasalarining vrachlari, hamda tibbiyot oliygohlari, vrachlar malakasini oshirish instituti, tibbiy ilmiy tekshirish institutlari (markazlari) vrachlari tomonidan biriktirilgan DPMda davolash ishlarini olib borayotgan vaqtida beriladi va uzaytiriladi. Bundan tashqari, ba’zi holatlarda mehnatga layoqatsizlik varaqalarini yoki ma’lumotnomalarini berish hukuqi vrach-epidemiologlar (sanitar vrachlar) beriladi. Davolovchi vrachlar yo‘q bo‘lgan uzoq joylarda mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki ma’lumotnomasini mahalliy sog‘lijni saqlash organlarining ruxsati (buyrug‘i) bo‘yicha feldsherlar tomonidan chegaralangan muddatga beriladi va u nazorat ostiga olinadi.

Mehnatga layoqatsizlik varaqasi quyidagi holatlarda beriladi:

- a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lgan kasallanishlar (jarohatlarda);
- b) homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha beriladigan ta’tilda;
- v)bemor oila a’zosini uy sharoitida parvarish qilish zarur bo‘lganda;
- g) sanatoriya-kurortlarda (ambulator-kurort) davolanganda;
- d)sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- e) karantinda;
- j) protez-ortopedik statsionar sharoitida protelzlashda.

Bemor ambulator-poliklinika sharoitida davolanganda davolovchi vrach kasallik varaqasini bir vaqtning o‘zida 5 kalendar kunigacha berishi mumkin. Kasallik varaqasini 5 kalendar kundan ortiq bo‘lgan muddatga uzaytirish, davolovchi vrach va bo‘lim mudiri tomonidan amalga oshiriladi. Bunda har doim kasallik varaqasi 10 kundan oshmagan muddatga uzaytiriladi, agar bo‘lim mudiri bo‘lmasa, u holda davolovchi vrachi VKK raisi bilan birlgilikda bemor sog‘ayib ketguncha yoki TMEKga yuborilguncha kasallik varaqasini uzaytiradi.

Uzoq muddat kasal bo‘luvchilar oxirgi 12 oy ichida bitta kasallik bilan (sil kasalligidan tashqari) mehnatga layoqatlilagini yo‘qotgan kunning 3-chi oyidan kechikmay yoki mehnatga layoqatsizlikning 4-chi oyidan kechikmay xulosa berish, noxush klinik ko‘rinishlar va mehnat faoliyatini kelgusida davom ettirish mumkin emaslik xavfi tug‘ilganda, hamda nogironlik belgilari paydo bo‘lganda ular vrachlik mehnat ekspertiza komissiyasiga (VMEK) yuboriladi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsizlikda birlamchi kasallangan bemorlar xulosa berish uchun TMEKga mehnatga layoqatsizlik bosholangan kunning 10-oyidan kechikmay yuboriladi.

Sil dispanserlarida hisobda turuvchi bemorlarda asosiy kasallikning avj olishi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yuz

berganda xulosa berish uchun VMEKga mehnatga layoqatsizlik boshlangan kunning 6-oyidan kechikmay yuboriladi.

Mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki ma'lumotnomasini uzaytirish bemorni VMEKga yuborilgan kundan boshlab to'xtatiladi.

Uzoq xududlarda joylashgan DPMlarda, shu jumladan bitta vrach ishlayotgan qishloq vrachlik punktlarida vrach kasallik varaqasini yoki ma'lumotnomani vaqtincha mehnatga layoqatsizlikning barcha davriga berishi yoki uzaytirishi mumkin. Bunday DPM va vrachlarning ro'yxati sog'liqni saqlash organlari tomonidan buyruq orqali rasmiylashtiriladi.

Kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomada mehnatga layoqatsizlik aniqlangan kundan beriladi.

Statsionar sharoitida (kunduzgi shifoxonalarda) davolanganda kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomada volovchi vrach va bo'lim mudiri (bosh vrach, bosh vrach muovini) bilan birgalikda bir vaqtning o'zida davolashning barcha muddatiga beriladi.

Shoshilinch tibbiy yordam punktlari yoki travmatologik punktlarda mehnatga layoqatsiz deb topilganlarga kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomada navbatchi vrach tomonidan 3 kungacha berilib, so'nrga turar joyi yoki ish joyidagi DPMga yuboriladi.

Navbatdagi yoki qo'shimcha ta'til vaqtida hamda oylik maoshi saqlangan holda maxsus o'quv ta'tili vaqtida kasallik varaqasi umumiyligida asosan beriladi.

Oliygoҳ talabalariga, o'rta maxsus o'quv yurtlari o'kuvchilariga ularni qishloq xo'jalik, quruvchilik sohalariga jalb etilganda, ishlab chiqarish amaliyoti vaqtida haq to'lanadiganishga jalb etilganda va ushbu davrda vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lganda (kasallik, jarohatlanish) ishlab chiqarish amaliyoti yoki ish davriga kasallik varaqasi umumiyligida asosan beriladi.

Ishlovchi nafaqaxo'rلarga kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomada umumiyligida asosan beriladi.

Homiladorlikda va tug'ruq bo'yicha kasallik varaqasi ayollar m aslahatxonalariga yoki tug'ruq komplekslari, bo'limlari, umumiyligida DPM

akusher-ginekologlari tomonidan homiladorlikning 30-haftasidan boshlab, ja'mi 126 kalendar kunga beriladi.

Tug'ruqlar og'ir kechsa yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilganda, tug'ish sodir bo'lган DPM tomonidan kasallik varaqasi yana 14 kalendr kuniga uzaytiriladi.

Homiladorlikning 30-haftasigacha sodir bo'lган tug'ruqlarda kasallik varaqasi DPM tomonidan 126 kalendar kuniga (agar tirik bola tug'ilsa) beriladi, agar o'lik bola tug'ilsa yoki bola tug'ruqdan keyingi dastlabki 168 soat (birinchi 7 kun) ichida o'lsa, kasallik varaqasi 70 kalendar kuniga beriladi.

Tug'ruq vaqtida yoki tug'ruqdan keyingi davrda ona vafot etsa, kasallik varaqasi qolgan kunlar uchun parvarish qiluvchi shaxsga beriladi.

Bevosita tug'ruqxonadan bola asrab olgan yoki ularni o'z qaramog'iga olgan shaxslarga kasallik varaqasi 56 kunga beriladi. Ikkita va undan ortiq chaqaloqlarni asrab olganda (qaramog'iga olganda) kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomma bola tug'ilgan kundan boshlab 70 kalendar kuniga beriladi.

Agar homilador ayol homiladorlik va tug'ruq bo'yicha rasmiy ta'tilni rasmiylashtirishga o'z vaqtida murojat etmasa, u holda kasallik varaqasi murojat etgan kundan boshlab beriladi (agar tug'ruqdan so'ng 6 oy ichida murojat qilingan bo'lsa).

DPMda, kasallik tufayli homilani sun'iy to'xtatishsa, hamda bola tashlashda kasallik varaqasi umumiylar qoidalalar asosida mehnatga layoqatsizlikning barcha muddatlarida beriladi.

Qisman to'lanadigan ta'tilda yoki bolani parvarishi bo'yicha oylik maoshi to'lanmaydigan qo'shimcha ta'tilda bo'lган ayollarga takroriy homiladorlikda kasallik varaqasi umumiylar qoidalarga asosan va tug'ruq tufayli ta'tilning barcha kunlariga beriladi.

Bemorni parvarish qilishda kasallik varaqalari yoki ma'lumotnomalarining berilishi

14 yoshdan katta bo'lган bemorni parvarish qilish bo'yicha kasallik varaqasi ambulatoriya sharoitida og'ir kasalliklar, jarohatlar

bo'lganda davolovchi vrach tomonidan 7 kalendar kunigacha beriladi (ikkinchi jahon urushi qatnashchilar, nogironlari, Sobiq baynalminal - jangchilar, Chernobil AES avariyasini bartaraf etishda ishtirok etganlarga bu muddat 14 kalendar kuniga tengdir).

Kasallik varaqasi bemor bilan birga istiqomat qilishidan qat'iy nazar bemorni parvarishlayotgan istalgan oila a'zosi yoki qarindoshiga beriladi. Bunda parvarish qiluvchi shaxsni mehnat ta'tilida bo'lishi ahamiyatga ega emas. Statsionar sharoitda katta yoshdagilarni parvarish qilish bo'yicha kasallik varaqalari berilmaydi.

14 yoshgacha bo'lgan bemor bolani parvarish qilinganda kasallik varaqasi ambulatoriya sharoitida davolovchi vrach tomonidan uning onasiga (agar u bo'lmasa, otasiga yoki boshqa oila a'zosiga) o'tkir kasallikning barcha davriga yoki surunkali kasallik avj olgan davrda remissiya vujudga kelguncha (14 kalendar kundan ko'p emas) bo'lgan davrga beriladi.

Bemor bolani parvarishi buyicha vaqtincha ishdan ozod etish to'grisidagi ma'lumotnomaga davolovchi vrach VKK raisi bilan hamkorlikda beriladi va uzaytiriladi (bir vaqtning o'zida 10 kungacha). Bemor bolani statsionarga yuborilganda kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomaga gospitalizatsiya qilingan kundan yopiladi. Bola statsionardan chiqqandan so'ng kasallikning o'tkir davrida belgilangan tartibda bemor bolani gospitalizatsiyasigacha bo'lgan davrdagi kasallik varaqasidagi kunlarni hisobga olgan holda kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomaga qaytadan beriladi.

Agar oilada bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ortiq bola kasal bo'lsa, ularning parvarishi buyicha bitta kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomaga beriladi, agar bolalar navbat bilan kasal bo'lsa, kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomaga har biriga alohida beriladi, agar ikkinchi bola birinchi bolaning kasallik davrida kasal bo'lib qolsa, uning parvarishi bo'yicha kasallik varaqasi birinchi bolaning parvarishi tufayli ishdan ozod bo'lgan kunlarning mos kelganlarini chiqarib tashlagan holda birinchi kasallik varaqasi yopilgandan so'ng beriladi.

Bemor bolani parvarishi bo'yicha kasallik varaqasi va ma'lumotnomani berish, uzaytirish va yopish haqidagi

ma'lumotlar ambulator sharoitda davolanganda bolaning rivojlanish tarixida, statsionarda davolanganda - kasallik tarixida, "Berilgan kasallik varaqalarini ro'yhatga olish jurnali"da, hamda "VKK xulosalarini qayd etish jurnali"da qayd etiladi.

Onasi kasal bo'lganda yoki u boshqa bemor bolasi bilan statsionarda bo'lsa, 3 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolani yoki 16 yoshgacha nogiron bolani parvarishi bo'yicha kasallik varaqasi DPM vrachi hamkorlikda (sog'lom bolani yoki nogiron bolani turar joyi bo'yicha) ushbu parvarishni olib borayotgan qarindoshiga beradi. Ushbu holatda kasallik varaqasi bir vaqtning o'zida onaning kasallik muddatiga yoki boshqa bemor bolani parvarishi bo'yicha statsionarda bo'lgan kunlariga beriladi.

Maktabgacha muassasasida karantin e'lon kilinsa yoki 6 yoshgacha bolani izolyasiya qilish zarur bo'lganda, ota-onalardan biriga yoki oila a'zosiga davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati organlari tomonidan belgilangan (14 kungacha) muddatga kasallik varaqasi beriladi.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar statsionarda davolanganda hamda katta yoshdagi bolalar og'ir kasal bo'lganda vrachlarning xulosasiga ko'ra ular qo'shimcha parvarishga muhtoj deb topilsa, bevosita parvarish qilayotgan yoki oilaning boshqa a'zosiga ularga DPMda birga bo'lish imkonи beriladi va bunda kasallik varaqasi beriladi.

Mehnat ta'tilida bo'lgan ishchiga kasallik varaqasi va ma'lumotnomaga bemor bolani parvarishi bo'yicha umumiyoq qoidalarga asosan beriladi.

Sanatoriya - kurort (ambulotoriya - kurort) davolanishga boruvchilarga yo'llanma qanday mablag'lar hisobiga olinganidan qat'iy nazar, kasallik varaqasi jo'nab ketishdan avval VKK tomonidan davolanish uchun bemorning asosiy va qo'shimcha ta'til kunlarining etmagan qismiga (bunda davolanish uchun va yo'lga ketgan kunlar) qo'shib hisoblanadi.

Agar asosiy va qo'shimcha ta'tillar jo'nab ketgunga qadar tugagan bo'lsa, ishchiga rahbariyat tomonidan oylik maoshi

saqlanmagan holdagi asosiy va qo'shimcha ta'tillarga teng bo'lgan ta'til taklif etiladi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari, sobiq baynalminal - jangchilarga, Chernobil avariyaning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etganlarga hamda 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani kuzatib boruvchi ota-onalardan biriga sanatoriya - kurortda davolanishda kasallik varaqasi barcha davolanish kunlariga yo'lga ketgan muddatni hisobga olib va navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarni hisobga olmagan holda beriladi.

Vaqtincha boshqa ishga o'tganda kasallik varaqasining berilishi

Sil kasalligi yoki kasb kasalligiga chalinganlar salomatlik holatiga va davolanishiga ziyon etmagan holda boshqa ishni bajara olsalar, vaqtincha boshqa ishga o'tganda kasallik varaqasi ikki kalender oyigacha beriladi. Kasallik varaqasi VKK tomonidan beriladi, agar VKK bo'lmasa -davolovchi vrach va bosh vrach bilan hamkorlikda kasallik varaqasi beriladi.

Karantin vaqtida kasallik varaqasining berilishi

Bakteriya tashuvchilik oqibatida ishdan chetlatilgan shaxslarga ish joyidan yoki turar joyidan umumiy qoidalarga asoslanib davolanish muddatiga kasallik varaqasi beriladi.

Yukumli kasallikka chalingan bemorlar bilan muloqotda bo'lish oqibatida ishdan chetlatilgan shaxslarga kasallik varaqasi davolovchi vrach yoki sanitariya - epidemiologiya nazorati organlari tomonidan belgilangan muddatga beriladi.

Sog'lijni saqlash vazirligi hamda xududiy sog'lijni saqlash boshqaruv organlarining qaroriga binoan karantin vaqtida kasallik varaqasi epidemiolog yoki sanitariya vrachi tomonidan berilishi mumkin.

Protezlash vaqtida kasallik varaqasining berilishi

Protezlash - ortopedik korxonaning statsionariga yuborilgan shaxslarga kasallik varaqasi yo'llanma bergen DPMning VKKsi tomonidan beriladi va keyinchalik statsionar vrachi tomonidan yo'lga

ketgan muddatni hisobga olgan holda statsionarda bo‘lgan barcha muddatiga uzaytiriladi.

Kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomalar blankalarining taqsimlash, hisobga olish va saqlash tartibi

Belgilangan shakldagi kasallik varaqasi yoki ma'lumotnomalar qat'iy xisobot beriluvchi hujjat xisoblanadi. Kasallik varaqasi va ma'lumotnomalar blankasining shakli Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi nafaqa fondi bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Kasallik varaqalari yoki ma'lumotnomalar blankalarini tayyorlash uchun to‘lovnii Sog'liqni saqlash Vazirligi buyurtmalari tushganda nafaqa fondi amalga oshiradi. Blankalarni taqsimlash, hisobga olish, saqlash ishlarini tashkil etish bo‘yicha javobgarlikni va hisobot topshirishni sog'liqni saqlash vazirining muovini, sog'liqni saqlashning hududiy organlari rahbarlarining muovinlari, vazirliklar va ma'muriyatlar DPMlari, tibbiy xizmatlari raxbarlari olib boradilar. Sog'liqni saqlash muassasasi mehnatga layoqatsizlik varaqalari yoki ma'lumotnomalarning blankalarini taqdim etilgan xisobot-buyurtmaga asosan har kvartalda o‘zidan yuqorida turgan sog'liqni saqlash xizmatini boshqarish organidan oladi. Kasallik varaqalarini yoki mulkchilikning boshqa shakllaridagi DPM ma'lumotnomalarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi. Blankalarni hisobga olish va saqlash qat'iy hisobot beriluvchi blankalarni xisobga olish va saqlash talablariga asosan olib boriladi. DPM blankalarini borligini, kelishini va saralanishining aniq miqdoriy hisobini maxsus kitobda olib borishlari kerak. Blankalarni hisobga olish kitobi tikilgan bo‘lib, varaqalari nomerlangan bo‘lishi kerak, oxirgi varaqada muassasaning nomi va varaqalariing soni ko‘rsatiladi va javobgar shaxsning imzosi, DPM muhri bilan tasdiqlanadi. Blankalarni jo‘natish baholi pochta posilkasi sifatida amalga oshiriladi, jo‘natilgan blankalarning xarajat qog‘ozlari (nakladnoy) esa topshirganlik haqidagi xabarnoma bilan alohida buyurtma xati sifatida jo‘natiladi. Vrachlar (feldsherlar) kasallik varaqalari yoki ma'lumotnomalarni jo‘natganlari to‘g‘risida javobgar

shaxsga avvaldan olingan blankalarining kareshoklarini topshirish yuli bilan hisobot topshiradilar. Hisobot uchun olingan blankalarning saqlanishi uchun vrachlar (feldsherlar) shaxsiy javobgar xisoblanadilar. Belgilangan shakldagi berilgan kasallik varaqalari yoki ma'lumotnomalarini xisobga olish "Kasallik varaqalarini ro'yxatga olish kitobi" da aks ettirilib ,bunda ma'lumotnomalar aloxida kitobda hisobga olinadi.

Blankalarning koreshoklari, bekor kilingan va buzilgan blankalar davolash muassasada 2 yil davomida saqlanadi, sungra raxbarning buyrug'i asosida yoqib tashlanadi. Io'qotilganlik xaqidagi dalolatnama 10 yil davomida saqlanadi.

Sog'lijni saqlash muassasalari blankalarning o'g'irlanishi yoki yo'qolishi haqidagi barcha holatlar bo'yicha , ularning seriya va nomerlarini ko'rsatgan holda o'zidan yuqorida turgan organga, Ijtimoiy ta'minot vazirligiga, Nafaqa fondiga, Nafaqa fondining hududiy bo'limiga xabar berishlari shart.

Vrachlik konsultativ komissiya ishini tashkil qilish va vazifalari

1. Davolash - profilaktika muassasalarida yoki ularning bazasida tashkil etiladi, tarkibida rais, tegishli bo'lim mudiri va davolovchi vrach kiradi. Zarurat bo'lganda konsultatsiya berish uchun tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin, Komissiyaning raisi buyruq bo'yicha tayinlangan bosh vrach muovini hisoblanadi (bosh vrach, bo'lim mudiri). VKK kasallik varaqalari yoki ma'lumotlarni uzaytirish masalalarini hal etadi. VKK raisi davolovchi vrach va bo'lim mudirining vakolatiga kiritilgan huquqlarga ega bo'ladi.

2. VKK raisi bemorni shaxsan ko'rib, tibbiy hujjatlarni chuqur o'rganib, o'tkazilgan tekshiruvning to'g'ri ekanligi va to'liqligini, davolash va tashxisning asosli ekanligini tekshiradi va bo'lim mudiri hamda davolovchi vrachning tavsiyasi bo'yicha klinik-ekspret masalalarini hal etadi, kasallik varaqalari yoki ma'lumotnomalarning davolovchi vrachlar va bo'lim mudirlari tomonidan berilishining to'g'ri ekanligini nazorat qiladi. Bemorlar va nogironlarning reabilitatsiyasi, nogironlikning oldini olish ustidan

nazorat olib boradi.

3. Bemorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqadi, zarurat bo‘lganda ixtisoslashtirilgan davolash-tashhis markazlariga konsultatsiya va davolash uchun yuboradi.
4. Bemorlarni salomatlik holati buyicha engil va mehnat sharoitiga ega bo‘lgan boshqa ishga o‘tkazishning zarurligi haqida xulosa berib, bunda bemorning malakasini hisobga olib taklif etilayotgan ishning tavsifi aniqlanadi.
5. Sanitariya - epidemiologiya xizmati organlarining ko‘rsatmasiga asosan karantin vaqtida va bakteriya tashuvchilikda boshqa ishga o‘tkazishning zarurligi haqida xulosa yoki kasallik varaqasini beradi.
6. Markaziy tuman kasalxonalari (MTK), markaziy shahar kasalxonalari yoki poliklinikalari, uyushmalar, viloyat kasalxonalari poliklinikalari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika kasalxonasi) VKKlari tegishli ravishda markaziy tuman (shahar), viloyat VKKlari (Qoraqalpog‘iston uchun Respublika VKKsi) hisoblanadilar. Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti VME kafedrasidagi VKK markaziy respublika VKKsi hisoblanadi. Markaziy VKK faoliyatiga etakchi mutaxassislar jalb qilinadi.
7. Talabalar va o‘quvchilarga salomatlik holati bo‘yicha akademik ta’tilga chiqish, imtixonlardan, mashg‘ulotlardan, qishloq xo‘jalik ishlaridan ozod qilish yoki boshqa fakultetga o‘tishning zarurliga haqida xulosa beradi.
8. Amaldagi yo‘riqnomaga asosan sanatoriya-kurortda davolanishda, kasb kasalligi yoki sil kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda, konsultatsiyaga va boshqa shaharga davolanish uchun hamda protez - ortopedik statsionarga yuborilganda, shu jumladan, 1-guruh nogironi, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarni kuzatib borganda va boshqa holatlarda kasallik varaqalarini berish masalalarini hal etadi. Qonunchilikka asoslangan holda bemorlarning alohida guruhlariga yoki alohida

yashash maydoniga muhtoj bo‘lganda xulosa beradi.

9. Mehnatga layoqatsizlikning paydo bo‘lish kunidan 3 kalendar oyida kechikmay, kasallik varaqasidagi muddatdan qat’iy nazar mehnat qobiliyatini doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotish belgilari bo‘lganda bemorlarni VMEKga yuborish masalasini hal qiladi.
10. Ish bilan bog‘liq bo‘lgan shikastlanishlar va kasb kasalligi tufayli yo‘qotilgan mehnatga layoqatliligining foizi aniqlash, hamda nogironlarga nogironlik muddati tugashi yoki salomatlik holatini yomonlashuvi sababli muddatidan oldin qayta xulosa berish uchun bemorlarni va nogironlarni TMEKga yuboradi.
11. Zarur bo‘lgan hollarda VKK bemorlarni dastlab VMEKda konsultatsiya qiladi. Turg‘un mehnatga layoqatsizlikning belgilari bo‘lganda, VMEKga tibbiy hujjatlarni o‘tkazishni tashkil etadi, ularni to‘ldirishning to‘g‘ri ekanligini nazorat qiladi, imkoniyat bo‘lganda VMEK majlislarida ishtirok etadi, zarur holatlarda mutaxassislar bilan xamkorlikda VMEK qarorlarining bajarilishini nazorat qilishni ta’minlaydi.
12. Bemorga xulosa berish ma’lumotlari va VKK qarorlari bemorning ambulator kartasi, kasallik tarixi, ””VKK xulosalarini qayd etish jurnali”ga yozilib, VKK raisi, a’zolari va kotib tomonidan imzo qo‘yiladi.
13. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan bog‘liq kasallanishning va nogironlikning odini olish, kamaytirish, bemorlar va nogironlarni reabilitatsiya qilish sohasidagi faoliyatini VKK VMEK bilan va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan bevosita muloqatda o‘tkazadi.

10.6 Turg‘un mehnatga yaroqsizlik ekspertizasi

Doimiy mehnatga yaroqsizlikning vrachlik mehnat ekspertiza-komissiyasi (VMEK) aniqlaydi. Bu hay’atlar 2 xil bo‘ladi.

1. Birlamchi tuman va tumanlararo;
2. Oliy xay’at - shahar, viloyat, respublika.

Birlamchi hay’at 5 kishidan iborat bo‘lib, ularga terapevt, xirurg, nevrolopatolog, ijtimoiy ta’minot organlarining vakili, kasaba uyushma organinig vakili kiradi.

Nogironlik - bu uzoq vaqt yoki doimiy mehnatga yaroqsizlik qobiliyatini yo'kotishdir. Bu vaziyat uzoq vaqt mobaynida kasal bo'lib yoki jarohat olib, organizm faoliyatini buzilishiga olib kelgan hollarda bo'ladi. Nogironlikni aniqlashda ekspertiza komissiyasi kasalanish va nogironlikni o'rniga qarab kuyidagi turlarga bo'linadi:

- umumiy profilga doir komissiya;
- ixtisoslashtirilgan komissiya (sil, ruhiy, ko'z va ba'zi qontomir kasalliklarida tashkil qilinadi);
- aralash komissiya turi - komissiya nazorat qiladigan yashash joyiga ko'ra;
- birlamchi (tuman, tumanlararo, shahar);
- yuqori (o'lka, viloyat, markaziy yirik shaharlardagi va respublika toifasidagi);

Birlamchi komissiyalar katta yoshdagi 120-130 ming aholisiga hisoblangan holda tashkil qilinadi. Tarkibi besh kishidan iborat komissiya a'zolari 3 ta vrach hamda ijtimoiy ta'minot va kasaba uyushma organi vakillari kiradi, shulardan biri komissiya raisi lavozimida bo'ladi. Bu umumiy profildagi komissiya turkumi.

Ixtisoslashtirilgan komissiyada 2 ta vrach-ekspert bo'lib, yana 1ta umumiy profildagi vrach bo'ladi. Bulardan biri rais bo'lib saylanadi.

VMEKning asosiy vazifalari:

1. Ish qobiliyati holatini aniklash, uzok vaqt yoki turg'un;
2. Nogironlik gruppasini va ularning sabablarini aniklash;
3. Nogironlarni sog'ligiga mos ravishda ish bilan ta'minlash, ularni komissiya xulosasi binoan mos ish bilan ta'minlanganligini nazorat qilish;
4. Aholini salomatligini saqlash, mustahkamlash, nogironlikning oldini olish tadbirlarida ishtirok etish;
5. Sog'liqni saqlash organlari, korxona ma'muriyati, kasaba qo'mitasi bilan birgalikda ish qobiliyatini yo'qotish sabablarini o'rganish va ish qobiliyatini tiklash hamda nogironlikning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

Nogironlik guruhi

Nogironlik guruhini belgilash, uning soglig‘ini, ish qobiliyatini yo‘qotish darajasiga bog‘liq va 3 guruhga bo‘linadi.

Nogironlik guruhiga VTEK qarori bilan surunkali kasalliklari bor, anatomik kamchiliklari bor, ish qobiliyatiga keskin ta’sir etuvchi funksional buzilishlari bor kishilar chiqariladi. Guruhga chiqishning asosi bo‘lib, bemorning kasb faoliyatini davom ettirishga qarshilik ko‘rsatuvchi, mehnat qobiliyatini keskin pasaytirib yuborgan kasallik hisoblanadi. Mehnat qobiliyatini turg‘un yo‘qotish darajasiga ko‘ra to‘liq va qisman mehnatga yaroqsizlik farqlanadi.

To‘liq va doimiy mehnatga layoqatsizlikda kasb faoliyatini davom ettira olmasa ikkinchi guruhga, agar bemor boshqalarning doimiy qaramogiga, yordamiga muhtoj bo‘lsa, birinchi guruhga kiritiladi. Uchinchi guruh nogironlarini engil ishlarga o‘tkazish mumkin.

Birinchi guruh nogironligi

- a) Doimiy qaramoqqa muhtoj, mehnat qilish qobiliyatini turg‘un yo‘qotganlarga beriladi.
- b) Doimiy ish qobiliyatini funksional imkoniyatlarini . keskin kamayganligi bilan biron bir maxsus yaratilgan, individuallashtirilgan sharoitda ayrim ishlarni bajarishi mumkin shaxslarga ham beriladi, masalan: ko‘zi ojizlar.

Birinchi guruh nogironligini belgilash uchun asos bo‘lib, bemorning hatto o‘z-o‘ziga xizmat qila olmasligi, birovning doimiy yordamiga muhtojligi xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh nogironligi

- a) Funksional imkoniyatlari keskin chegaralangan, lekin o‘zgalar yordamiga doim muhtoj bo‘lmagan shaxslarga;
- b) Mehnat tufayli kasbga bog‘liq ravishda mehnat tufayli kasalligini kechishi og‘irlashib ketadigan, doimiy yoki turg‘un mehnatga layoqatsiz kishilarga;
- v) Og‘ir surunkali kasalliklar bilan birgalikda tayanch harakat sistemasiga putur etgan yoki ko‘rish qobiliyati ancha pasaygan, maxsus yaratilgan sharoitlarda mumkin bo‘lgan shaxslarga beriladi;

Ikkinchi guruh nogironligini belgilash uchun asos bo‘lib, keskin ifodalangan funksional buzilishlarga ega, lekin o‘zganining doimiy ko‘magiga muhtoj bo‘lmassligi, maxsus sharoitlarda ishlash mumkinligi xizmat qiladi.

Uchinchi guruh nogironligi

- a) sog‘lig‘i tufayli o‘z ishini davom ettira olmaydigan, boshqa engilroq ishga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan kishilarga;
- b) ishlab chiqarish sharoitlari yoki omillarini sog‘lig‘i, ish qobiliyatini pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin holatlarida;
- v) ilgari ishlamagan, malakasi oz bo‘lgan kishilarda funksional chetlanishlar oqibatida ish qobiliyati pasaygan hollarda;
- g) 3-guruh nogironligi ba’zi hollarda anatomik deformatsiyalari bor kishilarga bajaradigan ishidan qat’iy nazar belgilanadi, chunki bu o‘z navbatida keyinchalik funksional o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Nogironlik sabablari

1. Umumiy kasallanish.
2. Kasb kasalliklari.
3. Mehnatda yoki ishlab chiqarishda shikastlanishlar.
4. Bolalikdan nogironlik.
5. Urushda yoki harbiy xizmat o‘tayotganda olingan nogironliklar odatda 1-2-3 guruh nogironliklariga kiritiladi.

Nogironlikda olib boriladigan chora - tadbirlar:

1. Nogironlik darajasini aniqlash.
2. Nogironlik sabablarini aniqlash.
3. Nogironlikning salomatlikka ta’sirini inobatga olgan holda ularga loyiq ish sharoitini belgilash.
4. Mehnatga layoqatsizlikni tiklash bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazish.
5. Nogironlar ish sharoitini o‘rganish, ish bilan to‘g‘ri ta’minlash.

OP faoliyatida qo'llaniladigan hisobiy hujjatlar..

Hamma tipdagi davolash-profilaktik muassasalari kaerda joylashishidan, ixtisosligidan kattiy nazar xar doim-yil oxirida-yillik xisobot (sh-30) tuldirliladi.

Poliklinika muassasalarning faoliyatini quyidagi asosiy xujjatlar aks ettiradi:

1. Bemorning kartasi (025/h shakl), o'smirlar uchun (025/u shakl), bolaning rivojlanish tarixi (112/h shakl), xomilador va Yangi tuqqan ayolning shaxsiy kartasi (111/h shakl).
2. Vrachning uyda va poliklinika muassasasida bo'lish xisobini Yuritish varaqasi (039 /h shakl).
3. Profilaktik emlashlar kartasi (063/h shakl).
4. Dispanser kuzatuvning nazorat kartasi (030 /h shakl).
5. Birinchi bor kasallikka chalinishni qayd etish statistik talon(025-2/u).
6. «Davolash muassasasi xizmat ko'rsatadigan xududda yashovchi bemorlarda qayd etilgan kasalliklar soni to'g'risida»gi-yillik davlat statistika xisoboti (12- tib. shakli).
7. Shifokorning qabul jurnali.
8. Oila va uchastka pasportlari hamda boshqalar.

Yillik xisobot kuyidagi xujjatlarga asoslangan xolda tuziladi.

- 1.Shtat jadvali.
- 2.Poliklinika,dispaser va maslaxatxonada ishlovchi vrachlarning ish kundaligi – sh-039/h
- 3.Uydagi tugruklarni kayd etuvchi kitob sh -32/x
- 4.Bemorning shaxsiy duxturxona xaritasi sh -025/x
- 5.Dispanser kuzatuvining kuzatuv xaritasi sh -030/x
- 6.Axolini dispanser kuriqidan utkazganligi tugrisidagi xarita sh-131/x
- 7.Bolaning rivojlanish tarixi sh -112/x
- 8.Kasallanishlarni kayd etuvchi jamlanma kaydnomasini sh -071/x
- 9.Ulganligi tugrisidagi vrachlik guvoxnomasi sh -106/x
- 10.Shifoxonadagi bemor va urindik fondini xisobga oluvchi kundalik varakasi sh -107/x
- 11.Bemorning shifoxonadan chikkanligi tugrisidagi xarita sh-066/x.

Hamma xisobotlarda titul varag'iga xisobot yuboruvchi muassasaning manzili ko'rsatiladi.DPM yoki KVP, OP ning bo'lim va

bo'linmalari, shtatlari, laboratoriyalari va poliklinikaga qatnovlar soni, quvvati, qancha axoliga xizmat ko'rsatishi batafsi yoritiladi.

Xisobot 6 ta bo'limdan iborat.

- 1-bo'lim. Xisobotning-yil oxiriga ko'ra shtati.
- 2-bo'lim. Poliklinika, dispanser va maslaxat bo'limining ish faoliyati to'g'risida.
- 3-bo'lim. Shifoxona ish faoliyatining xisoboti.
- 4-bo'lim. Davolash-yordamchi bo'limlar xisoboti.
- 5-bo'lim. Diagnostika bo'limlari ishi xisoboti.
- 6-bo'lim. Antirabik ish faoliyati.

XIbob QISHLOQ AHOLISIGA DAVOLASH-PROFILAKTIK YORDAMNI TASHKIL QILISH VA HAMSHIRANING ROLI

1998-yil 10 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining № PF-2107 «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to’g’risida»gi qarorida qishloq aholisiga birlamchi tibbiy sabitariya yordamini yahshilash borasida bir qator vazifalar qo’ilgan edi, yani BTSYomini aholiga imkon qadar yaqinlashtirishdir. Respublikamizning hamma tumanlarida birlamchi tibbiy-sanitar yordam «Salomatlik-1» dasturida tasdiqlangan afzalliklarini tadbiq etish maqsadida, qishloqlarda oldin mavjud bo‘lgan hamma birlamchi yordam ko’rsatib kelgan, ekonomik jihatdan noloyiq hisoblangan feldsher-akusherlik punktlari (FAP), qishloq vrachlik ambulatoriyasi (QVA), qishloq uchatska kasalxonasi (QUK), qishloq vrachlik punkti (QVP) ga aylantirish lozim topildi. QVP — dunyo bo‘yicha qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatishda eng rivojlangan turi hisoblanadi. Undan tashqari, ekonomik jihatdan qulay va poliklinik sharoitda tibbiy xizmat bilan barcha aholini qamrab olishi mumkin. Qishloq aholisiga BTSYo ko‘rsatadigan tibbiyot xodimlarini oldida aholiga tibbiy xizmat ko`rsatishni yahshilash, uni rivojlantirish, sifatlari va yuqori darajadagi tibbiy yordamni tashkil qilish, kasallik ko`rsatkichlarini, nogironlikni kamaytirish va ishga layoqatlilikni oshirishdek katta vazifalar turibdi. O`zbekiston aholisining 2/3 qismidan ko`prog`i qishloq joylarida isti`qomat qilishini inobatga olsak, ularga tibbiy xizmatni tashkil etishning ahamiyati naqadar muhim ekanligi ko`zga yanada yaqqol namoyon bo`ladi. Hozirgi paytda qishloq aholisining sog`lig`ini saqlash va sifatlari tibbiy xizmat bilan ta`minlashni yahshilash borasida QVPlar, poliklinika va ambulatoriyalarini, tez yordam stantsiyalarini va bo`limlarini etarli darajada sifatlari va mukammal bilimga ega bo`lgan mutaxassis kadrlar, moddiy texnika bazalari bilan ta`minlash borasida zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qishloqdagi ijtimoiy sharoitlarning birmuncha pastligi, ekologik sharoitlarning odamlarga salbiy ta`sirining oshganligi, aholining tibbiy yordamga bo`lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlarining oldiga yanada kattaroq mas`uliyatlar yuklash bilan birga, qishloq aholisiga xizmat ko`rsatayotgan tibbiyot muassasalarini tashkil qilish va ularning tarkiblarini ko`rib chiqishni talab qilmoqda. Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni qishloq sharoitining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Bu xususiyatlar quyidagilaridan iborat:

1. Qishloq aholisining tarqoq joylashganligi.
2. Qishloq xo`jalik ishlarining mavsumiyligi.
3. Tuman markaziga ayrim qishloqlarning uzoq joylashganligi, yo`l sharoitlarining yomonligi.
4. Jamoat transportlarining etishmasligi, ularning belgilangan grafikda muntazam qatnamasligi, telefon aloqasining yomonligi.
5. Qishloq aholisining urf – odatlari, turmush tarzi, yashash sharoitining o`ziga xosligi.
6. Mutaxasislar bilan kam ta`minlanganligi va boshqalar.

Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilishning eng asosiy o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning bosqichlidadir.

Qishloq aholisiga davolash-profilaktika, sanitariya-epidemiologik yordami, kompleks tibbiy muassasalar tomonidan qishloq vrachlik punktidan (ba`zilarida FAP) boshlab viloyat muassasalarigacha ko`rsatiladi.

Qishloq vrachlik punkti (QVP) – o`ziga biriktirilgan qishloq aholisiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko`rsatuvchi davolash – profilaktika muassasasi hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda zamonaviy tibbiy texnika bilan jihozlangan 3 mingta yaqin qishloq vrachlik punktlari faoliyat ko`rsatmoqda. Qishloq vrachlik punktlari, u xizmat ko`rsatayotgan aholi soniga, aholi punktlari soniga, joylashganligiga, xizmat radiusiga, qishloq xo`jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarining harakteriga qarab tashkil etiladi.

Xizmat ko`rsatayotgan aholi soniga qarab QVP to`rt tipi bo`ladi:


Birinchi tip – 1500 tagacha odamga.

Ikkinci tip – 1500 dan 3500tagacha.

Uchinchi tip – 3500 dan 6000 tagacha.

To`rtinchi tip – 6000 tadan 10 000 tagacha.

QVPda ishlovchi vrachlar tarkibi va shtatlari lavozimining soni, uning tipiga va xizmat ko`rsatayotgan aholi soniga qarab belgilangan tartibda aniqlanadi. QVPning tarkibi va uning faoliyatini boshqarish QVP strukturasi uning tipiga va xizmat ko`rsatayotgan aholi soniga bog`liq. Umumiy tarzda QVP tarkibi quyidagicha ko`rinishda bo`ladi.



QVPga tuman tibbiyat birlashmasi boshlig`i tomonidan tayinlangan – mudir rahbarlik qiladi, o`rinbosari sifatida moliyaviy menedjer lavozimi kiritilgan.

QVP mudiri, o`rnatalgan tartibda QVPning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. U QVPga biriktirilgan aholiga birlamchi tibbiy – sanitariya yordamini ko`rsatadi va kasalliklarni oldini olish bo`yicha profilaktik chora-tadbirlarni o`tkazadi, sifatli va samarali tibbiy yordam ko`rsatish, aholi salomatligini muhofazalash maqsadida QVP faoliyatini boshqaradi. QVP faoliyati tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan nazorat qilinadi. QVP to`la qonli faoliyat ko`rsatish uchun davlat mablag`i hisobidan tibbiyat apparatlari, tibbiyat mebellari, dori vositalari, sanitariya va gigiena vositalari, yumshoq va qattiq inven`tarlar bilan ta`minlandi.

QVPning maqsadi - umumiy amaliyot shifokori va oilaga tibbiy – ijtimoiy xizmat ko`rsatish printsipli asosida qishloq aholisiga sifatli birlamchi yordamni ko`rsatish.

QVPning asosiy vazifalari

- Biriktirilgan hudud aholisini malakali tibbiy yordam bilan ta`minlash;
- Ambulatoriya va uyda bemorlarni qabul qilish;
- Qishloq aholisiga tez-tez uchraydigan kasalliklarni davolash va profilaktikasi bo`yicha alohida patsient va butun oila darajasida tibbiy xizmat ko`rsatish;
- O`z vaqtida konsul`tativ yordam ko`rsatish, kam uchraydigan og`ir kasalliklarning atipik kechish hollarida bemorlarni statsionar sharoitida davolash uchun ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalariga yo`llash;
- Tegishli diagnostika va davolash standartlariga mos holda xizmat ko`rsatayotgan

hudud aholisiga statsionargacha bo`lgan shoshilinch tibbiy yordam ko`rsatish;

- Xizmat ko`rsatayotgan aholi orasida kasallanishlar, shikastlanishlar, nogironlik va o`limni kamaytirish, hamda ularning profilaktikasi bo`yicha chora – tadbirlar o`tkazish;
- Profilaktik va maqsadli tibbiy ko`riklarni tashkil etish: birinchi navbatda bolalar, o`smlar, tug`ruq yoshidagi ayollar, yolg`izlar. Qariyalar, nogironlar, surunkali bemorlar orasida ijtimoiy ahamiyatiga molik kasalliklar, sil, teri tanosil kasalliklari, xavfli o`smalar, OITS va OIV infektsiyasini barvaqt aniqlash, ularga qarshi kurashish bo`yicha chora- tadbirlar o`tkazish;
- Kompleks sanitariya va epidemiyaga qarshi chora – tadbirlarni tashkil etish va o`tkazish (profilaktik emlashlar, aholi punktlarini tozaligi, suv bilan ta`minlash, muassasalar va tashkilotlar ustidan joriy sanitariya nazoratini o`tkazish);
- Aholini sanitariya – gigienik jihatdan tarbiyalash, oqilona ovqatlanish, spirtli ichimliklar ichish, chekish va boshqa zararli odatlarning oldini olish bo`yicha sog`lom turmush tarzini targ`ibot qilish;
- Yolg`izlarga, qariyalarga, nogironlarga, surunkali xastalikka chalingan bemorlarga ijtimoiy yordam xodimlari bilan hamkorlikda tibbiy – ijtimoiy yordam ko`rsatish, patronaj tashkil etish;
- Belgilangan tartibda vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik hollarini ekspertiza qilish: bemorlarni salomatlik holatini va mehnatga layoqatsizligini aniqlash maqsadida vrachlik ekspertizasini o`tish uchun VKK va VMEK yo`llanma berish;
- Ommaviy dala ishlari davrida qishloq xizmatchilariga tibbiy yordamni yanada yaqinlashtirish bo`yicha tadbirlar o`tkazish;
- Tegishli ta`minot va diagnostika standartlariga mos holda laboratoriya va instrumental tekshirishlarni o`tkazish;
- Patsientlar haqidagi axborotlarni sir saqlagan holda, ularning huquqlariga rioya qilish.

QVPda aholiga malakali tibbiy yordam ko`rsatuvchi asosiy shahs **umumiyl amaliyot shifokori** hisoblanadi. Umumiyl amaliyot shifokori patsientlarni QVPda va uyda qabul qiladi, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko`rsatadi, kompleks profilaktik, immunologik, sanitariya va epidemiyaga qarshi, diagnostika – davolash reabilitatsiyaga oid tadbirlar o`tkazadi, UASh malakaviy tasnididan kelib chiqqan holda oilaning tibbiy – ijtimoiy muammolarini hal etishga yordam beradi. QVP tibbiyot hamshiralari bilan hamkorlikda biriktirilgan aholi salomatligini reproduktiv yoshdagi aholi salomatligini muhofazalash, bolalar, onalar orasida kasalliklar va o`limni kamaytirish maqsadida chora – tadbirlar o`tkazadi.

Qishloq vrachlik punkti umumiyl amaliyot shifokorining asosiy vazifalari:

- Biriktirilgan aholiga tez – tez uchraydigan kasalliklarni davolash va ularning proilaktikasi bo`yicha tibbiy xizmat ko`rsatadi;
- Og`ir kechuvchi kasalliklar va atipik kechuvchi kasalliklar paydo bo`lganda patsientlarni tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiyat muassasalariga, o`z vaqtida mutaxasislar konsul`tatsiyalariga yuborish;
- Mavjud tibbiyt vositalari va tegishli standartlarga mos ravishda tez va shoshilinch tibbiy yordam ko`rsatish;
- Kompleks sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va o`tkazish, profilaktik emlashlar, biriktirilgan hudud maydoni va uy xo`jaliklarining umumiy sanitariya holatini nazorat qilish, yuqumli kasalliklar o`chog`ida epidemiyaga qarshi tadbirlar o`tkazish, aholini xavfli epidemiologik vaziyat to`g`risida ogohlantirish;
- Aholini sanitariya – gigienik tarbiyalash, sog`lom turmush tarzini targ`ib etish, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurash, o`sib kelayotgan avlodni sog`lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, istalmagan homiladorlikning oldini olish, oilani oqilona rejalah bo`yicha chora – tadbirlar tashkil etish va o`tkazish;
- Ayollarni homiladorlik davrida va tug`ruqdan keyin kuzatish, ko`krak suti bilan ovqatlanishni targ`ib etish;
- Ijtimoiy soha xodimlari bilan hamkorlikda yolg`izlar, qariyalar, nogironlar, surunkali xastalikka chalingan bemorlarga tibbiy – ijtimoiy yordam ko`rsatish, patronaj tashkil etish.
- Dekretlashtirilgan aholini (bolalar, o`smirlar, tug`ruq yoshidagi ayollar, surunkali kasalllar) umumiy dispanserizatsiyadan o`tkazish.
- Kasalliklarni barvaqt aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko`riklarni o`tkazish;
- Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga (sil, venerik kasalliklar, xavfli o`smalar, qandli diabet, OITS/OIV, giyohvandlik) qarshi davolash – profilaktik tadbirlarni o`tkazish;
- Bemorlarga VKK va VMEK yo`llanmalar berish orqali vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikni ekspertiza qilish;
- Yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar va favqulodda vaziyatlar yuz berganda DSENM va TTBga o`z vaqtida xabar berish;
- Tibbiyotning qayd va hisobot hujjatlarini sifatli va o`z vaqtida to`ldirish;
- QVP mudiriga, o`ziga biriktirilgan hududda o`tkazilgan ishlar haqida vaqt – vaqt bilan hisobotlar berish;
- tibbiyat va ijtimoiy yordam masalalari bo`yicha o`tkazilayotgan anjumanlarda ishtirok etish, doimo o`zining kasbiy bilim va malakasini oshirib borish.

UASH har 5 yilda bir marta malakaviy toifasini tasdiqlash uchun attestatsiyadan o`tadi.

QVPidagi katta hamshira (feldsher) vazifasi:

- Biriktirilgan hudud aholisiga vrachgacha bo`lgan tibbiy yordamni ko`rsatish;
- Vrachlar yo`q paytlarida punktda va bemorlarning uylarida bemorlarni ambulator qabul qilish va davolash;
- Vrachlarning qabuliga olib borishlarni tashkil etish;
- Vrachlarning buyurtmalarini bajarish;
- Sog`lom shaxslarni va bemorlarni dispaserizatsiya qilishda ishtirok etish;
- QVP mudiri yo`q paytida QVPining barcha xodimlariga (kichik va o`rta maxsus) topshiriqlar beradi;
- Nazorat hududidagi ob`ektlarida joriy sanitariya nazoratini amalga oshirilishini nazorat qilish;
- Zaharli va kuchli ta`sir qiluvchi moddalardan tashqari barcha turdag'i dori moddalariga yozilgan retseptlarga dori qabul qilib oladi.

QVPda patronaj hamshirasining vazifalari:

- aholini va bolalarni sog`lomlashtirishga yo`naltirilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish
- 3 yoshgacha bo`lgan sog`lom bolalarni patronaj qilish, shu jumladan yangi to`g`ilgan chaqaloqlarni, ko`krak suti bilan ovqatlantirishni va bolalarning oqilona ovqatlanishlarini nazorat qilish;
- sog`lom va bemor bolalarni dispanserizatsiya qilishda ishtirok etish;
- o`z xizmat ko`rsatish hududida joylashgan, bog`chalari, bolalar uylari, maktablarda profilaktik ishlarni olib boradi;
- aholi va bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularni ko`krak suti bilan ovqatlantirishning ahamiyati, kasalliklar paydo bo`lganda vrachlarga erta murojaat qilish, immuniprofilaktika masalalari bo`yicha sanitariya oqartiruv ishlarini, sog`lom turmush tarzining bolalar sog`ligini mustahkamlashdagi ahamiyatlari to`g`risida tushuntirish ishlarini yuritish;
- vrachning buyurtmasi bo`yicha o`z kompetentsiyasi doirasida punktda va uyda aholiga tibbiy yordam ko`rsatish;
- kasalliklarni aniqlash bo`yicha har bir aniqlangan holat bo`yicha QVP mudirini ogohlantirish;
- dispanser hisobida to`rgan har-bir bemor ustidan nazorat olib borish;
- xizmat ko`rsatish hududidagi yashovchilarining sonini har yil o`rganib, hisobot tuzish;
- epidemiologik ko`rsatmalar bo`yicha uylarda yuqumli kasalliklarni va ular bilan bevosita kontaktda bo`lganlarni topish uchun patronaj ishlarini olib borish.

QVPda akusherka hamshirasining vazifalari:

- homilador ayollarga va ginekologik bemorlarni zarur tibbiy yordam bilan ta`minlash;
- ambulatoriya qabulini amalga oshirish;
- homilador va tuqqan ayollarning uylariga borib hol-ahvoldidan xabarlashish (patronaj);
- homilador ayollarga va ginekologik bemorlarga shoshilinch tez tibbiy yordam ko`rsatish, vrachlarni, tez yordamni chaqirish, zarur paytlarda bemorlarni o`zi shaxsan kuzatib borib joylashtirish;
- QVPda, uylarda ginekologik bemorlarni nazorat qilish;
- har qanday o`tkir kechuvchi kasalliklar va baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko`rsatish (jarohat, qon ketish, zaharlanish va b.q.) keyinchalik vrachlarni, tez yordam chaqirish, boshqa zarur DPM lariga yuborish, zaruriat to`g`ilganda shaxsan uni kuzatib borish;
- homilador ayollarni va nazoratdagi ginekologik bemorlarni o`z vaqtida vrach ko`riklariga va zarur DPM lariga yuborishni tashkil qilish;
- ayollarni tibbiy ko`riklardan o`tkazish jarayonida bevosa ishtirok etish;
- vrachlarning buyurtma va ko`rsatmalarini o`z vaqtida bajarish;
- vrachlarning QVPga rejali tashriflariga homilador ayollarni va ginekologik bemorlarni tayyorlash;
- homilador ayollar va ginekologik bemorlarga tibbiy xizmatni tashkil qilish bilan bog`liq ayrim labaratoriya tekshiruvlarini amalga oshirish;
- ginekologik bemorlarni davolash maqsadida QVPda mavjud apparatlar yordamida fizioterapevtik muolajalarni amalga oshirish;
- aholi o`rtasida onalik va bolalikni muhofaza qilish, hohlamagan homiladorlikning oldini olish, oilani rejalashtirishning mazmun va mohiyati, yangi tug`ilgan chaqaloqlarni ko`proq ko`krak suti bilan boqishning ahamiyati, homilador ayollarni va bolalarni oqilona ovqatlantirish, shuningdek nogiron bolalarning dunyoga kelish va irsiy kasallikkarning asosiy sabablari to`g`risida tushuntirish ishlarini olib borish.
- jinsiy yo`l bilan yuqadigan kasalliklar profilaktikasi va VICH/SPID kasalliklarining oldini olish to`g`risida sog`lom turmush tarzini targ`ibot qilish
- belgilangan tartibda homilador ayollarga ma`lumotnomalar va boshqa turdag'i hujjatlarni berish.

QVPda akusherkaning huquqlari:

O`z vakolati va kasbiy mahorati darajasida bemorlarni va homilador ayollarni qabul qiladi, tashhislaydi va davolash ishlarini olib boradi;
Tibbiy muolajalarni bajaradi;

O`z faoliyati jarayonida sog`liqni saqlash muassasasi va tashkilotlarining buyruqlari, ko`rsatmalari uslubiy va boshqa turdagি qo`llanmalariga suyangan holda ish yuritadi;

Belgilangan tartibda o`z sohasi bo`yicha hisob va hisobot hujjatlarini yuritadi; Akusherka muntazam ravishda o`zining kasbiy malakasini oshirib borishi lozim; Hozirgi zamон talabidagi tibbiy yordam ko`rsatish usullaridan xabardor bo`lishi va ularni o`zlashtirib bormog`i kerak.

QVPda emlash xonasi hamshirasi vazifalari:

- Profilaktik emlash bilan bog`liq bo`lgan hisob va hisobot, tibbiy hujjatlarni yuritish (Sh 063/h, 112/h va boshqalar)
- Profilaktik emlash zarur bo`lganlarni to`liq qamrab olish. Barcha haritalarni to`g`ri yuritishni ta`minlash;
- Profilaktik emlanganlar va yuqumli kasalliklar bilan kontaktda bo`lganlar haqida hisobot tuzish;
- Emlanishi lozim bo`lganlar uchun (vaqtsinatsiya, revaqtsinatsiya emlash kartalaridan kartoteka tuzish);
- Belgilangan shakl yordamida uchastka hamshirasi bilan birgalikda yiliga ikki marta aholi ro`yxatdan o`tkazilgandan keyin profilaktik emlash zarur bo`lganlarning ro`yxatini tuzish;
- Belgilangan shakllar yordamida (shakl 063/h, 112/h) profilaktik emlashi lozim bo`lganlar haqidagi ma`lumotlarni solishtirib ko`rish;
- Vrach nazorati ostida yillik rejalarini tuzish, shuningdek hududda maktab va maktabgacha muassasalar bolalarni profilaktik emlashga qamrab olishni tahlil qiladi va ma`lumotlarni profilaktik emlash jurnaliga kiritish;

Tuman sog`liqni saqlash muassasalari

Tuman axolisiga tibbiy xizmat kursatishning II-boskichidagi asosiy tibbiyot muassasasi bu tuman markaziy ko`p tarmoqli poliklinika va tuman markaziy shifoxonasi hisoblanadi.

Tuman markaziy ko`p tarmoqli poliklinika, tuman markazida joylashgan, o`ziga biriktirilgan aholiga davolash – profilaktika yordamini ko`rsatuvchi; kasalliklarni kamaytirish, oldini olish bo`yicha keng ko`lamda profilaktik tadbirlarni o`tkazuvchi; bemorlarni barvaqt aniqlash; dispanserizatsiya qilish; tuman aholisiga malakali ixtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatuvchi – ambulatoriya tipidagi tibbiyot muassasasi hisoblanadi. Poliklinika aholi orasida sanitariya – maorifi ishlarini olib boradi, sog`lom turmush tarzi ko`nikmalarini targ`ib etadi. Poliklinika tumandagi QVPlariga tibbiy yordamni tashkil etish, sifatini oshirish bo`yicha tashkiliy – uslubiy markaz hisoblanadi. QVPlardan konsul`tatsiya uchun yuborilayotgan aholiga malakali ixtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatadi. Poliklinikaga bosh vrach

rahbarlik qiladi – u o‘z navbatida tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘ining ambulatoriya–poliklinika xizmati bo‘yicha muovini hisoblanadi. Poliklinika mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o‘z nomi bitilgan muhr va shtamiga ega.

Tuman markaziy ko`p tarmoqli poliklinikaning tarkibi.

I. Registratura (ro`yxatxona)

II. Diagnostika bo`limi (rentgen (flyuorografiya) xonasi, UTT (UZI) xonasi, EKG xonasi, laboratoriya (klinik, bioximik, bakteriologik, serologik) va hokazo)

III. Poliklinika muassasalari xonasi (akusher – ginekolog, pediatrlar, stomatolog, jarroh, oftalmolog, kardiolog, pul`monolog, nefrolog, endokrinolog, revmatolog, infektsionist, immunolog, mehnat ekspertizasi qilish bo`yicha vrach – mutaxasis, o`smirlar vrachi, bolalar otolaringologi, nevropatologgi, ginekologi va hokazo)

IV. Markazlashgan sterilizatsiya bo`limi

V. Ma`muriy – xo`jalik bo`limi.

Poliklinikaning asosiy vazifasi

- poliklinika o`ziga biriktirilgan aholiga va tuman aholisiga va uyda malakali ixtisoslashgan yordam ko`rsatadi;
- tuman ambulatoriya - poliklinika xizmati muassasalari faoliyati ustidan nazorat olib borish, tashkiliy – uslubiy rahbarlik qilish;
- tuman aholisi orasida kasalliklarni, nogironlikni, o`limni kamaytirish bo`yicha kompleks profilaktik tadbirlarni tashkil etadi va o`tkazadi;
- aholini dispanser nazoratga oladi: birinchi navbatda yurak – qon tomir, onkologik kasalliklar va boshqa kasalliklar xavfli omillariga ega shaxslarni va bemorlarni;
- aholi orasida sanitariya maorifi va sog`lom turmush tarzi ko`nikmalarini targ`ib etadi;
- tuman aholisiga ambulatoriya – poliklinika xizmatini yanada yahshilash bo`yicha ilg`or tajribalarni amaliyatga va QVP lar faoliyatiga tadbiq etadi;
- jamoa ommasini, jamoa tashkilotlarini aholi salomatligini saqlash va yahshilash bo`yicha o`tkaziladigan tadbirlarga keng jalb etish;
- vrachlar va o`rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirish;
- tuman markaziy ko`p tarmoqli poliklinikasiga qishloq aholisi tuman tibbiyot muassasalari, QVP larning yo`llanmalari bilan funktional tekshirishlar o`tkazish, vrach – mutaxasislardan konsul`tatsiya olish, ixtisoslashgan tibbiy yordam olish uchun murojaat qilishadi;
- poliklinikada tuman aholisiga diagnostika yordam ko`rsatish uchun diagnostika bo`limi tashkil etilgan;
- aholiga davolash – profilaktika ishlarini tashkil etishda tor doiradagi mutaxasislar faoliyati katta ahamiyatga ega.

Asosiy vazifalarni amalga oshirish uchun vrach– mutaxasis quyidagilarni ta'minlaydi:

- profilaktik tadbirlar o`tkazish;
- kasalliklarni barvaqt aniqlash;
- bemorlarni o`z vaqtida malakali tekshirish va davolash;
- mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertiza qilish, surunkali xastalikka chalingan bemorlarni o`z vaqtida VMEK ga yuborish;
- poliklinika va statsionar o`rtasida bemorlarni davolash bo`yicha uzviylikni ta`minlash;
- ko`rsatmalar bo`lganda bemorlarni o`z vaqtida kasalxonaga yotqizish;
- o`z ixtisosligi bo`yicha bemorlarni dispanser nazoratiga olish;
- o`zining nazariy tayyorgarligi va kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish, o`rta tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish;
- aholini gigienik tarbiyalash, sanitariya – profilaktik tadbirlarini o`tkazishda faol ishtirok etish;
- tibbiyot hujjatlarini va hisob – kitob shakllarini va o`z faoliyati bo`yicha hisobotlarni o`z vaqtida va sifatli yuritish.

Tuman markaziy shifoxonasi tuman aholisiga malakali, ixtisoslashgan statsionar hamda konsul`tativ xizmatni ko`rsatuvchi, tumandagi barcha tibbiyot muassasalarining ish faoliyatini boshqaruvchi, tuman aholisiga sifatli tibbiy xizmatni tashkil etishga mas`ul tashkiliy - metodik markaz hisoblanadi. Markaziy tuman sifoxonasi davolangan bemorlar sonidan, tuman aholisi sonidan, xizmat radiusidan kelib chiqqan holda quyidagi tarkibga ega bo`ladi.

I. Diagnostika bo`limi

1. Rentgen xonasi.
2. UTT xonasi.
3. EKG xonasi.
4. Laboratoriya (klinik, bioximik, bakteriologik).
5. EEG, REG, ExoEG.
6. Endoskopiya bo`limi.

II. Statsionar bo`limi

1. Qabul bo`limi.
2. Rejali jarrohlik bo`limi.
3. Tez yordam stantsiyasi, reanimatsiya bo`linmasini o`ziga olgan shoshilinch tez yordam bo`limi.
4. Bolalar bo`limi.
5. Tug`ruq bo`limi.
6. Terapiya bo`limi.

7. Yuqumli kasalliklar bo`limi.

III. Ma`muriy xo`jalik qism

IV. Yordamchi xizmat bo`limi.

V. Patologik anatomiya bo`limi.

VI. Markaziy sterilizatsiya bo`limi.

VII. Kamerali dezinfektsiya bloki.

VIII. Insenerator.

Tuman markaziy birlashmasi qoshida bevosita bosh vrachga bo`ysunuvchi ayrim bo`limlar: apteka, moliya – buxgalteriya, xodimlar bo`limi, tibbiyat arxivsi, tashkiliy uslubiy bo`lim, biblioteka va hakozolar.

Markaziy tuman shifoxonasining statsionari yuqorida ko`rsatilgan bo`limlardan tashkil topadi. Boshqa bo`limlar aholining kasallanish darajasiga, ixtisoslashgan tibbiy yordamga ehtiyoji bo`lgan hamda statsionarning moddiy texnik bazasi va kadrlar bilan ta`minlanganiga qarab tashkil etilishi mumkin. Tibbiyat muassasalarini joylashtirishda tumanning ichki sharoitini e`tiborga olish zarur. Tumanda mustaqil ravishda bolalar kasalxonasi, tug`ruq kompleksi, yuqumli kasalliklar shifoxonasi mavjud bo`lishi mumkin.

Tuman markaziy shifoxonasida bosh vrachning ruxsati bilan bemorlar shaxsiy ust boshlardan foydalanishlari mumkin, bundan bolalar kasalxonasi, tug`rukxona bo`limi, yuqumli kasalliklar shifoxonasi mustasno. Tuman markaziy shifoxonasi qoshida jamoa kengashi, kasalxona kengashi, hamshiralalar kengashi, ilmiy - tibbiy jamiyat sektsiyasi faoliyat ko`rsatadi.

Tuman markaziy shifoxonasining asosiy vazifalari

1. Tuman va tuman markazi aholisiga diagnostika yordam va kasalxonada malakali hamda ixtisoslashgan tibbiy yordamni tashkil qilish;
2. Tuman aholisiga tez yordam, shoshilinch tez tibbiy yordamni sifatli tashkil etish va ko`rsatish;
3. Tuman hududida joylashgan barcha davolash-profilaktik muassasalarini operativ va tashkiliy metodik tomondan boshqarish, shu bilan birga ularning ish faoliyatini nazorat qilish;
4. Ishchilarining vaqtinchalik hamda doimiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini o`rganish va tahlil qilish;
5. Aholi ichida tarqalgan kasallikkarni va ularning sabablarini ambulatoriya, poliklinika va statsionar xizmatini hajmi, sifati va samaradorligini, tibbiy ko`riklar va aholining dispanserizatsiya holatini o`rganish va tahlil etish;
6. Aholi salomatligini, tuman sog`liqni saqlash muassasalarining faoliyat ko`rsatkichlarini o`rganish va tahlil etish orqali, tibbiy yordamni rivojlantirish, kasallanish va o`lim ko`rsatkichlarini, shu jumladan, bolalar

va onalar o`limini kamaytirish, aholiga ko`rsatilayotgan tibbiy yordamning sifati va samaradorligini oshirish bo`yicha tadbirlar ishlab chiqish;

7. Tumandagi barcha davolash - profilaktika muassasalari faoliyatiga ilm fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda zamonaviy diagnostik, davolash, profilaktik texnologiyalarni joriy etish;

8. Aholiga tibbiy yordam ko`rsatish va bemorlarni parvarishlashning yanada takomillashtirilgan yangi usullarini tadbiq etish;

9. Statsionargacha bo`lgan diagnostik jarayonni har tomonlama yahshilash, statsionar sharoitida o`z vaqtida kompleks davolashishlarini olib borish va ularning samaradorligini oshirish, o`rinlardan unumli foydalanish;

10. Tuman tibbiyot muassasalari, ambulatoriya, poliklinika, statsionar sharoitida ko`rsatilayotgan tibbiy yordamning sifati va to`laqonliligini baholash uchun diagnostik, davolash - reabilitatsiya qilish, klinik, paraklinik tadbirlarning sifat - ko`rsatkichlarining standartlarini ishlab chiqish;

11. Davolangan bemorlar sonidan kelib chiqqan holda shifoxona faoliyati ko`lamini belgilash, tuman davolash profilaktika muassasalarining moddiy texnik bazasini kengaytirish va moliyaviy mablag` bilan ta`minlashning loyihamalarini ishlab chiqish;

12. Tibbiyot xodimlarini tarbiyalash, malakasini oshirish, ulardan oqilona foydalanish bo`yicha tadbirlar ishlab chiqish.

TMSHning eng asosiy bo`limlaridan biri tashkiliy-uslubiy bo`lim hisoblanadi. Tuman markaziy shifoxonasi faoliyatini shifoxona bosh vrachi boshqaradi, u bir vaqtning o`zida tuman tibbiyot birlashmasining boshlig`i hisoblanadi. Sanitariya – epidemiologiya xizmatini tuman bosh davlat sanitariya vrachi boshqaradi, u bir vaqtning o`zida DSENM bosh vrachi hisoblanadi.

Tuman markaziy shifoxonasi – tuman tibbiyot birlashmasining muovinlari bo`ladi: ambulatoriya – poliklinika xizmati bo`yicha, tuman markaziy shifoxonasi davolash – profilaktika ishlari bo`yicha, tashkiliy – uslubiy xizmat bo`yicha. Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli tibbiyot muassasalariga konsul`tativ, tashkiliy, uslubiy xizmat ko`rsatish uchun tuman bosh mutaxasislari tayinlanadi. Ular o`zi xizmat ko`rsatayotgan mutaxasislik doirasida tuman tibbiyot muassasalarini faoliyati ustidan tashkiliy – uslubiy rahbarlik qiladi. Ular odatda eng tajribali vrachlar bo`lib, tuman markaziy shifoxonasining bo`limlari mudirlari hisoblanadi. Ularning har biri o`z mutaxasisligi bo`yicha davolash ishlarini boshqaradi, joylarga borib konsul`tatsiya, tekshirish va davolash ishlarini bajaradi, o`z sohasining ish rejasini tuzadi, statistik hisobotlarni yuritadi, ilmiy seminarlar, konferentsiyalar tashkil etadi, malakasini oshiradi.

Tashkiliy – uslubiy xona hamshirasining asosiy vazifalari:

1. Tumandagi barcha tibbiyot muassasalarining faoliyatini belgilovchi

- ma`lumotlarni o`rganish va tahlil etishda shifokor ko`rsatmalarini bajaradi.
2. Qishloq aholisiga davolash, maslahat va tashkiliy - uslubiy yordamni tashkil qilishda shifokorga yordam beradi.
 3. Vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo`lgan bemorlar bo`yicha hisobot tuzadi.
 4. Qishloq aholisini dispanser ko`rigidan o`tkazishni tashkil qilishda ishtirok etadi.
 5. Qishloq vrachlik punktlariga, tuman markazi ko`p tarmoqli poliklinika holda mutaxassislarining rejali ravishda tashkil qilingan chiqishlaridan xabardor qilib turadi.
 6. Aholi o`rtasida kasallanishni kamaytirish borasida ishlab chiqilgan tadbirlarni targ`ibot qiladi.
 7. Davolash - profilaktik muassasalarining kundalik hisob - kitob ishlari va hisobotlarini tuzishda yordam beradi.
 8. Tibbiyot xodimlarining va hamshiralarning malakasini oshirishni tashkil qilish.
 9. Barcha zarur ishlab chiqilgan operativ ma`lumotlarni, ularni o`z vaqtida tayyorlash va har-xil buyruq va qarorlarni bajarish.

Viloyat tibbiyot muassasalari, ular tomonidan ko`rsatiladigan tibbiy xizmatlar

Viloyat tibbiyot muassasalariga ko`p tarmoqli tibbiyot markazi, ko`p tarmoqli viloyat bolalar tibbiyot markazi, viloyat tibbiyot diagnostika markazi, viloyat perinatal markazi, viloyat filiali, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi, sanitariya-aviatsiya bilan, viloyat dispanserlari, viloyat DSENMi, stomatologiya poliklinikasi va aholiga boshqa turli - xil ixtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatadigan muassasalar kiradi.

Viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi nafaqat qishloq aholisiga, balki barcha viloyat aholisiga yuqori malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordamni tashkil qilishda ilmiy-tashkiliy-metodik va o`quv markazi hisoblanadi. Viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi tarkibidagi o`rinlar soni u xizmat ko`rsatayotgan aholi soniga, shifoxonaning quvvatiga bog`liq. Viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi, bemorlarni tekshiruvdan o`tkazish, ularga yuqori malakali tibbiy - maslahat yordam ko`rsatish, kasalliklarni asosiy yo`nalishlari (rejali jarrohlik, kardiologiya, ginekologiya va boshqalar) bo`yicha statsionarlarda davolashni tashkil etish, shuningdek viloyat tibbiyot muassasalarida tibbiy sordam ko`rsatishning zamonaviy usullari va texnologiyalarini tadbiq etishni uslubiy jihatdan ta`minlash maqsadida tashkil qilinadi.

Viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markaziga (VKTTM) va Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy - amaliy tibbiyot markazlariga (RIIATM) bemorlarni yuborish order tizimi asosida amalga oshiriladi. RIIATMlariga bemorlar viloyatlar

Sog`liqni saqlash boshqarmalaridan beriladigan orderlar asosida, VKTTM lariga esa tuman tibbiyot birlashmalari tomonidan beriladigan orderlar asosida yuboriladi. Orderlar o`rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi va birinchi navbatda imtiyozli shaxslar uchun ajratiladi.

Viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazida quyidagi imtiyozli toifadagi bemorlar bepul davolanish xuquqiga ega:

3. I va II guruh nogironlari.
4. Bolalikdan nogironlar.
5. 1941-1945 yillar urush nogironlari va qatnashchilari.
6. 1941-1945 yillar mehnat fronti qatnashchilari.
7. Yoshga oid ishlamaydigan pensionerlar.
8. Etimlar.
9. Chernobil` AES halokatini bartaraf etishda qatnashgan nogironlar.
10. Baynalminal jangchilar.
11. Fuqarolar o`z-o`zini boshqarish organlaridan moddiy yordam oluvchi kam ta`minlangan oila a`zolari.
12. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan kasalliklarga chalingan bemorlar.
13. 15-17 yoshdagi o`smirlarni, hamda chaqiruv komissiyalarining yo`llanmalari bilan chaqiriq yoshidagi (18-27 yosh) shaxslarni tekshiruvdan o`tkazish va davolash.

Ko`p tarmoqli viloyat tibbiyot markazining vazifasi bu viloyat aholisiga yuqori malakali ixtisoslashgan konsul`tativ – diagnostika va davolash yordamini eng samarali tibbiyot texnologiyalarini statsionar sharoitida qo`llash orqali ko`rsatish. Barcha viloyat davolash - profilaktika muassasalariga doimiy ravishda mutaxasislarning tashkiliy - metodik yordamini tashkil etish. Viloyat sog`liqni saqlash boshqarmasiga tashkiliy-uslubiy bo`lim ham bo`ysunadi, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- viloyatdagи davolash-profilaktika muassasalarining ish faoliyatini tahlil qilish;
- viloyat sog`liqni saqlash muassasalariga tashkilotlariga tashkiliy - metodik va maslahat yordamini ko`rsatish;
- viloyat aholisi salomatligi ko`rsatkichlarini o`rganish;
- xodimlarning malakasini oshirishni tashkil qilish;
- kompleks ish rejalarini tuzish va hisobotlar qabul qilish;

Viloyat markazlarida, viloyat kasalxonalaridan tashqari har xil mutaxassisliklar bo`yicha (qorin bo`shlig`ining o`tkir kasalliklari, yurakning ishemik kasalliklari, kalla suyagi va miya jarohatlari) ixtisoslashgan diagnostik markazlar tashkil qilinadi. Bunday ixtisoslashgan muassasalar bemorlarni kompleks tarzda samarali tekshirish va davolash imkoniyatini yaratadi.

XII bob. AHOLIGA STATSİONAR DAVOLASH- PROFİLAKİTİKA YORDAMINI TAŞHKİL ETİŞİ

Sog‘liqni saqlashni hozirgi taraqqiyot bosqichida aholiga statsionar xizmatni tez va sifatli tashkil etish katta ahamiyatga ega. Tibbiy yordamning ushbu ya’ni statsionar turi kasalliklarining xarakteri, turi, bemorning yoshi, kasallikning kechish holatiga qarab (har xil tipdagi kasalxonalarda, klinikalarda, ixtisoslashgan tibbiyot markazlarida, dispanserlar, tug‘ruqxonalar va boshqalar) turli xil tibbiy muassasalarda ko‘rsatiladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 665 ta (2013) kasalxona muassasalari bo‘lib, ulardagи o‘rinlar soni 120 784 tani, har 10 000 aholiga 39,9 tani tashkil etmoqda. Ushbu o‘rinlarda 2013-yilda 3703515 ta bemor davolanib chiqdi, bemorlarning o‘rinlarda o‘rtacha bo‘lish kuni – 7,9 kunni tashkil etadi.

Tibbiy yordamning statsionar tipi asosan kompleks diagnostik va davolash, murakkab tekshirish usullarini, davolashda tibbiyot texnikasini jarrohlik usulini, doimo intensiv parvarishlash va muntazam shifokor kuzatuvini olib borishni taqozo etuvchi og‘ir kasalliklarda ko‘llaniladi.

Statsionar davolash-profilaktika yordami tizimida asosiy va etakchi o‘rinni ko‘p tarmoqli kasalxona tashkil etadi.

Kasalxonalarning turi, profili, joylashishi va kimga buysunishiga qarab faqlanadi.

Ma’muriy-territorial joylaShuvi va boshqarilishiga qarab kasalxonalar respublika, viloyat, shaxar, tuman shifoxonalariga bo‘linadi.

Profiliga qarab esa — ko‘p profilli (tarmoqli), bitta profilli, ya’ni ixtisoslashgan kasalxonalarga va dispanserlarga (sil, onkologik, oftalmologik, kardiologik va boshqalar) bo‘linadi.

Tashkiliy sifatlariga qarab ular birlashgan (poliklinika bilan), mustaqil-birlashmagan kasalxonalarga bo‘linadi.

Har qanday tipdagi statsionar o‘zining funksional faoliyati bo‘yicha asosan 4 ta qismdan iborat bo‘ladi: rahbariyat, statsionar, poliklinika va ma’muriy-xo‘jalik bo‘limi. Har bir shifoxonaning guqorida keltirilgan qismlari o‘z navbatida bir necha bo‘limlardan iborat bo‘ladi.

Shahar kasalxonasi — aholiga yuqori malakali ixtisoslashgan statsionar (poliklinika) yordamini ko‘rsatishga mo‘ljallangan tibbiyot muassasasidir.

Shahar kasalxonasi (statsionar) quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo‘ladi.
1. Qabul bo‘limi.

2. Profillashgan bo‘limlar (terapiya, jarroxlik, nevrologiya, kardiologiya, pulmonologiya va h.k.).

3. Yordamchi diagnostika-davolash bo‘limlari (rentgen xonasi, laboratoriya, fiziterapiya, funktsional diagnostika xonasi, dorixona va xokazo).

4. Ma’muriy xo‘jalik bo‘limi (rahbariyat, oshxona, hisobxona, statistika xonasi, devonxona).

5. Patologik anatomiya bo‘limi.

Kasalxonaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- bemorlarga yuqori malakali ixtisoslshgan yordamni ko‘rsatish;
- statsionar va poliklinika orasidagi izchillikni ta’minlash;
- amaliyotga zamonaviy davolash-dignostika usullarini joriy etish;
- ish faoliyatini tashkiliy shakl va usullarini takomillashtirish;
- profilaktik tadbirlar o‘tkazishda keng ko‘lamda ishtirok etish;
- aholini dispanserizatsiya qilishda ishtirok etish;
- aholi, bemorlar orasida sanitariya-maorif ishlarini olib boradi va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish;
- aholining kasallanish va o‘lim sabablarini chuqur tahlil etadi va ularni kamaytirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- aholiga ko‘rsatilayotgan davolash-profilaktika yordaming sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Davolash - diagnostika, salomatlikni tiklash, profilaktik tadbirlarni o‘tkazishdan tashqari, kasalxona tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bilan ham shyg‘ullanadi.

Agar shifoxona talabalarni o‘qitish uchun baza hisoblansa, u klinika hisoblanadi.

Hozirgi davrda zamonaviy kasalxonaning asosiy vazifasini (funktsiyasini) Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 4 guruhga ajratadi:

- salomatlikni tiklash (diagnostika, kasalliklarni davolash, salomatlikni qayta tiklash va shoshilinch tibbiy yordam);
- ko‘proq poliklinikalar bilan birlashgan shifoxonalarga tegishli bo‘lgan, profilaktik foaliyat (davolash-sog‘lomlashtirish faoliyati, yuqumli va surunkali kasalliklar profilaktikasi, nogironlikni oldini olish va h.k.) olib borish;
- o‘quv tarbiya (tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish) ishlarini tashkil etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

Kasalxonalarni ko‘rishda quyidagi asosiy printsiplarga amal qilish kerak:

- aholining ayrim guruhlarni (bolalar, ayollarning tug‘ruqqa bo‘lgan yordami, etakchi sanoat korxonalar), hamda ayrim kategoriyali (ruhiy, onkologik, sil kasaligiga chalingan va h.k.) bemorlarni to‘liq darajada va ustuvor tarzda shifoxonaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;
- statsionar, kasalxonadan tashqari tibbiy yordamni rejali va proportsional rivojlantirish;
- har bir hududning, tuman, shahar va viloyatning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda kasalxonalarni rivojlantirishga yondoshishi.

Shahar kasalxonasi ish faoliyatiga baho beruvchi ko‘rsatkichlarga quydagailar kiradi.

1. Kasalxonada yil davomida band bo‘lgan o‘rinlarning hisoblash ko‘rsatkichi.
2. Bemorlarni kasalxonada o‘rtacha bo‘lish muddatini aniqlash ko‘rsatkichi.
3. Kasalxonada o‘rin almashinushi ko‘rsatkichini hisoblash.
4. Letallik ko‘rsatkichi.
5. Klinik va patologo-anatamik tashxislarni farqini aniqlash ko‘rsatkichi.

Statsionarning asosiy xujjatlari.

1. Шифохонадаги беморнинг тиббий картаси (Sh 003/h)
2. Statsionardan chiquvchilar kartasi (Sh 066/h)
3. Kasalxonaga yotishi yoki inkor qilish jurnali. (Sh 001/h)
4. Bemorlar harakatini hisobga olish varaqasi (Sh 007/h)
5. Патологоанатомик тадқиқот баёни (Sh 013/h) va h.k.

Kasalxonani bosh vrach boshqaradi. U barcha davolash – profilaktika, ma’muriy – xo‘jalik va moliyaviy ishlarga javobgar hisoblanadi. Bosh vrach bemorlarni o‘z vaqtida tekshirish, davolash, parvarish qilish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, kasallik tarixini to‘g‘ri yuritishni, kasalxonani tegishli tibbiy va xo‘jalik tovarlari bilan ta’minlashini tashkil etadi va nazorat qiladi. U muntazam ravishda kasalxonaning ko‘rsatkichlarini, iqtisodiy moliyaviy faoliyatini tahlil etadi. Dori – darmonlarni to‘g‘ri sarflanayotganligini nazorat qiladi, kasalxonaning sanitariya holatiga javobgar hisoblanadi, xodimlarni tanlash va joy – joyiga qo‘yish bilan shug‘ullanadi va boshqalar.

Bosh vrachning davolash ishlari bo'yicha o'rnibosari – bosh vrachga birinchi yordamchi hisoblanadi. U kasalxona davolash – profilaktika va sanitariya – epidemiologik ishlarni boshqaradi va tibbiy yordamning sifatiga javob beradi. Tashxislash, davolash va bemorlarni parvarishlashning sifatini nazorat qiladi. Davolash - profilaktik tadbirlarning samaradorligini nazorat qiladi va har – bir o'limning sababini tahlil etadi. Parhez ovqatlanish va jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi, bemorlarga konsultativ yordamni tashkil etadi va boshqalar.

Kasalxonaga bemorlar bir necha yo'llar orqali yotqizilishi mumkin: poliklinika yo'llanmasi bilan, tez yordam orqali, bemorning bevosita murojaati, boshqa shifoxona yo'lanmasi bilan.

Kasalxonaning asosiy bo'limlaridan biri qabul bo'limi hisoblanadi, qabul bo'limi tarkibiga:

1. Ro'yxatxona
2. Navbatchi vrach xonasi
3. Tez va shoshilinch yordam ko'rsatish xonasi
4. Bemorlarni ko'rish xonasi
5. Sanitariya-gigiena xonasi (sanpropusnik) va boshqalar kiradi.

Ko'pgina yirik shahar shifoxonasi qabul bo'limida terapevt, jarroh, nevropatolog, lor va boshqa vrachlar hamda ekspress laboratoriya uchun alohida xona ajratilgan bo'ladi. Qabul bo'limida tashxisi aniq bo'limgan bemorlar uchun ikki-uch o'rinli xona bo'lishi kerak.

Qabul bo'limining asosiy vazifalari:

1. Kasallarni qabul qilish.
- 2 Kasallarni yotqazishni hal qilish.
3. Tibbiy hujjatlarni to'ldirish.
4. Anamnez yig'ish va birlamchi tashhis qo'yish.
5. Bo'limlar bo'yicha kasallarni taqsimlash.
6. Bemorlar salomatligi to'g'risida ma'lumot berish.
7. Kasalxonaga tushayotgan bemorlarni hisobga olish.
8. Qabul bo'limida kasallarga zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatish va davolash.
9. Kasallarni sanitariya-gigiena ko'rigidan o'tkazish.
10. Kasalxonaga yotayotgan bemorlarning kiyimlarini va narsalarini sanitar tozalovdan o'tkazish va ularni saqlash.

Qabul bo'limining asosiy hujjatlari.

1. Shifoxonaga qabul qilingan va birlamchi yordam ko'rsatilib unga va boshqa shifoxonaga yuborilgan bemorlarni ro'yxatga olish

kitobi

2. Ambulatoriya kasallarni qabul qilish jurnali kitobi.
3. Statsionar bemorining kartasi.

Qabul bo‘limida bemor kasalxonaning tegishli bo‘limiga yotqiziladi. Kasalxona bo‘limlari - shifoxonaning asosiy strukturaviy qismi bo‘lib, u palatalardan va yordamchi bo‘limlardan (xonalardan) iborat. Palata va bo‘limni jihozlash uning profiliga bog‘liq. Bo‘limdagi shtatlar lavozimi, o‘rinlar soni, turi va shifoxonaning turiga bog‘liq.

Bo‘limni ishlariga bo‘lim mudiri rahbarlik qiladi va u ordinatorlarning ishlarini boshqaradi. Og‘ir kasallarni har bir tushayotgan, bo‘limdan chiqayotgan bemorlarni konsultatsiya qiladi. Kasallik tarixini yuritilishini tekshirish, davolash va xo‘jalik ishlarini olib borilishini nazorat qiladi. Patalogo-anatomik konferensiyalarda qatnashadi. Shu bilan birga bo‘limdagi hisob - kitob ishlarini ham olib boradi.

Qabul qilingan navbatchilik bo‘yicha 1 ta ordinatorga 20-25 ta o‘rin beriladi. Vrachlar va o‘rta tibbiyat xodimlari uchun 6 soatlik, kichik tibbiyat xodimlari uchun esa 7 soatlik ish kuni belgilangan.

O‘rta tibbiyat xodimlarining ish rejimi 2 va 3 smenali bo‘lishi mumkin. Eng qulay bu 3 smenali ish rejimi bo‘lib, ertalabki va kunduzgi paytda bo‘limda doimiy tarzda bitta hamshira bo‘lishini ta’minlaydi. Chunki bu davrda bo‘limda davolash-muolaja ishlari: asosan kasallarni ko‘rish, qabul qilish, ularni kasalxonadan chiqarish, vrach buyurtmalarini bajarish ishlari amalga oshiriladi.

Statsionardagi bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish 2 va 3 bosqichli bo‘lishi mumkin. 3 bosqichli xizmat turida bemorga tibbiy yordamni vrach, hamshira, sanitarka (farrosh) amalga oshiradi. 2 bosqichlida esa bemorga tibbiy yordamni bevosita vrach va hamshira ko‘rsatadi. Hozirgi davrda barcha joylarda 2 bosqichli xizmat ko‘rsatishga o‘tilgan.

Bemorni o‘z vaqtida sog‘lomlashtirishda statsionardagi davolash-muhofaza rejimining roli katta.

Bemorlarni kasalxonada yotib davolanish davrida optimal sharoit yaratish uchun amalga oshiriladigan barcha tadbirlarga davolash-muhofazalash rejimi deyiladi. Uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Tashqi muhitning noqulay omillarini bartaraf etish yoki uni iloji boricha kamaytirish (shovqinni kamaytirish, yo‘qotish, palatalarni yahshi yorug‘lik bilan ta’minalash, devorlar sathini bemorlarni

tinchlantiradigan bo‘yoqlar bilan bo‘yash, kasalxona territoriyasini ko‘kalamzorlashtirish).

2. Og‘riqqa qarshi kurash — bemorlarni operatsiyaga, homilador ayollarni tug‘ishga ruhiy jihatdan tayyorlash.
3. Fiziologik uyqu davrini cho‘zish: bemorlarni tinchligi, hamda ruxsat etilgan jismoniy faolligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash.
4. Ichki tartibni saqlash va kasallarda sog‘ayib ketishi uchun ishonch ruhini uyg‘otish.
5. Bemorlar bilan bo‘ladigan suhbatda, xodimlarning o‘zaro suhbatida etik va deontologik qoidalarga amal qilish.

Statsionarlarda amalga oshirilayotgan davolash - profilaktik ishlarning eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu o‘rinlar sonidan oqilona samarali foydalanishdir. Chunki har bir bo‘sh o‘rin tibbiy yordam hajmini kamaytiribgina qolmay, balki juda katta iqtisodiy zarar ham keltiradi.

Shifoxonalardagi o‘rinlardan to‘liq foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Barcha qabul qilingan bemorlarda yotish uchun to‘la tibbiy asos bo‘lishi kerak.
2. Poliklinikada qilingan analiz sifatini oshirish va ularning statsionar shariotida takrorlanmasligini ta’minlash.
3. Bemorlarga uyda yordam ko‘rsatish darajasini takomillashtirish
4. Qariyalar va nogironlar uyi xizmatidan keng foydalanish.
5. Qishloq joylardagi statsionarlarda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifatini oshirish va ulardan keng foydalanish, chunki qishloq aholisining ma’lum bir qismi ko‘p hollarda asossiz ravishda shahar shifoxonalarida davolanish uchun yuboriladi.

Kasalxonada har – bir yotqizilgan bemorga “Statsioanar bemorining kartasi” qabul bo‘limida to‘ldirilib bemor bilan birligida bo‘limga yuboriladi. Bo‘limda vrach – ordinotor uni to‘ldirib boradi. Statsionar bemorining kartasi muhim tibbiy hujjat hisoblanib, u bir necha muhim vazifalarni - funktsiyalarni bajaradi.

— Karta katta amaliy ahamiyatga ega, u bemor haqidagi asosiy davolash tashhislash axborotlarni o‘zida mujassamlashtiradi, unda kasallikning kechishi dinamikada qayd etib boriladi.

— Karta pedagogik ahamiyatga ega – talabalar, ordinotorlar, izlanuvchilar, tibbiyot hamshiralari o‘qitish uchun tegishli bemor va kasallik tarixi haqidagi ma’lumotlarni olish mumkin.

— Ushbu hujjat katta ilmiy ahamiyatga ega – ko‘pgina klinik – statistik

tadqiqotlardagi xulosalar statsionar bemorining kartasidagi ma'lumotlarga asoslanadi.

— Karta yuridik ahamiyatga ega - sud-tibbiyat ekspertizasi taqozo etilganda ushbu karta vrachni ayblash yoki himoya qilish uchun bosh hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham statsionar bemorining kartasidagi ma'lumotlarni jamlagan holda aniq va lo'nda qilib bayon etish lozim. Bemor statsionardan chiqarilayotganda “Statsionar bemorining kartasi” bilan bo'lim mudiri, davolash ishlari bo'yicha bosh vrach o'rinnbosari yoki bosh vrach tanishib chiqqandan so'ng, uni saqlash uchun muassasaning tibbiyat arxiviga yuboriladi. Bemor statsionardan chiqarilayotganda vrach ordinator – kasallikning kechishi, bemorning statsionardan chiqayotgandagi holatini epikriz – xulosa sifatida yozib, bo'lim mudirining imzosi bilan bemorga topshiradi. Shu bilan birga har – har bir statsionardan chiqayotgan bemor uchun – “Statsionardan chiqayotgan bemor kartasi” to'ldirilib – tibbiyat statistikasi xonasiga tahlil uchun topshiriladi.

Bo'limdagi katta tibbiyat hamshirasiga tajribali va malakali o'rtalik tibbiyat xodimi tayinlanadi. Katta hamshira bo'limdagi o'rtalik va kichik tibbiyat hamshiralarning ishini tashkil qiladi, ish grafigini tuzadi, bo'limni va kasallarni sanitariya holatini kuzatib boradi, dori-darmonlar bilan ta'minlaydi, kasallarni to'g'ri rejim bilan ovqatlanishini tashkil qiladi hamda ro'yxat, hisobotlarga javob beradi.

Tibbiyat hamshirasining ish grafigi - tibbiyat hamshirasining ishini grafik asosida tashkil qilishning bir nechta usullari mavjud:

1.bir smenda bir sutkalik navbatchilik;

2.ikki smena - kunduzgi va tungi smena;

3.uch smenali ya'ni bir postda 5 tibbiyat hamshirasi xizmat qilsa.

Yuqoridagi ikki smenaning kamchiligi quyidagilardan iborat:

-tibbiyat hamshiralari tez charchaydilar, binobarin kasallarni parvarish qilish sifati buziladi.

-tibbiyat hamshirasining bitta kasalga uzluksiz qarab turish holati buziladi.

-davolovchi vrach bilan bevosita mulqotda bo'lolmasligi kasallarni parvarish qilishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan eng yahshi 3 smenali ish grafigi bo'lib, bu holatda barcha kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Kasallarni parvarish qilish yuqorida etib o'tilgandetk ikki va uch bosqichli bo'ladi. Ikki bosqichli parvarish qilish sistemasida kasallar

bilan fakat vrach hamda o‘rta tibbiyot hamshirasi muloqotda bo‘ladilar, uch bosqichli parvarish qilish sistemasida esa kichik tibbiyot xodimlarining ham kasallarni parvarish qilishga ruxsat etiladi. Bunga faqat og‘ir kasallarni parvarish qilishdagina yo‘l qo‘yiladi .

Davolash himoyalash rejimi. Kasallarga kasalxonada davolanish vaqtida optimal sharoitni yaratib berish kasallarni tez tuzalishi uchun barcha chora-tadbirlarni qo‘llamoq zarur, va bu jarayonni amalgalashda hamshiralardan vazifalaridan biridir.

Buning uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

- 1.Kasalxonada ma’lum bir darajada rejalashtirilgan kun bo‘lishi kerak.
- 2.Iloji boricha fiziologik uyquni cho‘zish kerak.
- Z.O‘z vaqtida va sifatli ovqatlanish.
- 4.Palatalarni etarli darajada yoritish, kechasi chiroklar bilan ta’milangan bo‘lishi kerak.
- 5.Dam olish xonalarini tashkil qilish, televizor radiolarni ovozini baland qilmaslik, qulqoni uskuna (naushnik) bilan ta’minalash,yozma adabiyotlar bilan etarli ta’minalash.
- 6.Mehnat bilan davolash usulidan foydalanish.
- 7.Yorug‘lik orqali signalizatsiya usulidan foydalanish.
- 8.Palatalarni vaqtি-vaqtি bilan shamollatib, tozalab turish.
- 9.Ko‘ngilsiz muolajalar vaqtida shirma bilan to‘sib kuyish, har hil muolajalar qilishda ustalikni oshirish.
- 10.Kasallarni palatalarga taqsim qilishda og‘ir yoki engilligiga ahamiyat berish.
- 11.Og‘riq va qo‘rquvni oldini olish.
- 12.Tibbiyot etikasini va deontologiyasiga ahamiyat berish va h.z.

Bosh hamshiraning ish hujjatlari

- 1 Bosh hamshira lavozimi instruksiyasi
- 2 Bosh hamshira ish rejasи
- 3 O‘rta tibbiyot xodimlaridan iborat maslahat kengashi rejasи va qarorlari
- 4 Sektorlar hisoboti
- 5 Bosh hamshira yillik, choraklik va oylik hisobotlari
- 6 Katta hamshiralalar ish rejasи
- 7 Katta hamshiralalar hisoboti
- 8 Tekshiruv natijalari va muhokamasi natijalari
- 9 O‘quv seminarlari ish rejasи
- 10 Malaka oshirish rejasи
- 11 Kirish va chiqish bo‘yicha hujjatlarni ro‘yxatga olish jurnali

- 12 Yuqoridan kelgan xatlar va ularning bajarilishi
- 13 Assosiatsiya hujjatlari
- 14 Yangi kelgan hamshiralalar bilan suhbat jurnali
- 15 Yangiliklar borasida tuzilgan rejalar
- 16 Shikoyatlar bilan olib borilgan muzokaralar jurnali
- 17 Hamshiralik ishiga taalluqli bo‘lgan hujjatlar
- 18 Ilmiy amaliy konferensiyalar ma’ruzalari
- 19 Kichik hamshiralalar bilan ishlash rejasi
- 20 DSENM tekshiruvi natijalari
- 21 SHikoyat va taklif jurnali
- 22 Katta hamshiralalar to‘g‘risida ma’lumot
- 23 Hamshiralarni toifasi to‘g‘risida ma’lumot
- 24 Katta hamshiralalar ta’tilga chiqish jadvali
- 25 SSV buyruq va me’yoriy hujatlari

XIII bob. AKUSHERLIK - GINEKOLOGIK KOMPLEKSNING ISH MAZMUNI

Akusher-ginekologik kompleks ishini to‘g‘ri tashkil etish homilador va tuqqan ayollarga malakali tibbiy yordam ko’rsatishning uzviy bog‘liqligini ta’minalash, onalar va perinatal davri o‘limi, to‘g‘ruk asoratlarini oldini olish hamda ularni kamaytirish, chakaloqlarni hayotining birinchi soatlaridanoq ona sutidan baxramand qilish, tuqqan ayollar salomatligini to‘liq reabilitatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli sog‘lijni saqlashni zamonaviy talablari asosida to‘g‘ruqqa yordam beruvchi tibbiy muassasalar ishinining mazmunini to‘liq tushuntirish ularni bu sohadagi amaliy ko‘nikmalari va nazariy bilimlarini mustaxkamlash hamda bo‘lg‘usi kasbga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad-oliy malakali hamshiralarga O‘zbekiston Respublikasida sog‘lijni saqlashni rivojlantirishning yangi konsepsiysi asosida tug‘ish yoshidagi, homilador hamda tuqqan ayollarga ambulatoriya va statsionar turidagi akusherlik va ginekologiya tibbiy yordamini ko’rsatish samaradorligini ta’minalashda ayollar maslahatxonasi hamda to‘g‘riqsona kompleksi ishini zamonaviy uslubda tashkil etish prinsiplarini o’rgatishdir.

Homilador va tuqqan ayollarga ambulatoriya hamda statsionar turidagi tibbiy yordamni o‘z vaqtida va malakali ko’rsatishni faqat onalar salomatligini saqlabgina qolmasdan, balki sog‘lom farzandlarni dunyoga kelishini ham ta’minalaydi.

Ayollar reproduktiv faoliyatining uzoq davom etishi, oilalar sanitariya madaniyatini ko‘ngildagidek emasligi, qizlarning erta turmushga chiqishi va ketma-ket farzand ko‘rishi, yoshlikdan salomatligi zaif bo‘lgan qizlar sonining hali ham kamaymayotganligi, yuqoridagi noxush holatlarni davom etishiga asos bo’lmoqda. Bundan tashqari, mamlaktning ijtimoiy taraqqiyoti, turmush madaniyati, sanitariya – epidemiologik holati, davolash – profilaktika, sanitariya – gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning samaradorligi, onalar va bolalar, ayniqsa, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi kattaliklari bilan belgilanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tug‘ish yoshida bo‘lgan ayollarning deyarli 65-70% da, homilador ayollarning 75-80% da turli xil ekstragenital kasalliklar mavjud bo‘lib, bu kasalliklar homiladorlik va tug‘ruq jarayonini asoratli o’tishiga va bu o‘z navbatida to‘g‘ilayotgan

go'daklarning turli kasalliklar bilan dunyoga kelishiga, ayollarning tug'ruq asoratlari oqibatida nogironligiga olib kelmoqda.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimida davolash-profilaktika yordami bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan farqlanadi.

Birinchi bosqich – ayollarga homiladorlikgacha bo'lgan davrda tibbiy yordam ko'rsatish, ularni onalikka tayyorlash. Bunda yoshlarni jinsiy masalalar bo'yicha tarbiyalash, yosh oilalarni nikoh gigienasi va abortlar profilaktikasi bo'yicha tibbiy bilimlarini oshirishda ayollar konsultatsiyasi, oila va nikoh konsultatsiyasining roli katta.

Ikkinchi bosqich – ya'ni homilani antenatal davrdagi soglig'ini muhofaza qilishda esa ayollar konsultatsiyasi, akusherlik statsionarlari, bemor homiladorlar uchun tashkil etilgan ixtisoslashgan terapiya bo'limlari, sanatoriyalarning faoliyati muhim o'rinni egallaydi.

Uchinchi bosqich — homilaning tug'ruq davridagi muhofazasi, bu davrda tug'ruqni oqilona qabul qilish asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu davrda maxsus tibbiy yordam, tug'ruqxona komplekslari hamda keng tarmoqli shifoxonalar tomonidan ko'rsatiladi.

Turtinchi bosqich — chaqaloqlar salomatligini saqlash: chakaloqni to'g'ri parvarishlash, ko'krak suti bilan boqish, fiziologik jixatdan rivojlanishi ustidan nazorat o'rnatish, chakaloqlarga tug'ruqxona komplekslarida, bolalar shifoxonalarida davolash-profilaktika yordamini ko'rsatish.

Beshinchi bosqich — maktabgacha bo'lgan davrda bolalar salomatligini saqlash. Bu davrda tibbiyat muassasalarining asosiy vazifalaridan biri - bolalarning to'g'ri tarbiyalanishi, ovqatlanishi, jismoniy rivolanishi, immunobiologik holati ustidan nazorat o'rnatish.

Oltinchi bosqich - maktab yoshidagi bolalarning to'g'ri tarbiyalanishi, ovqatlanishi, jismoniy rivojlanishi ustidan nazorat o'rnatib, o'sib kelayotgan bola organizmning funksional holatiga baho berib boriladi, ma'lum o'zgarishlar aniqlanganda ularni tuzatish bo'yicha tegishli tavsiyalar beriladi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni bosqichma-bosqich uzviy tarzda olib borish mamlakatimizda onalik va bolalikni muxofazalashning bir butun tizimini tashkil etadi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish ikki muhim bo'limdan: akusher-ginekologik va bolalarga davolash-profilaktika yordamini tashkil etishdan iborat.

O'zbekistonda akusherlik-ginekologik yordamni tashkil etishni takomillashtirish, dispanser kuzatishning ilmiy asoslangan shakl va usullarini hamda tug'ruqni qabul qilishni, yangi texnologiyalarini joriy

qilish, antenatal davrdagi yordamning sifatini oshirish va oilada sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadida «Homilani antenatal davrda muhofazalash ayollar konsultatsiyasi ishini tashkil qilish to‘g‘risida» 2001 yil 19-martdagi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 100-sonli buyrug‘i chiqdi.

Akusher-ginekologik yordamni tashkil etish.

Ayollarga akusherlik-ginekologik yordam maxsus ambulatoriya va statsionar tipidagi muassasalarda, ko‘p tarmoqli ixtisoslashgan shifoxonalar bo‘limlari va poliklinikalarda ko‘rsatiladi.

Ayollarga akusher-ginekologik yordam ko‘rsatadigan ambulatoriya tipidagi asosiy muassasalarga ayollar konsultatsiyasi (u tug‘ruq kompleksi, poliklinika, tibbiy sanitariya qismlari tarkibida yoki mustaqil faoliyat ko‘rsatishi mumkin), akusher-ginekologiya ilmiy tadqiqot institutining konsultativ-diagnostika poliklinikasi kiradi. qishloq joylarida esa ushbu yordam turi qishloq vrachlik punktlari, tuman markaziy shifoxonasi, akusherlik kompleksi va viloyat shifoxonalari tomonidan kursatiladi.

Akusher-ginekologik kompleksida ishni tashkil etish yagona printsip asosida olib boriladi. Xizmat ko‘rsatuvchi kontingentga qo‘yilgan vazifalarga, jihozlanganlikga, perinatal yordamni ko‘rsatish ko‘lamiga va tug‘ruq komplekslari (bo‘limlari) ning kadrlar potentsialiga binoan quyidagi strukturada bo‘ladi:

1. Homiladorlik patologiyasi bo‘limi
2. Tug‘ruq zallari
3. Tug‘ruqdan keyingi bo‘lim
4. Operatsion blok
5. Homiladorlar, tug‘uvchi va tug‘ruqdan keyingi ayollar uchun reanimatsiya bo‘limi
6. Ginekologiya bo‘limi
7. Konsultativ poliklinika

Akusherlik - ginekologik statsionar yordamini muassasalar darajasida ko‘rsatish:

1 daraja - umumi soha - homiladorlik fiziologik kechuvchi (perinatal xavf va onalar o‘limi xavfi past bo‘lgan) homilador, tug‘ruqda va tug‘ruqdan keyingi ayollarga malakali akusherlik - ginekologik statsionar yordamini, hamda shoshilinch holatlarda tuman darajasida tibbiy yordamni ko‘rsatadi.

2 daraja - ixtisoslashtirilgan soha - ekstragenital kasalliklari bor, perinatal xavf, hozirgi yoki oldingi homiladorlikda asoratlari bo‘lgan

homilador, tug‘ruqda va tug‘ruqdan keyin ayollarga malakali ixtisoslashtirilgan akusherlik - ginekologik yordamini tuman va viloyat darajasida ko‘rsatadi. O‘zining tarkibida maslahat poliklinikalari tutishi mumkin.

3 daraja - ixtisoslashtirilgan soha - yuqori darajali xavfi bo‘lgan homiladorlar, tug‘ruqda va tug‘ruqdan keyin ayollarga ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan perinatal yordamini respublika darajasida ko‘rsatadi. Mazkur darajadagi muassasa tibbiyot instituti kafedralarining ixtisoslashgan bo‘limlari va maslahat poliklinikasi hisoblanadi. III darajadagi akusherlik - ginekologik statsionarlarda tor mutaxassislikdagi bo‘limlarni joylashtirish mumkin (reproduktologiya, bepushtlik muammolari va boshqa bo‘limlar).

Mijozlarni tug‘ruq kompleksi (bo‘limlari)ga yuborish va joylashtirish (gospitalizatsiya) tartibi.

I darajada (tuman daraja)gi tug‘ruq komplekslari (bo‘limlari)ga homiladorligi fiziologik kechayotgan ayollar va tug‘uvchi ayollar FAP, QVP, ayollar maslahatxonalarini akusherlari hamda shifokorlari tomonidan yuboriladi.

II darajada (shahar va viloyat darajasida)gi tug‘ruq komplekslari (bo‘limlari) ga ekstragenital kasallikkari bor, perinatal xavf, hozirgi yoki oldingi homiladorlikda asoratlari bo‘lgan homiladorlar va tug‘uvchi ayollar maslahat poliklinikasi, ayollar maslahatxonasi shifokorlari, tor yo‘nalishdagi mutaxassislar (kardiolog, nefrolog, endokrinolog, nevrapatolog va boshqalar) hamda I darajadagi statsionar shifokorlari tomonidan yuboriladi.

III darajadagi (respublika) ixtisoslashtirilgan tug‘ruq komplekslari (bo‘limlari) ga dekompensatsiya davridagi og‘ir ekstragenital patologiya, perinatal patologiya, og‘irlashgan akusherlik anamnezi bo‘lgan, homiladorligi asoratli kechayotgan ayollar II darajadagi statsionar, maslahat poliklinikasidagi shifokorlar hamda viloyat sog‘lijni saqlash boshqarmasi mutaxassislari tomonidan yuboriladi. Tug‘ruqdan oldin statsionar davoga muhtoj bo‘lgan homiladorlar ham yotqaziladi.

Homiladorlarni akusherlik statsionarining turli bo‘limlariga gospitalizatsiya qilish masalalari qabul bo‘limi shifokori tomonidan, tungi paytda esa - ma’sul navbatchi shifokor tomonidan hal qilinadi.

Tug‘ruq kompleksi (bo‘limi) tuzilishi. Tug‘ruq kompleksi (bo‘limi) da quyidagi tarkibiy bo‘limlar mavjud: statsionar, davolash - diagnostik bo‘limlar va ma’muriy - xo‘jalik qism. Tug‘ruq kompleksi

(bo‘limi) ning tuzilishi qurilish me’yorlari va davolash - profilaktik muassasalar qoidalari, sanitar - epidemiyaga qarshi rejim - amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga to‘liq javob berishi kerak.

Tug‘ruq kompleksi (bo‘limi) da quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. Kislород о‘tkazilishi;
2. Issiq vasov uq suv o‘tkazilishi;
3. Kanalizatsiya;
4. Statsionar (tashiluvchan) bakteritsid nurlatgichlar yoki kirish - chiqish ventilyasiyasi.

Tug‘ruq statsionari o‘zini tarkibida quyidagi bo‘limlarni tutishi kerak:

- qabul-ko‘rik bo‘limi;
- homiladorlar patologiyasi bo‘limi (akusherlik o‘rinlarining umumiyligini sonidan 30-35%);
- I akusherlik bo‘limi (akusherlik o‘rinlarining umumiyligini sonidan 25-30%);
- II akusherlik bo‘limi (akusherlik o‘rinlarining umumiyligini sonidan 25-30%);
- reanimatsiya va homiladorlar, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi ayollarni intensiv terapiyasi bo‘limi (xonasi);
- chaqaloqlarni reanimatsiyasi va intensiv terapiyasi xonasi;
- ginekologiya bo‘limi (akusherlik kompleksi koykalarining umumiyligini sonidan 15-20%);
- sterilizatsiya qilish va laboratoriya bo‘limlari.

Barcha bo‘limlar kerakli tibbiy apparatura va instrumentlar, kuzatuv anjomlari, tibbiy mebel va jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Tug‘ruq kompleksi (bo‘limi) xodimi har bir bo‘limda grafikga binoan ishlaydi. Ishga qabul 6.06.2000 yildagi №300 buyruqga asosan OIV va HbsAg ga tibbiy ko‘rikdan o‘tgandan so‘ng qo‘yiladi.

Akusherlik bo‘limlarining qabul bloki orqali faqatgina homiladorlar, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi ayollar qabul qilinadi. Ginekologik bemorlar uchun alohida qabul bo‘limi bo‘lishi kerak.

Qabul - ko‘rik bo‘limi Qabul bo‘limida akusher - ginekolog yoki doya ayolni qabul qiladi, ob’ektiv tekshirish o‘tkazadi, murojaat qilgan ayolni umumiyligini baholaydi, tana haroratini o‘lchashni amalgalashadi, teri qoplamlari, halqumni ko‘radi, pulsni hisoblaydi, ikkala qo‘lda arterial bosimni o‘lchaydi. Shifokor yoki doya ayolning almashinuv kartasi bilan tanishib chiqadi. Homilador yoki tug‘uvchi ayolda

atrofdagilar uchun xavf tug‘diruvchi kasallik bo‘lsa Shu zahotiyoy uni alohida xonalarga kuzatish yoki tug‘ruq uchun gospitalizatsiya qilish kerak.

Qabul bo‘limida tekshirilgan zahira donorlarining barcha qon guruhlari ro‘yxati bo‘lishi kerak, shu jumladan rezus - manfiy omili bilan.

Qabul - ko‘rik bo‘limi barcha tegishli asbob - uskunalar va shok yoki eklampsiya vaqtida birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun kerakli bo‘lgan dori vositalari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Almashinuv kartasi HbsAg, RW, OIV/OITS tekshiruv ma’lumotlari bo‘lmasa tekshirish zaruriyati to‘g‘risida ma’lumot berish kerak hamda ushbu infeksiyalarga tekshiruvni ta’minalash kerak.

Qabul bo‘limida bemorning tibbiyot muassasasidagi 11 huquqlari to‘g‘risida (Sog‘lijni saqlash to‘g‘risidagi qonun nomi, uni raqami, sanasi va huquqlar ro‘yxati ko‘rsatilsin), ko‘krak bilan emizish printsiplari va samarali perinatal yordam bo‘yicha ko‘rgazmali jadvallar bo‘lishi kerak.

Ko‘ruv xonasi. Qabul bo‘limining ko‘ruv xonasida: tegishli barcha tibbiy asbob - anjomlar, sanitariya - gigienaga oid materiallar, shuningdek tug‘ruqni shoshilinch tarzda qabul qilish uchun zarur bo‘lgan to‘plam bo‘lishi kerak.

Tug‘ruq tarixi rasmiylashtirilib, akusherlik tekshiruvi amalga oshiriladi: homilani holati, joylashishi, ko‘rinishi aniqlanadi, uning yuragi eshitiladi va 1 daqiqadagi yurak urishi hisoblanadi, qon guruhini, qondagi gemoglobinni aniqlash uchun qon hamda oqsilni aniqlash maqsadida siydik olinadi.

Ob’ektiv tekshiruvning barcha ma’lumotlarini shifokor, ayolni tegishli bo‘limga o‘tkazgandan keyin tug‘ruq tarixiga yozib qoldirishi maqsadga muvofiq. Ayolni qabul bo‘limida turishi iloji boricha qisqartirilishi kerak.

Qabul bo‘limida quyidagi hujjatlar bo‘lishi kerak:

- Qabul qilingan homiladorlar, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi ayollar jurnali;
- Pedikulez preparatlari bilan ishlov berish jurnali;
- Umumiy tozalash grafigi va jurnali.

Homiladorlar patologiyasi bo‘limi. Homiladorlar patologiyasi bo‘limi ham akusherlik ham ekstragenital patologiyasi bo‘lgan homiladorlarga malakali tibbiy yordamni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. Individual holda har bir homilador uchun tug‘ruqqa tayyorgarlik va tug‘ruqni olib borishga yondashuv ishlab chiqiladi.

Somatik patologiyasi bo‘lgan barcha homiladorlar albatta terapevtlar maslahatidan o‘tadi (kerak bo‘lsa tor mutaxassislar bilan).

Homiladorlar patologiyasi bo‘limi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Homiladorlar uchun xonalar;
2. Intensiv terapiya xonasi (xonalari);
3. Manipulyatsiya xonasi;
4. Muolaja xonasi.

Homiladorlar patologiyasi bo‘limining ishlash tartibi somatik statsionarning ishlash tartibiga tenglashtiriladi. Homiladorlar patologiyasi bo‘limini rejalashtirishda homiladorlarni akusherlik kompleksini boshqa bo‘limlarini chetlab o‘tgan holda yotqizilishini hisobga olish kerak.

Akusherlik bo‘limi. Akusherlik bo‘limi tug‘ruq zallaridan (tug‘ruq xonalari), tug‘ruqdan keyingi xonalar, yuqumli kasalliklari bo‘lgan ayollar uchun alohidangan xonalar, operatsiya bloki hamda sanitar xonalaridan tashkil topadi. Akusherlik bo‘limlari koykalar soniga qarab bitta yoki ikkita bo‘lishi mumkin (I akusherlik bo‘limi va II akusherlik bo‘limi). Ikkala bo‘limlar bir xil bo‘lib, tug‘ruqni qabul qilish va tug‘ruqdan keyingi davrni olib borishga mo‘ljallangan. Atrofdagilar uchun xavf tug‘diruvchi yuqumli kasalliklarning klinik belgilari namoyon bo‘lgan ayollar alohida xonalarga joylashtiriladi. Tug‘ruq zalida xodim aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilgan holda ish yuritadi.

Tug‘ruqdan keyingi bo‘lim. Akusherlik bo‘limining tug‘ruqdan keyingi xonalari soni bo‘limdagi o‘rinlar soniga bog‘liq bo‘ladi. Bo‘limda quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- tug‘uvchi ayollarni ginekologik kresloda ko‘rvu xonasi;
- manipulyasiya xonasi;
- vaksinalar saqlanadigan xona (muzlatgich bilan);
- ovqatni oshxonadan tarqatish uchun xona;
- dush xonasi;
- qo‘l yuvish va idishlarni zararsizlantirish uchun qo‘sishma rakovinasi bo‘lgan sanitar xona.

Akusherlik bo‘limlarining barcha tug‘ruqdan keyingi xonalari tug‘ruqdan keyin ayollar va chaqaloqlarni birga turishi printsipi asosida tashkil qilingan bo‘lishi kerak. Kasallik holatlarida chaqaloq ixtisoslashgan yordamning II bosqichiga ya’ni onasi bilan chaqaloqlar patologiyasi bo‘limiga o‘tkaziladi. Psixozi bo‘lgan ayollar yonida

tug‘ruqdan keyin doimiy ravishda yaqinlari yoki tibbiy xodim bo‘lishi lozim.

Operatsion blok Operatsion blok - statsionarning tarkibiy bo‘limi bo‘lib, u jarrohlik amaliyotini amalgaga oshirish uchun akusherlik bo‘limi va bokslangan palatalar uchun alohida mo‘ljallangan muassasalar kompleksidan tashkil topadi. Operatsion blok statsionar bakteritsid nurlatgichlar, ventilyatsion moslamalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Operatsion blokga qo‘yidagilar kiradi:

- Operatsiyadan oldingi xona;
- Operatsiya xonasi;
- Materiallar saqlash xonasi;
- Ishchilarni maxsus kiyimi va ishchi kiyimini qo‘yish xonasi;
- Apparatura va jihozlarni joylashtirish xonasi;
- Katta operatsion hamshira xonasi.

Anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi, Anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi tug‘ruq kompleksi (bo‘limi) tarkibida tashkil etiladi va quyidagilar asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi:

- umumiy anesteziya, operatsiya, tug‘ruq, tashxis qo‘yish va davolash muolajalari paytidagi narkoz va regionar anesteziyani tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha kompleks chora - tadbirlarni amalgaga oshirish;

- kasallik, operativ aralashuv va boshqa sabab tufayli shikastlangan hayotiy muhim a’zolarni faoliyatini tiklash va ushlab turish bo‘yicha kompleks chora - tadbirlarni amalgaga oshirish;

Reanimatsiya va intensiv terapiya xonalarida maxsus uskunalar va davolash - tashxislash apparatlari bo‘lishi kerak, shuningdek organizmning hayotiy zarur vazifalarini sun’iy ravishda ushlab turish va nazorat qilish uchun apparatlar bo‘lishi kerak.

Kesar kesishidan keyin ayollar o‘zlarining chaqaloqlari bilan birga bo‘ladi. Chaqaloqlar onalarning ko‘kragiga operatsion xonani o‘zidayoq qo‘yilishi kerak. Reanimatsiya bo‘limida ruhiy xotirjamlikni ta’minalash, tezroq adaptatsiya qilish va chaqaloq talabiga ko‘ra uni ko‘krak bilan to‘la qimmatli emizishni ta’minalash maqsadida chaqaloqlar imkonini qadar ona bilan birga bo‘ladi. chaqaloqlarni parvarishi hamshiralalar tomonidan amalgaga oshiriladi, Shuningdek yaqinlarini ishtirok etishiga ham ruxsat beriladi.

Tug‘ruqdan keyingi davr asoratsiz kechgan holda tug‘ruqdan keyin ayolni chiqarilishi profilaktik emlashlardan so‘ng amalgaga oshiriladi (4-5 kundan ko‘p emas). Chiqarilishdan oldin ayol tug‘ruqdan keyingi

intervalni 3-4 yil saqlashligi, kutilmagan homiladorlikdan saqlanish usullari bilan obdon tanishtirilishi kerak. Agar homiladorlik va tug‘ruq asoratlar bilan kechgan bo‘lsa chiqarilish muddati individual holda tug‘ruqdan keyin ayolning va homilaning holatiga ko‘ra hal qilinadi. Og‘ir somatik patologiyasi bo‘lgan ayollar tug‘ruqdan keyin zarurat bo‘lgan holda maxsuslashtirilgan yordam ko‘rsatish uchun kerakli bo‘lgan ko‘p profilli shifoxonalar bo‘limiga yotqaziladi.

Xavfsiz onalik maqsadi nafaqat onalar kasalligi va o‘limini oldini olishini anglatadi, balki u onalik va bolalikni muhofaza qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu tushunchaga nafaqat sog‘lom bolani tug‘ilishi va sog‘lom yoshlikni ta’minlab berish, balki onaning tug‘ruqdan oldin, tug‘ruq paytida va tug‘ruqdan keyingi jismoniy, aqliy va ijtimoiy xotirjamligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Tug‘ruq paytida ayolning yonida uning hohishiga ko‘ra turmush o‘rtog‘i yoki yaqin kishilardan birini ishtiroki asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Tug‘ayotgan ayolni hech qachon tug‘ruq paytida yolg‘iz tashlab ketib bo‘lmaydi.

Tug‘ruqdan keyingi davrni olib borish. Tug‘ruqdan keyingi davr - bu bola tug‘ilgandan keyingi davr bo‘lib, bunda tana a’zolari birlamchi holatga qaytib keladi hamda laktatsiya boshlanadi.

Tug‘ruqdan keyingi davr ichida ona va bola parvarishi quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanishi kerak:

- Ona va bolani jismoniy va emotsiyal holatini yahshilashga ko‘maklashish kerak;
- Bolani ko‘krak bilan maqsadli emishiga ko‘maklashish ham hamshiraning vazifalaridan biridir.

Ona va bolani holati doimiy ravishda kuzatib borilishi kerak hamda barcha voqealarni aniq izoh qilib beruvchi yozuv olib borilishi kerak. Tug‘ruqdan keyin ayolga o‘zi va bolasini parvarishini qanday qilinishi qoidalarini hamshiralalar tomonidan o‘rgatilishi kerak.

Chaqaloqlarga tug‘ruq komplekslari (bo‘limlari) da tibbiy yordamni tashkil etish.

- Chaqaloqlarni parvarishini tashkil qilish hududiylashtirish uslubiga rioya qilish bilan amalga oshiriladi;
- Patologiyasi bo‘lgan chiqaloqlarni parvarishi ularning individual holatidan kelib chiqqan holda I va II pog‘onadagi tug‘ruq muassasalari uchun alohida amalga oshiriladi;
- Ona va bolani JSST tavsiyasiga ko‘ra birgalikda bo‘lishiga rioya qilish;

- Shifoxona chaqaloqga yahshi munosabat statusini olish yo‘nalishi bo‘yicha hamma joyda ko‘krak bilan emizish va chaqaloqlarni parvarishining asoslarini kiritish nazarda tutilishi;
- Chaqaloqlarni parvarishini demedikalizatsiya hisobiga qayta ko‘rib chiqish. Neanatolog arsenalidan dalillarga asoslangan tibbiyotning ilmiy nuqtai nazarida isbotlanmagan preparatlarni chiqarib tashlash, bu esa yatrogeniya sonini kamaytirishga yordam beradi.
- Chaqaloqlarni birlamchi reanimatsiyasining standard protokoli JSST tавсиya etgan hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqildi va qabul qilindi;
- Patologiyasi bo‘lgan chaqaloqlarni olib borish bo‘yicha ishlar standartlashtirildi;
- Tug‘ruq muassasalarining strukturasi o‘zgarganligi tufayli chaqaloqlarni parvarishi bo‘limlari ham o‘zgartirildi;
- Tana vazni kam bo‘lgan chaqaloqlarni chiqarilishi/ko‘chirilishi mezonlari qayta ko‘rib chiqildi;
- Chaqaloqlar choralari kompleksi parvarishlash tadbirlariga chaqaloqlarni fenilketonuriyaga (FKU) va tug‘ma gipotireozga (TG) albatta skrining o‘tkazish kiritildi. “Onalar va bolalar skriningi” davlat dasturi tomonidan chaqaloqlarda skrining tekshirishlarni kengaytirish ko‘zda tutilgan;
- Bolalarni emlash kalendarli qayta ko‘rib chiqildi;
- Chaqaloqlarni parvarishlashning ikkinchi bosqichini respublika muassasalarida olib borishni maqsadga muvofiq deb topildi.

Akusherlik - ginekologik kompleksida akusherka va hamshiralari o‘rni. Ayollarni qabul qilish va davolashda vrachgacha xona akusherkasi yordam beradi. U ayollarni vazni va qon bosimi o‘lchaydi. konsultatsiya va analizlar topshirish uchun yo‘llanma beradi, davolash muolajalarini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining 17 – may 2013-yildagi № 161– sonli buyrug‘iga asosan oliy malakali hamshiraning vazifalari:

- ✓ Tashqi jinsiy a’zolarni ko‘zdan kechirish.
- ✓ Qindan surtma olish.
- ✓ Chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lchash.
- ✓ Kontratseptivlardan foydalanish bo‘yicha maslahatlar berish.
- ✓ Ayollar organizmida homiladorlik tufayli ro‘y beradigan fiziologik o‘zgarishlar haqida va xavfli belgilar haqida 3 oyda 1 marta ma’lumot berish.

- ✓ Homiladorlik belgilarini va muddatini aniqlash.
- ✓ Homiladorlik davri gigienasi va uning xususiyatlari.
- ✓ Tuqqan ayolni shaxsiy gigienaga o'rgatish.
- ✓ Chaqaloqlarni erkin yo'rgaklash.
- ✓ Chaqaloqlarni emizishga yordam berish.
- ✓ Shifokor tavsiyasiga ko'ra muolajalarni bajarish.

XIV bob BIRLASHGAN BOLALAR KASALXONASIDA BOLALARGA DAVOLASH-PROFILAKTIKA YORDAMINI TASHKIL ETISH

Bolalar kasalxonasi - mutstaqil davolash - profilaktika muassasasi hisoblanib, u bolalarga tug'ilgandan to 18 yoshga to'lgunga qadar malakali statsionar yordamini ko'rsatadi. Bolalar kasalxonasi tashkiliy formasi, ko'rsatayotgan tibbiy yordamning harakteri va hajmiga qarab, ko'p sohali (tarmoqli) bolalar kasalxonasi, ixtisoslashgan bolalar kasalxonasi, bolalar klinik shifoxonasi, birlashgan bolalar kasalxonasi (poliklinikasi bilan), tuman bolalar kasalxonasi (poliklinikasi bilan), viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazi, viloyat (Respublika) bolalar kasalxonasining vazifasi yuklatilgan bo'lishi mumkin.

Ko'p tarmoqli viloyat bolalar tibbiyat markazining strukturasi (tuzilishi).

- bolalar poliklinikasi yoki poliklinika bo'limi;
- qabul bo'limi;
- ixtisoslashgan bo'limlardagi palatalar (bokslar);
- anesteziologiya - reanimatologiya bo'limi, intensiv davolash (terapiya) palatasi;
- laboratoriya bo'limi: ekspress - laboratoriya, bioximik, klinik laboratoriya;
- muolaja xonasi;
- fizioterapiya xonasi;
- har bir bo'limda bo'lim mudiri va vrach - ordinator xonalari;
- bosh hamshira xonasi va dori - darmonlar saqlash xonasi;
- tibbiyat statistika xonasi;
- qo'shimcha xonalar;
- patologo - anatomiya bo'limi (morg);
- ma'muriy bino (xonalar);

Bolalar kasalxonasining asosiy vazifalari:

- bolalarga davolash - profilaktika xizmatining sifati va samarasini oshirish, bolalar kasalxonasining ish formasi va usullarini taraqqiy ettirish, takomillashtirish;
- joydagи sharoitni inobatga olgan holda bolalar kasalxonasidagi ichki tartib - qoidalarga, tibbiyot etikasi va deontologiya qoidalariga amal qilish;
- kasalxonaga yotqizilgan bolalarning onalariga tibbiy yordam ko'rsatish, bemor bolani parvarish qilish bo'yicha maslahatlar berish;
- ilm - fan va texnika yutuqlariga va ilg'or tajribalarga asoslangan holda amaliyatga profilaktika, diagnostika va davolashning zamonaviy samara forma va usullarini tadbiq etish;
- bolalar kasalliklarini, o'limini kamaytirish, ularning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora - tadbirlarini tashkil etish;
- statsionarda, uydа bolalarga malakali ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish;
- tibbiyot xodimlarining malakasi va amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish; vrachlar orasida konferensiya, seminarlar tashkil etish, vrachlar uyushmasida qatnashish, bemor bolalarning tibbiy kartalarini taqriz qilish, referatlar tuzish, maxsus tibbiyot adabiyotlari bilan shug'ullanish, tibbiyot xodimlari orasida mashg'ulotlar tashkil etish, hamshiralar kengashini tuzish va o'tkazish va boshqalar;
- narkotik moddalar, dori - darmonlarni sarflanishini qayd etish, hisobotini olib borish.
- bemor bolalarni ambulatoriyadan statsionarga yotqizish va davolash ishlarini muvofiqlashtirish;
- kasalxonada sanitariya - gigienik va epidemiyaga qarshi rejimini joriy etish, hamda ichki infeksiyani kirib kelishi va tarqalishining oldini olish;
- tibbiyot xodimlarining mehnati va ish vaqtidan hamda dori - darmon va tibbiyot apparatlaridan oqilona foydalanish;

Yuqoridagi vazifalarga mos holda bolalar kasalxonasi quyidagilarni amalga oshiradi:

- bemor bolalarni parvarish qilish maqsadida statsionarga yotqizilgan onalarni kompleks klinik - laboratoriya usulida tekshirish va davolash;
- kasalliklarni barvaqt aniqlash, bemorlarni poliklinika va uydа

malakali davolash;

- bemor onalarni tekshirish davomida bolalar kasalxonasi bilan kattalar kasalxonasidagi uzviylikni, o‘zaro aloqani mustahkamlash;
- statsionarda bemorlarni tibbiyat fani va texnikasi erishgan eng yangi yutuqlarni qo‘llagan holda davolash;
- boshqa tibbiyat va bolalar muassasalari bilan doimiy aloqada bo‘lish (tug‘ruqxona, mehribonlik uyi, sil va jismoniy tarbiya dispanseri, DSENM va boshqalar);
- vrachlar va o‘rta tibbiyat xodimlarining nazariy bilimlarini va kasbiy mahoratini oshirish;
- sanitariya maorifi ishini olib borish (radio, televidenie, gazetalarda chiqish, devoriy gazetalar tashkil etish);
- kompleks davolash maqsadida parhez ovqatlanish, jismoniy davolash va boshqa;
- davolashning noan’anaviy hamda fizik usullarini keng ko‘lamda qo‘llash;
- bemor bolalar va bolani parvarish qilish uchun yotqizilgan onalar uchun statsionarda qulay sharoit yaratish;
- bolalar bilan pedagogik va tarbiya ishlarini olib borish, davolash-muhofazalash rejimiga amal qilish;
- xizmat ko‘rsatayotgan hududidan qat’iy nazar o‘tkir va bexosdan kasallanish, shikastlanish va zaharlanish hollarida birlamchi hamda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish;
- territorial hudud prinsipi bo‘yicha bolalarga yuqori malakali statsionar va poliklinika xizmatini tashkil etish;
- bemor bolalarni o‘z vaqtida tegishli bo‘limlarga yotqizish va davolash yoki lozim bo‘lganda boshqa tibbiyat mussasasiga o‘tkazish;
- yangi samarali diagnostika va davolash hamda ilg‘or davolash- profilaktika ish usuli va tashkiliy formalarini amaliyotga tadbiq etish;
- olib borilayotgan davolash - profilaktika ishlarining sifati va samaradorligi, davolash natijalarini qayd va tahlil etib borish;
- bemor bolalarga sanatoriya - kurortlarda davolanish uchun yo‘llanmalar berish;
- bemor bolani parvarishlagani uchun kasallik varaqasini berish; Qabulxona bo‘limi bolalarni qabul qilish uchun alohida bokslardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Har bir boksda alohida qabul uchun kerak bo‘lgan barcha tibbiyat asbob - uskunalari etarli bo‘lishi lozim.

Kasalxonaga bemorlar asosan bolalar poliklinikasi yo'llanmasi bilan yotqiziladi. Bundan tashqari, statsionarga shoshilinch tez tibbiy yordam, bemorning to'g'ridan - to'g'ri murojaati, boshqa statsionarning yo'llanmasi bilan yotqizilishi mumkin.

Qabulxonada bemorlar tekshirilib, ularga birlamchi diagnoz qo'yiladi va bolalar tegishli bo'limlarga taqsimlanadi, yuqumli kasallikka chalingan bemorlar bilan muloqotda bo'lgan bolalar izolyasiya qilinadi. Bundan tashqari, qabulxonada shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatiladi; sanitariya yuqumsizlantirishdan o'tkaziladi; bemorlarning kelib - ketishi, harakati qayd etilib boriladi va axborot - informatsiya xizmati bajariladi. Bolalar statsionarga yuborilganda, albatta, «Bolaning rivojlanish tarixi» (sh 112/h) yoki undan to'liq ko'chirilgan yo'llanma bo'lishi lozim. Unda diagnoz, anamnez, kasallikning boshlanishi, kechishi, harakteri, o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari, davolash muolijalari, bolaning yuqumli kasal bilan xastalangan bemor bilan muloqotda bo'lgan - bo'limganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Bokslari bo'limgan qabulxonada albatta 2ta bir - biridan izolyasiya qilingan xonalar bo'lishi lozim. Qabulxonada bolaga kasallik tarixining pasport qismi to'ldirilib, qabulxona jurnaliga barcha ma'lumotdar qayd etiladi. Agar qabul paytida bolada biror - bir yuqumli kasallik aniqlanganda, vrach darhol DSENMGa shoshilinch axborotnoma beradi.

Bolalar kasalxonasida ishlatiladigan zarur tibbiy xujjatlar ro'yxatiga qo'yidagilarni kiritishimiz mumkin:

- 1.Bolalarni rivojlanish tarixi 112/h.
- 2.Bolalarning tibbiy haritasi 026/h.
3. Shoshilinch xabarnoma 058/h.
- 4.Dispanser nazoratiga olinganlarni kontrol haritasi 030/h.
5. Profilaktika emlash hartasi 063/h.
6. Emlashni hisobga olish jurnali 064/h.
- 7.Yuqumli kasalliklarni hisobga olish kitobi 060/h.
8. Dispanser nazoratiga olinganlar haritasi 0131/h.
- 9.Oxirgi tashxislarni qayd etish statistik taloni 025-2/h.
10. Vrachlarni uyg'a chaqirishni yozib borish kitobi 031/h.
- 11.VKK xulosasini yozib borish kitobi 035/h.
12. Vrachlarni uyg'a chaqrishilarni hisobga olish 031/h.
13. Bolalar uchun sanatoriya – kurort haritasi – 076/h.
14. Poliklinika vrachlarining kundaligi – 039/h.
15. Muolajalarni qayd qilish kitobi- 029/h.

16. Mehnatga yaroqsizlik varaqasini qayd qilish kitobi – 036/h.
17. Tug‘ilganligi to‘g‘risida guvohnoma – 103 /h va boshqalar.

Bolalar kasalxonasning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - kasalxonada infeksiya tarqalishining oldini olish bo‘yicha chora - tadbirlar olib borishdan iborat. Bunga har bir bo‘limda bir - biridan ajralgan alohida sektsiyalarni tashkil etish kiradi. Bir yoshgacha bolalar uchun boks xonalari mavjud. Har bir boks bir yoki ikki o‘rinli bo‘lishi mumkin. Bolalarga barcha muolajalar va bolani ovqatlantirish sanitariya - gigiena qoidalariga qattiq rioya etgan holda boksda olib boriladi. Palatalardagi havo harorati 22-24⁰C, havo namligi 60% dan kam bo‘lmasligi kerak. Palatalar har kuni framugalar yordamida kamida 6 marta shamollatib turiladi.

Kasalxonada ichki infeksiyani tarqalishi oldini olish sanitariya - epidemiyaga qarshi kurash uchun bokslar diagnozlari, kasallik boshlangan kun, yoshlari bir xil bo‘lgan bolalar bilan deyarli bir kunda to‘ldiriladi. Bir yilda bir marta dezinfeksiya qilish, yuvish, ta’mirlashlarini olib borish uchun bo‘limlar yopiladi.

Bo‘limning asosiy tarkibiy qismini palata yoki bokslar tashkil etadi. Har bir boksda issiq va sovuq suv, xodimlar qo‘lini va bolani yuvintirish uchun rakovina, bolalar vannasi, bakteriotsid lampa va markazdan kislород bilan ta’minlash uchun olib kelingan jo‘mrak bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, har bir boksda bolalar yoshiga mos holdagi krovatlar, individual foydalanish uchun tumbochka, kuvezlar, tibbiy tarozi, qopqoqli, oyoq bilan ochiladigan paqir bo‘ladi.

Chaqaloqlar va chala tug‘ilgan bolalar bo‘limlari boshqa bo‘limlarda ajratilgan bo‘ladi. Ushbu bo‘lim intensiv davolash xonasi, qon almashtirish - quyish, fizioterapiya va muolaja, onalar xonasi, ko‘krak sutini to‘plash va qayta ishslash hamda yordamchi xonalarda tashkil topgan bo‘ladi.

Bir yoshdan katta bo‘lgan bolalarni yotqiziladigan ixtisoslashgan bo‘limlarga esa, ovqatlanish xonasi, bolalarni o‘ynashi va alohida maktab mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish xonalari bo‘ladi.

Ayrim ixtisoslashgan bo‘limlar bo‘limning profilidan kelib chiqqan holda ko‘shimcha - yordamchi xonalar bo‘ladi. Masalan: revmatologiya bo‘limida funksional diagnostika xonasi, otolaringologiya bo‘limida tovush o‘tkazmaydigan audiometr xonasi, broxoskop, jismoniy davolash xonalari, nevrologiya xonasi - elektr uyqu bilan davolash xonasi.

Barcha bo‘limlarda bolalarni vrach ordinatorlar va hamshiralalar kuzatib kompleks tekshirish davolash ishlarini olib boradilar. Birinchi 3 kunda bolada to‘liq klinik tekshirishlar o‘tkzilgan bo‘lishi lozim. Bola yotqizilgan ikkinchi kunida kechikmasdan, bemor bolani bo‘lim mudiri ko‘rikdan o‘tkazishi lozim.

Vrach - ordinator belgilangan muolajalarni hamshira tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini, bolaning ovqatlanishini, parvarishini, bemor bolani tozaligini nazorat qilib boradi.

Jarrohlik bo‘limi mavjud bo‘lgan kasalxonalari anesteziologiya - reanimatologiya bo‘limi (xonalari), shoshilinch tez tibbiy yordam bo‘limlari tashkil etilmoqda.

Katta yoshdagi bolalar va bemor bola bilan yotqizilgan onalar bilan sanitariya - maorifi ishlarini olib boradi.

Kasalxonada ishni to‘g‘ri tashkil etishda hamshiralari farroshlar ish grafigini to‘g‘ri tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega. Hamshiraning ish garfigi ish vaqtini davomiyligini e’tiborga olgan holda doimiy hamshira tomonidan bemor bolani salomatligini muntazam dinamik kuzatish imkonini beradigan qilib tuzish lozim.

Har kuni vrach - ordinator o‘z ishini o‘tgan kun ichida bola salomatligini o‘zgarishini dinamik o‘rganib, tahlil etishdan, yangi yotqizilgan va og‘ir bemorlarni ko‘zdan kechirishdan boshlaydi. Vrach - ordinator bolani rentgen qilishda, bo‘lim mudiri o‘tkazayotgan ko‘rikda qatnashadi. Bo‘limda bolani kompleks davolashdan tashqari, ular bilan tarbiyaviy ishlar ham olib boriladi.

3 smenali ish grafigi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu grafik ertalab va kunduzgi soatlarda doimo ikkita hamshira birin - ketin ishlashini ta’minlaydi. Ushbu grafikning salbiy tomoni - bir sutkada 3 hamshiraning almashishidir.

Katta hamshira bo‘lim mudirining eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. U bo‘limdagi tartib - qoidalarga rioya qilishga va uni to‘g‘ri tashkil etilganligiga javob beradi va hamshiralari farroshlar ishiga rahbarlik qiladi. Odatda katta hamshira lavozimiga tajribali, barcha muolajalarni mukammal biluvchi, shoshilinch yordamni o‘z vaqtida ko‘rsata oluvchi hamshira tayinlanadi.

Katta hamshira bo‘limni doimiy ravishda etarli miqdordagi dori - darmonlar, bog‘lash materiallari, tibbiy vositalari, qattiq va yumshoq inventarlar bilan uzluksiz ta’milanishiga ham javobgar shaxs hisoblanadi.

Hamshiralar va farroshlarning malakasidan kelib chiqqan holda ularning ish grafigini tuzadi. Katta hamshira bir qator ma'muriy funktsiyalarni ham bajaradi: boshqa bo'limlar bilan aloqada bo'ladi, vrach tavsiyasi bilan konsultatsiyaga boshqa vrachlarni chaqiradi, bemorlarni tekshirish va muolaja qilish tartibi ustidan nazorat olib boradi.

U kunduzgi smena boshlanishidan oldin ishga keladi, bo'limning ahvoli bilan tanishadi, tunda bemorlar tartibini o'zgarganligi, bor dori-darmonlar bilan tanishadi va bo'lim mudiri kelgandan so'ng unga bemorlarning ahvoli haqida axborot beradi hamda bo'lim mudiri bilan bo'limda ko'rvu qiladi.

Bo'lim mudiri bo'limdagi barcha ishlarni tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Bo'lim mudirining shtati va asosiy funktsiyasi sog'liqni saqlash vazirligining tegishli hujjatlarida belgilangan. Odatda 30-60 o'rinali bo'lim uchun mudir lavozimi ko'zda tutilgan. Bo'lim mudirining asosiy vazifalariga ota - onalar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Bolalar kasalxonasini birlamchi hujjatlari.

1. Shifoxonaga kelgan bemorlarni qabul qilgan yoki rad etganligini hisobga olish jurnali 001/h.
2. Kasalxonadan chiqib ketganligini statistik haritasi 066/h.
3. Kasallik tarixi 003/h.
4. Shifoxona, bo'lim yoki kasalliklar tarmog'i bo'yicha o'rinalar soni, bemorlarni kelib ketishini va o'rinalar fondini hisobga olish axbortnomasi 016/h.
5. Bemorlarni kelib ketishi va shifoxonaning o'rinni fondining hisobga olish varaqasi 007/h.
6. Patologo anatomik tadqiqotlar bayoni 013/h.

XV bob. SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIYA XIZMATINI TASHKIL ETISH

Tashqi muhitni sog‘lomlashtirish, qishloq va shaharlarni, aholi turar joylarini, sanoat-korxonalarini sanitariya jihatdan obodonlashtirish, kasbga oid va yuqumli kasalliklarni oldini olish, aholi sanitariya madaniyatini oshirish bo‘yicha O‘zbekistonda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Oxirgi o‘n yilliklarda fan - texnikani rivojlanishi natijasida tashqi muhit, ekologik vaziyat birmuncha buzildi va hozirgi kunda ushbu masala dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ekologiya masalalari kasalliklarni oldini olish, aholiga sog‘lom turmush va ishlab chiqarish sharoitini yaratish, atrof muhitni sog‘lomlashtirish asosiy profilaktik yo‘nalishga muhim masalalardan hisoblanadi.

Profilaktika sog‘lijni saqlashning asosiy prinsipi sifatida, birinchi navbatda yuqumli kasalliklarni ommaviy ravishda tarqalishiga qarshi kurash sifatida namoyon bo‘ladi, keyin esa kasbiy kasalliklarni oldini olishga, sanoat korxonalarida ishlovchi ishchi xizmatchilarni ustivor tibbiy xizmat bilan ta‘minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda esa profilaktika davlat, jamiyat va tibbiy tadbirlar majmuini, yaъni aholini, jamiyatning yashashi uchun eng qulay shart-sharoitlar bilan ta‘minlashga, tibbiy xizmatlar bo‘yicha ehtiyojni to‘la qondirishga qaratilgan. Profilaktika sog‘lijni saqlash tizimini bosh yo‘nalishi hisoblanganligi tufayli, sanitariya-epidemiologiya xizmati va davolash-profilaktika muassasalarining aholi salomatligining muhofazalashga qaratilgan asosiy vazifalarini aniq belgilab olish lozim.

Davolash profilaktika muassasalarning profilaktik faoliyati asosan aholi orasidagi kasalliklarni barvaqt aniqlash, profilaktik ko‘rik o‘tkazish, dispanser nazoratiga olish, emlash, aholini tibbiy-gigienik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan bo‘lmog‘i zarur.

Sanitariya - epidemiologiya xizmati muassasalari aholining turmush sharoitini, mehnat, yashash, ovqatlanish, atrof-muhit

holatini sog‘lomlashtirish, yanada yaxshilash bo‘yicha xalq-xo‘jaligi obъektlarida sanitariya nazoratini olib borish orqali umumjamiyat profilaktikasi bilan shug‘ullanadi.

Profilaktika o‘z ichiga to‘rtta yo‘nalishni kamrab oladi:

- sanitariya-gigienik, yaъni tabiiy, ishlab chiqarish va turmush sharoitini sog‘lomlashtirish xizmati;
- sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- funksional-biologik risk omillarini aniqlash, kamaytirish, yo‘qotish;
- davolash-sog‘lomlashtirish.

Birinchi uch yo‘nalish birlamchi profilaktikaga kirsa, oxirgisi ikkilamchi profilaktikani tashkil etadi.

Tibbiyotda amalga oshiriladigan asosiy birlamchi profilaktik tadbirlarga yuqumli kasalliklarning oldini olish vositasi hisoblangan sanitariya va epidemiologik tadbirlar, profilaktik immunlash va emlash tadbirlari kiradi. Birlamchi profilaktikada turmush tarzini belgilovchi konsepsiya etakchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiyadan kelib, chiqqan holda barcha surunkali kechuvchi noepidemik kasalliklarning (yurak-qon tomir, onkologik, endokrin, asab - ruhiy va boshqa) oldini olish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Chunki, yuqorida qayd etilgan kasalliklarning ko‘pchiligi kelib chiqish jihatidan no gigienik xatti-harakatlar (chekish, spirtli ichimliklar isteъmol qilish, kam harakatchanlik va boshqalar) va turmush tarzining boshqa salbiy tomonlariga bog‘liq.

Profilaktik yo‘nalishni amalga oshirish insonni o‘rab turgan tashqi muhitni, aholining turmush sharoitini, ularning salomatligini mustahkamlash va faol uzoq umr ko‘rishni taъminlash maqsadida sog‘lomlashtirish yotadi. Bu esa o‘z navbatida yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayotiy o‘rniga ega bo‘lgan maъnaviy boy, ahloqan etuk, intellektual rivojlangan, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, ijtimoiy - profilaktik yo‘nalish deganda jismonan baqkuvat va ruhan tetik, har tomonlama kamol topgan sog‘lom avlodni tarbiyalashga, aholi sog‘lig‘ini muhofazalashga qaratilgan eng ko‘lam sharoitni yaratishning, birinchi navbatda kasalliklarni kelib chiqish va taraqqiy etish sabablarini oldini olish va yo‘qotish maqsadida o‘tkaziladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy tadbirlar yig‘indisi tushuniladi.

Sog‘lijni saqlash sohasida olib borayotgan siyosatida profilaktik yo‘nalish asosiy o‘rinni egallaydi, aholi salomatligini saqlash va yaxshilash qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda hamshiralarni roli katta.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari sanitariya - gigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni olib boradi va ushbu tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha davlat sanitariya nazoratini o‘tkazadi.

Ilmiy texnik progress natijasida tibbiyotdagi insonlarning ishlab chiqarish faoliyatidagi, xayotidagi o‘zgarishlar sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- xalq xo‘jaligiga tadbiq etilayotgan barcha yangiliklarga o‘z vaqtida gigienik va ergonomik muhitdan baho berish;
- har xil objevtlardan tashqi muhitga chiqarilayotgan zaharli moddalar, chiqindilarni nazorat qilish usullarini, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan konsentratsiyalar meъyorini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;
- aholining mehnat, turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va tadbirlarni amalga oshirish, ularni ustidan nazorat o‘rnatish.

Aholi salomatligiga taъsir etuvchi kuyidagi tashqi muhit omillarini alohida kayd etish lozim:

- atmosfera havosi, tuprok, aholi yashash joylaridagi suv va suv havzalarining sanitariya holatini nazorat qilish;
- aholini suv, toza ichimlik suvi bilan taъminlash masalalari;
- aholining ovqatlanish sharoitlarini yaxshilash, bunda ikki

- narsani alohida nazarda tutish kerak: ratsional oqilona ovqatlanish: aholining yoshi va salomatligiga mos holdagi to‘la qonli ovqatlanish va sog‘lom ovqat isteъmol qilish, yaъni oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida, saqlash, bir joydan ikkinchi joyga olib borish, sotish jarayonida har xil kimyoviy moddalar va mikroblar bilan zararlanishining oldini olish;
- bolalarning rivojlanishini va tarbiyalanishni ularning yoshiga va organizmiga fiziologik holatiga mos ravishda olib borish;
 - radiatsion fon ustidan nazorat o‘rnatish.

Hozirgi kunda Respublika xalq xo‘jaligini barcha sohalarida olib borilayotgan islohatlar, aholini o‘zgarib borayotgan turmush tarzi, qishloq xo‘jaligi, sanoat va turmushda, insonlar hayot faoliyatida yangi kimyoviy, fizik va biologik vositalarning keng qo‘llanilishi sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari faoliyatini, davlat sanitariya nazoratining hajmini kundan-kunga kengayib borishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталиги тўғрисида”ги qonunida hamda «O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashni isloh qilishning davlat dasturi»da sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari va organlari tizimini, ularning faoliyatini qayta ko‘rish, davlat sanitariya nazoratini samaradorligini oshirish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekistonda sanitariya-epidemiologiya xizmatini tashkil etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat.

1. Sanitariya-epidemiologiya xizmati davlat xarakteriga ega ekanligi.
2. Sanitariya-profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ilmiy va aniq reja asosida olib borish prinsipi, bu esa o‘z navbatida aholi salomatligiga taъsir etuvchi har xil tashqi muhit omillarini muntazam reja asosida o‘rganib borishni, aholining mehnat va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan sanitariya meъyorlari va qoidalarni ishlab chiqishni, hamda

sanitariya-

sog‘lomlashtirish ishlarini epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni reja asosida olib borishni taqozo etadi.

3. Shahar va qishloq joylarida tashkil etilayotgan sanitariya profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni birlik prinsipi. Umumdavlat miqyosida sanitariya-gigenik va epidemiologik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini taъminlash uchun shahar, qishloqlarda sanitariya-epidemioliya xizmati organlarining faoliyat yo‘nalishidagi maqsad va vazifalarining birligiga erilishiladi.
4. Sanitariya-profilaktik va epidemiyaga qarshi faoliyatning boshqaruв birligi prinsipi. Sanitariya-profilaktik va epidemiyaga qarshi olib borilayotgan barcha ishlar bitta DSENMLari orqali boshqariladi va mujassamlashtiriladi.
5. Ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratining birlik prinsipi. Mamlakatimizdagi barcha sanitariya-epidemioliya nazorati markazlarining asosiy funksiyasi ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazorati hisoblanadi va ushbu muassasalar orqali amalga oshiriladi.
6. Barcha tibbiyat muassasalarini sanitariya profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etish prinsipi.

O‘tkazilayotgan tadbirlarda nafaqat sanitariya organlari, balki shu hududda joylashgan barcha tibbiyat muassasalarining ishtirok etishi muhim prinsiplardan biri hisoblanadi. Mahalla vrachi, hamshiralar va mutaxassis vrachlarning, sanitariya vrachlari va epidemiologlar bilan hamkorlikdagi sanitariya va epidemiyaga qarshi sanitariya-epidemioliya muassasalari bilan birgalikdagi reja asosida olib borayotgan ishlari aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiyprofilaktik xizmatning sifati va samaradorligini belgilaydi.

7. Sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari xosil qilishda, oilani sog‘lomlashtirish ishlarini olib borishda aholining ishtiroki. Ushbu

prinsip barcha sanitariya-gigienik va epidemiyaga qarshi o'tkazilayotgan tadbirlar, jamiyat orasidagi sog'lomlashtirish va profilaktik choralarni amalga oshirishda aholining bevosita ishtirokini nazarda tutadi. Aholining ishtiroki turli xil bo'lib: tibbiyot muassasalaridagi shifoxona kengashi, «Qizil xoj» va «Qizil yarimoy» jamiyatlari, «"Sog'lom avlod" xayriya jamg'armasi, «"EKOSAN» o'tkazayotgan tadbirlarni aholi ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xuddi shunday sanoat korxonalari, shirkatlar uyushmasi, mahalla qo'mitalarida sanitariya faollari, hokimiyatlar qoshida, xalq deputatlari kengashlari, sog'lijni saqlash qo'mitalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Aholiga sanitariya epidemiologiya xizmatlarini tashkil etishning asosiy prinsiplari uzoq yillar davomida sog'lijni saqlash tizimi bilan birgalikda rivojlanib taraqqiy etib kelmokda.

Davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tegishli tashkilotlar bilan birgalikda sanitariya - epidemiologiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlash va Respublika xududiga karantin va o'ta xavfli infeksiyalarni kirib kelishini va tarqalishini oldini olish;
- xalq xo'jaligi obektlarini, texnologik qurilmalar va uskunalar hamda transport vositalarini rejalashtirish, joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish paytida aholi salomatligiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan tashqi muhit omillarining oldini olish bo'yicha ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini o'tkazish;
- aholining sanitariya madaniyatini oshirish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish.

Yuqorida keltirilganlarga qo'shimcha Respublika DSENM quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mamlakatimizda orttirilgan tajriba va dunyodagi eng ilg'or yutuqlardan foydalangan holda sanitariya-gigiena, epidemiologiya va yuqumli kasalliklar profilaktikasi sohalari bo'yicha tibbiyot fanini taraqqiy ettirishning strategik va istiqbol rejalarini tuzish, fan-texnika sohasidagi yutuqlarni va ilg'or tajribalarni amaliyotga tadbiq etish.

Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati bo'yicha normativlar va standartlar tizimini yaratish.

DSENM yuqorida keltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Davlat sanitariya nazorati va sanitariya-profilaktik, epidemiyaga qarshi hamda dezinfeksiya ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi.

- Eksperimental va boshqa laboratoriya tadqiqot usullari yordamida bakteriologik, virusologik, radiologik, toksiko - gigienik ekspertiza o'tkazadi.
- Favqulodda epidemiyaga qarshi Komissiyada (CHPK), Kollegiyada, Sanitariya-epidemiologiya Kengashida (Respublika DSENM) eshitish uchun materiallar tayyorlaydi va qabul qilingan qarorlarni bajarilishini nazorat qiladi.
- Davlat sanitariya nazoratini olib borish bo'yicha ilg'or ish tajribalarini, shu jumladan, chet el tajribalarini umumlashtiradi va hayotga tadbiq etadi.
- Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga avtomatlashtirilgan boshqaruvin tizimini tadbiq etish, sanitariya-epidemiologiya nazoratida avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish, samaradorligini oshirish bo'yicha mezonlar ishlab chiqish, tegishli ilmiy-tadqiqot markazlarini, sanitariya axborot tizimini yaratishga jalb etish.
- Aholini sanitariya-epidemiologiya xotirjamligini ta'minlashning yangi shakl va usullarini takomillashtirish, DSENMLar laboratoriyalari tomonidan metrologik va standart talablarga rioya etilishini nazorat etish.
- Laboratoriyalarni akkreditatsiya va attestatsiyaga tayyorlash hamda o'tkazish.
- Respublika hududiga olib kelinayotgan, olib ketilayotgan mahsulotlarni tekshirish va ularga gigienik sertifikatlar berish.
- Sanitariya epidemiologiya xizmati muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.
- Demografik ko'rsatkichlar, muhim noepidemik, yuqumli, parazitar, kasbga oid kasalliklarni, ovqatdan zaharlanishlar haqidagi ma'lumotlarga asoslangan holda Respublikaning radiatsion holati va

sanitariya-epidemiologik monitoringini ishlab chiqish; tashqi muhitdagi xavfli antropogen omillarga hamda aholi salomatligiga baho berish.

- O‘zResSSV Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati Bosh boshqarmasini tegishli axborotlar bilan taъminlash.
- Xalq xo‘jaligi obъektlarida salomatlikka salbiy taъsir etuvchi xavfli texnogen omillarni kamaytirish bo‘yicha sanitariya-profilaktik hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar ustidan nazorat o‘rnatish.
- Aholini sanoat, avtomobil transporti, havo, temir yo‘l, sanoat korxonalarida yuz berishi mumkin bo‘lgan tabiiy va boshqa ofatlardan himoya qilish bo‘yicha profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etadi hamda o‘tkazadi.
- Muntazam ravishda sanitariya-profilaktika muassasalari xodimlarining malakasini oshirish.
- Respublika tibbiyot muassasalarini vaksina, bakpreparatlar, diagnostikumlar, ozuqa mahsulotlari bilan taъminlash bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi.
- Respublikani virusli, bakterial preparatlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganadi va ularni markazlashgan hamda byudjet mablag‘laridan qondirish maqsadida — talabnomalar tuzadi, vakolatnomalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida esa tashqi va gumanitar yordamlardan foydalanadi.
- Respublika DSENМ O‘zbekiston Respublikasiga keltirilayotgan vaksinalar, faglar, diagnostik, virusologik va bakterial preparatlarni ro‘yxatga oladi va sertifikatsiyalar beradi.
- Tabiiy ofatlar, avariylar va boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noqulay epidemiologik vaziyatlarda vaksina, fag, virusli va bakterial preparatlar kimyoviy reaktivlar taъminlash maqsadida ularning zahiralarini yaratadi. Davlat tomonidan taъminlanayotgan virusli va bakterial preparatlarni sifatini kafolatlaydi, ularni saqlashda va trasportirovka qilishda kerakli "sovuq" harorat bo‘lishligini taъminlaydi.
- Aholining sanitariya- epidemiologiya masalalari bo‘yicha xatlar va shikoyatlarini ko‘rib chiqadi.

- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidan kelib chiqkan holda boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilganlarga qo‘sishimcha ravishda Respublika DSENM quyidagi funksiyalarni bajaradi.

- Tegishli ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda sanitariya epidemiologiya sohasiga tegishli qonun loyihalarini, sanitariya qoida va meъyorlarini, meъyoriy aktlarni, uslubiy qo‘llanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqadi hamda amaliyatga tadbiq etadi;
- Xalq xo‘jaligi obektlarining sanitariya-gigienik holatini nazorat qilish va baholashning mezonlarini ishlab chiqadi, Davlat buyurtmasi asosida Respublikaga olib kelinayotgan vaksina, fag, diagnostik, virusologik va bakterial preparatlarni sifatini aniqlash bo‘yicha tekshirishlar olib boradi, ro‘yxatdan o‘tkazadi va sertifikat beradi.

TEST SAVOLLARI

1. Statistik tadqiqotning 3 - bosqichiga nimalar kiradi:
 - A. hisobot shakllarini tuzish
 - B. jadvallarning maketlarini tuzish
 - C. xisobga oluvchi xujjatlarni to‘ldirish
 - D. yig‘ilgan ma’lumotlarni kayta ishlash va jamlash
 - E. tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish
2. O‘rtacha miqdorlarni laxza usulida xisoblash qachon qo‘llaniladi:
 - A. kuzatuvlar soni katta bo‘lganda xisoblashlarni osonlashtirish uchun
 - B. variantalar bir necha marta uchraganda
 - C. variantalar 1 marta uchraganda
 - D. o‘rganilayotgan belgilar 30 dan kup marta uchraganda
 - E. o‘rganilayotgan belgilar 30 dan kam marta uchraganda
3. General majmuada ko‘rsatkich kattaligi tebranishi mumkin bo‘lgan ehtimolli og‘ishlarning chegaralari qanday nomlanadi:
 - A. chekka og‘ishlar
 - B. ehtimolli og‘ishlar
 - C. ishonchlilik chegaralari
 - D. ishonchli og‘ishlar
 - E. chekka ko‘rsatkichlar
4. Hodisani vaqtida uzgarishini ko‘rsatuvchi, bir turdagि taqqoslanayotgan kattaliklardan iborat qator qanday nomlanadi:
 - A. vaqtli
 - B. murakkab
 - C. oddiy
 - D. laxzalik
 - E. dinamik
5. Bir yilda tug‘ilgan bolalar sonini aholining yillik o‘rtacha soniga nisbati nimani ifodalaydi:

- A. o‘rtacha yillik o‘sish ko‘rsatkichi
- B. tug‘ilish ko‘rsatkichi
- C. tabiiy o‘sish ko‘rsatkichi
- D. serpushtlik ko‘rsatkichi
- E. tabiiy harakat ko‘rsatkichi

7. Birinchi marta aniqlangan va ro‘yxatga olingan kasalliklar sonini aholining yillik o‘rtacha soniga nisbati nimani ifodalaydi:

- A. shikastlanish ko‘rsatkichi
- B. umumiylashtirish ko‘rsatkichi
- C. birlamchi kasallanish ko‘rsatkichi
- D. aniqlanish ko‘rsatkichi
- E. o‘rtacha yillik kasallanish ko‘rsatkichi

8. O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologiya xotirjamligi to‘g‘risidagi” Qonuni qachon qabul qilingan:

- A. 15 iyun 2015 yil
- B. 15 iyul 2015 yil
- C. 15 iyul 2014 yil
- D. 15 iyun 2014 yil
- E. 15 avgust 2015 yil

9. Homilador ayolning tug‘ruqsona almashuv kartasi raqamini ko‘rsating:

- A. f.111/h
- B. f.113/h
- C. f.112/h
- D. f.118/h
- E. f.119/h

10. Homiladorlarni xisobga olganda qanday xujjat to‘ldiriladi:

- A. f.121/h
- B. f.110/h
- C. f.111/h
- D. f.131/h
- E. f.113/h

11. Homiladorlarga qachon almashuv kartasi beriladi:

- A. 38-40 haftadan keyin

- B. 28-30 haftadan keyin
 - C. 35-36 haftadan keyin
 - D. 30-31 haftadan keyin
 - E. 32-34 haftadan keyin
12. Oilaviy poliklinikasining asosiy ish usuli qanday:
- A. hududiy
 - B. uchastka
 - C. dispanser
 - D. yagona
 - E. brigada
13. Oilaviy poliklinikasi qanday tizim bo'yicha ishlaydi:
- A. dispanser tizimi bo'yicha
 - B. makropediatr tizimi bo'yicha
 - C. mikropediatr tizimi bo'yicha
 - D. UASH tizimi bo'yicha
 - E. uchastka tizimi bo'yicha
14. Dispanser nazoratida turuvchi bolalarga qanday xujjat rasmiylashtiriladi:
- A. f.30/h
 - B. f.131/h
 - C. f.031/h
 - D. f.025/h
 - E. f.028/h
17. Bemorni gospitalizatsiya kilganda qanday xujjat to'ldiriladi:
- A. 002/h
 - B. 003/h
 - C. 004/h
 - D. 006/h
 - E. 001/h
18. Demografiya bu nima:
- A. aholi statikasi
 - B. aholini jamiyatda rivojlanishi xaqidagi fan
 - C. jismoniy rivojlanganlik va umrning davomiyligini uргanadi

D. aholi dinamikasi va tarkibida ruy berayotgan xodisalar qonuniyatlarini o‘rganadi

19. Sanitariya vrachi har kuni nimani amalga oshiradi:

- A. davolash ishi
- B. vrachlarni tekshiradi
- C. laborator tekshiradi
- D. sanitariya nazorati
- E. sanitariya-oqartuv ishi

20. Sanitariya nazoratining qanday turlarini bilasiz:

- A. joriy va laxzalik
- B. joriy va ogohlantiruvchi
- C. dastlabki va maqsadli
- D. dastlabki va davriy
- E. joriy va maqsadli

21. Quyidagilardan qaysi biri kuzatuv birligini ifodalaydi:

- A. statistik tadqiqotning o‘xhash va farq kiluvchi belgilarga ega bo‘lgan birlamchi elementi
- B. farq kiluvchi belgilarga ega bo‘lgan birlamchi element
- C. qayd kilinishi zarur bo‘lgan kompleks belgilarni ifodalovchi elementlar
- D. kuzatuv majmuasini ifodalovchi elementlar
- E. barchasi to‘g‘ri

22. Kasalxonalar qanday belgilari bo‘yicha tasniflanadi:

- A. yo‘nalishi, aholi soni va katnovlar bo‘yicha
- B. kuvvati, vrachlar soni bo‘yicha
- C. turi, yo‘nalishi, kategoriysi bo‘yicha
- D. kuvvati, boshqa tibbiyot muassasalarining mavjudligi bo‘yicha
- E. tarkalishi va yo‘nalishi bo‘yicha

23. Ixtisosligi bo‘yicha statsionarlar qanday bo‘linadi:

- A. tuman, qishloq, fizioterapeutik, qo‘shilgan
- B. qo‘shilgan, viloyat, ixtisoslashgan, dispanserlar
- C. shahar, qo‘shilgan, qishloq, fizioterapeutik
- D. ko‘p yo‘nalishli, ixtisoslashgan kasalxonalar va dispanserlar
- E. viloyat, o‘lka, uchastka

24. Oilaviy poliklinika va statsionar o‘rtasida ma’lumot almashish quyidagicha amalga oshiriladi:

- A. ambulatoriya kartasidan ko‘chirma statsionarga yuboriladi, kasallik tarixidan ko‘chirma esa poliklinikaga yuboriladi
- B. ambulatoriya kartasidan ko‘chirma dispanserga yuboriladi, kasallik tarixidan ko‘chirma esa poliklinikaga yuboriladi
- C. ambulator karta dispanserga beriladi, so‘ngra kasallik tarixidan ko‘chirma bilan ortga kaytariladi
- D. kasallik tarixinining бошlangich qismi statsionarda to‘ldiriladi
- E. barchasi noto‘g‘ri

25. Aholining ambulatoriya-poliklinika xizmati bilan ta’minlanganligi nima bilan ifodalanadi:

- A. 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan vrachlik muassasalari soni bilan
- B. 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan vrachlik lavozimlari soni bilan
- C. vrachning uyga qiladigan katnovi bilan
- D. kasalxona o‘rnlari bilan t’minlanganlik bilan
- E. 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rta tibbiyot xodimlari bilan

27. Salomatlik markazining tarkibi qanday.:

- A. tashqiliy va tavsiya bo‘limlari
- B. tashqiliy-uslubiy bo‘lim, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot kiluvchi bo‘lim, taxririyat, bosmaxona, tavsiyalar bo‘limi
- C. sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot kiluvchi bo‘lim, taxririyat
- D. nashr etish bo‘limi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot kiluvchi bo‘lim
- E. bosmaxona, uslubiy bo‘lim

28. Aholi kasalanishini o‘rganishning qanday usullari mavjud:

- A. o‘lim sabablariga ko‘ra
- B. murojaatlar bo‘yicha
- C. tibbiy ko‘rik ma’lumotlari bo‘yicha
- D. murojaatlar bo‘yicha, tibbiy ko‘rik ma’lumotlari bo‘yicha, o‘lim sabablariga ko‘ra, so‘rov va anketa ma’lumotlari bo‘yicha
- E. so‘rov va anketa ma’lumotlari bo‘yicha

30. Tibbiyotda aholining kasallanishi nima maqsadda o‘rganiladi:

- A. aholi salomatligini o‘rganish va davolash-profilaktika muassasalari (DPM) faoliyatini taxlil qilish uchun
- B. kasalliklar sonini aniqlash uchun
- C. kasallanishlar sonini aniqlash uchun
- D. utkir kasalliklarni aniqlash uchun
- E. o‘rganish axamiyatga ega emas

31. Ushbu ko‘rsatkichni nomini ayting:

mehnat qobiliyatini yo‘qotmagan ishchilar soni $\times 100$ / ishchilarning yillik o‘rtacha soni

- A. kasalliklar tarkibi
- B. kasal shaxslar
- C. noma’lum kasalliklar
- D. ma’lum shaxslar
- E. salomatlik indeksi

32. Yuqumli kasalliklar qaysi xujjat asosida o‘rganiladi:

- A. f. 061/h
- B. f. 058/h
- C. f. 066/h
- D. f. 055/h
- E. f. 060/h

33. Birlamchi kasallanish qaysi xujjat asosida o‘rganiladi:

- A. f. 058/x
- B. f. 060/x
- C. f. 025-2/x
- D. f. 069/x
- E. f. 038/x

34. Dispanser nazorati kartasi (030/u) kim tomonidan to‘ldiriladi:

- A. bosh vrach tomonidan
- B. uchastka hamshirasi tomonidan
- C. dispanser nazoratini olib boruvchi har bir mutaxassis tomonidan
- D. katta hamshira tomonidan
- E. tibbiy statist tomonidan.

35. Umumiylashtirilgan kasallanish ko‘rsatkichi formulasini ko‘rsating:

- A. ushbu yilda birinchi marta aniqlangan kasalliklar soni $\times 1000$

- aholining yillik o‘rtacha soni
- B. ushbu yilda qayd etilgan barcha kasalliklar soni x 1000
aholining yillik o‘rtacha soni
- C. tibbiy ko‘riklarda aniqlangan asalliklar soni x 1000
tibbiy ko‘rikdan utganlar soni
- D. mehnat qobiliyatini yo‘qotmagan ishchilar soni x 100
ishchilarning yillik o‘rtacha soni
- F. bu o‘lim sabablari bo‘yicha aniklangan kasallanish
37. Yuqumli kasallik aniqlanganda f.058/u xujjat qaysi muassasaga yuboriladi:
- A. DSENM
 - B. sog‘liqni saqlash bo‘limiga
 - C. poliklinikaga
 - D. shahar kasalxonasiga
 - E. xech kaerga
38. Tug‘ilganlar haqidagi ma’lumotlar qaerga yuboriladi:
- A. tug‘ruqxona
 - B. fuqarolik xolatlari dalolatnomalarini yozish (FXDYO) organlari bo‘limlari
 - C. tuman kasalxonasi
 - D. militsiya
 - E. DSENM larga
39. Tabiiy o‘sish ko‘rsatkichi nimani ifodalaydi:
- A. aholi tarkibini
 - B. aholi sonini
 - C. aholi miqdorini
 - D. aholini o‘sishini
 - E. aholini tugilishini
40. Tibbiy demografiya xaqidagi ma’lumotlar nima uchun zarur:
- A. aholi salomatligini tavsiflash uchun
 - B. davolash chora-tadbirlarini rejorashtirish uchun
 - C. aholi salomatligini tavsiflash, davolash chora-tadbirlarini rejorashtirish uchun
 - D. aholi tarkibini taxlil etish uchun

- E. aholi sonini aniqlash uchun
41. Aholining tarkibi tushunchasiga nima kiradi:
- A. aholining jinsi va yoshi bo‘yicha tarkibi
 - B. aholining jinsi, yoshi,millati, kasbi bo‘yicha tarkibi
 - C. aholining millati bo‘yicha tarkibi
 - D. aholining ijtimoiy xolati bo‘yicha tarkibi
 - E. aholining kasbi bo‘yicha tarkibi
42. Aholi harakatining qanday asosiy turlari mavjud:
- A. sun’iy va tabiiy
 - B. emigratsiya va urbanizatsiya
 - C. ixtiyoriy va majburiy
 - D. mexanik va tabiiy
 - E. barchasi noto‘g‘ri
43. Aholining mexanik harakati deganda imani tushunasiz:
- A. aholini xududlar bo‘yicha harakatlanishi
 - B. tug‘ilish tufayli aholining kupayishi
 - C. o‘lim tufayli aholining kamayishi
 - D. aholining harakatlana olmasligi
 - E. aholining o‘zgarishi
44. Umumiy o‘lim nima:
- A. o‘lganlarning umumiy soni
 - B. 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan bir yilda o‘lganlar soni
 - C. barcha o‘lganlarni tug‘ilganlarga nisbati
 - D. o‘lganlarning mutloq soni
 - E. 100 aholiga to‘g‘ri keladigan ulganlar soni
45. Statistik tadqiqot dasturiga nimalar taaluqli bo‘ladi:
- A. tadqiqotni tashqil etish, moliyalashtirish
 - B. statistik blankni, kartani ishlab chiqish
 - C. tadqiqot bosqichlarini vaqt bo‘yicha belgilash
 - D. statistik ma’lumotni yig‘ish
 - E. kuzatuv turlarini aniqlash
46. Aholi salomatligi nima (Jaxon Sogliqni Saqlash Tashkiloti (JSST) bo‘yicha):

- A. bu u yoki bu kasalliklarning bo‘lmasligi va mustakil ravishda jismoniy mehnatni bajara olishdir
- B. bu jismoniy nuksonlarning bo‘lmaslik va anatomik tulakonlik xolatidir
- C. bu nafakat kasallik yoki jismoniy nuksonlarning bo‘lmasligi, balki to‘liq jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy xotirjamlik xolatidir
- D. bu insonning to‘liq sog‘lom bo‘lishi, kasalliklar va ruxiy buzilishlarning bo‘lmasligi
- E. bu jismoniy mehnatni bajara olish va to‘liq jismoniy, moddiy va ruxiy xotirjamlik xolatidir

47. Qanday omillar aholi salomatligiga ta’sir qiladi:

- A. aholining yosh-jins bo‘yicha tarkibi, kasallanish, o‘lim, nikoxdagি serpushtlik darajasi
- B. tibbiy yordam darajasi, tug‘ilish, o‘lim, jismoniy rivojlanish
- C. ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, aholining soni
- D. ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, iklim-geografik va tibbiy yordamning darajasi
- E. migratsiya, demografiya, jaroxatlanish, serpushtlik, tug‘ilish darajasi

48. Nima uchun kasalliklarning Xalqaro tasnifi zarur:

- A. aholi salomatlik xolatini o‘rganish uchun
- B. butun jaxonda statistik xisobga olish va xisobot ishlarini o‘tkazish uchun
- C. aholini jismoniy rivojlanishini o‘rganish uchun
- D. tibbiy xisobga olishni standartlashtirish uchun
- E. aholi nogironligini o‘rganish uchun anketa va kartalar tuzish uchun.

49. Muhitda hodisani takrorlanishi qaysi ko‘rsatkichni belgilaydi:

- A. ekstensiv
- B. intensiv
- C. ko‘rgazmali
- D. aloqadorlik
- E. mutloq o‘sish

50. Aloqadorlik ko‘rsatkichi - bu:

A. o‘rganilayotgan hodisani muhitga nisbatiga, ammo bir – biriga boglik emas

B. muhit bilan boglik

C. ko‘rsatkichlar har-xil muhitda bo‘lishi

D. hammasi nato‘g‘ri

E. hammasi to‘g‘ri

51. Kuzatuvlar turi:

A. takroriy va hodisali

B. yoppasiga va bir vaqt o`zida

C. bir vaqt o`zida va joriy

D. joriy va yoppasiga

E. tanlab olingan va general

52. Hajmi bo‘yicha kuzatuvlar turi:

A. yoppasiga va bir vaqtuzida

B. tanlab olingan va general

C. yoppasiga va bir vaqtuzida

D. takroriy va hodisali

E. joriy va yoppasiga

53. Kuzatuvlar soni oshishi bilan uning xatosi (m).:

A. oshadi

B. kamayadi

C. o‘zgarmaydi

D. tebranadi

E. davriy ravishda o‘zgaradi

54. Variatsion qator bu:

A. miqdor belgilarining qatori

B. sifatli belgilarining qatori

C. hodisani vaqt mobaynida o‘zgarishini ko`rsatadigan qator

D. juft belgilar qatori

E. o‘rganilayotgan belgining son darajalarini qatori deb xisoblanadi

55. Diagrammalar turlari:

A. kartogrammalar

B. chiziqli va radial

C. kartodiagrammalar

- D. figurali
 - E. yuzali
58. Birlamchi profilaktika o‘z oldiga qanday maqsadni qo‘yadi:
- A. kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tibbiy va notibbiy kompleks tadbirlar majmuidir
 - B. salomatlikga tasir qiluvchi sabablarni va ularning darajasini aniqlash
 - C. bemor odamlarning salomatligini qayta tiklashda global chora tadbirlarni o‘tkazish
 - D. kasalliklarning avj olib ketishiga sabab bo‘ladigan omillarni yo‘qotish
 - E. bemorlar reabilitatsiyasini o‘tkazish
59. Ikkilamchi profilaktika o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘yadi:
- A. kasalliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablarni va kasallik chaqiruvchi sharoitlarni bartaraf qilish
 - B. kasalliklarning kelgusida rivojlanib ketishining oldini olish
 - C. bemorlarning reabilitaiyasini amalga oshirish.
 - D. birlamchi profilaktika chora tadbirlar tahlili.
 - E. birlamchi profilaktika chora tadbirlar etishmovchiligi tahlili.
60. Uchlamchi profilaktika oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadi:
- A. kasalliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablarini va sharoitlarni bartaraf etish
 - B. kasallik rivojlanib ketishining oldini olish
 - C. kasbiy statusni tiklashga, nogironlik va erta o‘limning oldini olishga qaratilgan tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy chora tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi kompleksdir
 - D. birlamchi profilaktika tadbirlarini tahlil qilish
 - E. birlamchi profilaktika chora tadbirlar etishmovchiligi tahlili
61. Dispaserizatsiyaning maqsadi:
- A. sog‘lom shaxslar salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish, mehnat qobiliyatini yo‘qotishning oldini olish va kasalliklarni dastlabki bosqichda aniqlash

- B. biriktirilgan aholi salomatligini muhofazalash, alohida olingen patsient yoki barcha oila azolarini, eng ko‘p uchraydigan kasalliklarni davolash.
- C. tegishli standartlarga mos holda xizmat ko‘rsatayotgan hudud aholisiga shoshilinch statsionargacha bo‘lgan tez yordam ko‘rsatish
- D. xizmat ko‘rsatayotgan aholi orasida shikastlanishlar,nogironlik, o‘limni kamaytirish bo‘yicha profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqish.
- E. sanitariya va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarni tashqil etish va o‘tkazish.

QO’LLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatkulov B.M. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshkarish. //darslik, Toshkent, 2013. 573b.
2. T.I.Iskandarov, B.Mamatkulov Sanitariya-statistik va ijtimoiy-gigienik tadqiqot uslublari. //darslik,Toshkent, 1994. – 200 b.
3. B.M.Mamatkulov, B.A.Umarov Uzbekiston Respublikasida sanitariya epidemiologiya xizmatini tashkil etish asoslari. //dartlik, Toshkent, 2011. 211b.
4. B.Mamatqulov. Tibbiyot statistikasi (Biostatistika) asoslari //darslik, Toshkent, 2005. -132 b.
5. H.I.Shukurov, S.Q.Qanotov. Jamoada hamshiralik ishi. Toshkent - 2010. – 248b.
6. K.U. Zakirova, D.U. Toxtamatova Hamshiralik ishi asoslari. Toshkent – 2010. – 78b.
7. Muminov H. Sog’lom turmush tarsi – salomatlik ilmi va amali. T. 2006. 394b.
8. Gadaev A., Salihodjaeva R.K., Rahmonov N.Sh. Hamshiralalar faoliyatida profilaktika. T. 2012.-160b.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
Qisqartirilgan so’zlar	5
I bob. Jamoada hamshiralik ishi– fan sifatida o’qitilish asoslari.....	6
1.2. «Jamoada hamshiralik ishi» haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari	10
II - bob. Chet davlatlarda sog‘liqni saqlash va xalqaro xamkorlik asoslari.....	12
2.1. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va strukturasi	12
2.2. Sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish	16
III – bob: O’zbekiston respublikasida sog‘liqni saqlashni tashkil etish asoslari	